

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA
VAZIRLIGI HUZURIDAGI BOJXONA QO'MITASI**

BOJXONA INSTITUTI



A.T.Achilov

**BOJXONA SOHASIDAGI HUQUQBUZARLIK LARGA
QARSHI KURASH NAZARIYASI VA AMALIYOTI**

O'QUV QO'LLANMA

Toshkent–2023

Achilov A.T. Bojxona sohasidagi huquqbazarliklarga qarshi kurash nazariyasi va amaliyoti. // O'quv qo'llanma. – T.: Bojxona instituti, 2023. – 214 b.

Taqrizchilar:

F.Toxirov

- O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Jinoiy huquqiy fanlar” kafedrasi professori, yuridik fanlari doktori, professor

M.Do'stov

- Bojxona qo'mitasining Bojxona instituti Maxsus-huquqiy fanlar kafedrasi boshlig'i, dotsent

Mazkur qo'llanmada bojxona organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyati yo'nalishlari, bojxona sohasidagi huquqbazarliklar tavsifi, xususan, bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbazarliklar, ular bo'yicha ish yuritish va ko'rib chiqish hamda bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyati nazariyasi va amaliyoti, shuningdek sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar talablari yoritilgan.

Bojxona qo'mitasining Bojxona instituti “Soliq va bojxona huquqi” yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan magistratura tinglovchilari va bojxona organlarining amaliyotchi xodimlari uchun mo'ljallangan.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagи 233-sон buyrug'i bilan oliy o'quv yurtlarining 70420107 – “Soliq va bojxona huquqi” ta'lim yo'nalishi talabalariga o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9943-7617-2-8

© Bojxona instituti, 2023-y.

MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI.....	5
I-bob. Bojxona sohasidagi huquqbazarliklarga qarshi kurash nazariyasi va amaliyoti faniga kirish.....	7
§1.1. O‘quv fanining dolzarbligi, predmeti, maqsad va vazifalari.....	7
§1.2. Bojxona sohasidagi huquqbazarliklar tushunchasi, tavsifi va javobgarlik asoslari.....	11
II-bob. Bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbazarliklar, ular bo‘yicha ish yuritish va ko‘rib chiqish.....	18
§2.1. Bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbazarliklar, ularning tasniflanishi va javobgarlik asoslari.....	18
§2.2. Bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish va ko‘rib chiqishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	28
§2.3. Bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbazarliklarni ko‘rib chiqishda amaliyotda uchrayotgan ayrim muammolar va huquqiy tartibga solishni takomillashtirish masalalari.....	36
III-bob. Bojxona sohasidagi jinoyatlar.....	48
§3.1. Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlari tushunchasi, tasniflanishi va o‘ziga xos xususiyatlari.....	49
§3.2. Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish va soliq yoki boshqa majburiy to‘lovlardan bo‘yin tovlash jinoyatlarining nazariy huquqiy tahlili.....	58
§3.3. Jamoat xavfsizligi va axloq normalariga tahdid soluvchi bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlarining nazariy huquqiy tahlili.....	74
§3.4. Xorijiy davlatlar qonunchiligidagi bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlari uchun javobgarlikning o‘ziga xos xususiyatlari.....	93
§3.5. Bojxona sohasidagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish muammolari va huquqiy tartibga solishni takomillashtirish masalalari.....	106
IV-bob. Bojxona organlarining tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv faoliyati.....	122
§4.1. Tergovga qadar tekshiruv tushunchasi va mohiyati, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ sifatida bojxona organlari.....	122
§4.2. Bojxona organlarida jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlarni qabul qilish va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi va tergovga qadar tekshiruv o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	131
§4.3. Surishtiruv tushunchasi va mohiyati, xorijiy tajriba va surishtiruv organi sifatida bojxona organlari.....	140

§4.4.	Bojxona sohasidagi jinoyatlar bo‘yicha surishtiruv o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	147
V-bob.	Bojxona sohasidagi jinoyatlar kelib chiqishining sabablari, shart-sharoitlari va ularni oldini olish choraları.....	156
§5.1.	Bojxona sohasidagi jinoyatlar kelib chiqishining sabablari va unga imkon bergen shart-sharoitlar.....	156
§5.2.	Bojxona sohasidagi jinoyatlarni oldini olish choraları.....	164
	Testlar.....	175
	Masala va topshiriqlar.....	190
	Foydalanilgan adabiyotlar.....	201

SO‘Z BOSHI

So‘nggi yillarda mamlakatimizda davlat hokimiyati organlari tizimi, faoliyati yangidan shakllantirildi va ularning oldidagi vazifalarga mos ravishda o‘zgartirildi. Shu jumladan, bojxona organlari faoliyatida ham tub o‘zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-aprel kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5414-sonli Farmoni¹ va “O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3665-sonli qarori², 2020-yil 5-iyundagi “Bojxona ma’muriyatçiliginis isloh etish va O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6005-son Farmoni³ bilan davlat bojxona xizmati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish, bojxona qonunchiligi hamda huquqni qo’llash amaliyotini takomillashtirish, tovarlarni noqonuniy olib kirish mexanizmlarini aniqlash va tahlil qilish, bojxona sohasidagi qonunbuzilish holatlarining sabab va shart-sharoitlarini chuqur o‘rganish, ularni bartaraf etish bo‘yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish, javobgarlikning muqarraligini ta’minlash bo‘yicha asosiy vazifalar va ustuvor yo‘nalishlar belgilab berildi.

Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilayotgan ushbu kunlarda, bojxona organlari ham mamlakatimiz iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash, davlat budgetini to‘ldirish, ichki iste’mol bozorini himoya qilish, tovar-moddiy boyliklarning bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib o‘tilishi, kontrabanda va bojxona qoidalaringin buzilishiga qarshi kurashish borasida o‘zining munosib hissasini qo’shib kelmoqda. Jumladan, bojxona organlari tomonidan 2021-yil davomida 11031 ta huquqbazarlik aniqlanib, ular bo‘yicha 857 mlrd so‘mlik tovarlar ushlab qolingan. Ushbu holatlar bo‘yicha 784 ta jinoyat ishlari qo‘zg‘atilib, 9244 ta ma’muriy materiallar yuritilgan. Shuningdek, huquqbazarliklar bo‘yicha 531 kg. va 1630 tup giyohvandlik vositalari, 4592 dona psixotrop tabletkalar, 185 ming dona kuchli ta’sir qiluvchi moddalar, 83 ta qurol, 511 dona o‘q va 4 mingdan ortiq ta’qiqlangan diniy mazmundagi materiallarni noqonuniy aylanishining (olib o‘tilishining) oldi olingan⁴.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-apreldagi PF-5414-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/3680568>.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-apreldagi PQ-3665-son qarori, <https://www.lex.uz/docs/3680599>.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyundagi PF-6005-son Farmoni, <https://lex.uz/docs/4844615>.

⁴ DBQning 2021-yil yakunlari bo‘yicha Hay’at qaroridan olingan ma’lumotlar.

Huquqbazarliklarga qarshi samarali kurash olib borish uchun har bir bojxona xodimidan nazariy bilimlarini o‘zlashtirish va amaliy tajribasini oshirish talab qilinadi. Bunda nazariya bilan amaliyotning uyg‘unligigina ko‘zlangan samarani beradi. Ushbu vazifani muvaffaqiyatli bajarish va maqsadga erishish uchun ular ixtiyorida yetarli o‘quv va axborot materiallarining mavjud bo‘lishi - davr talabidir.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi” mamlakatimiz ta’lim tizimining tubdan isloh qilinishi bilan birga zamon talablariga mos keluvchi yangi darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar tayyorlashni yoki ularni vaqt o‘tishini hisobga olgan holda yangilash va qayta ishlab chiqishni talab qiladi. Ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassislarning huquqiy tayyorgarligi darajasi doimiy ravishda yuqori darajadagi ahamiyat kasb etgan masalalar qatorida bo‘lib, tezlik bilan o‘zgarayotgan zamonda bojxona organlari xodimlarining yetuk, yuksak kasbiy tayyorgarlikka ega, huquqiy madaniyat sohibi, ma’naviyatli va boshqalarga o‘rnak bo‘la oladigan mutaxassis bo‘lib shakllanishlarini talab etmoqda. Albatta, huquqshunos-mutaxassis huquqni qo‘llovchi organlar, ularning faoliyat yo‘nalishlari, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlari haqida yetarli darajada ma’lumotlarga ega bo‘lishi, shuningdek ushbu vazifalarni samarali ado eta olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari zarur.

O‘quv qo‘llanmada bojxona sohasidagi huquqbazarliklarning tavsifi, ular bo‘yicha ish yuritishning o‘ziga xos xususiyatlari nazariy va amaliy jihatdan asoslab berishga harakat qilingan, shuningdek, shuningdek sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar talablari yoritilgan.

Ta’kidlash joizki, amaliyotda bojxona sohasidagi huquqbazarliklarni aniqlash, ular bo‘yicha ish yuritish va javobgarlikka tortish masalalarini hal qilishda ayrim muammolar mavjud bo‘lib, mazkur o‘quv qo‘llanmada ushbu huquqbazarliklarning yuridik tahlillari va xorijiy qonunchilik tajribasi asosida qonunchilik va amaliyotda yuzaga kelayotgan ziddiyatli masalalarni bartaraf etish maqsadida kelgusida qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan bir qator taklif va mulohazalar ham bildirilgan.

Ma’lumot uchun: O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-269-son Farmoniga asosan Bojxona qo‘mitasi shaklida qayta tashkil etilib, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuriga o‘tkazilgan.

I-BOB. BOJXONA SOHASIDAGI HUQUQBUZARLIK LARGA QARSHI KURASH NAZARIYASI VA AMALIYOTI FANIGA KIRISH

§1.1. O‘quv fanining dolzarbligi, predmeti, maqsad va vazifalari

Bugungi kunda rivojlangan bozor iqtisodiyoti va globallashuv jarayonlarida hech qaysi mamlakat o‘z qobig‘iga o‘ralib, faqat o‘zi ishlab chiqargan mahsulot hisobiga yashay olmaydi. Dunyo bozori mavjud ekan, mamlakatlar o‘rtasida xalqaro mehnat taqsimoti, tovarlarni ayirboshlash uchun eksport-import operatsiyalari ham mavjud bo‘ladi. Bunday tovarlarning turi va miqdori, albatta, muayyan davlatdagi mayjud ehtiyojlardan kelib chiqadi. Har bir mamlakat o‘z iqtisodiyotini tashkil etar ekan, ushbu holatlarni hisobga olishga majburdir. Odatda, mamlakatlar o‘rtasida tovar ayirboshlash turli shakl va ko‘rinishlarda amalga oshiriladi va eksport-import kontraktlari orqali rasmiylashtiriladi.

Ammo, bunday sharoitda davlat hududiga kirib kelayotgan tovarlarning belgilangan standartlarga javob berishi, turi va sifati katta ahamiyat kasb etadi. Sifatsiz va tegishli standartlarga javob bermaydigan tovarlarning mamlakat hududiga olib kirilishi nafaqat aholi salomatligi, hayotiga, balki davlat xavfsizligiga ham xavf tug‘diradi. Shu sababdan, kamroq harakat qilib, ko‘proq foyda qilishni o‘ylagan jinoyatchilar turli xil yo‘llar bilan, turli usullar orqali bunday tovarlarni mamlakat hududiga olib kirish (olib chiqish)ga harakat qiladilar. Shuning uchun ham barcha davlatlarda shu kabi holatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish maqsadida mamlakatning chegara hududlarida bojxona nazorati tashkil etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi qonunga binoan bojxona organlari - huquqni muhofaza qiluvchi organlar hisoblanib, bojxona organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyati iqtisodiy xavfsizlikni qo‘riqlash, muhofaza qilish va O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy suverenitetiga, bojxona hududining yaxlitligiga, iqtisodiy manfaatlar, inson hayoti va sog‘lig‘i, hayvonot va o‘simlik dunyosiga, atrof-muhit muhofazasiga, bajarilishini nazorat qilish bojxona organlariga yuklatilgan bojxona sohasidagi va boshqa qonunlarga rioya etilishiga, kontrabanda va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi kurashga yo‘naltirilgan⁵.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yilning 12-apreldagi PF-5414-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2018-yil 24-noyabrdagi PF-5582-sonli “Bojxona ma’muriyatichilagini takomillashtirish va O‘zbekiston

⁵ O‘zbekiston Respublikasi “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ-502-son Qonuni, <https://lex.uz/docs/4000640>.

Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi⁶ Farmonlarida bojxona sohasidagi huquqbazarliklarni sodir etish sabab va shart-sharoitlarini tizimli tahlil qilishni tashkil etish hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha ta’sirchan choralarни ishlab chiqish va amalga oshirish belgilab o‘tildi.

Shuning uchun huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasidagi bilimlarga ega bo‘lish bojxona organlarida ishlarni samarali olib borishning muhim sharti hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-noyabrdagi PQ-3995-sonli “O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlari kadrlarini tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qaroriga asosan, Bojxona institutida magistratura tashkil etilib, mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha malaka talablari, o‘quv rejalarini va dasturlarining amaliyotga yo‘naltirilganlik jihatini kuchaytirish orqali kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratilgan⁷.

Magistraturaning “Soliq va bojxona huquqi” ta’lim yo‘nalishini tamomlagan mutaxassislar huquqni qo‘llash, huquqni muhofaza qilish, tezkor-qidiruv kasbiy faoliyat turlari bilan shug‘ullanishi mumkinligini e’tiborga olib, ularga mos ravishda tegishli bilim va ko‘nikmalariga nisbatan talablar belgilangan.

“Bojxona sohasidagi huquqbazarliklarga qarshi kurash nazariyasi va amaliyoti” fanining predmetini aniqlash, ilmiy bilimlar mazmunini tashkil etuvchi bilish jarayonining chegaralarini aniqlash, ushbu ilmiy tarmoq mazmunini o‘rganish bilan bog‘liq.

Avvalambor, shuni ta’kidlash kerakki, mazkur o‘quv fani bir necha huquq tarmoqlarini, ta’bir joiz bo‘lsa, bir necha alohida fanlarning ham bojxona organlari faoliyatiga bog‘lagan holda huquqiy bilimlarni o‘zida mujassam etgan fan hisoblanadi. Masalan, unda bojxona organlari faoliyatidan kelib chiqib, ma’muriy huquq, jinoyat huquqi, kriminologiya, jinoyat-protsessual huquqi, kriminalistika va tezkor-qidiruv faoliyati yo‘nalishlariga ham to‘xtab o‘tilgan, shuning uchun mazkur fanni alohida huquq tarmog‘i uchun bag‘ishlangan deb e’tirof etib bo‘lmaydi.

Mazkur o‘quv fani murakkab va mukammal xarakterga egadir. “Bojxona sohasidagi huquqbazarliklarga qarshi kurash nazariyasi va amaliyoti” fani bojxona sohasidagi huquqbazarliklar tavsifi, ma’muriy huquqbazarlikka oid ishlarni yuritish, bojxona sohasidagi jinoyat ishlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv olib borish asoslarini, ushbu sohada sodir etilayotgan huquqbazarliklarning kelib

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-noyabrdagi PF-5582-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/4076899>.

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-noyabrdagi PQ-3995-son qarori, <https://www.lex.uz/docs/4037440>.

chiqish sabablari va shart-sharoitlari hamda ularning oldini olish choralarini, shuningdek, ushbu yo‘nalishda amaliyotda mayjud muammolar, ularning yechimi va qonunchilikni takomillashtirish masalalarini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganishni nazarda tutib, ushbu bilimlar soliq va bojxona huquqi mutaxassislari tomonidan kelgusidagi ilmiy tadqiqot va amaliy faoliyatlarini amalga oshirishlari uchun muhimdir.

Bojxona sohasidagi huquqbazarliklarning asosiy muammolarini har tomonlama va chuqr o‘rganish soliq va bojxona huquqi yo‘nalishida oliv mutaxassislik ta’limiga ega bo‘lishning muhim sharti hisoblanib, ta’lim oluvchini ushbu sohada kriminal vaziyatlarni aniq tahlil qilish va huquqiy normalarni to‘g‘ri qo‘llash kabi tahliliy fikrlashlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur fan doirasida quyidagi mavzular yoritib beriladi:

- bojxona sohasidagi huquqbazarliklar tushunchasi va tavsifi;
- bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbazarliklar turlari va tasniflanishi, ular bo‘yicha ish yuritish asoslari;
- bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbazarliklarni kvalifikatsiya qilish va ko‘rib chiqish muammolari, ularni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish masalalari;
- bojxona sohasidagi jinoyatlar tushunchasi va tasniflanishi;
- tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlarining tavsifi va o‘ziga xos xususiyatlari;
- jamoat xavfsizligi va axloq normalariga tahdid soluvchi bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlari tavsifi va o‘ziga xos xususiyatlari;
- xorijiy davlatlar qonunchiligidagi bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlari uchun javobgarlikning o‘ziga xos xususiyatlari;
- bojxona sohasidagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish muammolari va huquqiy tartibga solishni takomillashtirish masalalari;
- bojxona organlarining tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv faoliyati;
- bojxona sohasidagi jinoyatlar kelib chiqishining sabablari, shart-sharoitlari va ularni oldini olishi choralar.

Ta’kidlab o‘tilganlardan kelib chiqib, o‘quv fanining predmetini bojxona sohasidagi huquqbazarliklar, xususan, bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbazarliklar, ular bo‘yicha ish yuritish va ko‘rib chiqish, bojxona organlarining tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv faoliyati hamda bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish nazariyasi va amaliyoti tashkil etadi.

“Bojxona sohasidagi huquqbazarliklarga qarshi kurash nazariyasi va amaliyoti” fanining maqsadi:

- tinglovchilar tomonidan bojxona sohasidagi huquqbazarliklarning nazariy metodologik asoslarini bilish;

– ma'muriy huquqbuzarlikka oid ishlarni yuritish, jinoyat ishlari bo'yicha tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv olib borish kabi amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish;

– tinglovchilarda mavjud muammolarni aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirish;

– qonunchilikka muvofiq bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklarni va jinoyatlarni aniqlash, fosh etish va oldini olish vazifalarini bajarishga qaratilgan professional sifatlarni shakllantirish hisoblanadi.

Ushbu maqsadga erishish uchun mazkur o'quv kursini o'qitish jarayonida quyidagi vazifalarni bajarish orqali amalga oshiriladi:

– bojxona sohasidagi huquqbuzarliklar asosiy yo'nalishlarini o'rganish;

– bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar va jinoyatlar sodir etilishining asosiy qonuniyatlarini aniqlash va o'rganish;

– bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar va jinoyatlarni aniqlash, fosh etish va oldini olishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va tahlil qilish;

– bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar va jinoyatlarni aniqlash, fosh etish va oldini olish amaliy ko'nikmalarni qo'llash metodikalariga ega bo'lish.

Ushbu fan doirasida tinglovchilarning davlat, jamiyat va shaxs xavfsizligi, fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga tahdid soluvchi holatlarni oldini olish va aniqlash, jinoyat va ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni aniqlash va qo'lga olish, jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklar shohidlarini aniqlash, jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ariza shikoyatlarni qabul qilish, ro'yxatga olish, huquqbuzarliklarni oldini olish, ularni sodir etilishiga imkon yaratgan sabablar va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish, jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklarga oid ishlarni yuritish yo'nalishlardagi bilim va ko'nikmalari mustahkamlanadi.

Shuningdek, tinglovchilar tomonidan sohada mavjud muammolarning o'rganilishi va tahlil etilishi, amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilishiga zamin yaratadi.

Nazorat savollari:

1. "Bojxona sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurash nazariyasi va amaliyoti" fanining dolzarbligi va bojxona organlarining huquqni muhofaza faoliyatini belgilovchi huquqiy asoslari haqida gapiring.

2. Fanining predmetiga izoh bering.

3. Fanining maqsadi va vazifalarini bayon eting.

§1.2. Bojxona sohasidagi huquqbazarliklar tushunchasi, tavsifi va javobgarlik asoslari

Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish tushunchasiga to‘g‘ri tavsif berish uchun dastlab aynan qaysi normativ-huquqiy hujjatlar bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlari hisoblanishini aniqlab olish zarur. Qonunchilikka ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni va transport vositalarini olib o‘tish, bojxona to‘lovlarini undirish, bojxona rasmiylashtiruvi, bojxona nazoratini amalga oshirish, shuningdek bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish hollarining oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo‘yish tartibini belgilash bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlari hisoblanadi⁸.

Demak, bojxona qonunchiligi bu - O‘zbekiston Respublikasining bojxona ishini tartibga soluvchi qonun hujjatlari va O‘zbekiston Respublikasi tasdiqlagan xalqaro shartnomalar bilan belgilangan O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o‘tiladigan tovarlar va transport vositalarining bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruvi (shu jumladan bojxona rejimlari) tartibiga, bojxona to‘lovlarini to‘lashga, boj imtiyozlarini berish va ulardan foydalanishga tajovuz qiluvchi shaxslarning huquqka zid xatti-harakati yoxud harakatsizligidir.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 6-sentabrdagi “Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 18-son qaroriga ko‘ra, “...Tovarlar va transport vositalarini belgilangan tartibni buzgan holda bojxona chegarasidan har qanday tarzda o‘tkazish qonunga xilof hisoblanadi va ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi”⁹.

Shunday qilib, **bojxona sohasidagi huquqbazarliklar** deganda, O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi (keyingi matnlarda MJtK) hamda Jinoyat kodekslari (keyingi matnlarda JK) normalari bilan belgilangan, bojxona organlarining faoliyati bilan bog‘liq huquqbazarliklar tushuniladi.

Huquq nazariyasida huquqbazarlik tarkibi tushunchasi mavjud bo‘lib, unga ko‘ra huquqbazarlik tarkibi to‘rtta unsurdan iborat bo‘lishi e’tirof etiladi. Bojxona sohasidagi huquqbazarliklar ham o‘z ichiga to‘rtta unsurni qamrab oladi: ob’ekt, sub’ekt, ob’ektiv tomon va sub’ektiv tomon.

⁸ O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi, <https://www.lex.uz/docs/2876354>.

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 2013-yil 6-sentabrdagi 18-sonli qarori, <https://www.lex.uz/docs/2259789>.

Bojxona sohasiga oid huquqbazarliklarning tarkibi ma'lum bir ijtimoiy xavfli qilmishni huquqbazarlik deb topish uchun zarur bo'lgan ob'ektiv va sub'ektiv belgilarning minimal va yetarli yig'indisidir.

Huquqbazarlik tarkibi ijtimoiy xavfli qilmishlarni bir-biridan farqlashda muhim ahamiyatga egadir.

Shunday qilib huquqbazarlik tarkibining bir necha vazifasi mavjud:

- 1) javobgarlik uchun asos bo'lishi;
- 2) huquqbazarlikni farqlovchi vosita sifatida xizmat qilishi.

Huquqbazarlik tarkibi huquqbazarlikning o'ziga xos xususiyati bo'lib, o'zida huquqbazarlikning barcha alomatlarini mujassamlashtirgan bo'ladi va shu alomatlarning shaxs tomonidan sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishda mavjud ekanligi qilmishni huquqbazarlik deb hisoblash va javobgarlik uchun asos bo'ladi.

Huquqbazarlik tarkibining to'rt belgisi elementlar orqali ta'riflansa, har bir tomoni esa muayyan alomatlar orqali ifodalananadi.

Ob'ektiv belgilari deganda huquqbazarlik tarkibining ob'ekti va ob'ektiv tomonlarini ta'riflovchi belgilari nazarda tutiladi, sub'ektiv alomatlar deganda esa, huquqbazarlikning sub'ektiv tomoni va huquqbazarlik sub'ektini ifodalovchi belgilarga aytildi.

Huquqbazarlikning ob'ekti deb huquq bilan tartibga solinadigan va qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga aytildi. Ob'ekt huquqiy normada aniq mustahkamlangan bo'ladi.

Huquqbazarlik qonun bilan muhofaza qilinadigan har qanday ijtimoiy munosabatlarga, masalan, shaxsning hayoti, sog'lig'i, qadr qimmati, davlat manfaatlariga, mulk huquqini amalga oshirishga, odil sudlovnii amalga oshirishga xo'jalik yoki iqtisodiy faoliyat va boshqalarga ziyon yetkazadi.

Bojxona qonunchiligi buzilishining ob'ektlari:

- O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tish tartibi;
- O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tilishida bojxona nazorati;
- O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tilishida bojxona rasmiylashtiruvni;
- O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalariga bojxona to'lovlarini qo'llash va undirish tartibi;
- Yuqorida keltirilgan tovarlar va transport vositalariga nisbatan bojxona imtiyozlari berish va ularni qo'llash tartibi.

Bojxona sohasiga oid huquqbazarliklarning **umumi ob'ekti** ijtimoiy munosabatlar; **turdosh ob'ekti** bojxona haqidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar; **bevosita ob'ekti** esa - tovarlar va transport

vositalarini bojxona chegarasidan o'tkazilishi; bojxona nazorati va rasmiylashtiruvi va bojxona to'lovlarini to'lash bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlardir.

Bojxona qonunchiligi buzilishining ob'ektiv tomoni bo'lib shaxsning harakat va harakatsizligi oqibatida huquqning buzilishi hamda uning ijtimoiy xavfliligi hisoblanadi. Bu huquqqa qarshi qilmishning tashqi tomonini ifodalovchi zarur elementidir. Aynan shu ifodalanish holatiga qarab, huquqbazarlik to'g'risida, ya'ni u qanday sodir bo'lganligi va qay darajada zarar keltirganligi haqida fikr yuritish mumkin bo'ladi.

Qilmishning ijtimoiy xavfliligi huquqbazarlik ob'ektiv tomonining zaruriy belgisi hisoblanadi. Biroq ko'pchilik qilmishlarni huquqbazarlik deb hisoblash uchun u tufayli ro'y bergan ma'lum bir oqibatlarini aniqlamoq zarur.

Amalga oshirilgan ijtimoiy xavfli qilmish va uning natijasida kelib chiqqan oqibatlar orasidagi sababiy bog'lanish huquqbazarliklarning uchinchi, zaruriy belgisi hisoblanadi. Huquqbazarlikning ob'ektiv tomoni fakultativ belgilarisiz to'la bo'lmaydi. Demak, huquqbazarlikning ob'ektiv tomoni: ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlik va uning amalga oshirilishi natijasida kelib chiqadigan oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanish, shuningdek, fakultativ belgilar: joyi, vaqt, usuli, sharoiti, huquqbazarlikni amalga oshirish quroli va vositasi singari belgilardan iboratdir.

Bojxona qonunchiligi buzilishining ob'ektiv tomoni har bir holatda konkret moddalar (JKning 182, 246 va boshqa moddalari, MJtKning 227, 227¹-227²⁷ va boshqa moddalari) dispozitsiyasiga asoslangan holda aniqlanadi. Harakat va harakatsizlikda ifodalanadi.

Bojxona qonunchiligi buzilishining sub'ekti bo'lib, huquqbazarlikni sodir qilgan jismoniy shaxslar hisoblanadi. Sub'ektlarning xususiyatlari huquqbazarlikning turiga bog'liq bo'ladi. Masalan, jinoiy va ma'muriy huquqning sub'ektlari bo'lib faqat jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Shaxs javobgarlikka tortish ma'lum bir belgilarga ega bo'lishi lozim, ya'ni birinchidan, u huquqbazarlik sodir etish vaqtida qonunda belgilangan yoshga to'lган bo'lishi lozim. Masalan: MJtKning 13-moddasiga asosan ma'muriy javobgarlikka tortilish yoshi o'n olti yosh belgilangan.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning aqli raso bo'lishi lozim. Masalan: aqli norasolik tushunchasi MJtKning 20-moddasida bayon etilgan bo'lib, unda ta'kidlanishicha: "G'ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlik sodir etgan vaqtida aqli norasolik holatida bo'lgan shaxs, ya'ni surunkali ruhiy kasallik, ruhiy faoliyati vaqtincha buzilganligi, aqli zaifligi yoxud boshqa xil kasallik oqibatida o'z harakatining (harakatsizligining) ahamiyatini idrok eta olmagan yoki boshqara olmagan shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas".

Agar huquqbazarlik sodir etgan shaxs sud tibbiyot tekshiruvi xulosasiga ko‘ra aqli noraso deb topilsa, javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Ayrim holatlarda ijtimoiy xavfli harakatlar sodir etgan shaxs javobgarlikka tortilishi uchun sub’ektning umumiy belgilari (yoshi va aqli rasoligi) yetarli bo‘lmay, bundan tashqari sub’ektining maxsus belgilarini aniqlash lozim bo‘ladi: Masalan, harbiy jinoyatlar, mansabdor shaxs, voyaga yetmagan shaxs, homilador ayol va hokazolar.

Shuning uchun ham yuridik adabiyotlarda huquqbazarlikning maxsus sub’ekti tushunchalari beriladi, ya’ni bunday shaxs umumiy belgilardan tashqari huquqiy normalarda ko‘rsatilgan alohida (maxsus) belgilarga ham ega bo‘lishi lozim.

Bojxona qonunchiligi buzilishining sub’ektiv tomoni - shaxsning huquqqa qarshi qaratilgan harakati yoki harakatsizligiga va ulardan kelib chiqadigan ijtimoiy xavfli qilmishga nisbatan psixik-ongli ko‘rinishdagi munosabatidir. Huquqbazarlik tarkibining sub’ektiv tomoni qilmishning ichki tomoni bo‘lib, shaxsning o‘zi sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmish va uning oqibatlariga bo‘lgan ruhiy munosabatini ko‘rsatadi. Bunda aybidan tashqari huquqbazarlikning sub’ektiv tomonini tasniflovchi motiv va maqsad ham mavjud bo‘ladi.

Huquqbazarlikning sodir etilishi tegishli yuridik javobgarlikni keltirib chiqarishini nazarda tutadi.

Yuridik javobgarlik - huquqbuzarga nisbatan huquq normalarida ko‘zda tutilgan sanksiyalar asosida davlatning majburlov choralarini ko‘llash bo‘lib, bunda huquqbazarlik sodir etgan shaxs muayyan huquqlardan (shaxsiy, mulkiy yoki boshqa) mahrum etiladi.

Yuridik javobgarlik quyidagi belgilari bilan tavsiflanadi:

1) yuridik javobgarlik huquqbazarlik bilan bog‘liq bo‘lib, uning sodir etilishi yuridik javobgarlikni keltirib chiqaradi;

2) yuridik javobgarlik davlat majburlov choralarini bilan bog‘liq, ya’ni huquqbazarlik sodir etgan shaxsga nisbatan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan majburlov choralarini ko‘llaniladi;

3) yuridik javobgarlik huquqbazar uchun aniq salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi (ozodlikdan, ota-onaliqdandan mahrum bo‘lish yoki sodir etilgan qilmishi uchun jarima to‘lash va hokazo);

4) huquqbuzarga nisbatan qo‘llaniladigan choralarining xarakteri va hajmi huquq normalarining sanksiyasida o‘rnatilgan bo‘ladi;

5) davlat tomonidan qo‘llaniladigan majburlov choralarini huquqni qo‘llash faoliyati davomida tegishli vakolatli organlar tomonidan qonunda belgilangan tartibda va prosessual shakllarga amal qilgan holda olib boriladi;

6) yuridik javobgarlik umumiy-ommaviy bo‘ladi, ya’ni qonun hujjatlarida huquqbuzarliklar uchun javobgarliklar umumiy tartibda belgilanadi va kim tomonidan sodir etilishidan qat’iy nazar vujudga keladi.

Shaxsni javobgarlikka tortish masalasini hal etishda uning qilmishida huquqbuzarlikning tarkibi mavjudligiga ahamiyat berish hal qiluvchi rol o‘ynaydi, ya’ni huquqqa qarshi qilmishning ob’ektiv va sub’ektiv tomonlarini hamda ob’ekt va sub’ektni birgalikda bog‘lagan holda o‘rganish masalaning mazmunini ochib berishga, uni konkretlashtirishga va individuallashtirishga yordam beradi.

Huquq buzilishining turlariga muvofiq yuridik javobgarlik ham turlarga bo‘linadi:

- 1) jinoiy-huquqiy javobgarlik;
- 2) ma’muriy-huquqiy javobgarlik;
- 3) intizomiy-huquqiy javobgarlik;
- 4) fuqarolik-huquqiy javobgarlik.

Jinoiy va fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralarini qo‘llash faqat vakolatli sudlar tomonidan amalga oshiriladi.

Ma’muriy huquqbuzarlik holatlarini hal qilish vakolatiga sudlar bilan bir qatorda qonun bilan vakolat berilgan bir qancha davlat idoralari egadirlar. Intizomiy-huquqiy javobgarlik esa tegishli idoralar rahbarlari va boshqa vakolatli shaxslar tomonidan qo‘llanilishi mumkin.

Yuridik javobgarlikni belgilashning asosiy maqsadi jazolashdangina iborat bo‘lmasdan, balki huquq umumiy maqsadlarining muayyan ifodasiga qaratilgan bo‘lib, ular ijtimoiy munosabatlarning mustahkamlanishi, tartibga solinishi va himoyasida o‘zining ifodasini topadi. Bu maqsadlar o‘z navbatida huquqning tartibga soluvchi (regulyativ) va qo‘riqlovchi funksiyalari amalda bo‘lishini belgilaydi.

Yuridik javobgarlikning asosiy funksiyasi qonuniylik va huquq-tartibotni muhofaza qilishdan iborat. Muayyan huquqbuzarga nisbatan javobgarlikning qo‘llanishi birmuncha tor maqsadni, ya’ni huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga jazo chorasini qo‘llashni nazarda tutadi.

Yuridik javobgarlik qo‘llanilishi maqsadlariga erishish uchun qonuniylik, insonparvalik, odillik, javobgarlikning muqarrarligi va boshqa bir qator tamoyillarga amal qilinadi. Yuridik javobgarlik belgilangan normativ-huquqiy hujjatlarda (JK, MJtK va boshqa) yuridik javobgarlikni qo‘llash tamoyillari va vazifalari belgilab qo‘yilgan.

Shu bilan birga, huquqbuzarlik o‘z-o‘zidan javobgarlikni keltirib chiqarmaydi yoki davlat majburlov choralarini qo‘llashni yuzaga keltirmaydi, balki bunday qo‘llash uchun asos bo‘ladi xolos. Real yuridik javobgarlikni amalga oshirish uchun esa vakolatli organning huquqni qo‘llash akti zarur bo‘ladi. Bunday

aktlar jumlasiga sud hukmi, qarori yoki ajrimi, boshqa vakolatli organ yoki mansabdar shaxsning hujjatini kiritish mumkin. Shunga ko‘ra, yuridik javobgarlik vakolatli organ qaroriga asosan yuzaga keladi.

Bojaxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishiga qarshi kurashish O‘zbekiston Respublikasi bojaxona organlarining asosiy funksiyalaridan biri sifatida belgilangan.

Bojaxona organlari bojaxona bilan bog‘liq huquqbazarliklarga qarshi kurash vazifasini ado etib, bojaxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishiga barham berish maqsadida huquqiy majburlov choralarini qo‘llaydilar.

Bojaxona haqidagi qonun hujjatlarini buzgan fuqarolar va mansabdar shaxslar ma’muriy javobgar bo‘ladilar, ularning qilmishlarida jinoyat alomatlari bo‘lgan taqdirda esa, jinoiy javobgar bo‘ladilar.

Ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra, bojaxona sohasidagi huquqbazarliklar jinoiy va ma’muriy huquqbazarliklar bo‘yicha tasniflanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida bojaxona sohasidagi jinoyatlar alohida guruhg‘a ajratilmagan. Shu bilan birga, bojaxona sohasidagi jinoyatlarning mazmuni O‘zbekiston Respublikasi JKning 182 (Bojaxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish), 184 (Soliqlar yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovslash), 246 (Kontrabanda), shuningdek, 130 (Pornografik mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish), 130¹ (Zo‘ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish), 244³ (Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish), 244⁴ (Uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda olib kirish, o‘tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish) va 250¹ (Pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi) moddalarida belgilangan.

Shuningdek, amaliyotda aniqlangan jinoyatlar tahlillariga ko‘ra, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan jinoyatlar bilan bir qatorda bojaxona sohasida JKning 175-moddasi - O‘zbekiston Respublikasining manfaatlariga xilof ravishda bitimlar tuzish va JKning 243-moddasidagi - Jinoiy yo‘l bilan kiritilgan daromadlarni legalizatsiya qilish va boshqa jinoyatlar ham sodir etilishi kuzatilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 16-bob, 227, 227¹ - 227²⁷-moddalarida jismoniy va mansabdar shaxslar tomonidan bojaxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishi turlari belgilangan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 90¹, 93, 171¹, 174, 184², 185¹, 189 va 189¹-moddalari dispozitsiyalarida ham bojaxona qonunchiligi buzilishi bilan bog‘liq normalar mavjud.

Nazorat savollari:

1. Bojxona qonunchiligi buzilishi tushunchasiga ta’rif bering.
2. Bojxona sohasiga oid huquqbuzarliklarning tarkibiga izoh bering.
3. Bojxona sohasidagi huquqbuzarliklar ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra qanday tasniflanadi?

II-BOB. BOJXONA SOHASIDAGI MA’MURIY HUQUQBUZARLIKLER, ULAR BO‘YICHA ISH YURITISH VA KO‘RIB CHIQISH

§2.1. Bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbazarliklar, ularning tasniflanishi va javobgarlik asoslari

Bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbazarliklar deganda, O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi bilan javobgarlik belgilangan bojxona organlari faoliyati bilan bog‘liq huquqbazarliklar tushuniladi.

Bojxona qonunchiligi buzilishi uchun ma’muriy javobgarlik masalasini yoritishdan oldin, albatta ushbu huquqbazarliklarning turlarini o‘rganib chiqish lozim.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning “Boshqaruvning belgilangan tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbazarliklar uchun ma’muriy javobgarlik” (XVI bob) nomli bobining 227, 227¹-227²⁷ moddalarida bojxona qonunchiligi buzilishi uchun ma’muriy javobgarlikni belgilovchi normalar ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 90¹, 93, 171¹, 174, 184², 185¹, 189 va 189¹-moddalari dispozitsiyalarida ham bojxona qonunchiligi buzilishi uchun javobgarlikni belgilovchi normalar mavjud.

Mazkur qoidabuzarliklar bojxona chegarasini kesib o‘tish, bojxona rasmiylashtirushi hamda bojxona to‘lovlarini undirish bilan bog‘liq jarayonlarda kelib chiqadi. Darsliklarda bojxona sohasiga oid ma’muriy huquqbazarliklar sodir etish xarakteriga ko‘ra quyidagicha tasniflangan:

1. Tovar va transport vositalarini bojxona chegarasidan olib o‘tish bilan bog‘liq huquqbazarliklar.
2. Bojxona nazorati, rejimi va rasmiylashtirushi bilan bog‘liq huquqbazarliklar.
3. Bojxona to‘lovlarini undirish bilan bog‘liq huquqbazarliklar¹⁰.

Tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasidan o‘tkazilishi bilan bog‘liq ma’muriy huquqbazarliklar – bu Bojxona kodeksida (keyingi matnlarda BK) va boshqa qonun hujjalarda belgilangan tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasidan o‘tkazilishi bilan bog‘liq tartib va qoidalarga aybli g‘ayrihuquqiy rioya etmaslikdir.

Tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasidan o‘tkazilishi bilan bog‘liq ma’muriy huquqbazarliklar sirasiga Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 227¹⁹-227²¹-moddalar, 227²²-modda 1-qismi, 227²³-moddasida

¹⁰ Achilov A.T. va boshqalar. Bojxona organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyati //Darslik. 1-qism. -T.:2021. - 81 b.

belgilangan huquqbazarliklar kiradi.

Shuningdek, MJtKda 90¹, 93, 184², 185¹, 189 va 189¹-moddalarida ko'rsatilgan huquqbazarliklar ham mazmunan tovar va bojxona chegarasidan noqonuniy o'tkazilishi bilan bog'liq huquqbazarliklar toifasiga kiradi.

Quyida tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasidan o'tkazilishi bilan bog'liq ayrim ma'muriy huquqbazarliklarni amaliyotda aniqlanayotgan misollar asosida huquqiy tavsifini berishga va javobgarlikka tortish asoslarini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Xususan, 2021-yil 10-oktabr kuni soat 03-55da Turkiyadan O'zbekistonga "Istambul-Toshkent" yo'nalishi bo'yicha 274-reys bilan uchib kelib, Toshkent xalqaro aeroportining umumiy uchib kelish zalidagi "yashil" yo'lak orqali harakatlangan, O'zbekiston fuqarosi R.B.ning bagaji bojxona ko'rigidan o'tkazilganda, ichida bojxona nazoratiga taqdim etilmagan va bojxona xodimining og'zaki so'rovida aytilmagan, jismoniy shaxslar uchun belgilangan olib kirish me'yordan ortiq bo'lgan, jami 40 dona erkaklar kiyim-kechaklari borligi aniqlangan.

Ma'lumki, Bojxona kodeksining 252-moddasiga binoan, tovarlar va (yoki) transport vositalari bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotganda, bojxona rejimi o'zgartirilayotganda, shuningdek ushbu Kodeksda belgilangan boshqa hollarda bojxona organlariga deklaratziyalishi lozim.

Tovarlarni deklaratziyalash:

a) jismoniy shaxslarning notijorat maqsadlardagi, qiymati va miqdori qonun hujjalarda belgilangan bojsiz olib kirish normalaridan va aksiz solig'i solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalaridan oshmaydigan tovarlari deklaratziyalayotganda — og'zaki shaklda;

b) yo'lovchi bojxona deklaratziyasidan foydalanilgan holda:

jismoniy shaxslarning notijorat maqsadlardagi, qiymati va miqdori qonun hujjalarda belgilangan bojsiz olib kirish normalaridan va aksiz solig'i solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalaridan oshadigan tovarlarining;

jismoniy shaxsning yashash joyi o'zgarganda (avvalgi yashash joyidan hisobdan chiqarilganligi to'g'risida qayd mavjud bo'lgan holda) uning shaxsiy mol-mulki bo'lgan tovarlarning, bundan avtotransport vositalari mustasno;

BKning 158 va 160-moddalarida ko'rsatilgan hollarda, jismoniy shaxslarning notijorat maqsadlardagi transport vositalarining;

O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasining va valyuta boyliklarining;

qonun hujjalarga muvofiq tegishli ta'qiqlar va (yoki) cheklovlar belgilangan tovarlarning;

d) bojxona yuk deklaratziyasidan foydalanilgan holda:

yuridik shaxslar uchun va yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik

faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar uchun tovarlarning, bundan ushbu moddaning “g” bandida nazarda tutilgan hollar mustasno;

jismoniy shaxslarning tijorat maqsadlaridagi tovarlarining;

jismoniy shaxslarning notijorat maqsadlardagi transport vositalarining, bunda BKning 158 va 160-moddalarida ko‘rsatilgan hollar mustasno;

jismoniy shaxs kirib kelishidan yoki chiqib ketishidan oldin yoki keyin olib kiriladigan yoki olib chiqiladigan, alohida kuzatib kelinayotgan bagajda bojxona chegarasi orqali olib o‘tiladigan tovarlarning;

e) tovarning kuzatuv hujjatlaridan foydalanilgan holda:

yuridik shaxslar uchun va yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar uchun qiymati bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravarigacha bo‘lgan tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o‘tishda, bundan tovarlar tashqi savdo kontraktlari (shartnomalari, kelishuvlari) bo‘yicha majburiyatlarni bajarish doirasida olib o‘tilayotgan va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hollar mustasno;

xorijdagи ko‘rgazma va yarmarkalarda namoyish etish uchun mo‘ljallangan, ushbu tovarlarni deklaratsiyalash kunida rasmiy ayirboshlashning qiymati O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo‘yicha besh ming AQSh dollarigacha bo‘lgan ekvivalentdagi tovarlarni olib chiqishda, bundan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar mustasno;

qiymati rasmiy ayirboshlashning ushbu tovarlarni deklaratsiyalash kunidagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo‘yicha bir ming AQSh dollarigacha bo‘lgan ekvivalentdagi tovarlarni umumjahon Internet tarmog‘ida onlayn do‘konlari orqali eksport qilish chog‘ida amalga oshiriladi(BK 260-m).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-fevraldagи “Jismoniy shaxslar tomonidan bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tishni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3512-son qarorining 1-bandи “a” kichik bandida jismoniy shaxs tomonidan respublikaga olib kiriladigan, bojxona to‘lovlari tortilmaydigan tovarlarning chegaralangan normalari belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra, jismoniy shaxslar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro aeroportlari bojxona chegaralari orqali 2000 (ikki ming) AQSh dollari miqdorida tovarlarni olib kirishi mumkinligi hamda belgilangan normadan ortiq tovarlarni olib kirish qonun hujjatlariga muvofiq, bojxona rasmiylashtiruvining umumiyligini qoidalari qo‘llanilishi ko‘rsatilgan.

Tovarlarni deklaratsiyalash:

– jismoniy shaxslarning notijorat maqsadlardagi, qiymati va miqdori qonun hujjatlarida belgilangan bojsiz olib kirish normalaridan va aksiz solig‘i solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalaridan oshmaydigan tovarlari

deklaratsiyalanayotganda – **og‘zaki shaklda**;

– jismoniy shaxslarning notijorat maqsadlardagi, qiymati va miqdori qonun hujjatlarida belgilangan bojsiz olib kirish normalaridan va aksiz solig‘i solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalaridan oshadigan tovarlari deklaratsiyalanayotganda – **yo‘lovchi bojxona deklaratsiyasidan** foydalanilgan holda amalga oshiriladi (BK 260-m).

Yuqoridagi holatda O‘zbekiston fuqarosi R.B. Toshkent xalqaro aeroporti orqali O‘zbekiston Respublikasiga kirib kelganida, yonida bojsiz olib kirish normasidan ortiqcha 40 dona erkaklar kiyim-kechaklari bor bo‘lgan va ushbu tovarlarni bojxona nazoratiga taqdim qilmagan, ya’ni yo‘lovchi bojxona deklaratsiyasida va og‘zaki so‘rovda ma’lum qilmagan. Shuning uchun fuqaro R.B.ga nisbatan MJtKning 227²²-moddasi 1-qismi bilan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnomalar rasmiylashtirilgan.

Tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasidan o‘tkazilishi bilan bog‘liq ma’muriy huquqbuzarliklarga oid amaliyotda aniqlangan yana bir misolni keltirib, ushbu huquqbuzarlikning huquqiy tavsifini berishga harakat qilamiz.

Xususan, 2021-yil 13-oktabr kuni soat 17-40da Qozog‘istondan O‘zbekistonga o‘tish uchun “Yallama” chegara bojxona postiga “DAF FT XF 105” rusumli, davlat raqami 464DNA17 va tirkama raqami 99AIB17 bo‘lgan avtotransport vositasini boshqarib kirib kelgan Qozog‘iston fuqarosi A.A.ning avtotransport vositasi bojxona ko‘rigidan o‘tkazilganida, avtotransport vositasining ehtiyyot qismlari saqlanadigan qutisi ichidan, taxtadan yasalgan “poddon” tagidan, og‘zaki so‘rovda aytilmagan va yashirilgan, SMR hamda invoys hujjatlarida ko‘rsatilmagan 12 turdag‘i avtotransport vositalarning ehtiyyot qismlarini Qozog‘istondan O‘zbekistonga olib o‘tayotganligi aniqlangan.

Ushbu holatda Qozog‘iston fuqarosi A.A. mazkur tovarlarni deklaratsiyalamasdan, qonunga xilof ravishda, ya’ni bojxona nazoratidan yashirib bojxona posti orqali olib o‘tishga uringan va MJtKning 227²¹-moddasi 2-qismi bilan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnomalar rasmiylashtirilgan. Mazkur *huquqbuzarlikning tarkibi* quyidagicha:

Ob’ekti – O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o‘tish tartibi.

Ob’ektiv tomoni – mazkur huquqbuzarlik harakatda sodir etiladi, ya’ni tovarlar bojxona nazoratidan yashirib olib o‘tilmoqda.

Sub’ekti – 16 yoshga to‘lgan, aqli raso jismoniy shaxs bo‘lib, mazkur holatda huquqbuzarlikni sodir etgan Qozog‘iston fuqarosi A.A.

Sub’ektiv tomoni – huquqbuzarlik qasddan sodir etiladi, ya’ni shaxs tovar yoki boshqa qimmatliklarni bojxona chegarasidan g‘ayriqonuniy olib o‘tayotganligini anglab yetadi va o‘zining g‘arazli maqsadini amalga oshirishni

xohlaydi.

Bojxona sohasidagi huquqbuzarliklarning ikkinchi guruhi **bojxona nazorati, rejimlari va rasmiylashtiruvi bilan bog‘liq ma’muriy huquqbuzarliklar** bo‘lib, bunda qilmish Bojxona kodeksi va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan bojxona nazorati va rasmiylashtiruvi bilan bog‘liq tartib va qoidalarga aybli g‘ayrihuquqiy rioya etmaslikda ifodalanadi.

Bojxona nazorati, rejimlari va rasmiylashtiruvi bilan bog‘liq ma’muriy huquqbuzarliklar sirasiga Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 227, 227¹-227¹⁸-moddalari, 227²²-moddasi 2-qismida belgilangan huquqbuzarliklar kiradi.

Quyida bojxona nazorati, rejimlari va rasmiylashtiruvi bilan bog‘liq ayrim ma’muriy huquqbuzarliklarni amaliyatda aniqlanayotgan misollar asosida huquqiy tavsifini berishga va javobgarlikka tortish asoslarini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Xususan, “Toshkent-Aero” IBKning “Avia yuklar” TIF bojxona posti inspektori B.I. tomonidan quyidagi holat rasmiylashtirilgan: 04.10.2020-yil kuni Buyuk Britaniya davlatidan “NOVUGEN PHARMA” MCHJ QK nomiga 235 13648331-sonli aviavaraqa, DTFG2196097-sonli invoys asosida 5 ta o‘rindan iborat, umumiy vazni 132 kg bo‘lgan “Dori ishlab chiqarish uchun substansiya” tovari kelgan bo‘lib, mazkur tovarlarni tegishli bojxona rejimiga rasmiylashtirish uchun O‘zbekiston fuqarosi X.A. tomonidan belgilangan muddat ichida bojxona postiga bojxona yuk deklaratsiyasi (BYuD) va birlamchi hujjatlar taqdim etilmagan. Mazkur huquqbuzarlikning tarkibi quyidagicha:

Ob’ekti - tovarlar va transport vositalarini deklaratsiyalash tartibi hisoblanadi. Bojxona kodeksining 37-bobi deklaratsiyalash tartibiga bag‘ishlangan bo‘lib, BK 261-moddasiga asosan bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar uchun bojxona deklaratsiyasi tovar kelib tushadigan bojxona organiga tovarlar taqdim etilgan kundan e’tiboran **o’n besh kalendar kundan** kechiktirmay beriladi.

Bojxona tranziti bojxona rejimiga joylashtirilayotgan tovarlarga nisbatan bojxona deklaratsiyasini berish tovarlarni taqdim etish bilan bir vaqtida yoki bevosita tovarlar va transport vositalari bojxona hududiga olib kirilganidan keyin amalga oshiriladi.

Olib chiqilayotgan tovarlar uchun bojxona deklaratsiyasi ular amalda olib chiqib ketilguniga qadar beriladi.

Tovarlarning o‘zini olib chiqmasdan yoki ularni olib kirmasdan bojxona rejimi o‘zgartiriladigan tovarlarga nisbatan bojxona deklaratsiyasi avvalgi bojxona rejimi tugallanguniga qadar beriladi.

Jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni notijorat maqsadlarda qo‘l yukida va kuzatib boriladigan bagajda bojxona chegarasi orqali olib o‘tilayotganda bojxona deklaratsiyasi tovarlarni taqdim etish bilan bir vaqtida beriladi.

Bojxona hududiga kirib kelayotgan transport vositalari bojxona chegarasini kesib o‘tganidan so‘ng uch soatdan kechiktirmay deklaratsiyalanadi, bojxona hududidan chiqib ketayotgan transport vositalari esa bojxona chegarasini kesib o‘tishdan kamida uch soat oldin deklaratsiyalanadi.

Ob’ektiv tomoni – mazkur huquqbuzarlik ham harakatda ham harakatsizlikda sodir etilishi mumkin.

Bojxona deklaratsiyasining tegishli grafasi to‘ldirilmaligi, ya’ni taomilga rioya qilinmasligi – harakatda sodir etiladi.

Bojxona deklaratsiyasi bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar uchun tovar kelib tushadigan bojxona organiga tovarlar taqdim etilgan kundan e’tiboran o’n besh kalendar kundan kechiktirib berish yoki umuman bermaslik, shuningdek bojxona hududiga kirib kelayotgan transport vositalari bojxona chegarasini kesib o‘tganidan so‘ng uch soatdan kechiktirib taqdim etish – bu harakatsizlikdir.

Sub’ekt – 16 yoshga to‘lgan aqli raso jismoniy shaxs.

Sub’ektiv tomon – bu huquqbuzarlik *qasddan* sodir etiladi.

Yuqoridagi holatda O‘zbekiston fuqarosi X.A. “NOVUGEN PHARMA” MCHJ QK nomiga kelgan tovarlar uchun belgilangan 15 kunlik muddatda bojxona deklaratsiyasi taqdim etmagan va MJtKning 227^{10} -moddasi 2-qismi bilan ma’muriy javobgarlikka tortilmoqda.

Bojxona nazorati, rejimlari va rasmiylashtiruvni bilan bog‘liq ma’muriy huquqbuzarliklarga oid amaliyotda aniqlangan yana bir misolni keltirib o‘tshimiz mumkin.

Xususan, Samarqand viloyati bojxona boshqarmasi “Samarqand” TIF bojxona postida “Samarkand-England Eco-Medical” MCHJning mas’ul xodimi O‘zbekiston fuqarosi R.D. tomonidan “Eksport” (EK-10) bojxona rejimiga rasmiylashtirish uchun to‘ldirilgan 18005/01.07.2020/0011498 va 18005/10.08.2020/0013994-raqamli BYuDlar va ularni rasmiylashtirish uchun asos bo‘lgan birlamchi hujjatlar qayta o‘rganilgan.

Qayta o‘rganish davomida, 18005/01.07.2020/0011498-raqamli BYuDning 46-grafasida tovarning statistik qiymatini “9,300” deb to‘g‘ri ko‘rsatish o‘rniga, “5,16” deb noto‘g‘ri ko‘rsatganligi va 18005/10.08.2020/0013994-raqamli BYuDning 46-grafasida tovarning statistik qiymatini “8,223” deb to‘g‘ri ko‘rsatish o‘rniga, “5,244” deb noto‘g‘ri ko‘rsatganligi aniqlangan.

Mazkur holatda fuqaro R.D. BYuDda noto‘g‘ri ma’lumotlar ko‘rsatgan, ushbu noto‘g‘ri ma’lumotlar bojxona to‘lovlar hisoblanishida ta’sir ko‘rsatmasada, BYuDlar asosida statistik ma’lumotlarni olinishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun fuqaro R.D.ga nisbatan MJtKning 227^{22} -moddasi 2-qismi bilan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnnoma rasmiylashtirilgan.

Bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbuzarlikning 3 guruhi ***bojxona to'lovlari bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarliklar*** bo'lib, bu - Bojxona kodeksi va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan bojxona to'lovlari bilan bog'liq tartib va qoidalarga aybli g'ayrihuquqiy rioxaya etmaslikdir.

Qonunchilikka asosan bojxona organlari tomonidan quyidagi harakatlar yoki tartib-taomillar bajarilganligi uchun bojxona yig'imlari undiriladi:

bojxona rasmiylashtiruvi;

bojxona rasmiylashtiruvi uchun belgilangan joylardan tashqaridagi va (yoki) bojxona organlarining ish vaqtidan tashqari vaqtdagi bojxona rasmiylashtiruvi;

tovarlarni bojxona organi egaligidagi bojxona omborida saqlash;

transport vositasini bojxona hamrohligida kuzatib borish;

dastlabki qarorni qabul qilish;

tovarlarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishslashga, tovarlarni bojxona hududida qayta ishslashga ruxsatnomalar berish;

intellektual mulk ob'ektlarini Intellektual mulk ob'ektlarining bojxona reestriga kiritish;

yuridik shaxslar tomonidan olib kiriladigan naqd chet el valyutasining bojxona rasmiylashtiruvi (BK 291-modda).

Bojxona yig'imlarining stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Bojxona yig'imlarini hisoblash va undirish uchun huquqiy asos O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-noyabrdagi "Bojxona yig'imlari stavkalarini tasdiqlash to'g'risidagi" 700-sonli qaroridir¹¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-noyabrdagi "Bojxona ma'muriatchilagini takomillashtirish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi PF-5582-son Farmoniga asosan, jami undiriladigan bojxona yig'imlari turlari bo'yicha tushgan summadan 50 foizi DBQning maxsus fondida qoladi va 50 foizi davlat budgetiga har 5 kunda o'tkaziladi¹².

Iqtisodiy sohadagi huquqbuzarliklar mustaqil davlatning iqtisodiy rivojlanishiga katta zarar yetkazadi. Natijada bojxona bojlari va yig'imlari tarzidagi salmoqli tushumlardan davlat budgeti mahrum bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy Javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning 174, 227²⁴⁻²⁶ moddalarida jismoniy shaxslar tomonidan bojxona to'lovlari bilan bog'liq huquqbuzarliklar sodir etilganda javobgarlik belgilangan.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-noyabrdagi 700-sonli qarori, <https://www.lex.uz/docs/5087206>.

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-noyabrdagi PF-5582-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/4076899>.

Quyida bojxona to‘lovlari bilan bog‘liq ayrim ma’muriy huquqbazarliklarni amaliyotda aniqlanayotgan misollar asosida huquqiy tavsifini berishga va javobgarlikka tortish asoslarini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Xususan, Namangan viloyati bojxona boshqarmasi Kontrabandaga qarshi kurashish va bojxona auditib bo‘limi xodimlari, Namangan viloyat soliq boshqarmasi xodimlari bilan hamkorlikda o‘tkazilgan tahlil ishlari natijasiga ko‘ra, 2018-yilda Namangan shahrida tashkil etilgan “SARA HIOL TEKSTIL” MCHJ rahbari O‘zbekiston fuqarosi K.B. tomonidan Xitoy davlatidan umumiyl faktura qiymati 29.286,9 AQSH dollariga teng bo‘lgan jami 15 turdag tukuvchilik sohasida ishlab chiqarishga mo‘ljallangan trikotaj mahsulotlari “Namangan” TIF bojxona postida rasmiylashtirilgan 14010/19.03.2018/0000402-sonli BYuD asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.12.2017-yildagi PF-5285-sonli Farmoni va 02.02.2018-yildagi 5194-PF-sonli Farmoyishiga ko‘ra majburiy bojxona to‘lovlardan imtiyoz qo‘llanilib, import qilingan, biroq jamiyat rahbari davlat tomonidan berilgan imtiyozlardan maqsadsiz foydalanib, import qilingan trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishga yo‘naltirmasdan, boshqa maqsadlarda foydalanganligi aniqlangan. Mazkur maqsadsiz foydalangan tovarlar bo‘yicha 54.353.925,56 so‘m qo‘shimcha bojxona to‘lovlari hisoblangan.

Mazkur holatda “SARA HIOL TEKSTIL” MCHJ nomiga kelgan tovarlar uchun normativ hujjatlar asosida maqsadli imtiyoz qo‘llanilgan hamda ushbu tovarlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilishi belgilangan bo‘lsada, jamiyat rahbari K.B. ushbu tovarlarni ishlab chiqarishga yo‘naltirmasdan boshqa maqsadlarda foydalangan va buning natijasida MJtKning 227²⁴-moddasida ko‘rsatilgan huquqbazarlikni sodir qilgan.

Bojxona to‘lovlari bilan bog‘liq ma’muriy huquqbazarliklarga oid amaliyotda aniqlangan yana bir misolni keltirib o‘tishimiz mumkin.

Xususan, Andijon viloyatida joylashgan “Forall Textile” MCHJ nomiga Xitoy Xalq Respublikasidan 24.08.2020-yildagi AXWMFLW202000729-sonli invoys asosida yuborilgan, netto vazni 16848 kg, umumiyl faktura qiymati 12835.2 AQSh dollariga teng bo‘lgan tovarlar O‘zbekiston fuqarosi (“Impex Brok Experts” xususiy korxonasining bojxona rasmiylashtiruv mutaxassis) M.I. tomonidan 03011/17.10.2020/0009934-raqamli elektron BYuD bilan “import” bojxona rejimiga rasmiylashtirilgandan so‘ng, mazkur bojxona yuk deklaratsiyasi qayta tekshirilganda, BYuDning 20-grafasidagi yetkazib berish shartiga “FOB” yozish o‘rniga xato ravishda “CIP” yozilganligi natijasida bojxona to‘lovlari 7.853.987.27 so‘mga kam hisoblanganligi aniqlangan.

Mazkur holatda fuqaro M.I. BYuDda bojxona to‘lovlaring miqdorini kamaytirish uchun asos bo‘ladigan noto‘g‘ri ma’lumotlarni ko‘rsatishi natijasida MJtKning 227²⁵-moddasi 1-qismi bilan ma’muriy javobgarlikka tortilgan.

Bojxona qonunchiligi buzilishi uchun shaxsni ma'muriy javobgarlikka tortish asoslari

Bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbazarliklar uchun jarima va musodara qilish jazo choralari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 262-moddasiga muvofiq, ushbu Kodeksning 227, 227¹, 227², 227³, 227⁵, 227⁶, 227⁷, 227¹⁰, 227¹¹, 227¹³-moddasining uchinchi qismida, 227¹⁶-moddasining birinchi qismida, 227²²-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan bojxona qonunchiligi buzilishi bilan bog'liq huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlari bojxona organlariga taalluqlidir.

Bojxona organlarining boshliqlari va ularning o'rinnbosarlari bojxona organlari nomidan ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga va jarima tariqasidagi ma'muriy jazo chorasini qo'llashga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali qayd etilgan ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rishga hamda jarima tariqasidagi ma'muriy jazo choralarini qo'llashga bojxona organlarining bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini amalga oshiradigan bosh inspektorlari, katta inspektorlari (inspektorlari) haqlidir.

O'zbekiston Respublikasi MJtKning 245-moddasiga muvofiq, ushbu Kodeksning 227⁴, 227⁸, 227⁹-moddalarida, 227¹³-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 227¹⁴, 227¹⁵-moddalarida, 227¹⁶-moddasining ikkinchi-beshinchi qismlarida, 227¹⁷, 227¹⁸, 227¹⁹, 227²⁰, 227²¹-moddalarida, 227²²-moddasining birinchi qismida, 227²³, 227²⁴, 227²⁵, 227²⁶-moddalarida nazarda tutilgan, shuningdek 90¹, 171¹, 184², 185¹, 189, 189¹-moddalarida nazarda tutilgan bojxona qonunchiligi buzilishi bilan bog'liq huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni jinoyat ishlari bo'yicha sudlar ko'rib chiqadi va belgilangan sanksiya doirasida jarima va musodara tariqasidagi ma'muriy jazo choralarini qo'llaydi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzishini sodir etish quroli yoki bevosita ashyosi hisoblangan tovarlar va transport vositalarini musodara qilish jazosi esa ham asosiy, ham qo'shimcha jazo sifatida qo'llanilishi mumkin.

Tovarlar va transport vositalarini musodara qilishning imkonи bo'lмаган taqdirda, ularning qiymati qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzgan shaxslardan undirib olinadi.

Bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbazarliklar uchun ma'muriy jazo huquqbazarlik sodir etilgan kundan boshlab, davom etayotgan huquqbazarliklar uchun esa, huquqbazarlik aniqlangan kundan boshlab bir yildan kechiktirmay qo'llanilishi mumkin. Jinoyat ishini qo'zg'atish rad etilgan yoki jinoyat ishi tugatilgan bo'lsa-yu, lekin huquqbuzarning harakatlarida ma'muriy huquqbazarlik

alomatlari mavjud bo'lsa, ma'muriy jazo chorasi jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish yoki jinoyat ishini tugatish to'g'risida, agar MJtKning 36-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan muddatlar o'tmagan bo'lsa, qaror qabul qilingan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay qo'llanilishi mumkin.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishini sodir etish quroli yoki bevosita ash yosi hisoblangan tovarlar va transport vositalarini musodara qilish jazo chorasi bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilgan yoki buzilganligi aniqlangan vaqt dan, shuningdek u asosiy yoki qo'shimcha jazo bo'lishidan qat'iy nazar berilaveradi.

Tovarlar va transport vositalarini g'ayriqonuniy olib o'tish kuni deb ularni O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali haqiqatda olib o'tilgan kun hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. Bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar tushunchasiga ta'rif bering.
2. Tovar va transport vositalarini bojxona chegarasidan olib o'tish bilan bog'liq huquqbuzarliklar?
3. Bojxona nazorati, rejimi va rasmiylashtiruvi bilan bog'liq huquqbuzarliklar?
4. Bojxona to'lovlarini undirish bilan bog'liq huquqbuzarliklar?
5. Bojxona qonunchiligi buzilishi uchun shaxsni ma'muriy javobgarlikka tortish asoslari?

§2.2. Bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish va ko‘rib chiqishning o‘ziga xos xususiyatlari

Bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish – ma'muriy protsess tarkibidagi ma'muriy yurisdiksiyaviy faoliyatning alohida turi bo‘lib, ma'muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ishlarni qo‘zg‘atish, ish bo‘yicha dalillar to‘plash, protsessual hujjalalar tuzish, ularni ko‘rib chiqish hamda ishni tugatishgacha bo‘lgan harakatlar majmuidan iborat.

Har bir ishning holatini o‘z vaqtida, har tomonlama, to‘la va ob’ektiv ravishda aniqlash vazifasini tahlil qilganda, huquqbazarlik ishini to‘g‘ri ko‘rib chiqish uchun zarur bo‘lgan barcha holatlarni aniqlash lozim. Bunday holatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ma'muriy huquqbazarlik sodir etilganligi;
- ma'muriy huquqbazarlikni sodir etishda shaxsning aybdorlik darajasi;
- ma'muriy huquqbazarlikning ma'muriy javobgarlikni vujudga keltirishi;
- mulkiy zarar keltirilganligi;
- ma'muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlarning mavjudligi;
- huquqbuzarga oid, shuningdek, ish uchun ahamiyatli bo‘lgan boshqa ma'lumotlar;
- ishni to‘xtatishga olib keladigan holatlarning mavjudligi va boshqalar.

Bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbazarlik ishlari bo‘yicha har bir holatni o‘z vaqtida aniqlash – ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchilik hujjalarda belgilangan muddatlarga rioya etishni nazarda tutadi. Ma'muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish mazmuni nafaqat ishning holatini o‘z vaqtida, har tomonlama va to‘la aniqlab olishni, balki uning ob’ektivligi, xolisligini ham talab qiladi. Chunki bu toifadagi ishlarni ko‘rib chiqishning asosiy prinsiplaridan biri – ob’ektivlikdir. Ushbu prinsipdan kelib chiqib, ma'muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish vakolatiga ega bo‘lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar barcha holatlarni aniqlashlari shart. Ob’ektivlik ishga nisbatanadolatsizlik, taxminlarga asoslangan holda javobgarlikka tortilayotgan shaxsning manfaatini ko‘zlab guvohlik beradigan holatlarni mensimaslikni istisno etadi. Bundan tashqari, ma'muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritishning ob’ektivligi ushbu jarayon ishtiroychilariga, ularning shikoyatlari va boshqa murojaatlariga nisbatan hurmat bilan qarashni nazarda tutadi.

Amaliyotda ushbu prinsipni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi bilan bir qancha kafolatlar o‘rnatilgan (masalan, huquqbazarlikka oid ishlar qayta ko‘rib chiqilishi mumkin) ma'lum bir holatda ishni ko‘rib chiquvchi davlat organi (mansabdor

shaxslar) hujjatlarni talab qilib olishi, ekspertiza o'tkazishi va boshqa choralarni ko'rishi mumkin.

Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni qonun hujjatlariga binoan hal etish – ma'muriy faoliyatda qonuniylikni ta'minlashning asosiy qoidalaridan biri hisoblanadi. Mazkur qoidaning mohiyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasidan kelib chiqadi, ya'ni huquqbazar faqat qonun hujjatlarida ko'rsatilgan asoslarda va tartibda ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Bojaxona sohasidagi ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha chiqarilgan qarorlarni ijro etish ham ish yuritishning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, huquqbazarliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Ma'muriy javobgarlikka tortish bo'yicha qarorlarni ijro etmaganlik, huquqbazarliklarga qarshi kurashishning samarasini pasaytiradi, qonuniylik prinsipiga putur yetkazadi.

Bojaxona sohasidagi ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishda ma'muriy huquqbazarliklarni sodir etish sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash, uning ogohlantirish va bartaraf etish funksiyasi hisoblanadi. Ma'muriy-yurisdiksiyaviy faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari va mansabdor shaxslar nafaqat huquqbazarlik sabablarini aniqlashlari, balki ushbu sabab va sharoitlarni bartaraf etish choralarini ham ko'rishlari lozim. MjtKning 313-moddasiga ko'ra, ishni ko'rib chiquvchi organ (mansabdor shaxs) ma'muriy huquqbazarliklar sodir etish sabablari va ularga olib kelgan shart-sharoitlarni aniqlaganda, bu sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf qilish yuzasidan choralar ko'rish to'g'risidagi taqdimnomani tegishli korxona, muassasa, tashkilot rahbariga kiritadi. Rahbar taqdimnomasi kelib tushgan kundan boshlab bir oy ichida uni kiritgan organga (mansabdor shaxsga) ko'rilmagan chora haqida ma'lumot berishi shart.

Bojaxona sohasidagi ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlar ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar, ishni ko'rib chiqish jarayonida organ (mansabdor shaxs) tomonidan talab qilib olingan hujjatlar, shuningdek qog'ozda rasmiylashtirilgan hujjatlar asosida shakllantiriladi.

Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlar elektron shaklda shakllantirilishi mumkin. Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlar elektron shaklda shakllantirilganda ishda ishtirok etuvchi shaxslar organga (mansabdor shaxsga) o'zining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan hujjatlarni elektron shaklda taqdim etishga haqli.

Ishlar elektron shaklda shakllantirilganda ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan sudga taqdim etilgan yozma hujjatlar ishga elektron shaklda qo'shib qo'yiladi, shundan so'ng yozma hujjatlar ularni taqdim etgan shaxslarga qaytariladi.

Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlar elektron shaklda shakllantirilgan taqdirda, organ (mansabdar shaxs) tomonidan rasmiylashtirilgan hujjatlar tegishincha organning majlisida raislik qiluvchining va kotibning yoki ishni ko'rib chiquvchi mansabdar shaxsning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni elektron shaklda boshqa organga topshirish axborot tizimi orqali amalga oshiriladi. Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi elektron shaklda shakllantirilgan ishlarning qog'ozdagi ko'chirma nusxalari bo'lishi mumkin.

Bojaxona sohasidagi ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishni yuritishda ishtirok etuvchi shaxslar MJtKda belgilangan tartibda va muddatlarda ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlar yuzasidan murojaat qilishga haqli. Murojaat va unga ilova qilinadigan hujjatlar sudga elektron hujjat shaklida yuborilishi mumkin. Ish holatlari hujjatlarning faqat asl nusxalari bilan tasdiqlanishi lozim bo'lganda, shuningdek boshqa zarur hollarda ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishni yuritayotgan organning (mansabdar shaxsning) talabi bilan hujjatlarning asl nusxalari taqdim etiladi.

Bojaxona haqidagi qonun hujjatlari buzilganligi to'g'risidagi ishlarni yuritish aniqlangan huquqbazarlik to'g'risidagi bayonnomaga tuzilgan vaqtadan boshlanadi.

Bojaxona organi mansabdar shaxsi tomonidan bojaxona qoidalari buzilganligi belgilari aniqlanishi bojaxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishi haqida ish yuritilishiga asos bo'ladi.

Bojaxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishi to'g'risidagi ishlarni yuritish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

- bojaxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishini aniqlash va ularga barham berish, birlamchi materiallarni, huquqbazarliklar to'g'risidagi xabarlarni tekshirish, huquqbuzarning shaxsini aniqlash, dalillar to'plash va ularni tekshirish bo'yicha protsessual harakatlarni amalga oshirish;

- ish materiallarini ko'rib chiqishga tayyorlash;

- bojaxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishi to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish;

- bojaxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishi to'g'risidagi ishlar bo'yicha qarorlar ijrosi;

- huquqbazarliklarni oldini olish bo'yicha takliflar kiritish, ular sodir etilishiga ko'maklashuvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish hamda tartibga solishning boshqa chora-tadbirlari (taqdimnomalar, OAVga chiqishlar qilish va h.k.).

Bojaxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishi to'g'risidagi ishlarni yuritishda bojaxona organi xodimlari MJtK, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining

2018-yil 30-noyabrdagi “Sudlar tomonidan ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rishni tartibga soluvchi qonunlarni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 35-sonli qarori, DBQning 2010-yil 30-apreldagi 128xfu-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi DBQ tizimida davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulkni olib qo‘yish, saqlash, sotish va yo‘q qilib tashlash haqida”gi vaqtinchalik uslubiy qo‘llanma, DBQning 03.03.2015-yildagi “Bojxona organlari tomonidan aniqlangan huquqbazarlik holatlari bo‘yicha tuziladigan protsessual hujjatlar shakllarini tasdiqlash namunalari to‘g‘risida”gi 45-sonli, 2009-yil 13-iyundagi “Bojxona qonunbuzarlik holatlari hisobini yuritish” avtomatlashtirilgan axborot tizimini amaliyotga kiritish to‘g‘risidagi 155-ton buyruqlarida, shuningdek boshqa qonun hujjatlarida belgilangan talablarga amal qilishlari lozim.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishini aniqlash va dastlabki hujjatlarni tuzish (aniqlangan huquqbazarlik to‘g‘risida bayonnomaga tuzish, tushuntirishlar olish, huquqbazarlik quroli yoki bevosita predmeti hisoblangan ashyolar va hujjatlarni olib qo‘yish, ularning saqlanishini ta‘minlash, jarima undirilishini ta‘minlash uchun buyumlarni olib qo‘yish va boshqa harakatlar) bojxona organlarining postlari, Kontrabandaga qarshi kurashish va bojxona audit, Surishtiruv va ma’muriy amaliyot bo‘limlari xodimlari, shuningdek huquqbazarlikni bevosita aniqlagan bojxona xizmatlarining boshqa bo‘linmalari xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishi to‘g‘risidagi ish yuritilishini ta‘minlash choralari - bu vakolatli davlat organlari tomonidan huquqbazarlikni to‘xtatish, huquqbuzarni shaxsini aniqlash, bayonnomaga tuzish, ishlarni o‘z vaqtida va to‘g‘ri ko‘rib chiqilishini ta‘minlash va ish yuzasidan chiqarilgan qarorlarni ijro etish maqsadida qo‘laniladigan ma’muriy huquqiy choralardir.

Bojxona sohasidagi ma’muriy ishlarni yuritish maqsadida shaxsni ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish, shaxsan ko‘rikdan o‘tkazish, uning ashyolari, transport vositalarini ko‘zdan kechirish va ashyo hamda hujjatlarini olib qo‘yish tartibi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks va O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 287-moddasining 6-bandiga muvofiq bojxona organlari xizmatchilari O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 90¹, 184², 184³, 185¹, 189, 189¹, 198, 227, 227¹-227²⁷-moddalarida nazarda tutilgan huquqbazarlik sodir etilgan taqdirda – ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish vakolatiga egadirlar.

Shaxsni ko‘rikdan o‘tkazish va ashyolarni ko‘zdan kechirish MJtKning 289-moddasiga asosan amalga oshiriladi. Shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish va ashyolarni ko‘zdan kechirish to‘g‘risida bayonnomaga tuziladi yoki ma’muriy

huquqbazarlik to‘g‘risidagi bayonnomaga yoxud ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish to‘g‘risidagi bayonnomaga tegishincha yozib qo‘yiladi. Bojxona muassasalarida shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish va ashylarni ko‘zdan kechirish bojxonaga doir qonunchilik hujjalari bilan belgilangan tartibda o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan o‘tayotgan shaxslarni shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 196-moddasi talablari asosida amalga oshiriladi.

MJtKning 290-moddasiga asosan, ashyo va hujatlarni olib qo‘yish, huquqbazarlarni ushslash, shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish yoki ashylarini ko‘zdan kechirish vaqtida aniqlangan huquqbazarlik sodir etish quroli yoki bevosita shunday ashylarga kiradigan ashyo va hujjalarni, ma’muriy yo‘l bilan ushlab turishga vakolatli organlar (mansabdor shaxslar) (MJtK, 287-modda) hamda shaxsni ko‘rikdan o‘tkazish va ashylarni ko‘zdan kechirish (MJtK, 289-modda) vakolatiga ega bo‘lgan organlarning mansabdor shaxslari tomonidan olib qo‘yiladi.

MJtKning 291-moddasida vakolatli organ tomonidan transport vositalarini ushlab turish va ko‘rikdan o‘tkazish qonun hujjalari bilan vakolat berilgan organlar (mansabdor shaxslar) tomonidan ushlab turish sababi bartaraf etilgunga va ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ish ko‘rilgunga qadar amalga oshirilishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan. Bojxona organlari mansabdor shaxslari MJtKning 90¹, 198, 227-227²⁷-moddalarida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbazarliklar sodir etilganda transport vositalarini ushlab turish va ko‘rikdan o‘tkazish vakolatiga ega.

Manfaatdor shaxs ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish, shaxsni ko‘rikdan o‘tkazish, ashylarni ko‘zdan kechirish, transport vositalarini ushlab turish va ko‘zdan kechirish, ashyo va hujatlarni olib qo‘yish, transport vositasini boshqarishdan chetlashtirish ustidan yuqori organ (mansabdor shaxs)ga, prokurorga yoki sudga shikoyat berishi mumkin.

Bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbazarliklarni ko‘rib chiqish

Bojxona haqidagi qonun hujjalarni buzganlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rish va bojxona organlari nomidan jazolarni qo‘llashga bojxona organlarining boshliqlari va ularning o‘rinbosarlari (O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar bo‘yicha boshqarmalari, “Toshkent-AERO” ixtisoslashtirilgan bojxona kompleksi, bojxona postlari boshliqlari) haqlidir.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 303-moddasiga muvofiq bojxona organi mansabdor shaxsi (surishtiruvchi) ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishga tayyorlash paytida quyidagi masalalarni hal etishi kerak:

1) mazkur ishni ko‘rib chiqish o‘zining vakolat doirasiga kirish-kirmasligi: MJtKning 262-moddasiga asosan bojxona organlariga ushbu kodeksning 227,

227¹, 227², 227³, 227⁵, 227⁶, 227⁷, 227¹⁰, 227¹¹, 227¹³-moddasining uchinchi qismida, 227¹⁶-moddasining birinchi qismida, 227²²-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.

Ishni ko'rib chiqish o'zining vakolat doirasiga kirmagan taqdirda esa Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 282-moddasiga asosan bayonnomma, boshqa hujjatlar va ish bo'yicha ashyoviy dalillar bilan birga huquqbuzarlik sodir etilgan yoki aniqlangan paytdan boshlab bir sutkadan kechiktirmay ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan organ (mansabdar shaxs)ga yuboriladi.

2) ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomma va ishga oid boshqa materiallar to'g'ri tuzilgan-tuzilmaganligi;

3) ishni ko'rib chiqishda qatnashuvchi shaxslar uni ko'rib chiqish vaqt va joyi haqida xabardor qilingan-qilinmaganligi;

4) zarur qo'shimcha materiallar so'rab olingan-olinmaganligi;

5) ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs, jabrlanuvchi, qonuniy vakillar, advokat qilgan iltimoslar to'g'risidagi masalalarni hal etadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomma ish ko'rib chiqiladigan asosiy protsessual hujjat hisoblanadi. Bojxona organi boshlig'i yoki o'rinnbosari bayonnomaning to'g'riliqi masalasini hal etishda bojxona organi vakolati bilan bayonnomma tuzilganmi, uning mazmuniga mos qonun talablariga rioya etilganmi, ishni hal etish uchun ahamiyatga molik barcha faktlar to'la bayon etilganmi, bularning hammasini tekshirib chiqishi lozim. Qonun talablari va ishga oid boshqa materiallarning muvofiqligi tekshirib chiqiladi.

Bojxona organi boshlig'i yoki o'rinnbosari ishni ko'rib chiqishda qatnashuvchi shaxslar ish o'tkaziladigan vaqt va manzil haqida ogohlantirilganligiga ishonch hosil qilishi lozim. Bunda shuni nazarda tutish kerakki, ishning ayrim toifasi bo'yicha qonunga muvofiq ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning ish ko'rib chiqilayotganda qatnashishi majburiy hisoblanadi. Bojxona organlari yoki jinoyat ishlari bo'yicha sud sudyalari chaqirig'iga asosan kelishdan bo'yin tovlaganlarga nisbatan ichki ishlar organlari majburiy keltirish chorasini qo'llaydilar. Bojxona organi mansabdar shaxsining ishni ko'rib chiqish uchun zarur qo'shimcha materiallarni talab qilgan-qilmagani aniqlanishi lozim. Ishning barcha holatlarini har tomonlama, to'la va xolis aniqlashtirish uchun materiallar yetarli darajada ekanligiga ishonch hosil qilishi kerak. Qonun ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsga (MJtK, 294-modda), qonuniy vakillarga (MJtK, 296-modda), advokatga (MJtK, 297-modda) ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish bo'yicha iltimosnomaga yuborish huquqini beradi. Bojxona organi boshlig'i yoki o'rinnbosari ishni tayyorlash va ko'rib chiqish paytida iltimosnomani hal etishi, uni rad qilishi yoki iltimosni qondirishi lozim.

Ma'muriy huquqbazarlik ishi bojxona organiga taalluqli bo'lмаган (sudloviga tegishli bo'lмаган) yoki ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish materiallari MJtKning 281 va 282-moddalarida nazarda tutilgan talablar buzilgan holda yuborilgan taqdirda, ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish materiallari ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi bayonnomani tuzgan organga (mansabdor shaxsga) qaytariladi.

Bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish shu huquqbazarlik sodir etilgan joyda ko'rib chiqiladi.

Voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyalar bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni huquqbuzarning istiqomat joyida ko'rib chiqadilar.

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish boshqa joyda ham ko'rib chiqilishi nazarda tutilgan.

Bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ish bojxona organi boshlig'i yoki o'rinnbosari tomonidan ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi bayonnomada va ishga oid boshqa materiallar olingan kundan boshlab o'n besh kunlik muddat ichida ko'rib chiqiladi.

Bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish vaqtida bojxona organi boshlig'i yoki o'rinnbosari: ma'muriy huquqbazarlik sodir etilgan-etilmaganligini, huquqbazarlik sodir etilgan vaqt va joyni, mazkur shaxs uni sodir etishda aybdor-aybdor emasligini, uning ma'muriy javobgarlikka tortilish-tortilmasligini, javobgarlikni yengillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi holatlar bor-yo'qligini, mulkiy zarar yetkazilgan-yetkazilmaganligini, shuningdek ishni to'g'ri hal etishda ahamiyatga molik boshqa holatlarni aniqlashi shart.

Bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish paytida tegishli organ bayonnomada yuritadi.

Ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning va o'zga manfaatdor shaxslarning iltimosiga binoan ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishning mansabdor shaxs tomonidan ko'rib chiqilishi qanday borayotganligi MJtKning 308-moddasining birinchi qismi talablariga muvofiq ravishda yuritiluvchi bayonnomada aks ettiriladi. Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish bayonnomasi tegishinchcha organ majlisidagi raislik qiluvchi va kotib tomonidan yoki ishni ko'rib chiquvchi mansabdor shaxs tomonidan imzolanadi.

O'ziga nisbatan ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish bo'yicha qaror chiqarilgan shaxs va ma'muriy huquqbazarlik to'g'risida bayonnomada tuzgan organ o'z hisobidan ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish to'g'risidagi bayonnomaning ko'chirma nusxasini, shuningdek sud majlisining audio- yoki videoyozuvini olishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi MJtKning 308¹-moddasiga binoan agar bojxona

organi boshlig‘i yoki o‘rinbosari ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqayotganda sodir etilgan ma’muriy huquqbazarlikning kam ahamiyatliligi to‘g‘risida yoki MJtKning maxsus qismidagi moddalarning sanksiyasida nazarda tutilgan eng kam jazodan ham kamroq jazo chorasini qo‘llash uchun asoslar borligi haqidagi xulosaga kelsa, ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ish huquqbazarlikning kam ahamiyatliligi sababli huquqbuzarni ma’muriy javobgarlikdan ozod qilish to‘g‘risidagi yoki yengilroq ma’muriy jazo chorasini qo‘llash haqidagi taqdimoma bilan sudga yuboriladi.

Bojxona organi boshlig‘i yoki o‘rinbosari ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqib, ma’muriy jazo qo‘llash yoki ishni yuritishni tugatish to‘g‘risida qarorni qabul qiladi. Ishni yuritishni tugatish to‘g‘risidagi qaror MJtKning 271-moddasida nazarda tutilgan holatlar mavjud bo‘lgan taqdirda chiqariladi. Sud tomonidan ishni yuritishni tugatish to‘g‘risidagi qaror ogohlantirish e’lon qilinganda ham chiqariladi.

Bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror ishni ko‘rib chiqish tugashi bilanoq darhol e’lon qilinadi va u chiqarilgan paytdan e’tiboran qonuniy kuchga kiradi. Qarorning nusxasi uch kun ichida ustidan shu qaror chiqarilgan shaxsga, shuningdek, o‘zining iltimosiga ko‘ra jabrlanuvchiga topshiriladi yoki jo‘natiladi. Nusxa tilxat bilan beriladi, basharti, qarorning nusxasi jo‘natilsa, bu haqda ishga tegishli yozuv yozib qo‘yiladi.

Bojxona organi boshlig‘i yoki o‘rinbosari ma’muriy huquqbazarliklar sodir etish sabablari va ularga olib kelgan shart-sharoitlarni aniqlaganda bu sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf qilish yuzasidan choralar ko‘rish to‘g‘risidagi taqdimnomani tegishli korxona, muassasa, tashkilot rahbariga kiritadi. Rahbar taqdimoma kelib tushgan kundan boshlab bir oy ichida uni kiritgan organga (mansabdor shaxsga) ko‘rilgan choralar haqida ma’lum qilishi shart.

Nazorat savollari:

1. Bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish tushunchasi va bosqichlari haqida gapirib bering.
2. Bojxona haqidagi qonun hujjalari buzilishi to‘g‘risidagi ishlarni yuritishda foydalilaniladigan normativ huquqiy hujjalarni?
3. Bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbazarliklarni ko‘rib chiqishning o‘ziga xos xususiyatlari haqida gapiring.

§2.3. Bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbazarliklarni ko'rib chiqishda amaliyotda uchrayotgan ayrim muammolar va huquqiy tartibga solishni takomillashtirish masalalari

Mamlakatimizda hozirgi kunda huquqiy tartibga solishning tizimliligi va barqarorligini, davlat boshqaruvi tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy hamda sud-huquq sohalarini isloh qilish bo'yicha qonun hujjatlari normalarining bir xil qo'llanilishini ta'minlash, olib borilayotgan islohotlarning samarali amalgamoshirilishi uchun iqtisodiyot, valyuta siyosatini va ma'muriy hamda jinoiy jazolarni liberallashtirish bo'yicha islohotlar amalgamoshirib kelinmoqda.

Bojxona organlari bojxona sohasiga oid huquqbazarliklarga qarshi kurash vazifasini ado etib, bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishiga barham berish maqsadida huquqiy majburlov choralarini qo'llaydilar.

Amaliyotda ayrim bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbazarliklarni aniqlash, ular bo'yicha ish yuritish va kvalifikatsiya qilish masalalarini hal qilishda bir qator muammolar yuzaga kelmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida amaldagi qonun xujjalaramizdagi bo'shlislarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

Shu o'rinda, quyida ayrim bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbazarliklar bo'yicha javobgarlik masalalariga oid mavjud muammolar, ushbu huquqbazarliklarning yuridik tahlillari va xorijiy qonunchilik tajribasi asosida qonunchilik va amaliyotda yuzaga kelayotgan ziddiyatli masalalarni bartaraf etish maqsadida kelgusida qonunchilikni takomillashtirish va jazolarni liberallashtirishga qaratilgan bir qator taklif va mulohazalarimizni bildirib o'tmoqchimiz.

1. MJtKning 227¹⁹-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o'tishda iqtisodiy siyosat choralarini va boshqa cheklovlarini qo'llanish tartibiga rioya qilmaslik uchun ma'muriy jazo chorasi sifatida musodara hamda jarima qo'llanilishi belgilangan. Ya'ni, bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o'tishda qonunchilikda o'rnatilgan xar qanday cheklovlariga amal qilmaslik, ushbu modda bilan tavsiflanishni nazarda tutadi.

Mazkur moddadagi iqtisodiy siyosat choralarini tushunchasiga Bojxona kodeksining 15-moddasida quyidagicha ta'rif berilgan:

Iqtisodiy siyosat choralarini – tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bojxona hududiga olib kirishga va ushbu huddudan olib chiqishga doir cheklovlar bo'lib, ular kvota belgilashni, litsenziyalashni, shuningdek mamlakat iqtisodiyotining jahon xo'jaligi bilan o'zaro hamkorligini tartibga solishning boshqa chora-tadbirlarini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-dekabrdagi PF-5286-

sonli Farmoni 2-ilovasiga muvofiq davlat va jamiyat tuzumini qo‘porishga, hududiy yaxlitlik, siyosiy mustaqillik va davlat suverenitetini buzishga yo‘naltirilgan, urush, terrorizm, zo‘ravonlik, milliy ustunlik va diniy nafratni, irqchilik va uning turlari (antisemitizm, fashizm)ni targ‘ib qiluvchi bosma asarlar, qo‘lyozmalar, klishelar, rasmlar, fotosuratlar, fotoplyonkalar, negativlar, kino-, video- va audiomahsulotlar, gramzapislar, ovozli materiallar, shuningdek, pornografiya mazmunidagi materiallar O‘zbekiston Respublikasiga import qilinishi (olib kelinishi) ta’qiqlangan.

Shuningdek, mazkur Farmon bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari asosida eksport qilinadigan buyumlar va mahsulotlar ro‘yxati tasdiqlandi.

Mazkur ro‘yxatdagi ta’qiqlangan va cheklov qo‘yilgan mahsulot (tovarlar) va materialarni olib kirish va olib chiqishda belgilangan talablarga rioya etilmaslikda ifodalangan huquqbazarlik jinoyat alomatlari bo‘lmagan taqdirda aynan MJtKning 227¹⁹-moddasi bilan tavsiflashni nazarda tutadi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, iqtisodiy siyosat choralarini tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, MJtKning boshqa moddalarida keltirilgan ba’zi huquqbazarliklar tarkibi bo‘yicha ham aynan shu cheklovlarga rioya etilmasligi natijasida kelib chiqadi. Bu esa amaliyotda harakatlarni tegishli modda bilan kvalifikatsiya qilishda ayrim muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Xususan, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda bojxona qonunchiligi buzilishi sifatida tavsiflanuvchi aynan cheklovlarni bilan bog‘liq bir qator huquqbazarliklar mavjud. Xususan, MJtKning:

184²-moddasi “Diniy mazmundagi materialarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish” deb nomlanib, ushbu materialarni O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish uchun;

185¹-moddasi “Pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomilasi” deb nomlanib, ushbu buyumlarni qonunga xilof ravishda O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish (O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqish) uchun;

189-moddasida “Pornografik mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida tayyorlash yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, pornografik mahsulotni reklama qilish, namoyish etish, tarqatish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog‘ida reklama qilish, namoyish etish, tarqatish” va

189¹-moddasida “Zo‘ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida tayyorlash yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, uni reklama qilish, namoyish etish, tarqatish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog‘ida reklama qilish, namoyish

etish, tarqatish” uchun javobgarliklar belgilangan.

Ushbu moddalarning dispozitsiyalarida “**tarqatish maqsadi**” jumlesi amaliyotda huquqbuzarning harakatlarini ushbu moddalar bilan tavsiflashda muammolarga sabab bo‘lishi mumkin.

Masalan, huquqbazarlikni MJtKning 184²-moddasi bilan tavsiflashda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 20-yanvardagi “Diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish sohasidagi faoliyatni amalga oshirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 10-sonli qarori talablariga amal qilishi lozim. Qarorda begilangan tartibga muvofiq, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o‘z ehtiyojlari uchun har bir nomlanishdagi materialdan uch nusxadan oshmagan miqdorda, agar ular ta’qilangan materiallar ro‘yxatiga kiritilmagan bo‘lsa, ekspertiza o‘tkazilgandan keyin (*Ekspertizaning ijobiy xulosasi O‘zbekiston Respublikasi hududida materiallarning muayyan turini tarqatish huquqini beradi*) O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilishiga yo‘l qo‘yilishi hamda materiallarni qaysi maqsadlarda tarqatishga yo‘l qo‘yilmasligi ko‘rsatib o‘tilgan¹³.

O‘rganishlar natijasida aksariyat hollarda materiallarni olib kiruvchi shaxsning tarqatish maqsadi yo‘qligi MJtKning 184²-moddasi bilan tavsiflashni inkor etishi aniqlandi va bu kabi holatlarda yuqoridagi Bojxona kodeksida berilgan tushunchadan kelib chiqib, mantiqiy jixatdan shaxsning harakatlarini MJtKning 227¹⁹-moddasi bilan tavsiflash mumkin bo‘ladi. Chunki ushbu modda dispozitsiyasida “tarqatish maqsadi” emas, faqat o‘rnatilgan cheklovlarining qo‘llanish tartibiga rioya qilmaslik ko‘rsatilgan. MJtKning 184²-moddasi bo‘yicha javobgarlikni belgilash esa ta’qilangan mahsulot va materiallarni O‘zbekiston Respublikasining faqatgina ichki hududidagi qonunga xilof muomalasi aniqlanganda tavsiflanadi.

Shuningdek, ushbu moddalarning sanksiyalari bir biridan farq qilib, MJtKning 184², 189 va 189¹-moddalari sanksiyalarida ko‘rsatilgan jarima miqdorlari 227¹⁹-modda sanksiyasiga nisbatan ancha yuqori belgilangan. (*Misol uchun: 184²-modda sanksiyasiga ko‘ra fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan yuz baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — ellik baravaridan yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima belgilangan bo‘lsa, 227¹⁹-modda sanksiyasida esa fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o‘n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yetti baravaridan o‘n besh baravarigacha miqdorda jarima solish nazarda tutilgan.*)

Sanksiyalar o‘rtasidagi katta miqdordagi farq davlat organlari tomonidan ma’muriy tartib-taomillar jarayonida ma’muriy jazo chorasini belgilash yuzasidan

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 20-yanvardagi 10-sonli qarori, <https://lex.uz/docs/2322985>.

qaror qabul qilishda korruption holatlarni yuzaga kelishiga hamda ushbu turdag'i huquqbazarliklarni ko'p marotaba takrorlanishiga sabab bo'lishi mumkin, chunki norma talabi bo'yicha MJtKning 184², 189 va 189¹-moddalardagi huquqbazarlikni takroran sodir qilgan shaxs to'g'ridan-to'g'ri jinoiy javobgarlikka tortiladi. MJtKning 227¹⁹-moddasi bo'yicha esa aynan shunday huquqbazarlik bir yil davomida takroran sodir etilgan taqdirda, ushbu moddaning tegishli qismi bilan javobgarlikka tortiladi.

Xorijiy davlatlarning bojxona qonunchiligi tahlil qilinib, bojxona ishi sohasidagi ma'muriy huquqbazarliklar turlari ko'rib chiqilganda, aksariya MDH davlatlarining (Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston) Bojxona kodeksi va Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi kodekslarida tovarlar va transport vositalarini ushbu mamlakatlar hududiga olib kirish va ularning hududidan olib chiqishdagi ta'qilalar va cheklovlar qo'llash tartibiga rioya qilmaslik uchun javobgarlikni belgilovchi normalar mavjudligi, lekin ushbu moddalarning nomida ham, dispozitsiyasida ham "iqtisodiy siyosat choralari" tushunchasi aks ettirilmaganligi aniqlandi. Quyida ayrim MDH davlatlarining qonunchiliklarida O'zbekiston Respublikasi MJtKning 227¹⁹-moddasiga o'xshash moddalarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Jumladan, Rossiya Federasiyasi (keyingi matnlarda RF) Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi kodeksining 16-bobi "Bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbazarliklar" deb nomlanib, 16.3-moddasida "*Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi yoki Rossiya Federatsiyasining bojxona hududiga tovarlarni olib kirish va (yoki) tovarlarni Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqining bojxona hududidan yoki Rossiya Federatsiyasi hududidan olib chiqish bo'yicha ta'qiq va (yoki) cheklovlargacha rioya qilmaslik*" uchun javobgarlik belgilangan¹⁴.

Qirg'iziston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 35-bobi "Bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbazarliklar" deb nomlanib, 504-17-moddasida "*Tovarlar va transport vositalarini Bojxona ittifoqining bojxona chegarasi orqali olib o'tishda iqtisodiy tartibga solish choralari va boshqa cheklovlarini qo'llash tartibiga rioya qilmaslik*" uchun javobgarlik belgilangan¹⁵.

Tojikiston Respublikasi Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi kodeksining 32-bobi "Bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbazarliklar" deb nomlanib, 579-moddasida "*Tojikiston Respublikasi iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha choralarga va boshqa cheklovlargacha rioya qilmagan holda tovarlar yoki transport vositalarini olib o'tish*" uchun javobgarlik belgilangan¹⁶.

¹⁴ http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34661/.

¹⁵ <http://minjust.gov.kg/ru/content/315>.

¹⁶ https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30414710&pos=155;-48#pos=155;-48.

Turkmaniston Respublikasi Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi kodeksining 392-moddasida "*Turkmaniston bojxona chegarasi orqali tovarlar olib o'tishda ta'qiqlash va cheklashlarga rioya qilmaslik*" uchun javobgarlik belgilangan¹⁷.

Qozog'iston Respublikasi Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi kodeksining 29-bobi "*Bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbazarliklar*" deb nomlanib, 545-moddasida "*Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqining bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tishda ta'qiq va cheklovlarini qo'llash tartibiga rioya qilmaslik*" uchun javobgarlik belgilangan¹⁸.

Ozarbayjon Respublikasi Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi kodeksining 37-bobi "*Bojxona qoidalariga tajovuz qiluvchi ma'muriy huquqbazarliklar*" deb nomlanib, 502-moddasida "*Ozarbayjon Respublikasi bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tishda savdo siyosati va boshqa cheklovlar choralarini qo'llash tartibiga rioya qilmaslik*" uchun javobgarlik belgilangan¹⁹.

Ukraina²⁰ va Gruziya²¹ davlatlarida bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbazarliklar turlari hamda javobgarliklar Bojxona kodeksida belgilangan bo'lib, cheklovlar choralarini qo'llash tartibiga rioya qilmaslik bo'yicha javobgarlikni nazarda tutuvchi normalar nazarda tutilmagan.

Bundan tashqari, Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Gruziya, Latviya, Litva, Estoniya va boshqa bir qator davlatlarning Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi qonunchiligi o'rganilganda, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 189 va 189¹-moddalariga o'xshash normalar mavjud emasligi kuzatildi. Mazkur moddalardagi harakatlar uchun javobgarlik yuqorida sanab o'tilgan davlatlarning faqat Jinoyat qonunchiligi bilan tartibga solinishi belgilab qo'yilgan.

Xulosa o'rnida yuqoridagi tahlillar hamda ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligi va tajribasini o'rganishlar natijasida amaliyotda davlat organlari tomonidan ma'muriy ishni yuritish va ko'rib chiqishda o'rganib chiqilgan moddalarni (184², 189, 189¹ va 227¹⁹-moddalari) to'g'ri qo'llanishi hamda bir xilda tavsiflanishi uchun 184², 189 va 189¹-moddalarning dispozitsiyasidagi "*O'zbekiston Respublikasiga olib kirish*" degan so'zlarni chiqarib tashlash hamda 227¹⁹-moddasini quyidagicha yangi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

MJtK 227¹⁹-moddasi. O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi

¹⁷ https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31443571&pos=6;-106#pos=6;-106.

¹⁸ https://online.zakon.kz/document/?doc_id=31577399#sub_id=0.

¹⁹ https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=36865427&pos=4;-88#pos=4;-88.

²⁰ http://continent-online.com/Document/?doc_id=30418317.

²¹ <https://matsne.gov.ge/ru/document/view/16270?publication=37>.

orqali tovarlar va materiallarni olib o‘tishda o‘rnatilgan cheklovlar va (yoki) ta’qiqlarga rioya qilmaslik.

O‘rnatilgan cheklovlar va (yoki) ta’qiqlar qo‘llaniladigan tovarlar va materiallarni belgilangan tartibni buzgan holda O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o‘tish,

tovarlar va materiallar musodara qilinib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o‘n baravarigacha, mansabdar shaxslarga esa - yetti baravaridan o‘n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo‘lsa,

tovarlar va materiallar musodara qilinib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan o‘n besh baravarigacha, mansabdar shaxslarga esa - o‘n besh baravaridan o‘ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

2. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni olib o‘tilishi Bojxona Kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-fevraldagagi “Jismoniy shaxslar tomonidan bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tishni yanada tartibga solish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 3512-sonli Qarori²², Vazirlar Maxkamasining 2018-yil 22-iyundagi “Jismoniy shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga tovarlarni olib o‘tish tartibini takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘risida” gi 463-sonli Qarori²³ hamda boshqa bir qator normativ xujjatlar bilan tartibga solinadi va jismoniy shaxslar tomonidan respublikaga olib kiriladigan, bojxona to‘lovlari tortilmaydigan tovarlarning me’yorlari belgilangan.

MJtKning 227²⁰-moddasiga asosan jismoniy shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali aslida ishlab chiqarish yoki tijorat faoliyati uchun mo‘ljallangan tovarlarni tijorat maqsadi uchun mo‘ljallanmagan tovarlar niqobi ostida olib o‘tish uchun ma’muriy jazo chorasi sifatida musodara hamda jarima qo‘llanilishi belgilangan. Ya’ni, mazkur holatda ham bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tishda qonunchilikda o‘rnatilgan ayrim tartib cheklov larga amal qilmaslik, ushbu modda bilan tavsiflanishni nazarda tutadi.

Ammo, yuqoridagi MJtKning 227²⁰-moddasida ko‘rsatilgan ma’muriy huquqbuzarlik alomati bo‘lishi uchun tovar aslida ishlab chiqarish yoki tijorat

²² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.02.2018-yildagi PQ-3512-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/3551264>.

²³ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.06.2018-yildagi 463-sonli qarori, <https://lex.uz/docs/3791922>.

faoliyat uchun mo‘ljallangan bo‘lishi lozim. Biroq hozirgi kunda bojxona to‘g‘risidgi qonun xujjalariini buzganlik uchun ma‘muriy ishlarni yuritish amaliyotida bojxona chegarasi orqali jismoniy shaxslar tomonidan olib o‘tilayotgan tovarlarning maqsadini aniqlash bir qator qiyinchiliklar tug‘diradi. Bunga sabab, O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 155-moddasiga asosan, jismoniy shaxslar tomonidan bojxona chegarasi orqali olib o‘tilayotgan tovarlarning qanday maqsadga mo‘ljallanganligini aniqlashda quyidagilar hisobga olinadi:

tovarlarning miqdori, bunda tovarlarni olib o‘tayotgan jismoniy shaxs va uning oila a’zolari extiyojlaridan ortiq miqdordagi bir turdag'i tovarlarga, agar *tovarlarni olib o‘tayotgan shaxs aksini ibotlab bermasa*, tadbirkorlik faoliyatida foydalanish uchun olib kirilayotgan tovarlar deb qaraladi;

tovarlarni olib o‘tishning takroriyligi, bunda ayni bir shaxs tomonidan bir turdag'i tovarlarningbir necha bor olib kirilishiga, agar *tovarlarni olib o‘tayotgan shaxs aksini ibotlab bermasa*, tadbirkorlik faoliyatida foydalanish uchun olib kirilayotgan tovarlar deb qaraladi;

safarning holatlari, bunda safarning maqsadi va davomiyligi hisobga olinadi deb ko‘rsatilgan.

Ushbu holatlarda jismoniy shaxs tovarning tijorat maqsadi uchun mo‘ljallanmaganligini isbotlab berish imkoniyati mavjud bo‘lib, masalan jismoniy shaxs va uning oila a’zolarning soni hamda ularning extiyojlarni aniqlash imkon bojxona organlarida mavjud bo‘limganligi sababli ko‘p holatda bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tayotgan fuqarolarning so‘ziga ishonishga majbur bo‘ladi. Shuningdek, fuqaro bojxona chegarasi orqali olib o‘tayotgan tovarlarini tijorat maqsadi uchun mo‘ljallanmaganligini isbotlash uchun har xil tasdiqlanmagan ma’lumotlarni taqdim etish orqali BK 155-moddasida ko‘rsatilgan talablardan o‘z manfaati yo‘lida foydalanib, tovarlarni tijorat maqsadi uchun mo‘ljallanganligini tan olmasligi mumkin. Lekin, fuqaroga nisbatan MJtKning 227²⁰-moddasi bilan ish yuritilishi uchun tovarlarni tijorat maqsadi uchun mo‘ljallanganligi va fuqaro notijorat maqsadiga mo‘ljallangan tovar niqobi ostida olib o‘tishga xarakat qilganligi isbotlanishi shart. (*Ma’lumot uchun: Aybsizlik prezumpsiyasiga asosan fuqaro o‘zining aybsizligini isbotlashga majbur emas, aksincha fuqaroni aybdor qilish hamda fuqaroga nisbatan ma‘muriy ish materiali yuritish uchun davlat organlari fuqarolarning aybini isbotlab berishlari lozim, agar isbotlanmasa fuqarolarning huquq va erkinliklari cheklanishiga olib keladi*)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-noyabrdagi “Jismoniy shaxslar tomonidan shaxsiy ehtiyojlari uchun tovarlarni olib o‘tish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 4508-sonli Qarori bilan yagona bojxona to‘lovi bojxona to‘lovlari undirilmaydigan tovarlarni jismoniy shaxslar tomonidan

respublikaga olib kirishning cheklangan me'yorlaridan ortgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi kodidan (TIF TN) va kelib chiqish mamlakatidan qat'i nazar tovarlarning barcha toifalari bo'yicha bojxona qiymatidan kelib chiqqan holda, cheklangan me'yorlardan ortiq qismiga nisbatan undirilishi, bunda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-fevraldagagi "Jismoniy shaxslar tomonidan bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o'tilishini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3512-son qarorining 1-ilovasida nazarda tutilgan tovarlarni olib kirish me'yorlardan ortgan taqdirda bojxona to'lovlari umumbelgilangan tartibda to'lanishi, tovarning bojxona qiymatidan 30 foiz, lekin har bir kilogrami uchun 3 AQSh dollaridan kam bo'limgan miqdorda yagona bojxona to'lovi stavkasi shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan shaxsiy ehtiyojlari uchun olib kiriladigan tovarlar toifasiga kirmaydigan tovarlar ro'yxati tasdiqlangan²⁴.

Yuqorida keltirilganlardan ko'rinish turibdiki, bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan bojxona to'lovlari to'lamasdan olib kirish me'yorlaridan ortiqcha xar qanday tovarlarga nisbatan bojxona to'lovlari undiriladi.

Shu bois jismoniy shaxs tomonidan bojxona chegarasi orqali normativ xujjalarda belgilangan me'yorlardan ortiqcha miqdordagi tovarlarni olib o'tilgan va me'yordan ortiqcha qismiga bojxona to'lovlarini to'lashdan bosh tortgan taqdirda, ushbu harakatlarni MJtKning 227¹⁹-moddasi, ya'ni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o'tishda iqtisodiy siyosat choralarini va boshqa cheklovlarini qo'llanish tartibiga rioya qilmaslik sifatida tavsiflansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bundan tashqari bu kabi huquqbazarliklar bo'yicha xorijiy qonunchilik tajribasi o'rganilganda, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Gruziya va Litva davlatlarining bojxona xaqidagi qonun xujjalalarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalari qatorida yuqorida biz taxlil qilib o'tgan O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali aslida ishlab chiqarish yoki tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni tijorat maqsadi uchun mo'ljallanmagan tovarlar niqobi ostida olib o'tish xarakati uchun javobgarlik belgilanmaganligini ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, taxlil qilinayotgan O'zbekiston Respublikasi MJtKning 227²⁰-moddasi bilan amaliyotda fuqaroga nisbatan aybdorlik masalasini hal qilishda muammolar yuzaga kelayotganligi va xorijiy davlatlarning qonunchiligidagi ushbu turdagiligi qilmishlar uchun javobgarlik normalari mavjud emasligini hisobga olgan holda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksdan 227²⁰-moddasini chiqarish va bu kabi harakatlarni ham

²⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.11.2019-yildagi PQ-4508-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/4585742>.

O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 227¹⁹-moddasi bilan tavsiflashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

3. Ma’lumki, JKning 182-moddasi 1-qismi ma’muriy preyuditsiyani talab qiladi, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 6-sentyabrdagi 18-sonli “Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 3-bandiga ko‘ra, JKning 182-moddasi 1-qismi bo‘yicha jinoiy javobgarlik tovar-moddiy qimmatliklarni ko‘p miqdorda ushbu qism dispozitsiyasida nazarda tutilgan usul(lar)da bojxona chegarasidan qonunga xilof o‘tkazganlik uchun ma’muriy javobgarlikka tortilgan shaxsga ma’muriy jazo qo‘llanilganidan so‘ng bir yil davomida yana aynan shunday huquqbazarlikni, ya’ni O‘zbekiston Respublikasining MJtKning 227²¹-moddasi va 227²²-moddasining birinchi qismida ko‘rsatilgan huquqbazarlikni ko‘p miqdorda sodir etgan holdagina kelib chiqadi²⁵.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasidan o‘tkazilishi bilan bog‘liq ma’muriy huquqbazarliklarning o‘ziga xos hususiyati shundan iboratki, bunda huquqbazarliklarning ob’ekti bo‘lib, tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasidan o‘tkazilishi bilan bog‘liq bo‘lgan tartib va qoidalar hisoblanadi.

Demak, tovarlarni bojxona chegarasidan o‘tkazish bilan bog‘liq huquqbazarlarga Oliy sudi Plenumi qarorida yuqorida ta’kidlab o‘tilgan MJtKning 227²¹-moddasi (Tovarlar va transport vositalarini belgilangan tartibni buzgan holda O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o‘tish) va 227²²-moddasi (Tovarlarni deklaratsiyalamaslik yoki noto‘g‘ri deklaratsiyalash) 1-qismida ko‘rsatilganlardan tashqari, bizning fikrimizcha, *MJtKning 227¹⁹-moddasi (O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tishda iqtisodiy siyosat choralari va boshqa cheklovlarini qo‘llanish tartibiga rioya qilmaslik)* va *227²⁰-moddasida (Tijorat maqsadlari uchun mo‘ljallanmagan tovarlar niqobi ostida O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tish)* ko‘rsatilgan huquqbazarliklar ham kiradi, chunki ushbu huquqbazarliklar mazmuniga ko‘ra, tovarlarni bojxona chegarasidan o‘tkazishning qonun-hujjatlarida belgilangan tartibiga xilof ravishda olib o‘tilishi orqali sodir etiladi va bojxona hujjatlari yoki vositalariga o‘xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo‘li bilan foydalangan holda sodir etish xususiyatiga ega. Bojxona amaliyotida bu turdagi ma’muriy huquqbazarliklar ham ko‘plab sodir etilmoqda.

Shu bois, amaliyotda O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 227¹⁹ va 227²⁰-moddalarida ko‘rsatilgan huquqbazarliklar ko‘plab sodir etilishini va ular

²⁵ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 2013-yil 6-sentyabrdagi 18-sonli qarori, <https://www.lex.uz/docs/2259789>.

bevosita bojxona chegarasi orqali tovarlarni noqonuniy olib o‘tilishi bilan bog‘liq huquqbazarliklar hisoblanishini hamda ushbu bojxona qonunchiligi buzilishi turlari JKning 182-moddasi dispozitsiyasidagi “bojxona hujjatlari yoki vositalariga o‘xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo‘li bilan foydalangan holda sodir etish xususiyatiga ega bo‘lganligini inobatga olib, *Oliy sudi Plenumining “Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish va konrabandaga oid ishlar buyicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 3-bandiga qo‘srimcha ravishda MJtKning 227¹⁹ va 227²⁰-moddalarini kiritib, ma’muriy preyuditsiya ta’siriga tushishini belgilash maqsadga muvofiq bo‘ladi.*

4. O‘zbekiston Respublikasi JKning 184-moddasi 1-qismi ham ma’muriy preyuditsiyani talab qiladi, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 31-maydagi “Soliqlar va yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun javobgarlikka oid qonunchilikning sudlar tomonidan qo‘llanilishi to‘g‘risida”gi 8-sonli Qarorining 4-bandi 2-xatboshida “Agar shaxs soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun MJtKning 174-moddasining ikkinchi qismi bo‘yicha ma’muriy jazo qo‘llanilganidan so‘ng bir yil davomida shunday qilmishni yana ancha miqdorda sodir etsa, JKning 184-moddasining birinchi qismi bo‘yicha jinoiy javobgarlik kelib chiqadi”, deb tushuntirish berilgan²⁶. Lekin, ushbu qarorda *bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovplash bilan bog‘liq ma’muriy huquqbazarliklarni takroran sodir etilgan holatlarda ushbu qilmishni kvalifikatsiya qilish masalasi* nazardan chetda qolgan. Bu esa, sud-tergov amaliyotida ushbu toifadagi qilmishlarni har tomonlama to‘liq o‘rganmasdan Jinoyat kodeksidagi javobgarlikning muqarrarligi prinsipiga zid ravishda huquqbazarlikni bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovplash orqali takroran sodir etgan shaxsni JKning 184-moddasi bo‘yicha javobgarlikka tortish masalasi ochiq qolishiga sabab bo‘lmoqda.

Tahlillarga ko‘ra, soliqlar va yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovplash bilan bog‘liq huquqbazarliklarga Oliy sud Plenumi qarorida ta’kidlab o‘tilgan MJtKning 174-moddasidan tashqari, 227²⁴-moddasi (*Bojxona to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar berilgan, shartli ravishda chiqarilgan tovarlar va transport vositalaridan foydalanish hamda ularni tasarruf etish tartibini buzish*) va 227²⁵-moddasida (*Bojxona to‘lovlaridan g‘ayriqonuniy ozod qilishga, ularni kamaytirishga, to‘langan bojxona to‘lovlarini qaytarib olish, to‘lovlar va boshqa haqni olishga yoxud yetarli asoslarsiz ularni qaytarmaslikka qaratilgan xatti-harakatlar*) ko‘rsatilgan huquqbazarliklar ham kiradi, chunki ushbu harakatlar bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovplash usullari hisoblanadi va JKning 184-moddasida ko‘rsatilgan jinoyatning ob’ektiv tomoni xususiyatini aks ettiradi.

²⁶ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 2013-yil 31-maydagi 8-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/2212245>.

Bojxona amaliyotida bu turdag'i ma'muriy huquqbazarliklar ham ko'plab sodir etilmoqda.

Shu bois, bojxona amaliyotida O'zbekiston Respublikasi MJtKning 227²⁴ va 227²⁵-moddalarida ko'rsatilgan huquqbazarliklar ko'plab sodir etilishini va ular bojxona to'lovlari to'lashdan bo'yin tov lash usullari hisoblanishini inobatga olib hamda javobgarlikning muqarrarligi prinsipiga asoslanib, Jinoyat kodeksi 184-moddasi dispozitsiyasida belgilangan ma'muriy preyuditsiyani to'g'ri qo'llash maqsadida *Oliy sudi Plenumining "Soliqlar va yig'imlarni to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlikka oid qonunchilikning sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida"gi 8-sonli Qarorining 4-bandiga 2-xatboshiga qo'shimcha ravishda MJtKning 227²⁴ va 227²⁵-moddalarini kiritib, ma'muriy preyuditsiya ta'siriga tushishini belgilash lozim deb hisoblaymiz.*

5. O'zbekiston Respublikasi JPKning 329-moddasida jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni ro'yxatga olgandan so'ng, tergovga qadar tekshiruv o'tkazish va uning muddatlari keltirib o'tilgan. MJtKda esa bunday muddat mavjud emas. Faqatgina MJtKning 282-moddasida ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi bayonnomaga 1 sutkadan kechiktirmay ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lган organiga yuborilishi belgilab o'tilgan. Ushbu holatda agar huquqbazarlik ashyosi sifatida tovar moddiy boyliklari olinadigan holatlarda, ularni yaroqliligi, bahosi aniqlanishi lozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15.07.2009-yildagi 200-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulkni olib qo'yish, sotish yoki yo'q qilib tashlash tartibi to'g'risida"gi Nizom talablariga ko'ra olib qo'yilgan mol-mulkning iste'mol, foydalanish, qayta ishslash uchun yaroqlilagini aniqlash, shuningdek uni baholash maqsadida tovarlar bo'yicha ekspertizalar tayinlanishi hamda o'ziga xos xususiyatlardan kelib chiqib, ularni o'tkazish muddatlari 1 kun, 3 kun, 10 kun va 1 oy etib belgilangan²⁷. Bundan ko'rinish turibdiki, ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi bayonnomani MJtKning 282-moddasiga muvofiq 1 sutkadan kechiktirmay ko'rib chiqish uchun yuborish imkonii mavjud emas. Shu bois, MJtKning 270-moddasini yangi tahrirda qabul qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Xususan, **270-modda. Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish tartibi**

Ma'muriy huquqbazarlikka oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar ro'yxatga olinishi va 1 sutkada, ko'rib chiqish uchun sabab qonuniyligini va asoslar yetarli ekanligini tekshirish zarurati bo'lган taqdirda esa, o'n sutkadan kechiktirmasdan ko'rib chiqish uchun jo'natilishi lozim. Ushbu muddat ma'muriy

²⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 15-iyuldagisi 200-son qarori, <https://www.lex.uz/docs/1498826>.

huquqbuzarlikka oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar olingen paytdan boshlab hamda to ishni ko'rib chiqish uchun yuborilganga qadar bo'lgan vaqtini o'z ichiga oladi.

Ushbu modda birinchi qismida ko'rsatilgan muddat ichida ma'muriy ishni ko'rib chiqishga qadar tekshiruv o'tkazilib, uning davomida qo'shimcha hujjatlar, tushuntirishlar talab qilib olish, shuningdek shaxsni ma'muriy yo'l bilan tushlab turish ushbu Kodeks 289, 290-moddalariga muvofiq shaxsni ko'rikdan o'tkazish, ashyolarni, hujjatlarni ko'zdan kechirish va olib qo'yish, ekspertiza o'tkazish, tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish haqida topshiriqlar berish mumkin.

Alovida hollarda, ma'muriy ishni ko'rib chiqishga qadar tekshiruv muddati quyidagi holatlardan biri mavjud bo'lgan taqdirda, ma'muriy huquqbuzarlik holatini aniqlagan mansabdor shaxsining asoslantirilgan qaroriga ko'ra ma'muriy ishni ko'rib chiquvchi organ boshlig'i tomonidan bir oygacha uzaytirilishi mumkin:

- 1) o'tkazish uchun ko'p vaqt talab qiladigan ekspertiza yoki boshqa tekshiruv tayinlangan bo'lsa;
- 2) olis joylarda bo'lgan yoki chaqiruvga binoan hozir bo'lishdan bo'yin tovlayotgan shaxslardan tushuntirishlar talab qilib olish zarur bo'lsa;
- 3) yangi holatlar aniqlanib, ularni qo'shimcha tarzda tekshirmasdan turib qaror qabul qilishning imkonini bo'lmasa;
- 4) yetkazilgan moddiy zararning o'rnnini ixtiyoriy ravishda qoplash va (yoki) huquqbuzarlik oqibatlarini bartaraf etish uchun ushbu Kodeksning tegishli moddasida belgilangan muddat o'tmagan bo'lsa.

Nazorat savollari:

1.O'zbekiston Respublikasi MJtKning 227¹⁹ va 227²⁰-moddalarini bo'yicha kvalifikatsiya qilishda amaliyotda uchrayotgan muammolar va uning yechimi borasida fikr-mulohazalariningizni bildiring.

2. Tovarlarni bojaxona chegarasidan o'tkazish bilan bog'liq huquqbuzarliklar borasida ma'muriy preyuditsiyaga oid takliflarga izoh bering?

3. Bojaxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tovash bilan bog'liq huquqbuzarliklar borasida ma'muriy preyuditsiyaga oid takliflarga izoh bering?

4. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish va ko'rib chiqish bilan bog'liq muammolar va uning yechimi borasida fikr-mulohazalariningizni bildiring.

III-BOB. BOJXONA SOHASIDAGI JINOYATLAR

Jinoyat huquqi ta’limotida va amaldagi qonun hujjatlarida “bojxona sohasidagi jinoyatlar” tushunchasiga ta’rif berilmagan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida bojxona sohasidagi jinoyatlar alohida guruhga ajratilmagan.

“Bojxona sohasidagi jinoyatlar” mazmun mohiyatiga ko‘ra bojxona qonunchilagini buzishga qaratilgan ijtimoiy xavfli qilmishlar hisoblanadi. Bojxona qonunchiligi buzilishi uchun Jinoyat kodeksining 182-moddasida “Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish” va 246-moddasida “Kontrabanda” jinoyatlaridan tashqari, dispozitsiyasida bojxona qonunchiligi buzilishi ham nazarda tutilgan 130 (Pornografik mahsulotni tayyorlash, *olib kirish*, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish), 130¹ (Zo‘ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, *olib kirish*, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish), 184-moddasida “Soliq yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovplash” (*bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovplash holatlari bo‘yicha*), 244³ (Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, *olib kirish* yoki tarqatish), 244⁴ (Uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda *olib kirish*, o‘tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish) va 250¹ (Pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi) moddalari bo‘yicha ham javobgarlik belgilangan.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, bojxona sohasidagi jinoyatlar jinoyat predmetlari xususiyatidan kelib chiqqan holda tajovuz ob’ektlari e’tiborga olinib, JKning turli boblarida joylashtirilgan. Shunga asosan, *bojxona sohasidagi jinoyatlar bu – bojxona qonunchiligi buzilishi bilan bog‘liq Jinoyat kodeksining tegishli boblarida javobgarliklar nazarda tutilgan davlatning iqtisodiyot asoslari, jamoat xavfsizligi va axloq normalariga zarar keltiradigan ijtimoiy xavfli qilmishlardir*²⁸.

Bojxona sohasidagi jinoyatlarning mazmun-mohiyatini chuqurroq o‘rganish maqsadida, quyida ushbu ijtimoiy xavfli qilmishlarni tajovuz ob’ektidan kelib chiqib, tashqi iqtisodiy faoliyat (keyingi matnlarda TIF) bilan bog‘liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlari hamda jamoat xavfsizligi va axloq normalariga tahdid soluvchi bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlari tariqasida alohida paragraflarga ajratib, nazariy-huquqiy tahlilini qilishni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

²⁸ Achilov A.T. Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlarini jinoiy-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish //Monografiya-Toshkent: BI, 2020 y.-230 b.

§3.1. Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlari tushunchasi, tasniflanishi va o‘ziga xos xususiyatlari

Hozirgi kunda yurtimizda keng ko‘lamdagи islohotlar olib borilishiga qaramasdan tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi, shu jumladan bojxona qonunchiligi buzilishi bilan bog‘liq huquqbazarliklar ko‘lami va salmog‘i ko‘payib borishi kuzatilmоqda. Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlari huquqbazarlarni noqonuniy yo‘llar bilan mo‘maygina daromad keltira olishi bilan qiziqtira olgan. Bundan tashqari ushbu sohadagi jinoyatlar eng moslashuvchan va ijtimoiy munosabatlarga tez kirishimlidir. Boshqa iqtisodiy jinoyatlar singari, ushbu sohadagi jinoyatlar mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi asoslariga tajovuz qiladi.

Amaldagi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining maxsus qismi tashqi iqtisodiy faoliyatni jinoyatning alohida ob’ekti sifatida ajratib ko‘rsatmaydi. Huquqiy normalarda va sud tergov amaliyotida ushbu masalani hal qilish bo‘yicha yagona yondashuv yo‘q.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi jinoiy qonunchiligidagi “tashqi iqtisodiy faoliyat” jinoyatning alohida ob’ekti sifatida qabul qilinmagan. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining 2019-yil 31-dekabrdagi 329-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi huquqbazarliklar bo‘yicha ish yuritish tartibi to‘g‘risida”gi Uslubiy qo‘llanmaning 1-bob 2-qismida “TIF sohasidagi huquqbazarliklar – yuridik va jismoniy shaxslar, davlat organlarining tashqi iqtisodiy faoliyat yuritish jarayonida sodir etiladigan huquqbazarliklari tushuniladi”- deb ta’rif berilgan. Ushbu ta’rif TIF sohasida jinoyatlarni mazmunini to‘liqligicha ochib bermagan va ushbu yo‘nalishda bir qator ilmiy tadqiqotchilarning fikrlari bilan tanishib chiqilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

TIF sohasidagi jinoyatlar bo‘yicha tadqiqot olib borgan aksariyat mualliflar ushbu tushuncha tajovuz obekti orqali shakllantirilishini ta’kidlaganlar. Masalan, L.D.Gauxman tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlar ijtimoiy munosabatlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tajovuz qiladi va iqtisodiy manfaatlarga zarar yetkazadi deb e’tirof etadi²⁹. B.V.Voljenkinning so‘zlariga ko‘ra, bu jinoyatlar tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi o‘rnatilgan tartibni buzuvchi jinoiy harakatlardir, deb ta’riflaydi³⁰. Yu.I.Suchkov tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi

²⁹ Уголовное право. Часть Общая. Часть Особенная: учебник / под общ. ред. проф.Л.Д.Гаухмана, проф. Л.М. Колодкина и проф. С.В. Максимова. Москва, 1999. С. 481.

³⁰ Волженкин Б.В. Экономические преступления. Санкт-Петербург, 1999. С. 122.

jinoyatlar barcha mulkchilik shakldagi jinoyatlarga ta'sir qo'rsatishini ta'kidlaydi;³¹

Boshqa bir qator olimlar o'rganilayotgan sohadagi jinoyatlarni bir qancha xususiyatlar, jumladan, nafaqat ob'ekt, balki ushbu toifadagi ishlar bo'yicha surishtiruv olib boruvchi sub'ektlar orqali aniqlashni taklif etadilar. Masalan, G.A.Rusanov ko'rib chiqilayotgan harakatlarni bojxona organlari vakolati bilan bog'liq bo'lgan jinoyat sifatida talqin qiladi va "sof bojxona jinoyati" deb ataydi³². Ushbu mazmundagi ta'rif bir necha sabablarga ko'ra birmuncha cheklangandek ko'rinadi: birinchidan, ushbu sohadagi jinoyatlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv bilan shug'ullanuvchi sub'ektlar doirasi torayib, ikkinchidan, jinoiy ta'sir doirasi sifatida faqat bojxona sohasi belgilangan. Bunday talqin, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi barcha noqonuniy harakatlar ushbu tushunchaga mos kelmasligi mumkinligini ko'rsatadi.

Bojxona sohasidagi jinoyatlar to'g'risida ayrim huquqshunoslarning ta'rifiga ko'ra, bojxona organlari davlatning tashqi iqtisodiy siyosatini amalga oshirganligi sababli bojxona organlarining faoliyatini jinoyatlar ob'ekti sifatida tan olish noto'g'ri bo'ladi, chunki TIF sohasidagi munosabatlar iqtisodiy faoliyat sohasidagi ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy qismi hisoblanadi³³.

Shuningdek, TIF sohasidagi jinoyatlar tushunchasi bo'yicha doktrinada jinoiy qilmishning sub'ekti³⁴ va ob'ektiv tomondan³⁵ kelib chiqadigan ta'riflar shakllantirilganligini ham uchratish mumkin.

Yuqoridagi ta'riflarning barchasi ma'lum darajada tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlarning mohiyatini oolib beruvchi xususiyatlarni o'z ichiga olsada, birinchi navbatda tajovuz ob'ektni belgilash bilan bog'liq yondashuv, bizningcha, ushbu jinoiy harakatlarni boshqalardan ajratib ko'rsatish imkonini bergenligi tufayli eng maqbulidir.

Bojxona sohasidagi jinoyatlar haqida gap ketganda, ko'plab mualliflar bojxona chegarasini kesib o'tish orqali muayyan harakatlarning amalga oshirilishini ushbu jinoyatlarning asosiy xususiyatlardan biri sifatida ta'kidlashadi. Biroq shuni hisobga olish kerakki, bunday jinoiy harakatlar bojxona chegaralarida

³¹ Сучков Ю.И. Преступления в сфере внешнеэкономической деятельности Российской Федерации. Москва, 2007. С. 115.

³² Русанов Г.А. Преступления в сфере экономической деятельности: учебное пособие. Москва, 2011. С. 76.

³³ Dmitrienko I.V. Foreign economic activity as the object of criminal law protection //Russian investigator. 2008. №8.

³⁴ Андриянов В.Н., Гармаев Ю.П. Современный подход к разработке методики расследования преступлений в сфере внешнеэкономической деятельности // Сибирский юридический вестник. 2003. №1. с. 7–9.

³⁵ Жбанков В.А. Таможенные преступления: сущность и проблемы выявления // Сибирский юридический вестник. 2004. №4

sodir etilishi tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish tartibiga ham tajovuz qiladi va bu harakatlarni TIF sohasidagi jinoyatlar ekanligidan dalolat beradi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bojxona sohasidagi jinoyatlarning Jinoyat kodeksiga joylashuvidan kelib chiqsak, JKning 182 va 184 (faqat bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tov lash holatlari bo'yicha) -moddalarida ko'rsatilgan jinoyatlar bevosita tashqi iqtisodiy faoliyatga tajovuz qilsa, qolgan jinoyatlar bojxona qonunchiligi buzilishi sifatida TIF sohasiga bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan turli xil variantlar mavjudligiga qaramay, huquqiy normalar va amaldagi qonun hujjalarga asoslangan TIF sohasidagi jinoyatlarni belgilaydigan ta'rifga ehtiyoj sezilmoqda. Buning uchun ushbu harakatlar uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi quyidagi asosiy xususiyatlarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

Birinchidan, bu, albatta, ushbu harakatlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 14-moddasida ko'rsatilgan jinoyat deb topiladigan belgilarga ega bo'lishi kerak, ya'ni qilmishning ijtimoiy xavfliligi, g'ayriqonuniyligi, jinoiy jazoga sazovorligi jinoyatning zaruriy belgilaridir. Bu xususiyat har qanday jinoyatlar guruhi uchun birlamchi asos vazifasini bajaradi.

Ikkinchidan, shuni aytish kerakki, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida jinoiy tajovuzlarning ob'ekti - bu ijtimoiy munosabatlarning muhofaza etiladigan alohida sohasidir. Bunday jinoyatlar iqtisodiy jinoyatlarning bir turi bo'lib, albatta, ob'ektni aniqlash uchun iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoiy tajovuzlarning ob'ektini o'rganishdan boshlash kerak.

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar bu - O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilangan, milliy iqtisod, uning tarmoqlari yoki sohalariga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaradigan ijtimoiy xavfli qilmishlardir. Bu kabi jinoyatlarning sodir etilishi natijasida shaxslarga, jamoat birlashmalariga yoki davlatga moddiy zarar yetkaziladi, davlatning iqtisodiy negizlariga tajovuz qilinadi³⁶.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlarning *bevosita ob'ekti* TIFning normal faoliyat yuritishini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardir. O'rganilayotgan sohada boshqa alohida turdag'i faoliyatlar jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni qo'shimcha ob'ekt sifatida ajratish lozim.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, bizni qiziqtirgan tushunchani aniqlashda eng maqbul deb topilgan yondashuv - ushbu jinoiy tajovuzlarning bevosita ob'ekti - tashqi iqtisodiy faoliyat hisoblanishidir. Bu esa ushbu jinoiy harakatlarni boshqalaridan ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

³⁶ Kabulov R., Otajonov A. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar: O'quv qo'llanma/. –Toshkent-2013y. – 6 b.

Uchinchidan, ushbu harakatlar uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi asosiy xususiyatlarini aniqlashda jinoyat qonunchiligi, avvalo, tajovuz ob'ektiga asoslangan holda alohida boblarga ajratilib tuzilganligini hisobga olsak, mantiqan tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi barcha jinoyatlar Jinoyat kodeksining «Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar» deb nomlangan 12-bobida joylashgan bo'lishi kerak. Biroq, O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligidagi TIF bilan bog'liq bojxona qonunchiligini buzish jinoyatlari JKning turli boblariga joylashtirilganligini ko'rishimiz mumkin. Bizning fikrimizcha, yuqorida qayd etilgan bojxona sohasidagi ayrim jinoyatlardan (JKning 182 va 184-moddalari) tashqari, bir qator boshqa jinoiy harakatlar (JKning 130, 130¹, 244³, 244⁴, 246 va 250¹-moddalari) tashqi iqtisodiy faoliyatga bilvosita tajovuz qilsada, ular bevosita tajovuz ob'ektiga qarab Jinoyat kodeksining boshqa boblarida joylashgan. Demak, tashqi iqtisodiy sohadagi jinoyatlarning aksariyati ko'p ob'ektlilik xususiyatiga ega degan xulosaga kelamiz.

To'rtinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlarning xarakterli xususiyati - bu ushbu harakatlarni sodir etishning maxsus usuli bo'lib, ushbu sohadagi jinoyatlarni sodir etish usuli sifatida quyidagi harakatlar qo'llanilishi mumkin:

- tovarlar, ishlar (xizmatlar), sotish yoki almashish ob'ekti bo'lgan har qanday mulkni import (olib kirish) va eksport (olib chiqish) qilish bo'yicha operatsiyalar;

- bojxona chegarasini to'g'ridan-to'g'ri kesib o'tish, shuningdek, axborot-telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda va valyuta operatsiyalarini o'tkazish orqali yuqoridagi harakatlarni amalga oshirish.

Beshinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlarning xarakterli xususiyati - bu uni sodir etishdan asosiy maqsad iqtisodiy foyda olishdir. E'tirof etish joizki, TIF sohasidagi jinoyatlarni sodir etishdan asosiy maqsad moddiy manfaatdorlik hisoblanadi. Bunday moddiy manfaatdorlik turlicha bo'lishi mumkin:

- belgilangan soliq, boj va boshqa majburiy to'lovlarni to'lamaslik;
- davlat mulkini o'zlashtirish;
- kapitalni shu jumladan milliy va xorijiy valyutadagi pul mablag'larini mamlakat tashqarisiga noqonuniy olib chiqish;
- jinoiy daromadlarni legallashtirish;
- boshqacha shakldagi moddiy manfaatdorlik.

Sud-tergov amaliyoti misollarini tahlil qilish asosida tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlarning aksariyati g'arazli motivlar asosida, ya'ni iqtisodiy daromad olishni ko'zlab sodir etiladi, degan xulosaga kelish mumkin. Iqtisodiyot

sohasidagi jinoyatlarning ushbu xususiyati huquqiy ta’limotning ko‘plab vakillari tomonidan e’tirof etilgan.

Barcha iqtisodiy jinoyatlarning belgilarini hisobga olgan holda TIF sohasidagi jinoyatlarda ham huquqbazarlar tomonidan ob’ektlarga tajovuz puxta o‘ylangan holda sodir etiladi. Shuning uchun TIF sohasidagi jinoyatlarning sub’ektiv tomoni belgilarini hisobga olgan holda barcha jinoiy qilmishlar aybning qasddan sodir etish shaklida namoyon bo‘ladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlarga yuqorida ta’kidlab o‘tilgan o‘ziga xos xususiyatlardan kelib chiqib, quyidagicha ta’rif berish mumkin:

Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlari bu – tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish tartibiga tajovuz qiluvchi Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan transchegaraviy xarakterdagi maxsus usullarda g‘arazli maqsadlarda qasddan sodir etiladigan ijtimoiy xayfli qilmishlardir³⁷.

Shu o‘rinda, ushbu jinoyatlarni tizimlashtirishda tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlarni tasniflashning o‘ziga xos xususiyatlariga to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoiy huquqbazarliklarni *quyidagi asoslarga ko‘ra tasniflashimiz* mumkin.

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga muvofiq, jinoiy harakatlarning *jinoiy-huquqiy tavsifi* bo‘yicha tasniflash. Ushbu asos bo‘yicha barcha TIF sohasidagi jinoyatlarni ikkita kichik guruhgaga ajratishimiz mumkin bo‘ladi.

Birinchi guruhgaga tovar va boshqa buyumlarni bojxona chegarasidan bevosita o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasi JKning 182-moddasida ko‘rsatilgan - “Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish”, shuningdek bojxona hujjatlariga o‘xshatib yasalgan hujjatlar va vositalardan aldov yo‘li bilan foydalangan holda muomilada bo‘lishi ta’qiqlangan yoki cheklangan ashyo va buyumlarni bojxona chegarasidan o‘tkazish bilan bog‘liq (JKning 130, 130¹, 244³, 244⁴, 246 va 250¹-moddalari) jinoyatlar.

Ikkinci guruhgaga tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida sodir etiladigan iqtisodiy jinoyatlarning boshqa turlari kiradi. Ularning spektri, doirasi (turi, ko‘rinishi) xilma-xil bo‘lishi mumkin. Shuning uchun biz faqat tashqi iqtisodiy faoliyatning o‘ziga xos xususiyati bilan bog‘liq bo‘lgan va amaliyotda ko‘p aniqlanadigan iqtisodiy jinoyatlarning boshqa turlari (JKning 175, 177, 178,

³⁷ Ачилов А.Т. Ташқи иқтисодий фаолият билан боғлиқ божхона қонунчилиги бузилиши жиноятларини жинойй-хуқуқий тартибга солишни такомиллаштириш //Монография-Тошкент: БИ, 2020 й.-230 б.

184-moddalari va boshqalar), boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar (205-214, 223-224, 227, 228-228¹-moddalari) hamda JKning 243-moddasini ajratib ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

Jinoyatlarni bunday tarzda tasniflash TIF sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashuvchi tuzilmalarni, shu jumladan bojxona organlarini aniq turdag'i jinoyatlarni fosh etish, aniqlashga yo'naltiradi.

2. Tasniflash uchun yana bir asos bo'lib, *jinoyat sodir etilishi sohalari, ya'ni tashqi iqtisodiy faoliyat turlari* bo'lishi mumkin. Bularga:

- a) tashqi savdo faoliyati;
- b) chet el investitsiyalari;
- d) erkin iqtisodiy zonalar;
- e) ofshor zonalar bilan biznes aloqalar;
- f) tovar va yuklarni tashish.

Bunday tarzda tasniflash xodimlarga faoliyat yo'nalishlarini belgilab olish, ixtisoslashishga va ularning hudud zonasini belgilashga hamda qarshi kurashish vositalarini oqilona shakllantirishga imkon beradi.

3. Tasniflash uchun asos *tashqi iqtisodiy faoliyatning muayyan bosqichi* bo'lishi mumkin:

- a) shartnomalarni tuzish bosqichi;
- b) bojxona rasmiylashtirushi bosqichi (deklaratsiya qilishdan boshlab tovarlarni erkin muomalaga chiqarishgacha);
- d) tovarlarni respublikamiz bojxona hududi bo'yicha tashish (tranzit, bojxona kuzatuvi ostida yetkazib berish);
- e) kontraktlar bo'yicha kontragentlar tomonidan o'zaro hisob-kitob qilish.

Bunday tarzda tasniflash xodimlar qaysi bosqichda, qaysi yo'nalishlarga e'tiborlarini kuchaytirishlari lozimligini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

4. Tasniflash *jinoyat su'ekti bo'yicha TIF qatnashchilarining toifalariga* muvofiq amalga oshiriladi. Bunda yuridik va jismoniy shaxslar alohida tasniflanadi. Shundan kelib chiqib, jinoyatlar kimlar tomonidan qanday usullarda sodir etilganligini ham ajratib olish mumkin. Alohida *jinoyat sub'ektlari toifalariga* qarab tasniflaganda, ularga turli TIF qatnashchilarini - TIF sohasining infrastrukturasi xodimlarini, bojxona brokerlarini, bojxona rasmiylashtirushi bo'yicha mutaxassislarni, tashuvchilarni, bojxona omborlari egalari, bojxona organlari mansabdor shaxslari va boshqa nazorat qiluvchi organlarning xodimlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

5. *Jinoyat sub'ektlarining uyushganlik darajasiga ko'ra* (bir kishi, jinoiy guruh va jinoiy uyushma tomonidan sodir etilgan jinoyat) tasniflash ushbu sohadagi jinoyatlarni tasniflashning yana bir muhim asosi hisoblanadi.

Bunday tarzda tasniflash xodimlarni aniq turdagи jinoyatlarni hamda murakkab ko‘rinishdagi tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida sodir etilayotgan jinoyatlarni tez va oson ochilishiga yordam beradi.

Har qanday tasniflash singari bunday tarzda jinoyatlarni guruhlarga ajratish ham shartlidir, chunki ayrim hollarda jinoiy tajovuzlarni aniq ajratish amaliyotda qiyin bo‘ladi.

Hozirgi vaqtida TIF bilan bog‘liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlari eng intellektual, murakkab, professional, yuqori uyushgan va juda daromadli noqonuniy faoliyatdir. Ko‘plab olimlar va amaliyotchilarining fikriga ko‘ra, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlar davlat manfaatlariga eng katta zarar yetkazadi.

A.Otajonov, bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzishning ijtimoiy xavfliligi faqat O‘zbekiston Respublikasiga iqtisodiy zarar yetkazishda emas, balki boshqa og‘ir jinoyatlar sodir etishga zamin yaratishi bilan ham belgilanishi haqida to‘xtalib o‘tadi³⁸.

Darhaqiqat, TIF bilan bog‘liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlarining ijtimoiy xavfliligi shundaki, uning sodir etilishi natijasida nazorat qilib bo‘lmaydigan tovarlar muomalasini yoki ulardan ayrimlarining respublika hududida taqchilligi holatini keltirib chiqaradi. Shu bilan birgalikda Jinoyat kodeksida ko‘rsatilgan boshqa jinoyatlarning sodir etilishiga asos yaratib beradi, masalan, soliq to‘lashdan bo‘yin tov lash, O‘zbekiston Respublikasi hududiga noqonuniy kirish yoki chet elga chiqish jinoyatlarini ko‘rsatishimiz mumkin.

Amaliyotda TIF bilan bog‘liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlari deyarli har doim bir nechta iqtisodiy va unga ko‘maklashuvchi boshqa jinoyatlar bilan bog‘liq holda sodir etiladi. Jumladan:

- iqtisodiy jinoyatlar: o‘zgalar mulkini talon-toroj qilish (167-169-moddalar va boshqalar), iqtisodiy asoslarga qarshi (175-178-moddalar va boshqalar), xo‘jalik faoliyati sohasidagi (186, 186¹⁻³, 188-moddalar va boshqalar);

- mansabdorlik (205-212-moddalar) va boshqaruvtartibiga qarshi (223, 228-moddalar va boshqalar) jinoyatlar.

Huquqni qo‘llash amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, yuqorida ko‘rsatib o‘tilganlardan tashqari, jamoat xavfsizligiga qarshi (242-243-moddalar va boshqalar) hamda giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar (270-276 moddalar) bilan bog‘liq holda sodir etilishi TIF sohasidagi jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasini yanada oshiradi.

³⁸ Отажонов А. Иштирокчиликда содир этилган жиноятлар учун жавобгарликни такомиллаштириш: Докторлик диссертацияси автореферати. – Тошкент. 2016 й. – 95 б.

Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili va tergov amaliyotidan kelib chiqib, hozirgi sharoitda yuqorida sanab o‘tilgan bir nechta iqtisodiy va unga ko‘maklashuvchi boshqa jinoyatlar bilan sodir etilishi natijasida TIF bilan bog‘liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlarining o‘ziga xos quyidagi xususiyatlarini ta’kidlash mumkin:

1. Kriminologlarning fikriga ko‘ra, deyarli barcha iqtisodiy jinoyatlar, xususan TIF bilan bog‘liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlari *uyushgan, murakkab xarakterga ega* va unga qarshi kurashish muammolari, birinchi navbatda, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash muammolariga kiradi. Ushbu sohadagi jinoyatlar asosan uyushgan jinoiy guruhlar tomonidan sodir etilayotganligi aniq bo‘lishiga qaramay, bunday jinoyatlarni fosh etish kam uchraydi.

Huquq-tartibot idoralari tomonidan ko‘rilayotgan uyushgan guruhlar tomonidan sodir etilgan jinoyat ishlari turli sabablarga ko‘ra to‘liq ochilmay, ya’ni jinoyatning asosiy ishtirokchisi hisoblangan tashkilotchilar fosh etilmasdan, faqat oddiy ijrochilar javobgarlikka tortilmoqda.

2. Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi eng xavfli jinoyatlarning salmoqli qismi *xalqaro xarakterga ega*. Muammo shundaki, jinoiy uyushmalar, huquqni muhofaza qilish organlaridan farqli o‘laroq, xorijiy davlatlarning uyushgan jinoyati bilan tezkor ravishda birlashadi va shu tariqada, xalqaro darajada ishlaydi. Ushbu muammo bunday jinoyatlarga qarshi kurashish uchun bir qator davlatlarning o‘zaro hamkorlikda kelishib ishlashini taqozo etadi.

3. Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlari o‘ziga xos hodisadir, uning mazmuni kamdan-kam hollarda bir xil jinoyatlar bilan chegaralanadi. Ushbu xatti-harakatlar jinoiy-huquqiy kvalifikatsiyada *turli xil jinoyatlarning umumiyligini xususiyatlariga mos keladi*. Bular quyidagi, ya’ni: bojxona qoidabuzarliklari, iqtisodiy sohadagi va mansabdor shaxslarning jinoyatlarini o‘z ichiga qamrab oladi va ushbu sohada ular asosiy ustuvor guruhdagi jinoyatlar hisoblanadi.

Oldingi xususiyatdan kelib chiqib TIF bilan bog‘liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlari davlat va ma’muriyat, tijorat va boshqa tashkilotlarning korrupsiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Eng avvalo, ko‘plab mualliflarning asarlarida kontrabanda, bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovslash va boshqa bojxona jinoyatlarining eng uyushgan va ijtimoiy xavfli usullari bojxona xodimlari bilan aloqada bo‘lganligi qayd etilgan³⁹.

³⁹ Ларичев В.Д., Гилмутдинова Н.С. Таможенные преступления: Уклонение от уплаты таможенных платежей. М., 2001. 183-184; Диканова Т. А., Осипов В. Е Борьба с таможенными преступлениями и отмыванием "грязных денег": Методическое пособие. М., 2000. С.20-24; Гармаев Ю. П. Должностные преступления в таможенных органах. М., 2002.

Yuqoridagi tahlil, tergov amaliyotini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, tashqi iqtisodiy jinoiy faoliyat tarkibida uning belgilovchi turi qoida tariqasida, bojxona chegarasi orqali tovarlar va boshqa qimmatliklar, ashylarni noqonuniy olib o‘tish bilan bog‘liq operatsiyalar, ya’ni bojxona sohasidagi jinoyatlardir.

Yordamchi jinoiy faoliyatning asosiy turlari iqtisodiy va xizmatga oid jinoyatlardir. Masalan, agar jinoiy tashkilotning asosiy faoliyati tovar kontrabandasi bo‘lsa, shu maqsadda bir necha “*bir kunlik firmalar*” tashkil etiladi. Strategik muhim tovarlarning yirik partiyalari (masalan: neft mahsulotlari, rangli metal va boshqalar) turli xil yo‘llar bilan o‘g‘irlanadi, shu jumladan firibgarlik, noqonuniy foydalanish va o‘g‘irlash orqali yoki aniq o‘g‘irlangan tovarlar sotib olinadi. Kontrabandani amalga oshirish uchun transport korxonalarining mansabdor shaxslari bojxona organlariga pora berish orqali maqsadlariga erishadilar.

4. Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlari asosan *latent*, ya’ni yashirin xususiyatga ega jinoyatlar toifasiga kiradi. Ularni sodir etish usullari doimiy o‘zgaruvchanlik xususiyatiga ega bo‘lib, murakkablashib borish, qonunchilikdagi bo‘shliqlardan foydalanish, turli jinoiy sxemalar orqali sodir etilishi hollari kuzatiladi. Jinoiy faoliyat mintaqaviy, milliy va jahon bozorlaridagi, shu jumladan sotilishi ta’qiqlangan buyumlar (giyohvand moddalar, qurol-yarog‘ va boshqalar) bozorlari bilan doimiy bog‘liqidir. Jinoiy uyushmalar o‘z faoliyatini faol ravishda diversifikatsiya qilib, uning doirasini kengaytiradilar. Bu esa ularni aniqlash va fosh etish murakkab ekanligini anglatadi. Shunday qilib, so‘nggi yillarda muhojirlarni noqonuniy olib o‘tish, “pul yuvish”, yangi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda moliyaviy firibgarliklar rivojlanmoqda.

Bunday tahlikali vaziyatga qaramay, tergov va sud amaliyoti, idoraviy normativ hujjatlar, ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan TIF sohasidagi jinoyatchilikka qarshi kurashishda yuqorida ta’kidlab o‘tilgan o‘ziga xos xususiyatlar yetarlicha hisobga olinmayapti degan xulosaga kelish mumkin.

Nazorat savollari:

1. Bojxona sohasidagi jinoyatlar tushunchasiga ta’rif bering.
2. TIF bilan bog‘liq bojxona qonunchiligi jinoyatlari tushunchasi va xarakterli xususiyatlari haqida gapirib bering.
3. TIF sohasidagi jinoyatlarni tasniflash va o‘ziga xos xususiyatlari haqida gapiring.

§3.2. Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish va soliq yoki boshqa majburiy to‘lovlardan bo‘yin tovlash jinoyatlarining nazariy huquqiy tahlili

Bojxona sohasidagi jinoyatlarning Jinoyat kodeksiga joylashuvidan kelib chiqilsa, JKning 182 va 184 (faqat bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash holatlari bo‘yicha) -moddalarida ko‘rsatilgan jinoyatlar bevosita tashqi iqtisodiy faoliyatga tajovuz qilishini e’tiborga olib, ushbu pargrafda bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish va soliq yoki boshqa majburiy to‘lovlardan bo‘yin tovlash jinoyatlarining nazariy huquqiy tahlilini bayon etishni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Yildan-yilga mustaqil O‘zbekistonning boshqa davlatlar bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalari mustahkamlanib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi aloqalarining xalqaro miqyosga ko‘tarilishi bilan Respublikaga kiruvchi va chet elga chiqib ketuvchi diplomatlar, konsullar, tadbirkorlar, sayyoohlar, jamoat tashkilotlari vakillari, shuningdek san’at «ishqibozlarining» soni oshdi. Shu bilan bog‘liq holda muayyan toifadagi fuqarolar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan JKning 182-moddasida nazarda tutilgan Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyatini sodir etishlari uchun ob’ektiv shart-sharoitlar yaratildi⁴⁰.

Mazkur jinoyat tarkibi o‘rganilganda, uning formal tarkibli ekanligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Ya’ni, jinoyat tugallangan deb topilishi uchun biror oqibat yuz berishi talab etilmaydi, faqat qonun normasida ko‘rsatilgan ijtimoiy xavfli qilmishning sodir etilishi jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Jinoyat huquqi nazariyasiga ko‘ra, jinoyat tarkibini to‘rtta element: ob’ekt, ob’ektiv tomon, sub’ekt va sub’ektiv tomon tashkil qiladi. Shunga ko‘ra, quyida bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyati bo‘yicha huquqiy hujjatlar, adabiyotlar va ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilish orqali ushbu jinoyat tarkibi zaruriy elementlarining o‘ziga xos xususiyatlariga to‘xtalib o‘tamiz.

Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish uchun javobgarlik to‘g‘risidagi modda, qonunda, iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar qatoriga kiritilgan. Ushbu qoida, avvalambor, davlatning iqtisodiy xususiyatdagi manfaatlaridan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan tovar yoki boshqa qimmatliklarni o‘tkazish tartibini belgilaganligi bilan shartlangan. Xususan, muayyan tovar yoki ashyolar biror-bir cheklashlarsiz bojxona

⁴⁰ Kabulov R., Otajonov A. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar: O‘quv qo‘llanma/. – Toshkent: 2013-y. – 115 b.

chegarasidan o‘tkaziladi, qator tovar yoki boshqa qimmatliklarni o‘tkazish esa tegishli ravishda cheklangan yoxud umuman man etilgan⁴¹.

Darhaqiqat, ko‘rib chiqilayotgan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etish iqtisodiy barqarorlikni izdan chiqaradi, inflyatsiya darajasi oshishiga real xavf tug‘diradi, bu esa jamiyatning iqtisodiy asoslariga putur yetkazib, bozor iqtisodiyotiga o‘tishni qiyinlashtiradi.

Shunga asosan, ushbu *jinoyatning ob’ekti* davlat va jamiyatning iqtisodiy manfaatlari, O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiyoti asoslari va iqtisodiy xavfsizligi hisoblanadi.

Adabiyotlarda mazkur jinoyatning *bevosita ob’ekti* sifatida tovar-moddiy qimmatliklarni bojxona chegarasi orqali olib o‘tishning qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibi ko‘rsatib o‘tilgan⁴².

Chet el olimlarining talqinicha, mazkur jinoyat sodir etilayotganda, tajovuz iqtisodiyot sohasidagi munosabatlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi⁴³. Bojxona qonunlarini buzishda har qanday shaxsning kundalik hayotida erkin muomalada bo‘lgan har qanday tovar yoki qimmatliklar bo‘lishi mumkin (kiyim-kechak, radiotexnika, zargarlik buyumlari va h.k.)⁴⁴.

Bojxona qonunchilagini buzishning fakultativ ob’ekti - predmeti va sub’ektiga qarab, O‘zbekiston aholisining sog‘lig‘i, jamiyatning axloqiy va ruhiy tayanchlari, respublikaning tarixiy-madaniy merosi bo‘lishi mumkin.

Bojxona sohasidagi jinoyatlarni predmetini aniq ta’riflash ham jinoyat tarkibini aniqlashda, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda va uni o‘xhash jinoyatlardan farqlashda muhim o‘rin egallaydi.

Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish *jinoyatining predmetlari* JKning 182-moddasi dispozitsiyasiga muvofiq tovar yoki boshqa qimmatliklardir.

Bojxona kodeksining 13-moddasiga ko‘ra, bojxona chegarasi orqali olib o‘tiladigan har qanday ko‘char mol-mulk, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasi, valyuta boyliklari va boshqa qimmatli qog‘ozlar, elektr, issiqlik energiyasi va energiyaning boshqa turlari, intellektual mulk ob’ektlari, transport vositasi tovar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 81-moddasiga binoan fuqarolik huquqlarining ob’ektlariga ashyolar, shu jumladan pul va qimmatli qog‘ozlar, boshqa buyumlar, mol-mulk, shu jumladan mulkiy huquqlar, ishlar va

⁴¹ Rustamboev M.X.O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharh. – Toshkent: Adolat, 2016. – 369 b.

⁴² Rustamboev M.X. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat xuquqi kursi. Maxsus qism. 4-tom. OTM uchun darslik. - T.: «ILM ZIYO» nashriyot uyi, 2011. - 112 b.

⁴³ Markus D. Dubber and Tatjana Hörmle. The Oxford handbook of criminal law / Oxford, United Kingdom; – New York, Oxford University Press, 2014. – P.120

⁴⁴ Jackson Miles. Complicity in international law / Oxford University Press, 2015. – P.238.

xizmatlar, ixtiolar, sanoat namunalari, fan, adabiyot, san'at asarlari va intellektual faoliyatning boshqa natijalari, shuningdek shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa moddiy hamda nomoddiy boyliklar kiradi⁴⁵.

Boshqa qimmatliklarga shunday ashyo va buyumlar kiradiki, ular o'zining turi, holati va qiymatidan qat'i nazar, alohida tarixiy, badiiy, ilmiy yoki madaniy ahamiyat kasb etadi⁴⁶. Bunday qimmatliklarga numizmatika (qadimiy tangalar), qadimiy buyumlar, san'at asarlari, paleontologik qoldiqlar va boshqalar kiradi. Ushbu ashyo va buyumlar muomala vositasi bo'la oladi, lekin ularning farqli jihatni alohida tarixiy, badiiy, ilmiy yoki madaniy ahamiyatidir.

Ta'kidlab o'tilganidek, jinoyatning predmeti har qanday tovarlar yoki moddiy qimmatliklar bo'lishi mumkin. Shunga alohida e'tibor berish lozimki, ko'rsatilgan ashylar ushbu jinoyatning predmeti bo'lishi uchun erkin suratda boshqa shaxslarga berilishi yoki universal huquqiy vorislik (meros qilib olish, yuridik shaxsni qayta tashkil etish) tartibida yoxud boshqa usul bilan, agar ular muomaladan chiqarilmagan yoki ularning muomalada bo'lishi cheklab qo'yilmagan bo'lsa, bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tishini va muayyan muomala ishtirokchilarigagina qarashli bo'la oladigan yoki muomalada bo'lishiga maxsus ruxsatnoma bilan yo'l qo'yiladigan fuqarolik huquqlari ob'ektlarining (chet el valyutasi, dori-darmon) turlari qonunda ko'rsatilgan tartibda belgilanadi⁴⁷. Muayyan ashyoning muomala munosabatlarida mavjud emasligi ushbu ashyo mazkur jinoyat predmeti bo'la olmaslididan dalolat beradi (masalan, bojxona qonunchilagini buzishga litsenziya, shtamp, muhrga oid munosabatlarni kiritib bo'lmaydi).

Shuningdek, JKning 246-moddasida nazarda tutilgan kontrabanda jinoyatining predmetlari muayyan qimmatga ega bo'lsada, ushbu jinoyatning predmeti bo'la olmaydi. Chunki ko'rib chiqilayotgan ijtimoiy xavfli qilmishni ushbu predmetlar bilan sodir etish JKning tegishli moddalarida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli faoliyat nazarda tutilgan javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Keltirib o'tilganlardan xulosa qilib quyidagilarni ushbu jinoyatning predmetlari sifatida ko'rsatishimiz mumkin:

- bojxona chegarasidan o'tkazilishi mumkin bo'lgan har qanday ko'char mol-mulk, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi, valyuta qimmatliklari va boshqa qimmatli qog'ozlar;

- elektr, issiqlik energiyalari va energiyaning boshqa turlari;

⁴⁵ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, <https://lex.uz/docs/111189>.

⁴⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 23-martdaggi 131-sod qarori, <https://www.lex.uz/docs/279299>.

⁴⁷ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, <https://lex.uz/docs/111189>.

- BKning 13-moddasi 1-3-bandlariga muvofiq, tovar deb tan olinadigan transport vositalari (shuni nazarda tutish lozimki, bojxona chegarasi orqali tovar yoki boshqa qimmatliklarni noqonuniy olib o'tishda foydalanilgan transport vositalari (konteynerlar) tovar va boshqa qimmatliklar bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib olib o'tilganda jinoyat quroli deb topiladi);

- intellektual mulk ob'ektlari;

- madaniy boyliklar - moddiy dunyoning milliy, tarixiy, badiiy, ilmiy-ma'rifiy, ma'naviy-axloqiy va boshqa madaniy ahamiyatga molik ko'char ashylari⁴⁸;

- o'simlik va hayvonot dunyosi ob'ektlari.

Jinoyat kodeksining 182-moddasi doirasida ashyo va buyumlarning tovar yoki qimmatliklar ekanligini belgilashda aybdor tomonidan ulardan qanday maqsadlarda foydalanishi ahamiyat kasb etmaydi. Ular tadbirkorlik yoki shaxsiy iste'mol maqsadlarida foydalanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 18-sonli qarorning 11-bandiga muvofiq bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o'tkazilayotgan tovarlar qiymatini aniqlashda, ushbu tovarlarning jinoyat sodir etilgan vaqtdagi bozor qiymatidan kelib chiqilishi lozim.

Bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o'tkazilayotgan tovarlar miqdorini aniqlashda, faqat, bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib, yoxud bojxona hujjatlari yoki qiyoslash vositalaridan aldash yo'li bilan foydalangan holda yoki deklaratziyasiz yoxud boshqa nomga yozilgan deklaratziyadan foydalanib o'tkazilgan tovarlar qismining qiymati inobatga olinishi kerak.

Shaxsning valyutani qonunga xilof ravishda bojxona chegarasidan o'tkazishda aybdorligi masalasini hal etishda shuni nazarda tutish lozimki, O'zbekiston Respublikasiga qonuniy ravishda erkin olib kiriladigan va olib chiqib ketiladigan naqd xorijiy va milliy valyuta miqdori va tartibi alohida normativ hujjatlarda belgilangan.

Shaxs tomonidan O'zbekiston Respublikasiga bir vaqtning o'zida olib kiriladigan yoki olib chiqib ketiladigan naqd valyutaning faqat bir qismi deklaratziya qilingan bo'lsa, shaxsning harakatlari naqd valyutaning deklaratziya qilinmagan qismi miqdoridan kelib chiqqan holda kvalifikatsiya qilinadi.

Jinoyatning *ob'ektiv tomoni* yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, JKning 182-moddasi dispozitsiyalarida belgilab qo'yilgan faol harakatlar sodir etilishidan iboratdir. Mazkur dispozitsiyalarda alohida sodir etilganda ham jinoyat deb

⁴⁸ O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagい "Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risida"gi 678-I-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/24377>.

topilishi mumkin bo‘lgan bir nechta usuldagи harakatlar ko‘rsatilgan. Xususan, bojxona nazoratini chetlab, bojxona nazoratidan yashirib, bojxona hujjatlari yoki vositalariga o‘xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo‘li bilan foydalangan holda, deklaratsiyasiz yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalaniб, tovar yoki boshqa qimmatliklarni ko‘p miqdorda O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o‘tkazish, shunday harakat uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa JKning 182-moddasining 1-qismi bilan jinoiy javobgarlikni vujudga keltiradi.

Bojxona qonun hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeks va Oliy sud Plenumining “Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar buyicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 18-sonli qarorida Jinoyat kodeksining 182-moddasi dispozitsiyalarida belgilab qo‘yilgan ob’ektiv tomoni xususiyatlarini tavsiflovchi tushuntirishlar berilgan.

JKning 182-moddasi 1-qismi dispozitsiyasi yuqorida ko‘rsatilgan harakatlarni hamda jinoyat predmeti qiymatining ko‘p miqdorda bo‘lishini nazarda tutgani holda ma’muriy preyuditsiyani ham talab qiladi. Jumladan, tovarlar va transport vositalarini qonunga xilof ravishda bojxona chegarasidan ko‘p miqdorgacha o‘tkazganlik uchun har doim, shaxs aynan shunday huquqbuzarlik uchun bir yil davomida bir necha marta ma’muriy javobgarlikka tortilganligidan qat‘i nazar, ma’muriy javobgarlik kelib chiqadi. Ma’muriy preyuditsiya bilan bog‘liq muammolar bo‘yicha taklif va mulohazalarimizni yuqorida ma’muriy huqubzarliklarni kvalifikatsiyalash muammolariga bag‘ishlangan paragrafida to‘xtalib o‘tgandik.

Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish juda ko‘p miqdorda; chegarani buzib o‘tish, ya’ni bojxona xizmatining roziligini olmasdan turib, tovar yoki boshqa qimmatliklarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan ochiqdan-ochiq o‘tkazish yo‘li bilan; uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab; xizmat lavozimidan foydalangan holda sodir etilgan bo‘lsa JKning 182-moddasining 2-qismi bilan jinoiy javobgarlikni vujudga keltiradi.

Ko‘rinib turganidek, bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyati yuqorida ko‘rsatilgan 9 ta usulda sodir etilishi mumkin. Ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar buyicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorda ushbu jinoyatning ob’ektiv tomoni xususiyatlaridan kelib chiqib, kvalifikatsiya qilishda e’tiborga olinishi lozim bo‘lgan jihatlarga ham bat afsil tushuntirishlar berilgan.

Ushbu jinoyat *sub’ektiv tomonidan* qasddan sodir etiladi. Ya’ni shaxs tovar yoki qimmatliklarni O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan o‘tkazishni

istaydi va shunga qaratilgan faol harakatlarni sodir etadi. Jinoyatni kvalifikatsiya qilishda motiv va maqsadning ahamiyati yo‘q.

Mazkur *jinoyatning sub’ekti* o‘n olti yoshga to‘lgan, fuqaroligi mavjud yoki mavjud emasligidan qat’i nazar, har qanday aqli raso shaxs bo‘lishi mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlari asosan soliq, boj va boshqa majburiy to‘lovlarni kamroq to‘lash yoki umuman to‘lamaslik maqsadida sodir etiladi. Ushbu jinoyatlar natijasida qonunda belgilangan soliqlar, bojxona to‘lovlari va yig‘imlar hisobidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetiga pul mablag‘lari tushmay qolishiga olib kelib, valyuta zaxiralarining shakllanishiga va milliy valyutamizning barqarorligini ta’minalashga salbiy ta’sir o‘tkazadi. Bu esa ijtimoiy rivojlanishning salbiy omili bo‘lib, uning keng ko‘lamba yoyilishi iqtisodiy islohotlarga real tahdiddir.

Shu o‘rinda, TIF bilan bog‘liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlari uchun javobgarlik bo‘yicha xorijiy tajriba o‘rganilganda, aksariyat davlatlar jinoyat qonunchiligidagi bojxona to‘lovlari va yig‘imlarini to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun alohida normada jinoiy javobgarlik belgilanganligi, O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligidagi esa aynan bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun javobgarlik ajratilmasdani soliq va majburiy to‘lovlarining bir turi sifatida JKning 184-moddasidagi “Soliqlar yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovplash” jinoyati tarkibiga kiritilganligini ta’kidlab o‘tish joiz.

Shularni inobatga olib, amaldagi JK, JKga sharhlar, Soliq va Bojxona kodekslari hamda ushbu sohaga oid boshqa qonun-hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlarida berilgan tushuntirishlar, huquqiy adabiyotlar va ilmiy tadqiqot ishlari tahlili asosida quyida “Soliqlar yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovplash” jinoyatining huquqiy tavsifiga, xususan, bojxona to‘lovlarini to‘lashdan qasddan bo‘yin tovplash bilan bog‘liq jihatlariga batafsilroq to‘xtalib o‘tamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasiga muvofiq, fuqarolar qonunda belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga majburdirlar⁴⁹.

Jinoyat huquqi nazariyasida jinoyat ob’ektiga turli ta’riflar berilgan. Ayrim olimlar ob’ekt deganda ijtimoiy munosabatlarni⁵⁰, ayrimlari esa fukarolar, davlat va jamiyat manfaatlarini⁵¹ tushunishadi. Mazkur nuqtai-nazarlardan kelib chiqib, JKning 184-moddasida javobgarlik belgilangan jinoyatning *bevosita asosiy ob’ekti*

⁴⁹ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, <https://www.lex.uz/acts/20596>.

⁵⁰ Rustamboev M.X., O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat xuquqi kursi. Maxsus qism. 4-tom. OTM uchun darslik. - T.: «ILM ZIYO» nashriyot uyi, 2011. - 160 b.

⁵¹ Каиржанов Е.И. Избранные труды: (Selected works in criminal law and criminology): В 2-х т. Т. 1 -Алматы: Экономика, 2008. - 360 с.

davlatning soliqqa tortish sohasidagi ijtimoiy munosabatlari, ya’ni soliq yoki boshqa majburiy to’lovlarni to’lashni amalga oshiruvchi soliq, bojxona organlari va soliq va boj to’lovchilar (jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning mansabdor shaxslari) o’rtasida vujudga keladigan soliq yoki boshqa majburiy to’lovlarga tortish, hisoblash va ularni to’lash bilan bog’liq bo’lgan ijtimoiy munosabatlar tashkil qiladi. Soliqlar yoki boshqa majburiy to’lovlarni to’lashdan bo‘yin tovlashning bevosita *fakultativ ob’ektini* davlat boshqaruvi organlari, shu jumladan soliq va bojxona organlarining normal faoliyati hisoblanadi.

Soliqlar yoki boshqa majburiy to’lovlarni to’lashdan bo‘yin tovlashning predmeti xususida turli xil fikrlar mavjud. Jumladan professor M.H.Rustamboev fikriga ko‘ra, mazkur jinoyatning predmeti - soliqlar, yig‘imlar, bojlar va boshqa to’lovlar hisoblanadi.

Bu tushunchalarning mazmunini aniqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga, shuningdek, amaldagi soliq qonunchilikida qo‘llanilgan ta’riflarga murojaat etamiz. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-599-son Qonuniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining yangi tahriri tasdiqlandi⁵².

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 31-maydagi “Soliqlar va yig‘imlarni to’lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun javobgarlikka oid qonunchilikning sudlar tomonidan qo‘llanilishi to‘g‘risida”gi 8-sonli Qarorining 3-bandida MJtKning 174-moddasining birinchi qismi, JKning 184-moddasining birinchi qismi dispozitsiyasi blanket (havolaki) bo‘lib, shu sababli «daromadlar», «foyda», «soliq solinadigan ob’ektlar», «soliqlar», «yig‘imlar» kabi tushunchalar mazmunini aniqlash uchun qilmish sodir etilgan paytda amalda bo‘lgan Soliq kodeksi normalaridan kelib chiqish lozimligi belgilangan.

Bojxona Kodeksining 289-moddasiga asosan tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o‘tishda va ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa hollarda quyidagi bojxona to’lovleri to’lanadi: *bojxona boji; qo’shilgan qiymat solig‘i; aksiz solig‘i; bojxona yig‘imlari*.

Demak, soliqlar yoki boshqa majburiy to’lovlarni to’lashdan bo‘yin tovlashning predmeti soliq, bojxona yoki boshqa majburiy to’lovlar shaklidagi davlat budjetiga yoki maqsadli jamg‘armalariga kelib tushishi lozim bo‘lgan pul mablag‘laridir.

Mazkur jinoyatning predmeti pul mablag‘lari ekanligi haqida Oliy sudi Plenumining yuqorida ta’kidlab o‘tilgan 8-sonli qarori 13-bandida: “Qilmishni soliqlarni to’lashdan bo‘yin tovlash sifatida MJtKning 174-moddasi va JKning 184-moddasining tegishli qismi bo‘yicha kvalifikatsiya qilish uchun asos bo‘lgan

⁵² O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, <https://lex.uz/docs/4674902>.

soliq miqdorini pul summasida belgilashda, huquqbazarlik tugallangan vaqtida amalda bo‘lgan bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqish lozim”, deb tushuntirish berilgan.

Jinoyatning ob’ektiv tomoni ijtimoiy xavfli qilmishning tashqi tomoni bo‘lib, jinoyatning qanday sodir etilganligini ko‘rsatadi. Aynan jinoyatning ob’ektiv tomoni bir jinoyatni ikkinchisidan farqlash imkonini beradi.

Mazkur jinoyat ob’ektiv tomongan ham harakat, ham harakatsizlikda namoyon bo‘lishi mumkin. Lekin uning ijtimoiy xavfli oqibatiga nisbatan esa faqat harakatsizlik bilan ifodalanadi. Chunki mazkur jinoyatni sodir etilishi natijasida qasddan soliq yoki boshqa majburiy to‘lovlar ko‘rinishidagi pul mablag‘lari davlat budgetiga yoki maqsadli jamg‘armalariga kelib tushmaydi.

Jinoyat kodeksining 184-moddasi 1-qismi dispozitsiyasida ko‘rsatilgan ob’ektiv tomoni xususiyatlarini tavsiflovchi: foyda (daromad) yoki soliq solinadigan boshqa ob’ektlarni qasddan yashirish, kamaytirib ko‘rsatish, shuningdek davlat tomonidan belgilangan soliqlarni yoki boshqa majburiy to‘lovlarini, xususan, bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tov lash tushunchalari va usullarini yoritishga harakat qilamiz.

Oliy sud Plenumining 1998-yil 17-apreldagi 11-sonli «Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo‘yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to‘g‘risida»gi qarorining 20-bandida “Foydani, daromadni yoki soliq solinadigan boshqa ob’ektlarni yashirish, kamaytirib ko‘rsatish bu fuqarolarning yoki mansabdor shaxslarning soliq to‘lashdan bo‘yin tov lash usullaridir.” – deb ta’kidlab o‘tilgan⁵³.

Ilmiy adabiyotlarda soliq yoki boshqa majburiy to‘lovlarini to‘lashdan boshqacha usulda bo‘yin tov lash ta’rifi ham berilgan bo‘lib, unga ko‘ra tovarlar haqiqiy holatini qasddan o‘zgartirish, soliq organlariga bila turib noto‘g‘ri axborot berishning turli uslublarini qo‘llash, to‘lanadigan soliq to‘lovlarini hajmini kamaytirish maqsadida ma’lum fakt, holat, hodisalar borasida yanglishtirish soliq to‘lovlarini to‘lashdan boshqacha usulda bo‘yin tov lash, deb tushuniladi⁵⁴.

Oliy sudi Plenumining 2013-yil 31-maydagi 8-sonli Qarorida foydani (daromadni) yoki soliq solinadigan boshqa ob’ektlarni qasddan yashirish, kamaytirib ko‘rsatishning bir qator belgilari hamda soliqlar va yig‘imlarni to‘lashdan boshqa tarzda qasddan bo‘yin tov lash usullariga tushuntirishlar berilgan bo‘lsada, bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tov lash tushunchasi, turlari va usullari haqida tushuntirishlar berilmagan.

⁵³ Oliy sud Plenumining 1998-yil 17-apreldagi 11-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/1443984>.

⁵⁴ Mahkamov O.M. Soliq yoki boshqa majburiy to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tov lashning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari: Doktorlik dissertatsiyasi. – Toshkent. 2015-y.

Shu bilan birga aytish lozimki, soliq yoki boshqa majburiy to‘lovlarni, xususan bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovplash usullariga aniq ta’rif berish uchun Soliq va Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodekslariga murojaat etishimiz kerak bo‘ladi, chunki nazarimizda ushbu huquqbuzarliklarning ayrim turlari soliq va bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovplashning aniq usullari hisoblanadi. Jumladan, Soliq kodeksining 17-bobida ham 9 turdagি soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik belgilangan (SK, 113-121-moddalar).

O‘zbekiston Respublikasi MJtKda bojxona to‘lovlarini bilan bog‘liq quyidagi huquqbuzarliklar:

- bojxona to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar berilgan, shartli ravishda chiqarilgan tovarlar va transport vositalaridan foydalanish hamda ularni tasarruf etish tartibini buzish (227²⁴-modda);

- bojxona to‘lovlaridan g‘ayriqonuniy ozod qilishga, ularni kamaytirishga, to‘langan bojxona to‘lovlarini qaytarib olish, to‘lovlar va boshqa haqni olishga yoxud yetarli asoslarsiz ularni qaytarmaslikka qaratilgan xatti-harakatlar (227²⁵-modda);

- bojxona to‘lovlarini to‘lash muddatlarini buzganlik (227²⁶-modda) uchun ma’muriy javobgarliklar belgilangan.

Ushbu huquqbuzarliklar tarkibi o‘rganilganda, faqat *MJtK* 227²⁴ va 227²⁵-moddalarida ko‘rsatilgan huquqbuzarliklarni mazmunan bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovplashning usullari sifatida e’tirof etishimiz mumkin.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlarida aynan bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovplash ta’rifi va usullari haqida tushuntirishlar berilmagan bo‘lib, JKning 184-moddasida ko‘rsatilgan qilmish haqida hartomonlama to‘liqroq tasavvurga ega bo‘lish maqsadida, bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovplash usullarini chuqurroq o‘rganish zarurati tug‘ilmoqda.

Ushbu sohaga oid mavjud ilmiy⁵⁵, uslubiy⁵⁶ ishlarni va xorijiy tajribani o‘rganishimiz hamda bojxona amaliyotida aniqlanayotgan jinoyat ishlari tahlillari natijasida JKning 184-moddasida ko‘rsatilgan jinoiy qilmishni sodir etishda qo‘llanilayotgan bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovplashning bir qator usullarini ajratib ko‘rsatishimiz va ularni quyidagicha tasnifashimiz mumkin:

⁵⁵ Гильмутдинова Н.С. Уголовная ответственность за уклонение от уплаты таможенных платежей. Дис. к.ю.н. – М., 2005. Гордиенков А.Д., Козыкин А.Ф. Теория и практика доказывания по делам об уклонении от уплаты таможенных платежей (в стадии предварительного расследования). Монография. – М.: РИО РТА, 2003. Диканова Т.А. Актуальные проблемы борьбы с таможенными преступлениями. Дис. к.ю.н.. – М. 2000.

⁵⁶ Achilov A.T., Sheraliev B.Yu., “Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlarni oldini olish, fosh etish va ular bo‘yicha bojxona tekshiruvlarini o‘tkazish uslubiyati”. O‘quv-uslubiy qo‘llanma Toshkent: 2015.

- bojxona rejimlaridan noqonuniy foydalanish;
- bojxona qiymatini kamaytirib ko‘rsatish;
- ma’lum bir tovarni boj to‘lovi kamroq bo‘lgan boshqa o‘xshash tovar sifatida TIF TN kodini o‘zgartirib yoki qalbakilashtirilgan kelib chiqish sertifikatini bojxona rasmiylashtiruviga taqdim etish;
- deklaratsiya qilmaslik yoki noto‘g‘ri deklaratsiyalash, shu jumladan tovarlarning miqdori va vazni kamaytirib ko‘rsatilgan hujjatlarni bojxona rasmiylashtiruviga taqdim etish yoki tovarlarni bir qismini deklaratsiya qilmaslik;
- tovarlarni boshqa nom bilan deklaratsiyalash;
- tovarlarni bojxona organlari belgilagan manzilga yetkazib bormaslik;
- imtiyozlardan noqonuniy foydalanish.

Ushbu usullar shartli ravishda bunday tarzda tasniflanmoqda, chunki ba’zi hollarda ular birgalikda yoki turli kombinatsiyalarda qo‘llaniladi. Quyida bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tov lash usullari tavsifini bojxona amaliyotida aniqlangan misollar asosida ko‘rib chiqishga harakat qilamiz.

Bojxona rejimlaridan noqonuniy foydalanish. Ushbu usulning mohiyati shundaki, huquqbuzarlar bojxona to‘lovlarini to‘lashdan ozod qilish yoki ularni kamaytirish maqsadini ko‘zlab, aldov yo‘li bilan tovarlar bojxona bojlari va soliqlar to‘lanishidan ozod qilinuvchi va iqtisodiy siyosat choralar qo‘llanilmaydigan bojxona rejimlarini noto‘g‘ri qo‘llab bojxona hujjatlarini rasmiylashtiradilar. Bojxona kodeksining 2-bo‘limi bojxona rejimlariga bag‘ishlangan bo‘lib, 25-moddasiga ko‘ra, tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o‘tish maqsadlariga bog‘liq holda ularning bojxona rasmiylashtiruvi 16-turdagi bojxona rejimlariga muvofiq amalga oshiriladi. Shulardan: eksport; reeksport; vaqtincha olib chiqish; bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash; reimport; vaqtincha olib kirish; bojxona hududida qayta ishlash; vaqtincha saqlash; bojxona ombori; erkin ombor; erkin bojxona zonasi; boj olinmaydigan savdo; bojxona tranziti; yo‘q qilish; davlat foydasiga voz kechish rejimlari tovarlar bojxona bojlari va soliqlar to‘lanishdan ozod qilinadi yoki qisman iqtisodiy siyosat choralar qo‘llaniladi.

Masalan, O‘zbekiston Respublikasi JKning 178-moddasi 1-qismi, 182-moddasi 2-qismi «a» bandi, 184-moddasi 3-qismi va 228-moddasi 1-qismi va 3-qismi bilan qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi materiallariga ko‘ra, aynan ushbu usul bilan Andijon viloyatida joylashgan “ELIT PLYuS” MCHJ direktori A.X., RF Moskva viloyatida joylashgan “F.A.N.-TEKS” YoAJ bosh direktori N.I. bilan oldindan o‘zaro jinoiy til biriktirib o‘z manfaatlari yo‘lida, noqonuniy yo‘llar bilan boylik orttirish maqsadida, muntazam ravishda juda ko‘p miqdordagi bojxona to‘lovlarini to‘lashdan qasddan bo‘yin tov lash hamda valyuta qimmatliklarini yashirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlarida tovarlarni

“Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash” bojxona rejimiga muvofiq shartnoma rasmiylashtirib, bitta raqam ostida bir kunda imzolangan Rossiya Federatsiyasida ikki xil mazmundagi «oldi-sotdi» shartnomalar tuzib, qalbakilashtirilgan yuk kuzatuv hujjatlarini bojxona organiga taqdim etgan va ushbu bojxona hujjatlariga o‘xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo‘li bilan foydalangan holda xom surup (byaz), kalava ipi (pryaja x.b.), brezent va turli matolarni bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tkazib, bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzib kelgan.

Bojxona qiymatini kamaytirib ko‘rsatish. Ushbu usulning mohiyati shundaki, huquqbuzar kamroq bojxona to‘lovlarini to‘lash maqsadida, xorij davlatlaridan bojxona to‘lovleri stavrakalari yuqori bo‘lgan turli tovarlarni import qilib, aldov yo‘li bilan ushbu tovarlar qiymatini kamaytirib ko‘rsatilgan hujjatlarni (tovarning haqiqiy bojxona qiymati ko‘rsatilgan hujjatlarini qalbakilashtirilgan hujjatga almashtirib) bojxona rasmiylashtiruviga taqdim etadi.

Masalan, aynan ushbu usulni qo‘llab, «Global Tuft» MCHJ tomonidan jami 10 partiyada import qilingan asl qiymati 484639,12 AQSh dollari bo‘lgan “ламинат, линолиум и наполнное покрытие” tovarlariga O‘zbekiston Respublikasi bojxona organiga taqdim etilgan qalbaki invoyslar bo‘yicha qiymatlari 400644 AQSh dollariga kamaytirilganligi natijasida, 720 mln. 813 ming 749,47 so‘mlik juda ko‘p miqdordagi bojxona to‘lovlaridan qasddan bo‘yin tovlanganligi aniqlangan.

Ma’lum bir tovari boj to‘lovi kamroq bo‘lgan boshqa o‘xshash tovar sifatida TIF TN kodini o‘zgartirib yoki qalbakilashtirilgan kelib chiqish sertifikatini bojxona rasmiylashtiruviga taqdim etish. Bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tov lash maqsadida tovarlarning TIF TN kodini noto‘g‘ri belgilash quyidagi ko‘rinishlarda bo‘ladi:

- bojxona to‘lovleri stavrakasi yuqori bo‘lgan tovarlarning o‘rniga stavrakasi kam bo‘lgan tovarlarning TIF TN kodini qo‘yilishi;
- bojxona to‘lovlaridan imtiyoz berilmagan tovarlarga imtiyoz berilgan tovarlarning TIF TN kodini qo‘yish va hok.

Masalan, aynan ushbu usulni qo‘llab, Namangan viloyati fuqarolari aksiz solig‘i to‘lanishi ko‘zda tutilgan, yuk va 9 kishidan ko‘p bo‘lmagan yo‘lovchi tashish uchun mo‘ljallangan TIF TN kod raqami 8703 bo‘lgan avtomobil yoxud aksiz solig‘i to‘lanishi ko‘zda tutilmagan, ammo yo‘lovchi tashish uchun mo‘ljallanmagan TIF TN kod raqami 8704 bo‘lgan yuk avtomobillarni Yevropa (Polsha, Germaniya va boshqa) davlatlaridan sotib olib, belgilangan bojxona to‘lovlarini to‘lashdan qasddan bo‘yin tov lash va mazkur avtomobillardan yo‘lovchilar tashish uchun foydalanish maqsadida yuk kuzatuv hujjatlarini, ularga o‘zgartirishlar kiritish yo‘li bilan qalbakilashtirib bojxona rasmiylashtiruviga

taqdim qilganlar. Faqatgina Namangan viloyati bojxona boshqarmasida 8702 TIF TN kod raqami bilan bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilgan jami 297 ta avtomobillar aksiz solig'i to'lanishi ko'zda tutilgan 8703 TIF TN kod raqami bilan tasniflanib, ular uchun qo'shimcha to'lanishi lozim bo'lган bojxona to'lovleri 1 mln. 973 mln. 601 ming 902,85 so'mni tashkil qilgan.

Deklaratsiya qilmaslik yoki noto'g'ri deklaratsiyalash, shu jumladan tovarlarning miqdori va vazni kamaytirib ko'rsatilgan hujjatlarni yoki boshqa nomdagi tovarlarni bojxona rasmiylashtiruviga taqdim etish, shuningdek, tovarlarni bir qismini deklaratsiya qilmaslik. Ushbu usulning mohiyati shundaki, huquqbuzar kamroq bojxona to'lovlarini to'lash maqsadida, import qilishda bojxona rasmiylashtiruviga tovarning miqdori, vazni, navi va sinfi to'g'risida noto'g'ri ma'lumotlar kiritilgan (qalbakilashtirilgan) hujjatlarni taqdim etadi. Bunday operatsiyalar ko'pincha eksport qiluvchi davlatda faoliyat yurituvchi shaxslar bilan o'zaro jinoiy til biriktirgan holda amalga oshiriladi va jo'natuvchi shaxs ularni tovarlarga tegishli soxta hujjatlar bilan ta'minlaydi.

Masalan, Davlat bojxona qo'mitasi Kontrabandaga qarshi kurashish bosh boshqarmasi tomonidan o'tkazilgan tadbirlar natijasida "Chuqursoy", "Sirg'ali" bojxona postlarida bir qator g'ayriqonuniy holatlar aniqlangan. Jumladan, Eron, Xitoy, Arabiston kabi mamlakatlardan kelgan vagonlar tekshirilganda, ularning invoys, temir yo'l transport yuk kuzatuv hujjatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlar aslida vagondagi mavjud yuklar bilan soni, vazni, nomi bilan ham mutlaqo mos kelmasligi aniqlangan. Xizmat tekshiruvi va jinoiy ish yuzasidan o'tkazilgan tergov natijalariga ko'ra, importchi tomonidan taqdim qilingan hujjatlarda vagonlarda bo'r va g'isht ko'rsatilgan bo'lsa-da, ularning o'rnida yuqori sifatli bo'yoqlar, santexnika, kafellar, tayyor shpatlyovka va boshqa aksiz solig'iga tushadigan, narxi qimmat bo'lган yuklar mavjud bo'lib, har bir vagondan 12 dan 30 barobarigacha bojxona to'lovleri kam undirilganligi ma'lum bo'lган.

Shuningdek, ushbu jinoiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslar kamroq bojxona to'lovlarini to'lash maqsadida xorij davlatlaridan bojxona to'lovleri stavkalari yuqori bo'lган turli xildagi tovarlarni import qilib, O'zbekiston Respublikasiga kirishdan oldin tranzit hududda yoki TIF bojxona postiga yetkazib borilganga qadar tovarlarni almashdirib qo'yish orqali bojxona rasmiylashtiruviga bojxona to'lovleri stavkalari past bo'lган tovarlarning nomlari ko'rsatilgan xujjatlarni taqdim etadilar. Masalan, DBQ Kontrabandaga qarshi kurashish bosh boshqarmasi xodimlari tomonidan o'tkazilgan tezkor tadbirlar jarayonida, "Nazarov" xususiy korxonasi nomiga Xitoy davlatidan import qilingan tovarlar ortilgan 15 ta konteynerlar bojxona ko'rigidan o'tkazilganda, konteynerlardagi tovarlar yuk kuzatuv xujjatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlarga umuman mos kelmasligi hamda aynan ushbu usulni qo'llashi orqali yuk hujjatlarida

ko‘rsatilmagan umumiy qiymati 4,3 mld. so‘mlik juda ko‘p miqdordagi mebel, kiyim-kechak, avtoulov ehtiyyot qismlari va turli xildagi xalq iste’moli tovarlari olib kelingani va natijada 2,9 mld. so‘m miqdorida qo‘sishimcha bojxona to‘lovlari to‘lanishi lozimligi aniqlangan.

Tovarlarni bojxona organlari belgilagan manzilga yetkazib bormaslik. Ushbu usulning mohiyati shundaki, O‘zbekiston Respublikasiga olib kirilgan tovar bo‘yicha chegara bojxona postida yukni yetkazib berish nazorat kitobchasi rasmiylashtirilib, tovarni bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish uchun import qiluvchi shaxsning manzili hududiga yaqin joydagi TIF bojxona postiga qadar yetkazib berish majburiyati yuklatiladi, lekin import qiluvchi shaxs bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tov lash maqsadida ushbu tovarlarni belgilangan manzilga yetkazmasdan bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tkazmasdan qalbaki hujjatlar asosida bojxona nazoratdan chiqarib, erkin muomalaga chiqarib yuboradi.

Masalan, aynan ushbu usulni qo‘llab, Samarqand viloyatida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi fuqaro F.D., Qozog‘iston Respublikasi Sariag‘ash tumanidan 125 mln. 112 ming 428 so‘mlik 672 tonna un mahsulotini sotib olib, O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda, unga Sirdaryo viloyati bojxona boshqarmasi «Sirdaryo» chegara bojxona posti xodimlari tomonidan «Yukni yetkazib berish nazorat kitobchalar» rasmiylashtirilib, yukni belgilangan muddat ichida Samarqand viloyati bojxona boshqarmasi TIF postiga yetkazib berish va bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tkazish majburiyati yuklatilgan bo‘lsada, bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tov lash maqsadida un maxsulotini bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tkazmasdan, bojxona hujjati, ya’ni «Yukni yetkazib berish nazorat kitobchalar»ning 20 grafasiga yuk bojxona organi tomonidan qabul qilib olinganligi to‘g‘risida qalbaki imzo, shaxsiy muhr va shtampni qo‘yib, bojxona organiga taqdim qilganligi oqibatida juda ko‘p miqdordagi bojxona to‘lovlaridan qasddan bo‘yin tovlanganligi aniqlangan.

Imtiyozlardan noqonuniy foydalanish. Ma’lumki, respublika hukumati tomonidan muhim ahamiyatga ega iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy vazifalarni muvaffaqiyatli ijro etishni ta’minalash maqsadida, ayrim xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga, strategik ahamiyatga ega bo‘lgan yoki mamlakatimiz ehtiyoji uchun yetarli darajada ishlab chiqarilmaydigan tovarlar uchun qonunchilikka muvofiq, turli soliqlar, shu jumladan, bojxona to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar beriladi, ya’ni, ular qisman yoki to‘liq bojxona to‘lovlaridan ozod etiladi. Ammo, qonunbuzarlar ushbu imtiyozlardan ham o‘zlarining g‘araz maqsadlarini ko‘zlab, noqonuniy daromadlar olish uchun foydalanishlari hech kimga sir emas.

Misol uchun, hukumat qaroriga muvofiq muayyan davrga “O‘zbekteatr” ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi soliq to‘lovlari bo‘yicha katta imtiyozlar berilib, faoliyati uchun zarur bo‘lgan tovarlarni chetdan import qilinganda bojxona

to‘lovlarini ozod qilingan edi. Ushbu imtiyozlardan g‘araz maqsadlarda foydalanish uchun “uddaburon tadbirkorlar” birlashma qoshida “Taron” xususiy firmasini ochishgan. Mazkur firma o‘zining nomidan teatr faoliyatiga hech qanday aloqasi bo‘lmagan jismoniy shaxslar tomonidan Turkiya, Xitoy, Eron va boshqa mamlakatlardan olib kelingan yuklarni juda ko‘p miqdordagi bojxona to‘lovlarini to‘lashdan noqonuniy ozod etib, bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tkazib kelishgan.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish mumkinki, *O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarni sudlar tomonidan ko‘rib chiqish amaliyotiga bog‘liq qarorlarida amaliyotda ko‘proq qo‘llaniladigan bojxona to‘lovlaridan bo‘yin tov lash usullariga ham tushuntirishlar berilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.*

Tahlil qilinayotgan jinoyat *sub’ektiv tomondan* aybning qasd shakli bilan sodir etiladi.

Jinoyat *sub’ektini* aniqlash huquqiy amaliyotda juda qiyin masala hisoblanadi. Qonunchiligiga binoan mazkur *jinoyatning sub’ekti* 16 yoshga to‘lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda soliqlar yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tov lashning sub’ekti xususida turli xil fikrlar bildirilgan. Bunday sub’ektlar sifatida quyidagi shaxslar qayd etiladi:

- tashkilotning mansabdor shaxslari;
- rahbarlar yoki ularning vazifalarini bajaruvchi shaxslar⁵⁷;
- soliq yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyati yuklangan boshqa jismoniy shaxslar⁵⁸.

Professor M.X.Rustamboev talqinicha, soliqlar yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tov lashning sub’ekti deb, qonunga muvofiq daromad, foya va soliq solinadigan boshqa ob’ektlar haqida to‘liq axborot berish hamda davlat foydasiga belgilangan to‘lovlarni kiritish vazifasi yuklatilgan shaxslar tan olinishi mumkin, bular qatoriga, mulk shaklidan qat’iy nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lash bilan bog‘liq buxgalteriya hisobotini olib borish, hujjalarni taqdim qilish zimmasiga yuklatilgan mansabdor shaxslar (korxona, muassasa va tashkilotlarning rahbarlari, ularning o‘rnbosarlari, bosh hisobchilari va hisobxonaning mansabdor shaxslari) kiradi⁵⁹.

⁵⁷ Гаухман Л.Д., Максимов С.В. Преступления в сфере экономической деятельности. -М.,1998. - 43 с.

⁵⁸ Минская В.С. Ответственность за уклонение от уплаты налогов или страховых взносов // Проблемы теории уголовного права и практики применения нового УК: Труды НИИ проблем укрепления законности и правопорядка при Генеральной прокуратуре РФ, 1999. - 56 с.

⁵⁹ Rustamboev M.X., O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat xuquqi kursi. Maxsus qism. 4-tom. OTM uchun darslik. - T.: «ILM ZIYO» nashriyot uyi, 2011. - 165 b.

Tadqiqotchi olim V.A.Jbankov bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovplash sub’ektlari sifatida quyidagilarni e’tirof etgan: 1) tashkilotlar va korxonalar (shu jumladan, mamlakat hududida xorijiy investitsiyalar bilan tashkil etilgan); 2) tashkilotlarning moliyaviy bo‘linmalari (banklarda alohida joriy hisob yoki balansga ega bo‘lgan); 3) xorijiy mamlakat qonunchiligidagi muvofiq tashkil etilgan, lekin doimiy vakolatxonalar orqali iqtisodiy faoliyatni amalga oshiruvchi korxonalar; 4) bojxona omborlari egalari; 5) yuridik firmalar rahbarlari; 6) boj olinmaydigan savdo do‘konlar egalari⁶⁰.

Ushbu tasnifga qo‘shilgan holda, *bizningcha, bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovplash sub’ektlari ro‘yxatiga O‘zbekiston bojxona qonunchiligidagi belgilangan erkin omborlar egalarini ham kirtsak bo‘ladi.*

Yuqoridagi ta’riflardan ko‘rinib turganidek soliq, bojxona yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovplashning sub’ekti umumiy belgilar bilan bir qatorda maxsus belgilarga ham ega.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, soliq, bojxona yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovplashning sub’ekti 16 yoshga to‘lgan, aqli raso jismoniy shaxslar hisoblansada, shunga qaramay, sud amaliyotida maxsus sub’ektlar, ya’ni korxona, muassasa, tashkilotlarning mansabdor shaxslari ham ko‘p uchraydi, mazkur holat jinoyatni sodir etgan shaxslarning qo‘shimcha belgilari - kasb-kori, mansab-mavqeい va boshqa belgilarning mavjudligi bilan belgilanadi.

Yuqorida qayd etilgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 31-maydagi 8-sonli qarorining 7-bandiga muvofiq, agar soliq to‘lovchi sub’ektlarning g‘ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) JKning 184-moddasi dispozitsiyasi bilan qamrab olinsa, ularni tadbirkorlik faoliyatiga to‘sinqinlik qilish, qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog‘liq jinoyatlar hamda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qiladigan boshqa jinoyatlar (JK, 192¹¹-moddasi) va boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar (205-209, 227, 228-moddalar) uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalari bilan qo‘shimcha kvalifikatsiya qilish talab etilmaydi. Shuningdek, *tovarlarni bojxona chegarasidan o‘tkazish bilan bog‘liq ravishda davlat boji tariqasidagi soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovplashda ifodalangan harakatlар JKning 182-moddasi bilan qamrab olinadi va JKning 184-moddasi bilan qo‘shimcha kvalifikatsiya qilishni talab etmaydi.*

Soliq yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovplashning javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlari O‘zbekiston Respublikasi JKning

⁶⁰ Жбанков В.А, Савлук А.О. Правоохранительная деятельность таможенных органов Российской Федерации. Курс лекций. М.: РИО РТА, 2004. - 125 с.

184-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlarida belgilangan. Bular mazkur qilmish takroran, ko‘p miqdorda va juda ko‘p miqdorda sodir etilishidir.

Jinoyat kodeksining 184-moddasi 4 va 5-qismlarida rag‘batlantiruvchi normalar mustahkamlangan, 4-qismiga muvofiq, qasddan yashirilgan, kamaytirib ko‘rsatilgan foyda (daromad) bo‘yicha soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘liq to‘langan taqdirda, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo‘llanilmaydi, 5-qismida esa sodir etilgan jinoyat haqidagi xabarini olgan kundan e’tiboran o‘ttiz kun ichida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar, shu jumladan penyalar va boshqa moliyaviy sanksiyalar tarzida davlatga yetkazilgan zararning o‘rni to‘liq qoplansa, javobgarlikdan ozod qilinishi belgilangan.

Tergov-sud amaliyotida JKning 184-moddasi 5-qismida belgilangan rag‘batlantiruvchi normani talqin qilishda noaniqliklar yuzaga kelayotganligi sababli, ushbu masalaga kvalifikatsiyalash muammolariga bag‘ishlangan alohida paragrafda batafsil to‘xtalib o‘tishni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Nazorat savollari:

1. Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyatining ob’ekti va predmetiga izoh bering.
2. Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyatining ob’ektiv tomoniga izoh bering.
3. Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyatining sub’ekti va sub’ektiv tomoniga izoh bering.
4. Soliq yoki boshqa majburiy to‘lovlardan bo‘yin tov lash jinoyatining ob’ekti va predmeti haqida izoh bering.
5. Soliq yoki boshqa majburiy to‘lovlardan bo‘yin tov lash jinoyatining ob’ektiv tomoni va bojxona to‘lovlardan bo‘yin tov lash usullari haqida gapiring.
6. Soliq yoki boshqa majburiy to‘lovlardan bo‘yin tov lash jinoyatining sub’ektiv tomoni va sub’ektiga izoh bering.

§3.3. Jamoat xavfsizligi va axloq normalariga tahdid soluvchi bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlarining nazariy huquqiy tahlili

Bojxona sohasidagi jinoyatlarning ko‘p ob’ektlilik xususiyatini e’tiborga olib, yuqorida TIF bilan bog‘liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlarini tavsifi va o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilib bo‘lganimizdan keyin, quyida bojxona sohasida sodir etiladigan jamoat xavfsizligi va axloq normalariga tahdid soluvchi bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlarining nazariy huquqiy tahliliga o‘tsak bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi JKning 246-moddasi “Kontrabanda” jinoyati. Ta’kidlash lozimki, ko‘p miqdorda, ayrim holatlarda esa oz miqdorda iste’mol qilish ham inson sog‘lig‘i va hayoti uchun xavfli bo‘lganligi, shuningdek ayrim turkumdagи predmetlardan foydalanish yoki ular bilan muomalada bo‘lish davlat va jamoat xavfsizligiga rahna solganligi sababli fuqarolik muomalasidan chiqarilgan yoki muomala qilishning alohida tartibi belgilangan tovarlarning (kontrabanda ashyolari) tegishli ruxsatnomasiz, belgilangan tartibga rioya qilmagan holda jinoiy yo‘llar bilan olib o‘tilishiga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjalarni buzishdan (182-modda) ajratgan holda “Kontrabanda” (246-modda) atamasi qo‘llaniladi.

Aslida “kontrabanda” so‘zi italyancha “contra-bando” (“contra”-qarshi, “bando”-hukumat farmoni) so‘zidan kelib chiqqan. Yuridik ensiklopediyada qayd etilishicha, kontrabanda deganda, mamlakatga olib kelish va olib ketish ta’qiqlangan tovarlar, qimmatbaho buyumlar, valyuta boyliklari va boshqalarni davlat chegarasidan qonunga xilof ravishda, yashirinchalarda o‘tkazish, shuningdek, ta’qiqlangan tovarlarni olib o‘tish uchun qonuniy harakatlar qilish tushuniladi⁶¹.

Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq tovarlarni olib kirish yoki olib chiqishni ta’qiqlash davlat xavfsizligini ta’minalash, jamoat tartibini, axloq-odobni, inson hayoti va sog‘ligini, atrof tabiiy muxitni muhofaza qilish, O‘zbekiston Respublikasi va boshqa mamlakatlarning tarixiy, arxeologik va san’at yodgorliklarini himoya qilish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining boshqa manfaatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Tovarlarni bojxona chegarasidan o‘tkazishni cheklash esa xalqaro vaziyat, ichki bozorni himoya qilishdan kelib chiqib, shuningdek chet el davlatlari va

⁶¹ O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi. Nashr uchun mas’ul: R.A.Muhiddinov va boshq. / Mas’ul muharrir: N.Toychiev – Toshkent: Adolat, 2009. - 261 b.

ittifoqlarining O‘zbekiston Respublikasi manfaatlarini kamsituvchi yoki ularga ziyan yetkazuvchi harakatlariiga javoban choralar sifatida o‘rnataladi⁶².

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 06.09.2013-yildagi 18-sonli qarorining 17-bandida ta’kidlanishicha, “Sudlar shuni nazarda tutishlari lozimki, JKning 246-moddasiga muvofiq, bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o‘xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo‘li bilan foydalanib, deklaratsiyasiz yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib, kuchli ta’sir qiluvchi, zaharli, zaharlovchi, portlovchi moddalar, radioaktiv materiallar, portlatish qurilmalari, qurol-yarog“, o‘qotar qurol yoki o‘q-dorilarni shuningdek, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni yoki diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ‘ib qiluvchi materiallarni, yadroviy, kimyoviy, biologik va ommaviy qirg‘in qurolining boshqa turlarini, shunday qurollarni yaratishda foydalanishi mumkinligi ayon bo‘lgan material va moslamalar, radioaktiv materiallarni (bundan buyon matnda - kontrabanda ashylari) O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o‘tkazish boshqa jinoyat - kontrabanda tarkibini tashkil etadi”, deb ko‘rsatilgan.

Demak, O‘zbekiston Respublikasi JKning 246-moddasida javobgarlik belgilangan kontrabanda *jinoyatining ob’ekti* - jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi va aholi salomatligi hisoblanadi.

Kontrabanda ashylarining tavsifi va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, ushbu jinoyatni to‘g‘ri malakalash va javobgarlik masalasini hal qilishda muhim ahamiyatga egaligini e’tiborga olib, kontrabanda ashylari tushunchasi va ta’riflari aks etgan, ularning muomalasini tartibga soluvchi bir qator me’yoriy hujjatlar mavjud.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida Kuchli ta’sir qiluvchi moddalar muomalasini tartibga solish to‘g‘risida”gi 818-sonli qarorining 1-ilovasi bilan *Kuchli ta’sir qiluvchi moddalar* Ro‘yxati va Jinoiy harakatni tasniflashda miqdor ko‘rsatkichlari tasdiqlangan⁶³.

O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 11-maydagi 213-II sonli “Maxsus yuklar va harbiy tarkiblarning tranziti to‘g‘risida”gi Qonunida⁶⁴ *qurol-yarog*‘ tushunchasi, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-iyuldagagi “Qurol

⁶² Рустамбаев А.М. Совершенствование уголовного законодательства и правоприменительной практики по борьбе с групповыми формами преступности: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Тошкент, 2010 й. –120 б.

⁶³ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 sentyabrdagi 818-son qarori, <https://lex.uz/docs/4532164>.

⁶⁴ O‘zbekiston Respublikasining 2001 yil 11 maydagi “Maxsus yuklar va harbiy tarkiblarning tranziti to‘g‘risida”gi 213-II sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/79981>.

to‘risida”gi qonunida⁶⁵ va Oliy Sudi Plenumining 1996-yil 27-fevraldagagi “Qonunga xilof ravishda qurolga egalik qilish to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi 3-sonli qarorida⁶⁶ o‘qotar qurol, o‘qorilar, portlovchi moddalar va portlatish qurilmalari tushunchalari va qonunga xilof muomalasi bilan bog‘liq masalalar batafsil yoritilgan.

Portlovchi moddalar ro‘yxati, ularni Respublika hududiga olib kirish va muomalada bo‘lishi tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 6-maydagi 213-sonli Qarori⁶⁷ bilan belgilangan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 2-oktabrdagi “Sanoat va radiatsiya xavfsizligi sohasidagi ayrim faoliyat turlarini litsenziyalashni va ruxsat berish tartib-taomillarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 782-sonli qarorida⁶⁸ kontrabanda ashylari bo‘lgan portlovchi va zaharli moddalar ro‘yxati berilgan.

Fuqarolarning radiatsiyaviy xavfsizligini tartibga soluvchi asosiy normativ aktlarga O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 31-avgustdagagi “Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida”gi 120-II-son⁶⁹, 1992-yil 9-dekabrdagi “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi 754-XII-sonli⁷⁰ Qonunlari va boshqa qonun hujjatlar kiradi.

Kontrabanda ashylari bo‘lmish *giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalar*ning tushunchasi va ro‘yxatlari BMTning 1961-yilgi “Giyohvandlik vositalari to‘g‘risida”gi Yagona Konvensiyasi va unga 1972-yilgi Protokolga asosan kiritilgan tuzatishlar bilan, 1971-yilgi “Psixotrop moddalar haqida”gi Konvensiyasi va 1988 yilgi “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Konvensiyasi, O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustdagagi “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Qonuni⁷¹, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 12-noyabrdagi 330-sonli “Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali olib kirish, undan olib chiqish va tranzit

⁶⁵ O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-iyuldagagi “Qurol to‘g‘risida”gi O‘RQ-550-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/4445288>.

⁶⁶ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 1996-yil 27-fevraldagagi 3-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/1441585>.

⁶⁷ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 6-maydagi 213-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/299185>.

⁶⁸ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 2-oktabrdagi 782-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/3924353>.

⁶⁹ O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 31-avgustdagagi “Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida”gi 120-II-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/26166>.

⁷⁰ O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrdagi “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi 754-XII-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/107115>.

⁷¹ O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustdagagi “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi 813-1-sonli Qonuni, <https://lex.uz/acts/86044>.

tarzida o‘tkazish tartibini, shuningdek ularning muomalada bo‘lishi yuzasidan nazoratni takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorida⁷² berilgan.

Tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, tergov organlari giyohvandlik va psixotrop moddalarni noqonuniy muomalasi holatlarini aniqlash va ular bo‘yicha ish yuritishda hamda sudlar tomonidan ushbu toifadagi ishlarni ko‘rib chiqishda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 2017-yil 28-apreldagi 12-sonli “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorida⁷³ keltirilgan tushuntirishlar va tavsiyalarga amal qilishlari lozim.

Diniy materiallar bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda olib o‘tilgan har bir holatda shaxsning harakatlarini to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish uchun ularda diniy *ekstremizm, separatizm, aqidaparastlik g‘oyalari* targ‘iboti mavjud yoki mavjud emasligi masalasini aniqlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 20-yanvardagi “Diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish sohasidagi faoliyatini amalga oshirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 10-sonli Qarori⁷⁴ talablariga asosan sud-dinshunoslik ekspertizasi tayinlanishi belgilangan. Agar ekspertiza natijalariga ko‘ra diniy mazmundagi materiallarda diniy ekstremizm, separatizm, aqidaparastlik g‘oyalari targ‘iboti mavjudligi aniqlansa, shaxsning harakatlari JKning 246-moddasi bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Oliy sud Plenumining 06.09.2013-yildagi 18-sonli qaroriga ko‘ra, bojxona chegarasi orqali JKning 246-moddasining birinchi qismida qayd etilgan kontrabanda predmetlarini o‘tkazishda ifodalangan harakatlarni kvalifikatsiya qilishda kontrabanda predmetlari miqdori huquqiy ahamiyat kasb etmaydi. Agar shaxs JKning 182-moddasi ta’siriga tushuvchi tovarlarni bojxona chegarasi orqali o‘tkazish bilan bir qatorda kontrabanda jinoyatini sodir etsa, uning harakatlari JKning 182 va 246-moddalarda nazarda tutilgan jinoyatlar majmui bilan kvalifikatsiya qilinadi. Agar shaxs kontrabanda jinoyatini sodir etish bilan bir qatorda kontrabanda ashyolarining noqonuniy muomalasi bilan boshqa jinoyatlarni (JKning 247, 248, 273-moddalari va h.k.larni) sodir etsa, uning harakatlari jinoyatlar majmui bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Ushbu jinoyat JKning 182-moddasi “Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish” jinoyati bilan *ob’ektiv tomoni*, ya’ni jinoyatni sodir etish usullari bo‘yicha bir xil bo‘lsada, jinoyat predmetlari, ya’ni *tovar va boshqa*

⁷² O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 12-noyabrdagi 330-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/2815340>.

⁷³ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 2017-yil 28-aprelgi 12-sonli qarori, <https://lex.uz/docs/3203265>.

⁷⁴ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 20-yanvardagi 10-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/2322985>.

qimmatliklarni emas, balki *kontrabanda ashyolarini* bojxona chegarasidan o‘tkazish bilan farqlanadi.

Jinoyatning *sub’ektiv tomoni* - qasddan sodir etiladi.

Sub’ekti - o‘n olti yoshga to‘lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs.

Jinoyat kodeksining 246-moddasi 2-qismi og‘irlashtiruvchi norma hisoblanib, yadroviy, kimyoviy, biologik va ommaviy qirg‘in qurolining boshqa turlarini, shunday qurollarni yaratishda foydalanimli mumkinligi ayon bo‘lgan material va moslamalar, radioaktiv materiallarni, shuningdek, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalarni ko‘p miqdorda kontrabanda qilganlik uchun javobgarlik belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi JKning 244³-moddasi “Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish” jinoyati. O‘zbekiston Respublikasida diniy e’tiqodni xar qanday shaxs o‘zi erkin tanlash va e’tiqod qilish huquqini amalga oshirishlari uchun imkon yaratilishi lozim. Boshqa shaxslarning da’vati yoki tashviqotlari natijasida amalga oshirilishi bunday huquqlarga putur yetkazadi. Ayniqsa, noto‘g‘ri targ‘ib qilingan adabiyotlarni turli xildagi diniy mazmundagi materiallarni tarqatilishi bilan sodir etiladigan holatlari bunday huquqlarning erkin amalga oshirilishiga jiddiy putur yetkazadi va ijtimoiy xavflilik xususiyatlari yanada ortadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunga⁷⁵ muvofiq har bir shaxs erkin e’tiqod qilish huquqiga ega bo‘lib, shaxsni bunday munosabatlariga dalolat qilish, tashviqot qilish ta’qilanganadi. Agar targ‘ib qilish yoki tashviqot qilish shaxsning erkin e’tiqod qilishiga to‘sinqlik qilsa, javobgarlikning diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlagan, saqlagan, olib kirgan yoki tarqatgan shaxslarga nisbatan jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi. Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish *jinoyatning ob’ektini* aynan xar qanday shaxslarning erkin e’tiqod qilish huquqlari tashkil etadi va diniy mazmundagi narsalarni qonunga xilof tarzda tayyorlash, tarqatish yoki respublika hududiga olib kirish jamoat xavfsizligiga ham tahdid soladi. Bu esa o‘z navbatida qilmishning ijtimoiy xavfliligidan dalolat beradi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 20-yanvardagi “Diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish sohasidagi faoliyatini amalga oshirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 10-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududida diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish faoliyatini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”ning

⁷⁵ O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 5-iyuldagisi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-699-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/5491534>.

4-bandida ushbu sohadagi asosiy tushunchalarga ta’riflar keltirilgan. Xususan:

diniy mazmundagi materiallar – dunyodagi turli dirlarning asoslari, tarixi, mafkurasi, ta’limoti va sharhlari hamda marosimlarini o’tkazish amaliyotini aks ettiruvchi kitoblar, risolalar, jurnallar, gazetalar, varaqalar va boshqa bosma nashrlar, audiovizual asarlar (tele-, kino- va videofilmlar, kliplar, konserdasturlarining yozmalari, multfilmlar, anime, xentay va shu kabilar), axborot tashuvchi elektron jismlar (disketlar, CD, DVD disklari, Internet tarmog‘ida joylashtirilgan materiallar va shu kabilar);

tayyorlash – O‘zbekiston Respublikasi hududida diniy mazmundagi materiallarni nashr etish, qayta nashr etish va nusxa ko‘chirish;

olib kirish – xorijda tayyorlangan diniy mazmundagi materiallarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga yetkazib berishning har qanday shakli;

tarqatish – O‘zbekiston Respublikasi hududida diniy mazmundagi materiallarni sotish, obuna bo‘lish, yetkazib berish, tarqatish, yuborish va realizatsiya qilish;

tayyorlash, olib kirish, tarqatish man etilgan diniy mazmundagi materiallar ro‘yxati – Din ishlari bo‘yicha qo‘mita tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida muomalada bo‘lishi ta’qiqlangan diniy mazmundagi materiallarning har yili kamida ikki marta tuziladigan ro‘yxati.

Takidlash joizki, JKning 244³-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning *predmeti* diniy ekstremizm, separatizm va diniy fundamentalizm g‘oyalari bilan yo‘g‘rilmagan bo‘lishi lozim, aks holda qilmishni mazkur modda bilan kvalifikatsiya qilib bo‘lmaydi.

Diniy ekstremizm, separatizm, diniy fundamentalizm mazmunidagi materiallarni tayyorlash, saqlash, O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, aybdorda keyinchalik bunday materiallarni tarqatish maqsadi mavjudligidan, shuningdek ularni tarqatishidan qat’iy nazar, ishning aniq holatlaridan kelib chiqib, JKning 244¹ yoki 246-moddalari bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish kabi harakatlar mazkur jinoyatning ob’ektiv tomonini tashkil etadi. Bunday harakatlarning internet tizimdan foydalangan holda amalga oshirilishi ham ushbu jinoyatning *ob’ektiv tomonini* tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonunining 10-moddasi 2-bandiga binoan, O‘zbekiston Respublikasi huqudida diniy mazmundagi materiallarini tayyorlash, olib kirish va tarqatish jamiyatda konfessiyalararo totuvlik hamda diniy bag‘rikenglik buzilishiga olib keladigan, diniy zo‘ravonlik va boshboshdoqlikka chorlaydigan g‘oyalari hamda qarashlar tarqalishining oldini olish maqsadida dinshunoslik ekspertizasining ijobiylari olinganidan keyin amalga oshiriladi.

Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 20-yanvardagi 10-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududida diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish faoliyatini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”ning 3-bo‘limida materiallarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish tartibi belgilangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining Chegara qo‘shinlari davlat chegarasida olib qo‘yilgan materiallar ekspertizadan o‘tkazish uchun vakolatli organga o‘z vaqtida yuborilishini ta’minlaydi.

Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilgan ta’qiqlangan materiallar ro‘yxatiga kiruvchi materiallar ekspertiza o‘tkazilganidan keyin bojxona organlari yoki davlat chegarasini qo‘riqlash organlari tomonidan musodara qilinadi.

Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o‘z ehtiyojlari uchun har bir nomlanishdagi materialdan uch nusxadan oshmagan miqdorda, agar ular ta’qiqlangan materiallar ro‘yxatiga kiritilmagan bo‘lsa, ekspertiza o‘tkazilgandan keyin O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Vakolatli organ diniy material namunasi olingandan keyin o‘n ish kunidan oshmagan muddatda muayyan material O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilishi to‘g‘risidagi masalani keyinchalik hal etish uchun tegishli organga xulosa taqdim etadi. Vakolatli organ O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari manfaatlarini himoya qilish maqsadida ommaviy ziyorat tadbirlari o‘tkaziladigan vaqtida ekspertizaning bevosita bojxona nazorati punktlarida o‘tkazilishini ta’minlaydi.

Yuqoridagi materiallarni O‘zbekiston Respublikasiga noqonuniy **olib kirish**, deganda: bojxona nazoratini chetlab; bojxona nazoratidan yashirin holda; hujjatlar yoki bojxona identifikatsiya qilish vositalaridan aldov yo‘li bilan foydalangan holda respublika hududiga olib kirish nazarda tutiladi. Diniy mazmundagi materiallar qonunga xilof ravishda bojxona nazoratini chetlab yoki yashirincha olib o‘tilganidan boshlab **tugallangan** deb topiladi. Bojxona nazoratidan o‘tish jarayonida yoki qalbakilashtirilgan (nomini o‘zgartirib, sonini kamaytirib va h.k.) hujjatlarni taqdim qilish jarayonida ushlangan yoki to‘xtatilgan bo‘lsa, jinoyatga **suiqasd** hisoblanadi.

Sub’ektiv tomonidan diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish faqat qasddan sodir etiladi. Ushbu harakatlardan biri uchun ilgari aybdorga ma’muriy javobgarlik qo‘llanilganidan keyin yana shunday qilmishning amalga oshirilganligi uning qasddan sodir etilganligidan dalolat beradi. Bu jinoyatning motivi g‘araz, diniy mojarolar keltirib chiqarish, jamiyatda beqarorlikni vujudga keltirish, konstitutsiyaviy tuzumni qonunga xilof ravishda ag‘darish, ko‘pincha voyaga yetmaganlar, yoshlар axloqiga salbiy ta’sir ko‘rsatish va h.k. bo‘lishi mumkin. Diniy mazmundagi materiallarni

qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirishning **maqsadi** ularni aholi o‘rtasida tarqatishdan iborat. Qilmishni kvalifikatsiya qilishda **jinoyatning maqsadi** zaruriy belgi hisoblanadi, bunday maqsadning yo‘qligi jinoyat tarkibi mavjud emas, deb hisoblash uchun asos bo‘ladi.

Shaxsda yuqoridagi materiallarni tarqatish maqsadining mavjudligini tayyorlangan materiallarning ko‘p miqdordaligidan yoki shunday miqdorda tayyorlashga harakat qilinganligidan, tayyorlangan materiallarning hech bo‘lmaganda bittasining tarqatilganligidan, tayyorlash asboblarining aynan diniy materiallar ishlab chiqarish uchun moslashtirilganligidan aniqlash mumkin.

Ushbu jinoyatning *sub’ekti* 16 yoshga to‘lgan, aqli raso, ilgari (bir yil ichida) shunday harakatlari uchun ma’muriy jazoga tortilgan O‘zbekiston Respublikasi yoki chet el fuqarolari yoxud fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi JKning 244⁴-moddasi “Uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda olib kirish, o‘tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish” jinoyati. Texnika va texnologiyalar asrida yangilik va o‘zgarishlar bizni hayratda qoldirishda davom etmoqda. Bugunga kelib butun dunyoda keng qo‘llanayotgan, jahoning barcha mintaqalarida foydalanilayotgan qurilmalardan biri bu – dron(uchuvchisiz uchadigan apparat)lardir.

Dronlardan foydalanish masalasi hozirgi kunda dunyo hamjamiyatida qonunchilik bilan tartibga solinayotgan yangi soha hisoblanadi. Avvaliga bu ixtiro o‘ylab topilgandan so‘ng, barchaning diqqat-e’tibori dron olib uchirishda bo‘lgandi. Ko‘p o‘tmay ulardan foydalanishda muammolar yuzaga kelib, ko‘plab davlatlarda ruxsatsiz uchirishga ta’qiqlar qo‘yila boshlandi.

Bu bo‘yicha ruxsat olish tartibi turli mamlakatlarda turlicha. Jahon tajribasida bir necha tartibga solish usullari mavjud⁷⁶. Abu-Dabida maxsus ruxsatsiz va savdo litsenziyasiga ega bo‘lmasdan drondan foydalanish ta’qiqlanadi. Agar ko‘chada ruxsatsiz uchirilsa dron tortib olinadi va bir necha ming AQSh dollariga teng jarima solinadi yoki qamoq jazosi qo‘llaniladi. Shu sababli drondan vaqtincha foydalanish uchun ariza va boshqa hujjatlar topshirish kerak bo‘ladi. Buning uchun pasportning skanerlangan varianti, fotosuratlar, chiptalar, yashash joyi, telefon, dron modeli, dron foydalanganda xavfsizlik texnikasi qoidalari bo‘yicha bilimni tasdiqlovchi sertifikat zarur bo‘ladi.

Germaniya dronlar vazni va hajmiga qarab turlarga bo‘lingan. Turlarga qarab hujjatlashtirish ham farqlanadi.

250 grammdan og‘ir dronlarda egasining shaxsi va yashash joyi haqida ma’lumotlar bo‘lishi lozim.

⁷⁶ Drondan foydalanish huquqini qo‘lga kiritish uchun nimalar talab etiladi? <https://kun.uz/66725023>.

5 kilogrammgacha og‘irlidagi dronlar uchun litsenziya olinishi kerak bo‘ladi. Buning uchun maxsus aviamaktablar mavjud. Bu maktablar Federal fuqaro aviatsiya idorasi tomonidan tan olingan bo‘lishi lozim (Luftfahrt Bundesamt).

5 kilogrammdan yuqori dronlarga qo‘shimcha «parvoz uchun ruxsatnomalar» (Aufstiegserlaubnis) olinishi shart hisoblanadi.

Rossiya qonunchiligidagi dronlar amaliyoti bo‘yicha asosiy manba Federatsiyaning Havo kodeksi hisoblanadi. Ushbu kodeksning 33-moddasiga ko‘ra, 250 grammdan 30 kilogrammgacha bo‘lgan qurilmalar davlat registratsiyasidan o‘tishi kerak. 2017-yil 5-iyuldan boshlab og‘irligi 250 grammgacha bo‘lgan qurilmalar Federal xavfsizlik xizmati va Federal havo transporti agentligidan (Rosaviatsiya) ro‘yxatdan o‘tishi lozim. Qurilma operatorlari Transport vazirligidan malaka litsenziyasini olishadi.

O‘zbekiston Respublikasida ushbu qurilmadan turizm salohiyatini ko‘rsatish maqsadida foydalanish (foto va videomateriallar tayyorlash), shu jumladan, chet el ijodiy guruhlari O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, Madaniyat vazirligi va «O‘zbekkino» milliy agentligining iltimosnomasiga asosan, Mudofaa vazirligi va Parvozlar xavfsizligini ta’minlash Inspeksiyasiga uchish apparatlari, mas’ul shaxslar, parvoz joyi va boshqa ma’lumotlarni taqdim qilgan holda ruxsat beriladi. Bu borada maxsus vakolatli organ – O‘zbekiston Respublikasi Parvozlarning xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 26-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining havo bo‘shlig‘ida uchuvchisiz uchish qurilmalaridan sanksiyasiz foydalanishda ogohlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 322-sonli⁷⁷ va 2016-yil 31-avgustdaggi “O‘zbekiston Respublikasining fuqaro va davlat aviatsiyasida uchuvchisiz uchish qurilmalaridan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 287-sonli⁷⁸ qarorlari bilan O‘zbekistonda uchuvchisiz boshqariladigan apparatlarni respublika hududiga olib kirish ta’qilangan. Ushbu ta’qiq mazkur apparatlarning barcha turi: fuqarolik, razvedka qiluvchi va zarba beruvchi hamda boshqalariga (*TIF TN kodlari 8802 20 000 1, 8802 20 000 2, 8802 20 000 8*) taalluqli hisoblanadi.

Istisno tartibida O‘zbekiston turistik salohiyati haqida foto va videomateriallar tayyorlash uchun, shu jumladan xorijiy ijodiy guruhlarga dronlarni vaqtincha olib kirish va ulardan foydalanishga ruxsat berilgan. Shuningdek Hukumatning ruxsatnomasiga ko‘ra idoraviy vazifalarni bajarish

⁷⁷ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 26-noyabrdagi 322-sonli qarori, <https://lex.uz/docs/2503508>.

⁷⁸ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 31-avgustdaggi 287-sonli qarori, <https://lex.uz/docs/3024319>.

uchun uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanish mumkin⁷⁹.

Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-maydag‘i Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga 244⁴-moddasi kiritilib, uchuvchisiz uchadigan apparatlarni, ularning butlovchi va ehtiyoq qismlarini qonunga xilof ravishda olib kirish, o‘tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilandi. Mazkur Qonun normasi 2019-yil 2-noyabrdan e’tiboran amalga kiritilgan. Bunday tartibni belgilash zarurati, eng avvalo, jamiyatda hayot va sog‘liqqa hamda davlat tuzumiga qarshi huquqqa xilof harakatlarni sodir etish tahdidlarining mavjudligi bilan bog‘liqdir.

Uchuvchisiz uchish apparati – bortida uchuvchisiz parvozni amalga oshiradigan yoki boshqa joydan turib boshqariladigan, dasturlashtiriladigan va parvozda to‘liq avtonomlashtirilgan vosita hisoblanadi. Uchuvchisiz havo vositasi ajralmas tizim sifatida ishlaydigan va uzoqdan uchadigan vositalarni joydan turib birlashtiradi.

Uchuvchisiz uchadigan apparatlar, ularning butlovchi va ehtiyoq qismlari ushbu jinoyatning *predmeti* hisoblanadi.

Ushbu jinoyatning *ob’ekti* – jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan ijtimoiy munosabatlar.

Jinoyatning *ob’ektiv tomoni* – uchuvchisiz uchadigan apparatlarni, ularning butlovchi va ehtiyoq qismlarini qonunga xilof ravishda olib kirish, o‘tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanishda ifodalangan faol harakatlar.

Sub’ektiv tomonidan jinoyat qasddan sodir etiladi.

Jinoyatning *sub’ekti* – 16 yoshga to‘lgan, aqli raso jismoniy shaxs.

O‘zbekiston Respublikasi JKning 250¹-moddasi “Pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi” jinoyati. Pirotexnika buyumlarini ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish, jo‘natish, ulardan foydalanish, ularni O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish (O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqish) yoki o‘tkazishga oid huquqiy masalalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 6-maydag‘i «Portlovchi moddalar va portlatish vositalarini O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish, transportda tashish, saqlash va ulardan foydalanish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 213-sonli⁸⁰, 2009-yil 10-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi hududida pirotexnika vositalari aylanishini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 309-sonli⁸¹, 2010-yil 25-oktabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi hududida

⁷⁹ https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/uchuvchisiz_uchadigan_apparatlar_uchun_-_real_muddat#.

⁸⁰ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 6-maydag‘i 213-sonli qarori, <https://lex.uz/docs/299185>.

⁸¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 10-dekabrdagi 309-sonli qarori, <https://lex.uz/docs/1557194>.

pirotexnika buyumlari muomalasini davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 234-sonli⁸² va 2021-yil 1-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi hududida pirotexnika buyumlari muomalasi sohasida davlat nazoratini kuchaytirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi 724-sonli⁸³ qarorlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Jinoyatning *bevosita ob'ekti* pirotexnika buyumlarini ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish, jo'natish, ulardan foydalanish, ularni O'zbekiston Respublikasiga olib kirish (O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish) yoki o'tkazish tartibini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Qo'shimcha ob'ekti esa fuqarolarning hayoti yoki sog'lig'i yoxud o'zgalar mulkining daxlsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardir.

Jinoyat kodeksining 250¹-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning *predmeti* pirotexnika buyumlaridir.

Pirotexnika buyumlari deganda, tarkibiy jihatdan pirotexnika moddalaridan iborat bo'lgan hamda detonatsiya qilinmaydigan ekzotermik reaksiyalar (o'zidan issiqlik chiqaradigan kimyoviy reaksiya) natijasida tashqi effektlarni (o't, ovoz, gaz yoki tutun yoxud ularning kombinatsiyalari) vujudga keltirish uchun mo'ljallangan vositalar tushunilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 10-dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasi hududida pirotexnika vositalari aylanishini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 309-son qarorining 1-bandi bilan O'zbekiston Respublikasi hududida pirotexnika vositalarini olib kirish, ishlab chiqarish, tashish, saqlash, sotish va ulardan foydalanish vaqtincha ta'qiqlangan. Qarorning 3-bandida barcha pirotexnika vositalari olib qo'yilishi va keyinchalik belgilangan tartibda yo'q qilinishi shartligi belgilangan. Pirotexnika buyumlarini topshirish, saqlash va yo'q qilish O'zbekiston Respublikasi IV, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat bojaxona qo'mitasi, Milliy gvardiyasi, Oliy sudi va Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasining 2020-yil 7-dekabrdagi "Qonunga xilof muomilada bo'lganligi va foydalanish qoidalari buzganligi uchun olingan pirotexnika buyumlarini topshirish, saqlash va yo'q qilish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi qo'shma qarori talablari asosida amalga oshiriladi.

Ob'ektiv tomonidan ushbu jinoyat ancha miqdorda yoxud shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan pirotexnika

⁸² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 25-oktyabrdagi 234-sonli qarori, <https://lex.uz/docs/1692637>.

⁸³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 1-dekabrdagi 724-sonli qarori, <https://lex.uz/docs/5752210>.

buyumlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish, jo‘natish, ulardan foydalanish, xuddi shuningdek ularni qonunga xilof ravishda O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish (O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqish) yoki o‘tkazishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 1-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi hududida pirotexnika buyumlari muomalasi sohasida davlat nazoratini kuchaytirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 724-sonli qarorning 2-bandiga ko‘ra xavflilikning II klassiga tegishli maishiy pirotexnika buyumlarining jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan yaratilishi, ishlab chiqarilishi, O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilishi, tashilishi, realizatsiya qilinishi, sotib olinishi, saqlanishi va foydalanilishi ta’qilanganadi;

texnik va maxsus maqsaddagi pirotexnika buyumlari (xavflilikning III — V klasslari) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq mushakbozlik tashkil etilishi ko‘rsatilgan ommaviy tadbirlarni o‘tkazish jarayonida tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan Vazirlar Mahkamasining ruxsatnomasi asosida belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasiga olib kirilishiga va ulardan foydalanilishiga ruxsat beriladi, sanoat maqsadida foydalaniqidigan pirotexnika buyumlari bundan mustasno.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 25-oktabrdagi 234-sonli qarori bilan «Pirotexnika buyularini yaratish, ishlab chiqarish, tashish, saqlash, realizatsiya qilish, ulardan foydalanish, ularni yo‘q qilish va utilizatsiya qilish bo‘yicha faoliyatni litsenziyalash to‘g‘risida Nizom» tasdiqlangan.

Pirotexnika buyumlarini qonunga xilof ravishda O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish ushu buyumlarni xorijdan mamlakatimiz hududiga qonunda belgilangan tartibni buzgan holda olib kirilishida ifodalanadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 6-maydagi 213-son qarori bilan tasdiqlangan, Sanoat maqsadidagi portlovchi materiallarni O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga asosan portlovchi materiallarni (shu jumladan, signal raketalar, yomg‘ir yog‘diradigan raketalar, tumanga qarshi signallar va boshqa pirotexnika buyumlarini) O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan beriladigan ruxsatnomalar asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasiga portlovchi materiallar jismoniy shaxslar tomonidan olib kirilishi, shu jumladan kuzatib borilmaydigan bagajda(yuk) olib kirilishi ta’qilanganadi. Portlovchi materiallarni tashiyotgan transport vositalari (olib kirishga ruxsatnomalar mavjud bo‘lgan taqdirda) O‘zbekiston Respublikasi davlat chegarasidan o‘tkazish manzillari orqali ustuvor tartibda o‘tkazib

yuboriladi. Portlovchi materiallarning bojxona tekshiruvi faqat maxsus jihozlangan joylarda (portlovchi materiallar saqlanadigan omborlarda) amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 6-iyuldagisi «Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibotini soddalashtirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 318-sun qaroriga⁸⁴ binoan pirotexnika buyumlari Majburiy tartibda sertifikatlanadigan mahsulot turlari ro‘yxatiga kiritilganligi sababli, ularni O‘zbekiston Respublikasiga olib kirishda tegishli sertifikatlar taqdim qilinishi shart.

Pirotexnika buyumlarini qonunga xilof ravishda O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqish deganda, mazkur buyumlarning mamlakatimiz hududidan xorijiy davlatlarga qonunda belgilangan tartibni buzib olib chiqilishi tushuniladi. Inobatga olish lozimki, pirotexnika buyumlari Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 21-fevraldagisi 62-sun qarori⁸⁵ bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali faqat maxsus ruxsatnoma mavjud bo‘lgan taqdirda tranzit qilinadigan quroq-yarog‘, harbiy texnika va harbiy molmulk ro‘yxatiga kiritilgan.

Ko‘rsatilgan qarorga asosan Davlat bojxona qo‘mitasi maxsus yuklar sifatida e’tirof etilgan pirotexnika buyumlari O‘zbekiston hududidan amalda olib chiqib ketilishi va belgilangan tartibda bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tkazilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Pirotexnika buyumlarini o‘tkazish ularni tovar bozoriga chiqarish yoki iste’molchilarga bevosita realizatsiya qilish (sotish) orqali amalga oshiriladi. Pirotexnika buyumlarini o‘tkazish faqat mazkur buyumlarni realizatsiya qilish bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo‘lgan shaxslar tomonidangina amalga oshirilishi mumkin. Aks holda mazkur faoliyat g‘ayriqonuniy deb e’tirof etiladi.

Jinoyat kodeksi 250¹-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyat mazkur moddaning dispozitsiyasida nazarda tutilgan harakatlardan biri sodir etilgan vaqtidan boshlab, ijtimoiy oqibatlar ro‘y berishidan qat’iy nazar, tugallangan deb topiladi.

Jinoyat qonunchiligining talablariga asosan aybdor shaxsning yuqorida tahlil qilingan harakatlari ancha miqdorda yoki mazkur shaxsga shunday harakatlari uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, u jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

⁸⁴ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 6-iyuldagisi 318-sun qarori, <https://lex.uz/docs/337769>.

⁸⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 21-fevraldagisi 62-sonli qarori, <https://lex.uz/docs/249635>.

Tahlil qilinayotgan jinoyatning kvalifikatsiya qilishga oid quyidagi turlari mavjud: JKning 250¹-moddasining 2-qismida: a) ko‘p miqdorda; b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib; d) takroran yoki xavfli residivist tomonidan; e) badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lsa; 3-qismida: a) juda ko‘p miqdorda; b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa; d) odam o‘lishiga sabab bo‘lsa; 4-qismida: a) odamlar o‘limiga; b) boshqacha og‘ir oqibatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘lsa.

Sub’ektiv tomonidan jinoyat qasddan sodir etiladi.

Jinoyatning *sub’ekti* 16 yoshga to‘lgan, aqli raso jismoniy shaxs.

Pornografik, zo‘ravonlikni va shafqatsizlikni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish jinoyatlari. Psixolog olimlarning fikricha, pornografiya va shafqatsizlik bilan bog‘liq bo‘lgan videoroliklarning internet tarmoqlarida ko‘payib borishi, shubhasiz, inson psixikasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday videoroliklarni surunkali ko‘rib borish esa inson tomonidan agressiv xulq-atvorni normadagi va maqbul hatti-harakat deb tushunishiga olib keladi. Bunday ko‘rinishdagi sahnalar insonlarning his-tuyg‘ularini susaytirib boradi, bu o‘z navbatida insonlar reaksiyasida shafqatsizlikka, zo‘ravonlikka bo‘lgan his-tuyg‘uni ham susaytiradi. Buning oqibatida shafqatsizliklar insonlarni shok holatiga tushirmay qo‘yadi va asta-sekin bu narsa ularga maqbul bo‘lib boraveradi. Ya’ni dahshatli, qo‘rqinchli va jirkanch narsalarga nisbatan tabiiy norozilik hissi o‘ladi, dahshatdan dahshatlanmaslik odati paydo bo‘ladi

O‘zbekiston Respublikasi “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga ko‘ra ommaviy axborot vositalaridan zo‘ravonlik g‘oyalarini va pornografiyani targ‘ib qilish maqsadida foydalanilishiga yo‘l qo‘yilmaydi⁸⁶. “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonunning 12¹-moddasiga asosan veb-saytning va (yoki) veb-sayt sahifasining yoxud boshqa axborot resursining egasi, shu jumladan bloger hamma erkin foydalanishi mumkin bo‘lgan axborot joylashtiriladigan Internet jahon axborot tarmog‘idagi o‘z veb-saytidan va (yoki) veb-sayt sahifasidan yoxud boshqa axborot resursidan pornografiyani, zo‘ravonlikni va shafqatsizlikni targ‘ib qilish maqsadlarida foydalanilishiga yo‘l qo‘ymasligi shart⁸⁷. “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning 15-moddasida davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta‘minlashning yo‘llaridan biri sifatida zo‘ravonlikni, shafqatsizlikni targ‘ib

⁸⁶ O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 15-yanvardagi “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘RQ-78-son Qonuni, <https://lex.uz/docs/1106870>.

⁸⁷ O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrdagi “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi 560-11-son Qonuni, <https://lex.uz/acts/83472>.

qiluvchi g‘oyalarni o‘z ichiga olgan axborot tarqatilishiga qarshi harakatlar qilish ekanligi mustahkamlangan⁸⁸.

Jinoyat kodeksi 130-moddasida **Pornografik mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish** jinoyati uchun javobgarlik belgilangan.

Ushbu modda JKga Xalqaro Jeneva Konvensiyasining 1923-yil 13-sentabrdagi «Pornografiya buyumlarining tarqatilishi va savdo-sotig‘iga qarshi kurash to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq kiritilgan. Mazkur Konvensiyada jinoyat sifatida quyidagi qilmishlar nazarda tutilgan:

- pornografik mahsulotlarni sotish, tarqatish yoki ommaviy namoyish etish maqsadida tayyorlash va saqlash;
- mazkur mahsulotlarni davlat chegarasidan olib kirish, olib o‘tish, olib chiqish yoki ularni muomalaga chiqarish;
- pornografik mahsulotlarni sotish, tarqatish yoki ommaviy namoyish etish, prokatga topshirish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog‘ida reklama qilish, namoyish etish, tarqatish;
- mazkur materiallarni olish mumkin bo‘lgan yo‘llarni oshkor qilish va e’lon qilish.

Voyaga yetmagan va boshqa shaxslar tomonidan pornografik mazmundagi materiallarning ko‘rilishi ularda jinsiy xulq-atvor haqida noto‘g‘ri tasavvurlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Bu esa, o‘z navbatida, ularning jismoniy va axloqiy tarbiyalanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, hattoki real hayotda ularni takrorlab ko‘rish xohishi paydo bo‘ladi.

Pornografik mahsulotning tayyorlanishi, olib kirilishi, tarqatilishi, reklama qilinishi, namoyish etilishi ijtimoiy axloqqa tajovuz qilishi bilan birga, jamiyatda axloqning shakllanishiga va millat ma’naviy qiyofasining o‘zgarishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, qolaversa, davlat manfaatlariga zarar yetkazadi. Modomiki, davlat voyaga yetmaganlarni munosib tarbiyalash (shu bilan birga, jinsiy hayot sohasida ham) haqida g‘amxo‘rlik qiladi. Aytish joizki, aksariyat hollarda pornografik materiallarni tayyorlash fohishalik, alkogolizm va giyohvandlik va boshqa jinoyatlar bilan bog‘liq bo‘ladi, shu bois mazkur holatlar alohida shaxs manfaatlariga ham zarar yetkazadi va axloqsizlikka hamda jamiyatning umumiyligi tanazzuliga olib keladi.

Inson tomonidan tabiiy jinsiy munosabatlar shaklidan yangi shahvoniyligi his tuyg‘ularni qondirish usullarining o‘ylab topilishi keyinchalik jinsiy hissiyot ehtiyojlarini qondirishning boshqa ko‘rinishlariga aylanishi mumkin. Bu esa ko‘p

⁸⁸ O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrdagi “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi 439-11-son Qonuni, <https://lex.uz/acts/52268>.

hollarda ijtimoiy va axloqiy qimmatliklarga tajovuz qiladi va inson xulq-atvorining o‘zgarishiga olib keladi. Shuning uchun shahvoniy lazzatlanishga intilish ko‘p hollarda jamiyat tomonidan tan olinmagan xulq-atvorning shaxs tomonidan ixtiyoriy ravishda tanlanishiga sabab bo‘ladi. Shu bois jinoyat qonunchiligi shahvoniy munosabatlar sohasidagi mazkur holatlarning oldini olish uchun axloqsizlikni ifoda etuvchi va ijtimoiy axloq normalariga tajovuz qiluvchi qilmishlar sodir etish uchun jinoiy javobgarlik o‘rnatadi. Chunki ushbu jinoyatlar davlat siyosatiga va insonning ma’naviy shakllanishiga tajovuz qiladi.

Jinoyat kodeksining 130-moddasida belgilangan pornografik mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish jinoyatining *bevosita ob’ekti* jamoat odob-axloqi, yoshlarning normal axloqiy rivojlanishini ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Jinoyat *predmetini* pornografik mahsulotlar tashkil qiladi.

Pornografik mahsulotlar deganda, pornografik asar, shuningdek badiiy qimmatga ega bo‘lmagan va ilmiy, tibbiy yoki o‘quv maqsadlari uchun mo‘ljallanmagan, odam jinsiy a’zolarining yoki odam tomonidan haqiqatda sodir etilayotgan yoki shunga o‘xshatilgan yoxud kompyuter texnologiyalari yordamida yaratilgan jinsiy aloqaning tavsifini yoki foto-, video tasvirini yoki boshqa tasvirini o‘z ichiga olgan materiallar va narsalarни tushunish zarur.

Pornografiya mahsulotlari tushunchasini bunday belgilash xalqaro standartlarga javob beradi. Predmetning pornografik xarakteri, qoida tariqasida, maxsus bilimga ega bo‘lmagan har qanday shaxs uchun ma’lum bo‘lishi kerak. Ammo shuni ham ta’kidlash joizki, har bir mamlakatda «pornografiya» tushunchasi mazkur masalaga nisbatan davlatlar va jamiyatlar qonunchilik hokimiyatining munosabati, ularning milliy an’analari, ma’naviy va diniy qoidalari va boshqa omillarga muvofiq turlicha talqin qilinadi. Pornografiyanı insonlar jinsiy hayotini aks ettiruvchi jinoyat hisoblanmaydigan «erotika»dan farqlash lozim. Ishqiy munosabatlarni namoyish etish, ularning tasviri, yalang‘och tananing ko‘rsatilishi, basharti ular qo‘pol, bezbetlik, naturalistik xususiyatga ega bo‘lmasa, pornografiya deb e’tirof etilishi mumkin emas. Shuningdek, buzuq holatdagi, naturalizm bo‘lmagan, insonlar o‘rtasidagi jinsiy munosabatlarni aks ettiruvchi san’at asarlari ham pornografik narsalar hisoblanadi (masalan, «Kama Sutra» hind eposi).

Material yoki predmetlarning pornografik xarakterga ega ekanligini aniqlash uchun kinotanqid, psixologiya, seksopatologiya, yurisprudensiya va boshqa sohalardagi maxsus mutaxassislar ishtirokida kompleks ekspertiza tayinlanishi lozim bo‘ladi. JKning 130-moddasida ko‘rsatilgan jinoyatning *ob’ektiv tomoni* pornografik mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida tayyorlash yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, xuddi shuningdek

uni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilishidan iboratdir.

Pornografik narsalarni **tayyorlash** deganda, ularning yaratilishi (videofilmga tushirish, montaj qilish, fotosuratga olish, asarlar yaratilishi, ko'paytirilishi va hokazolar)ga qaratilgan harakatlarni tushunish lozim. Pornografik narsalarni tayyorlaganlik uchun javobgarlik aybdor ularni namoyish qilish yoki tarqatish maqsadini ko'zlagandagina yuzaga keladi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga pornografik mahsulotni olib kirish deganda, pornografik mahsulotni O'zbekiston chegarasi orqali boshqa davlatlarni hududidan olib o'tilishini tushunish lozim.

Tarqatish deganda, pornografik mahsulotlarning hech bo'limganda bir shaxsga berish, jo'natish, sotish, hadya qilish, internetga joylash yoki boshqa usulda yetkazib berilishini, jo'natilishini tushunish kerak. Tarqatish usuli kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas.

Pornografik mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida tayyorlash yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, xuddi shuningdek uni hech bo'limganda bir kishiga tarqatish, reklama qilish, namoyish etish vaqtidan boshlab jinoyat tugallangan hisoblanadi.

Pornografik mahsulotlar namoyish etish yoki tarqatish **maqsadisiz saqlangan** bo'lsa, shaxs jazoga tortilmaydi. JKning 130-moddasi 3-qismidagi voyaga yetmagan shaxs tavsiflangan yoki tasvirlangan pornografik mahsulot deganda o'zida voyaga yetmagan shaxslarni aks ettirgan mahsulotni tushunish lozim (rasmlardagi, foto-video materiallardagi, internetdagi, asarlardagi va boshqalar).

Voyaga yetmagan shaxsni pornografik xususiyatga ega harakatlarning ijrochisi sifatida **jalb qilish** deganda, voyaga yetmagan shaxsdan bevosita pornografik materiallarni tayyorlashda har qanday ularning ishtiroki yoki undan foydalanish tushuniladi (voyaga yetmagan shaxsning kino, videofilmardagi ishtiroki, rasm yoki surat oldirish uchun biror vaziyatda turishi va boshqalar).

Ta'kidlash joizki, o'n olti yoshga to'limgan voyaga yetmagan shaxs pornografik xususiyatga ega harakatlarning ijrochisi sifatida jalb qilinganda unga nisbatan u bilan jinsiy aloqa qilingan yoki jinsiy ehtiyoj g'ayritabiiy usulda qondirilgan, shuningdek, unga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar sodir etilgan hollarda qilmish zarur belgilar mavjudligida jinoyatlar jami tariqasida JKning 130-moddasi 3-qismi va JKning 128 yoki 129-moddalari tegishli qismi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Sub 'ektiv tomondan jinoyat harakat bilan sodir etiladi. Pornografiyani targ'ib qiluvchi mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida tayyorlash yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, xuddi shuningdek uni

tarqatish, reklama qilish, namoyish etish vaqtidan boshlab jinoyat tugallangan hisoblanadi.

Jinoyatning *sub'ekti* 16 yoshga to'lgan har qanday aqli raso shaxs bo'lishi mumkin.

Respublikamizdag'i Axborot to'g'risidagi barcha qonun hujjatlarida **zo'ravonlik va shafqatsizlikni targ'ib qilish qat'iy ta'qiqlangan**.

Shu o'rinda, JKga 2012-yil 12-aprel kuni O'RQ 324-son qonuni bilan kiritilgan **130¹-moddani (Zo'ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish) ta'kidlab o'tish zarur**.

Shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi filmlar shaxs axloqiy-ma'naviy qadriyatlarining buzilishiga olib keladi, yashirin hissiyot va xohishlarni uyg'otadi. Bunday filmlar asosan ayollar va bolalar, o'smirlar uchun xavflidir. Zo'ravonlik, yovuzlik va qonxo'rlikni targ'ib qiluvchi filmlar esa nafaqat inson ruhiyatini jarohatlaydi, balki, ko'pincha, og'ir ruhiy illatlarga olib keladi.

Ushbu moddada ko'rsatilgan *jinoyat ob'ekti* jamoat odob-axloqi, yoshlarning normal axloqiy rivojlanishini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar, jamiyatdagi ma'naviy va axloqiy tamoyillar hisoblanadi.

Jinoyatning predmeti sifatida zo'ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulot (kino, audio va videomahsulotlar, asarlar, lazer disklari,) xizmat qiladi.

Ko'rib chiqilayotgan jinoyatning predmeti sifatida turli asarlar, bosma nashrlar, rasmlar va boshqa har qanday buyumlar e'tirof etilishi mumkin. Muhimi, ular shaxslarni zo'ravonlik yoki shafqatsizlik sodir etishga undashi kerak. Ya'ni, zo'ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi san'at asarlarini jinoyatning predmeti sifatida e'tirof etish uchun mazkur asarlar hech qanday tarixiy, ilmiy, badiiy yoki madaniy qimmatga ham ega bo'lmasligini aniqlash zarur. Bunda **san'atshunoslikka oid kompleks ekspertiza** tayinlanishi lozim.

Jinoyatning ob'ektiv va sub'ektiv tomonlari va sub'ekti yuqorida huquqiy tavsifi berilgan jinoyatniki kabi bir xilda ifodalanadi.

Nazorat savollari:

1. Jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi jinoyatlar tushunchasi va tasniflanishi haqida gapirib bering.
2. Kontrabanda jinoyatining ijtimoiy xavfliliqi nimadan iboratligi va huquqiy tavsifini izohlab bering.
3. Kontrabanda ashyolari bilan bog'liq normativ huquqiy hujjatlarni sanab o'ting.

4. Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish jinoyatining huquqiy tavsifini izohlab bering.

5. Uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda olib kirish, o'tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish jinoyatining huquqiy tavsifini izohlab bering.

6. Pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi jinoyatining huquqiy tavsifini izohlab bering.

7. Pornografik, zo'ravonlikni va shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish jinoyatlarining huquqiy tavsifini izohlab bering.

§3.4. Xorijiy davlatlar qonunchiligidagi bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlari uchun javobgarlikning o‘ziga xos xususiyatlari

Xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish hamda ularning ijobiy xususiyatlarini milliy jinoyat qonunchiligiga joriy etish jinoyat qonunchiligini takomillashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Buning sababi shuki, milliy jinoyat qonunchiligini xorijiy mamlakatlarning jinoyat qonunchiligi bilan qiyosiy o‘rganish uning afzalliklarini aniqlash va yurtimizda jinoiy qonunchilikni rivojlantirish istiqbollarini chuqurroq anglab yetishga yordam beradi.

Shuningdek, qonun loyihalarini xorijiy huquqiy amaliyat bilan har tomonlama chuqur qiyosiy tahlil qilish asosida ularni muhokama etish va sifat jihatidan yanada yuqori bosqichga ko‘tarishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Bojxona sohasidagi huquqbazarliklar uchun javobgarlik bilan bog‘liq masalalar ko‘pchilik xorijiy mamlakatlar qonunchiligidagi dolzarbdir. Bu fakt bojxona sohasi bugungi kunda aksariyat mamlakatlarning iqtisodiy va siyosiy hayotidagi eng muhim va o‘zgaruvchan sohalardan biri ekanligi bilan izohlanadi.

Bojxona sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlik masalasida xorijiy tajribani to‘liq va har tomonlama tahlil qilishimiz uchun quyidagi davlatlarning qonunchiliklarini o‘rganishni maqsadga muvofiq deb hisobladik:

- MDH davlatlari (Rossiya, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Belarus, Ukraina, Armaniston, Ozarbayjon, Moldova, Tojikiston, Turkmaniston);
- anglo-amerika (Anglosakson) huquq oilasiga mansub mamlakatlar (AQSh, Kanada);
- an’anaviy (qadimgi urf-odatlarga yoki uzoq vaqt davomida rivojlanib kelgan huquqiy odatlar tizimiga asoslangan) huquq oilasiga mansub davlatlar (Yaponiya, Xitoy);
- roman-german huquq oilasiga mansub davlatlar (Germaniya, Chexiya, Latviya, Estoniya).

Dastlab MDH mamlakatlarida bojxona sohasidagi munosabatlarni jinoiy-huquqiy tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganamiz. Ushbu davlatlarning jinoyat qonunchiligi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidan sezilarli darajada farq qilmaydi, ammo shunga qaramay, qiziqarli bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

MDH mamlakatlarida bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlari uchun javobgarlikning o‘ziga xos xususiyatlari:

1. Birinchi guruhgaga mansub davlatlar haqida so‘z yuritilganda qayd etish lozimki, O‘zbekiston Respublikasi bilan bir xil huquqiy tizimdagи MDHga a’zo aksariyat davlatlarda “bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish” deb

nomlangan yagona jinoyat tarkibi mavjud emas. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Rossiya Federatsiyasi, Moldova, Armaniston, Ozarbayjon, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston, Belarus, Qozog'iston respublikalari jinoyat qonunchiligidagi bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog'liq qilmishlar uchun bir nechta jinoyat tarkibi belgilangan. Mazkur holat MDHga a'zo mamlakatlar jinoyat qonunlarining 1996-yilgi MDH mamlakatlari uchun model Jinoyat kodeksiga⁸⁹ asosan ishlab chiqilganligi bilan bog'liqdir.

Ko'rib chiqilayotgan aksariyat davlatlarning jinoiy qonunlarida kontrabanda uchun javobgarlikni o'z ichiga olgan norma RF JKdagi muqaddam amalda bo'lgan 188-moddasiga (RFning 2011-yil 7-dekabrdagi №420-FZ–sonli Federal qonuni bilan o'z kuchini yo'qotgan) o'xshaydi va avvalo iqtisodiy munosabatlarni himoya qilishga qaratilgan. Bunga misol qilib Ozarbayjon (206-modda)⁹⁰, Armaniston (215-modda)⁹¹, Belarus (228-modda)⁹², Qirg'iziston (204-modda)⁹³, Moldova (248-modda)⁹⁴, Tojikiston (289-modda)⁹⁵ va Turkmaniston (254-modda)⁹⁶ respublikalarining jinoiy qonunlarini ko'rsatishimiz mumkin. Yuqoridagi moddalarda turli xil predmetlarni davlat chegarasi orqali noqonuniy olib o'tish uchun javobgarlik ko'zda tutilgan. Ularning differensiyasi (tabaqalanishi) Jinoyat kodeksining boshqa bo'lim, boblari va moddalariga mustaqil ajratilmasdan faqat normaning o'zida qismlarga ajratishda namoyon bo'ladi.

Rossiya Jinoyat qonunchiligidagi 2011-yildan boshlab 188-moddasini differensiyalash, ya'ni ushbu moddadagi turli xil predmetlar nimaga tajovuz qilishini (jinoyat ob'ekti) e'tiborga olib, bir nechta normalarga ajratish tendensiyasi kuzatildi, ya'ni hozirgi kunda RF JKda 200-1, 200-2, 226-1 va 229-1-moddalarga ajratildi⁹⁷.

Qozog'iston⁹⁸ va Ukraina⁹⁹ Respublikalarning jinoyat qonunlarida ham shu kabi holatni ko'rishimiz mumkin. Ushbu davlatlarning Jinoyat kodekslarida kontrabanda uchun javobgarlik bir nechta normalarda keltirilgan va turli boblarda joylashtirilgan. Masalan, Qozog'iston Respublikasi Jinoyat kodeksining "Iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoiy huquqbazarliklar" nomli sakkizinch bobining 234-moddasida "Iqtisodiy kontrabanda" jinoyati joylashtirilgan, lekin ushbu normaning o'zida jinoyat predmeti yoritilmagan. Ushbu kontrabandaning

⁸⁹ Модельный Уголовный кодекс для государств-участников СНГ // Правоведение 1996. №1.

⁹⁰ Уголовный кодекс Республики Азербайджан. URL: http://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30420353.

⁹¹ УК Республики Армения. URL: <http://www.parliament.am/legislation.php?sel=show&ID=1349&lang=rus#22>.

⁹² Уголовный кодекс Республики Беларусь. URL: <http://pravo.kulichki.com/vip/uk/>.

⁹³ Уголовный кодекс Республики Кыргызстан. URL: <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ruru/568>.

⁹⁴ Уголовный кодекс Республики Молдова. URL: <http://lex.justice.md/ru/331268/>.

⁹⁵ Уголовный кодекс Республики Таджикистан. URL: <http://mmk.tj/ru/legislation/legislationbase/codecs/>.

⁹⁶ Уголовный кодекс Республики Туркменистан. URL: http://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31295286.

⁹⁷ Уголовный кодекс РФ. URL: <http://pravo.gov.ru/proxy/ips/?docbody&nd=102041891>.

⁹⁸ Уголовный кодекс Республики Казахстан. URL: <http://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000226>.

⁹⁹ Уголовный кодекс Украины. URL: http://search.ligazakon.ua/l_doc2.nsf/link1/T012341.html#253.

predmetiga oid tushuntirishlar Qozog‘iston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1997-yil 18-iyuldagı 10-sonli «Kontrabanda uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida»gi qarorining 6-bandida keltirilgan¹⁰⁰. Qarorning ushbu bandiga binoan, iqtisodiy kontrabanda predmetlari deganda, moddiy dunyoning har qanday ko‘char ob’ektlarini, shu jumladan valyuta, valyuta boyliklari, elektr, issiqlik yoki boshqa turdagı energiya va transport vositalarini, shuningdek xalq merosi hisoblangan badiiy, ilmiy, tarixiy va arxeologik ahamiyatga ega madaniy boyliklarni: san’at asarlari, qadimiy buyumlar va shunday ahamiyatdagi qimmatlik hisoblangan boshqa predmetlar, intellektual mulk ob’ektlari, xavf ostida bo‘lgan hayvonlar, o‘simpliklar turlari, ularning qismlari va hosilalari kabi boyliklarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Ko‘rib turganimizdek, Qozog‘iston qonunchiligiga ko‘ra, madaniy qadriyatlarni kontrabanda qilish davlatning iqtisodiy munosabatlariiga putur yetkazadi, Rossiya jinoyat qonunchiligidagi esa bunday qimmatlikdagi predmetlarni kontrabanda qilish jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyat hisoblanadi. Shuningdek, Moldova Respublikasi JKning 248-moddasida madaniyat yodgorliklarini Respublika chegarasidan g‘ayriqonuniy ravishda o‘tkazilishi ham kontrabanda jinoyati tarkibini tashkil etishi belgilangan. Qayd etish kerakki, O‘zbekiston Respublikasi JKning 246-moddasida jinoyat predmeti sifatida madaniyat yodgorliklari nazarda tutilmagan.

Ukraina jinoyat qonunchilagini tahlil qilib, kontrabanda uchun javobgarlik to‘g‘risidagi moddasi (201-modda) VII “Xo‘jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar” bo‘limida keltirilganidek, iqtisodiy munosabatlarni himoya qilishga qaratilgan huquqbarlik degan xulosaga kelishimiz mumkin. Biroq, bu holatda tajovuz predmetlari sifatida: madaniy boyliklar, zaharli, kuchli, portlovchi moddalar, radioaktiv materiallar, qurol, o‘q-dorilar va maxfiy ma’lumotlarning maxsus texnik vositalari nazarda tutilgan bo‘lib, ular mazmunan mutlaqo farqlanuvchi tabiiy elementlardan tashkil topgan.

2. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, MDH davlatlarida bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlari kontrabanda, iqtisodiy kontrabanda hamda bojxona to‘lovleri va yig‘imlarini to‘lashdan bo‘yin tov lash kabi jinoiy qilmishlar bilan ifodalangan.

Masalan, Rossiya Federatsiyasi JKning 194-moddasida, Turkmaniston Respublikasi JKning 261-moddasida, Qozog‘iston Respublikasi JKning 236-moddasida, Moldova Respublikasi JKning 249-moddasida ko‘p miqdordagi bojxona to‘lovleri va yig‘imlarini to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun javobgarlik belgilangan.

¹⁰⁰ О практике применения законодательства об уголовной ответственности за контрабанду: постановление Пленума Верховного Суда Республики Казахстан от 18 июля 1997 года № 10. URL: <http://www.keden.kz/ru/zakon.php?id=14776>.

Shuningdek, Belarus Respublikasidagi kabi Ukrainada ham bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog‘liq harakatlar uchun kontrabanda hamda bojxona boji va to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun jinoiy javobgarlik o‘rnatilgan (355-modda).

O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligidagi esa, aynan bojxona to‘lovleri va yig‘imlarini to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun alohida normada javobgarlik belgilanmasdan, ular soliq va majburiy to‘lovlarining bir turi sifatida JKning 184-moddasidagi “Soliq va boshqa majburiy to‘lovlardan bo‘yin tovlash” jinoyati tarkibiga kiritilgan.

3. MDH davlatlari jinoyat qonunchiligini o‘rganishimiz davomida ba’zi davlatlar qonunlarida bizning jinoyat qonunchiligidan uchramaydigan normalar mayjudligini, shuningdek, bir qator normalar bizning fikrimizcha mazmunan tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlar hisoblanmasada, ushbu sohadagi jinoyatlar tariqasida tasniflanganligini ko‘rshimiz mumkin.

Misol uchun, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan Ukraina Jinoyat kodeksining 201-moddasida jinoyat predmeti sifatida maxfiy ma’lumotlarning maxsus texnik vositalarini noqonuniy olib o‘tish uchun javobgarlik belgilangan. Shuningdek, Ukraina JKning 201¹-moddasida ko‘rsatilgan yog‘och mahsulotlarini bojxona chegarasidan noqonuniy olib o‘tilishi uchun, Qirg‘iziston Respublikasi JKning 200-moddasida esa majburiy aksiz solig‘i solinadigan mahsulotlarni aksiz markalarisiz olib kirish uchun alohida normalarda javobgarliklar nazarda tutilgan. O‘zbekiston Respublikasida bunday harakatlar alohida javobgarlikni keltirib chiqarmasdan, JKning 182-moddasi tarkibini qamrab oladi.

Bizning fikrimizcha, axborot texnologiyalari bilan bog‘liq jinoyatlar ko‘payishi kuzatilayotgan hozirgi davrda yashirin ravishda ma’lumot olishning maxsus texnik vositalari davlat nazoratida bo‘lishi lozimligini e’tiborga olib, O‘zbekiston Respublikasining jinoiy va ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida ushbu predmetlarning noqonuniy olib o‘tilishi va muomilasi bo‘yicha javobgarlikni belgilovchi alohida normalar kiritilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Shuningdek, tashqi iqtisodiy normalari bir bobda jamlangan Qirg‘iziston Respublikasining Jinoyat kodeksini e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. Ushbu davlat jinoyat qonunchiligidagi 204-1. «Noqonuniy migratsiyani tashkil etish» va 204-2. «Ma’muriy choralar ko‘rilgandan keyin Qirg‘iziston Respublikasida chet el ishchi kuchini jalg qilish va ulardan foydalanish qoidalarini buzish» moddalari tashqi iqtisodiy munosabatlarni himoya qiluvchi normalar sifatida taqdim etilgan bo‘lib, qonun chiqaruvchisining normalarni JKga bunday tarzda joylashtirishi mantiqan tushunarsizdir.

Biroq, hozirgi dunyo hamjamiyatida integratsiyalashuv jarayoni izchillashib rivojlanishi kuzatilayotgan bir vaqtda, mehnat kuchidan qonuniy foydalanishni

muhofaza qilish va bu boradagi faoliyatni huquqiy tartibga solish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining jinoiy va ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonun hujjalarda noqonuniy migratsiya bilan bog‘liq harakatlar uchun javobgarlik belgilansa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

4. MDHning aksariyat davlatlari jinoyat qonunchiliklarida “kontrabanda” jinoyati TIF sohasidagi munosabatlarga tajovuz qilishi inobatga olinib, JKning iqtisodiy sohadagi jinoyatlar bo‘limida joylashgan. Biroq bundan ayrim istisno davlatlar ham mavjud. Bunda ushbu normalar TIF sohasidagi munosabatlarni bevosita himoya qilmaydi, ammo qisman muhofaza qilishini e’tiborga olish lozim.

Masalan, Qozog‘iston Respublikasi qonunchiliga binoan insonni klonlash jinoyat hisoblanadi (JK, 129-modda). Ushbu normaga asosan inson klonlanishi va inson embrionidan tijorat, harbiy va sanoat maqsadlarida foydalanish bilan bir qatorda, xuddi shu maqsadlar uchun hujayralarini Qozog‘iston Respublikasidan olib chiqish ta’qiqlanadi. Bizning fikrimizcha, ushbu norma, shaxsga qarshi jinoyatlar bobida bo‘lishiga qaramay, tashqi iqtisodiy jinoyatchilikning tarkibiy qismini o‘z ichiga oladi, bu esa ushbu jinoyatning maqsadi iqtisodiy foyda olish va inson embrioni hujayralarini Qozog‘iston chegarasi orqali o‘tkazishni nazarda tutadi. Albatta ushbu normaning asosiy ob’ekti inson hayoti bo‘lishiga qaramay, tashqi iqtisodiy faoliyatning normal rivojlanishini ta’minlaydigan ijtimoiy munosabatlarni ushbu normaning ob’ektlaridan biri sanaladi.

Shuningdek TIF bilan bog‘liq xuddi shunday holatni Tojikiston Respublikasi JKning “Pirotexnika buyumlarining noqonuniy muomalasi” nomli 199¹-moddadasida, ya’ni pirotexnika mahsulotlarini Tojikiston Respublikasi hududiga noqonuniy olib kirganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan normada ham ko‘rishimiz mumkin. Ushbu davlat Jinoyat kodeksidagi normalarning joylashuvidan kelib chiqib, ushbu modda jamoat xavfsizligini ta’minalashga qaratilganligiga guvoh bo‘lamiz. Ammo, mamlakatga pirotexnika mahsulotlarini olib kirish va olib chiqish maqsadlaridan biri foyda olish ekanligini inobatga olib, ushbu norma tashqi iqtisodiy elementni ham o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi JKning 130, 130¹ 244³, 244⁴, 246 va 250¹-moddalarida ham xuddi shunday xususiyatni ko‘rishimiz mumkin. Shu bilan birga ushbu bojxona sohasidagi jinoyatlarning predmetlari davlat chegarasidan qonuniy olib o‘tilishida boshqa nom bilan deklarsiyalanishi (masalan, giyohvandlik yoki psixotrop moddalarni dori-darmon vositalari sifatida bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tkazilishi) oqibatida tajovuz ob’ektlaridan biri sifatida tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi munosabatlarni ekanligini ham hisobga olish kerak. Yuqorida bojxona sohasidagi jinoyatlar ko‘p ob’ektlilik xususiyatiga egaligini ta’kidlab o‘tgandik.

5. Bojxona sohasidagi jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasining yuqoriligi MDH mamlakatlari qonunchiligidagi takroran sodir etilganlik belgisi bilan xarakterlanadi. Shunday qilib, bu mamlakatlarning ko‘pchiligidagi takroriylik belgisi kontrabanda jinoyatini tavsiflovchi tarkibi hisoblanadi. Bu mamlakatlar qatoriga: Ozarbayjon (JKning 206-moddasi 3-qismi), Tojikiston (JKning 289-moddasi), Turkmaniston (JKning 254-moddasi 2-qismi, 4-qismi), Qozog‘iston (JKning 286-moddasi 2-qismi, 234-moddasi), Ukraina (JKning 305-moddasi 2-qismi) kiradi.

Bojxona sohasidagi jinoyatlarning xalqaro xususiyatini inobatga olgan holda, yuqorida aytib o‘tilgan belgi, bizning fikrimizcha, jinoyatni tavsiflashda muhim ahamiyatga ega, chunki turli xil tovarlar va ashyolar kontrabandasini bilan shug‘ullanuvchi shaxslar ko‘pincha bir xil jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanadi. Shu bois, ushbu jinoyatni takroran sodir etganlik belgisini milliy qonunchiligmizga ham tatbiq etishni va javobgarlikka tortish masalasini hal qilishda inobatga olinishi lozim, chunki bunday norma bir qator xalqaro jinoiy huquq normalarida o‘z ifodasini topgan. Ushbu institutni milliy qonunchilikda aks ettirish, albatta kontrabandaga qarshi kurashish samaradorligini yanada oshiradi.

Chet davlatlarning keyingi toifasi **Anglo-sakson huquq oilasiga** mansub Kanada va AQSh misolida bojxona sohasidagi munosabatlarni jinoiy-huquqiy muhofaza qilish xususiyatlari quyidagicha belgilangan.

1. Ushbu davlatlarda bojxona sohasidagi jinoyatlar bizdagidek Jinoyat kodeksi moddalari bilan emas, balki alohida turli normativ hujjatlar orqali tartibga solinadi. Masalan, kontrabanda va odam savdosi uchun javobgarlik Kanadaning “Qochqinlarni himoya qilish va immigratsiya to‘g‘risida” gi qonuning 3-qismida mustahkamlangan (SC 2001, 27-bet)¹⁰¹. Shunday qilib, muhojirlarning noqonuniy olib kirilishi Kanada Jinoyat kodeksining qoidalariga ko‘ra emas, balki mamlakatda migratsiya munosabatlarini tartibga soluvchi alohida qonunga muvofiq jazolanadi.

Kanada bojxona qonunchiligiga ko‘ra, bojxona to‘lovlarini to‘lamaganlik uchun, agar jinoyat tarkibi bo‘lmasa, jarima belgilangan¹⁰². Shuningdek, Kanada Jinoyat kodeksida bir qator bojxona sohasidagi jinoyatlar uchun ham javobgarlik nazarda tutilgan. Xusan, Kanada JKning 103, 104-moddalari bilan o‘qotar qurollarni mamlakatdan qonuniy olib chiqish va olib kirishni himoya qilish nazarda tutilgan. Biroq bunday harakatlarni noqonuniy amalga oshirganlik uchun javobgarlik to‘g‘risidagi qoidalarning asosiy qismi Kanada Bojxona Aktida o‘z

¹⁰¹ Закон о защите беженцев и иммиграции. URL:<http://laws.justice.gc.ca/eng/acts/i-2.5/>

¹⁰² <https://www.gov.uk/government/publications/excise-notice-300-customs-civil-investigation-of-suspected-evasion>

aksini topgan¹⁰³. «Ta’qiqalar, jinoyatlar va jazolar» bobida bojxona to‘lovlarini to‘lamaslik (153-modda) va kontrabanda (159-modda) jinoyatlarini sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan. Shuningdek, ushbu davlatda tamaki mahsulotlari kontrabandasi alohida e’tiborga ega. Ushbu mahsulotni tashish 2001-yil Aksiz solig‘i to‘g‘risidagi qonun bilan tartibga solinadi¹⁰⁴.

AQSh jinoyat qonunlari Kanada qonunchiligidagi kabi bojxona sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlikni belgilamaydi, ammo federal qonunlarda bunday normalar o‘z aksini topgan. AQSh Qonunlar Kodeksida (U.S. Code) alohida «Jinoyatlar va Jinoyat protsessi» nomli 27-bobining 18-sarlavhasida bojxona qonunbuzarliklari, shu jumladan tovarlarni kontrabanda yo‘li bilan olib kirish va olib chiqish uchun (545, 554-bo‘limlar) javobgarlik belgilangan. Bundan tashqari, Qonunlar kodeksida bojxona hujjatlarida noto‘g‘ri ma’lumotlarni ko‘rsatib tovarlarni olib kirish (541, 542-bo‘limlar), tovarlar ortilgan bojxona nazoratidagi kema yoki boshqa transport vositalariga o‘rnatilgan muhrlar, mahkamlagich va belgilarni buzish kabi (549-bo‘lim), bojlarni yolg‘on ishlatish orqali qaytarishni talab qilish (550-bo‘lim), schot-faktura yoki boshqa hujjatlarni yashirish yoki yo‘q qilish (551-bo‘lim), AQSh zabitlarining odobsiz yoki xoinlik mazmunidagi adabiyotlarni olib kirishda yordam berishi (552-bo‘lim), o‘g‘irlangan transport vositalari, kemalar va uchish qurilmalarini olib kirish yoki olib chiqish (553-bo‘lim), AQSh va boshqa mamlakat o‘rtasidagi xalqaro chegaralari kesib o‘tish uchun yer osti yo‘llari va tunnellarni noqonuniy qurish (555-bo‘lim) kabi normalar mavjud.

2. Kanada va AQSh qonunchiligida «kontrabanda» atamasi nafaqat moddiy ob’ektlarga, balki insonlarga, xususan muhojirlarga nisbatan ham qo‘llaniladi. Xususan, Kanada davlatida “MigrantSmuggling” tushunchasi mavjud bo‘lib, alohida qonunda insonlar (migrantlar) kontrabandasi uchun ham javobgarlik belgilangan¹⁰⁵. Bunda kontrabanda nafaqat insonlarni Kanada va AQSh chegaralari orqali noqonuniy olib o‘tilishini, balki soxta immigratsiya hujjatlarini tayyorlash va sotishni ham nazarda tutadi.

Bunday jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasini belgilashda jinoiy uyushmalarning ushbu faoliyatdan daromad olishi bilan birga, Kanada va AQSh chegaralari xavfsizligiga tahdid qilish, keyinchalik ulardan ekstremizm va terrorizmni qo‘llab-quvvatlashda foydalanish kabi jihatlari e’tiborga olingan va albatta, noqonuniy olib kirilayotgan muhojirlarning hayoti va sog‘lig‘i xavf ostida bo‘ladi.

¹⁰³ Таможенный акт Канады. URL: <http://laws-lois.justice.gc.ca/PDF/C-52.6.pdf>.

¹⁰⁴ Сайт справедливых законов / Закон об акцизах. URL: <http://laws.justice.gc.ca/eng/acts/E-14.1/>.

¹⁰⁵ Perrin B. Migrant Smuggling: Canada’s Response to a Global Criminal Enterprise // International Journal of Social Science Studies. 2013. № 1(2). P. 139–153.

3. Anglo-sakson huquq oilasiga mansub mamlakatlar qonunchiligidagi TIF bilan bog‘liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlarga suiqasd qilish uchun ham alohida javobgarlik belgilangan. Xususan, Qonunlar Kodeksiga asosan AQShga qarashli kemada kontrabandani sodir etganlik yoki uni amalga oshirishga suiqasd qilganlik uchun alohida javobgarlik nazarda tutilgan (546-bo‘lim). Xuddi shunday Kanada davlati Bojxona Aktining 159-moddasida kontrabandaga suiqasd normasi mavjud.

4. Ushbu mamlakatlar qonunchiligidagi bojxona sohasidagi jinoyatlar, xususan, kontrabanda jinoyatining mohiyatini tushunish uchun zarur bo‘lgan asosiy tushunchalar batafsil yoritilgan. AQSh Qonunlari Kodeksining 27-bobida ishlatalgan tushunchalar bilan bog‘liq bo‘lgan barcha tushuntirishlar «kontrabanda» (5-bob), «bojxona xizmatlari» (10-bob) va boshqa bo‘limlarini o‘z ichiga olgan «Bojxona bojlari» nomli 19 sarlavhasida berilgan.

Kanada davlati qonun chiqaruvchisi tomonidan Bojxona Aktining 153-moddasida ushbu jinoyatni qamrab oluvchi barcha harakatlar haqida batafsil ma’lumot berilgan, ya’ni kontrabanda jinoyatini sodir etganlik uchun javobgarlik to‘g‘risidagi normaning mazmun-mohiyati ochib berilgan. Kanada qonunlarida kontrabanda predmetlarining alohida ro‘yxati bo‘lmasada, qaysidir tovar ta’qiqlanganligi yoki uning olib kirilishi qonun-hujjatlari bilan tartibga solinishi belgilangan.

Shu o‘rinda, **an’anaviy (qadimgi urf-odatlarga yoki uzoq vaqt davomida rivojlanib kelgan huquqiy odatlar tizimiga asoslangan)** huquq oilasiga mansub mamlakatlardagi bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlari uchun javobgarlikning o‘ziga xos xususiyatlarini Xitoy va Yaponiya misolida ko‘rib chiqamiz.

1. Bojxona sohasidagi jinoyatlarning aksariyatida ushbu davlatlar qonunchiliklariga muvofiq davlatga turli xil buyumlarni olib kirish va eksport qilish bilan bog‘liq munosabatlar tartibga solinadi. Giyohvand moddalar kontrabandasini uchun javobgarlik Yaponiya Jinoyat kodeksining “Opiy bilan bog‘liq jinoyatlar” deb nomlangan 14-bobida o‘z aksini topgan¹⁰⁶. Xususan, ushbu bobning uchta normasida quyidagi harakatlar, ya’ni: opiyni olib kirish va unga bog‘liq boshqa harakatlar (136-modda), opiyni chekish uchun ishlataladigan qurilmalarni olib kirish va boshqa shunga bog‘liq harakatlar (137-modda), bojxona ishlariga mas’ul shaxslar tomonidan sodir etiladigan opiyni yoki chekish uchun ishlataladigan qurilmalarni olib kirish va unga bog‘liq boshqa harakatlar (138-modda) uchun javobgarlik belgilangan.

Xitoy Xalq Respublikasi Jinoyat kodeksida bojxona sohasidagi munosabatlarni tartibga soladigan ko‘plab normalar mavjud bo‘lib, ular turli

¹⁰⁶ Уголовный кодекс Японии / науч. ред. и предисл. д-ра юрид. наук, проф. А.И. Коробеева. Санкт-Петербург, 2002. С. 91–92.

boblarda joylashtirilgan¹⁰⁷. “Sotsialistik bozor iqtisodiyoti tartibiga qarshi jinoyatlar” nomli 3-bobida “Kontrabanda” deb nomlanuvchi 2§ kontrabanda uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi 7 ta moddalardan iborat. Shundan kelib chiqqan holda, biz XXR qonun chiqaruvchisi tomonidan kontrabandani iqtisodiy jinoyat deb tasniflaganligini ko‘ramiz. Jinoyat kodeksining 3-bobida eksport bojlari bilan bog‘liq bo‘lgan bojxona sohasidagi jinoyatlar ham nazarda tutilgan. (6§ “Soliq yig‘ish tartibiga qarshi jinoyatlar”, 8§ “Bozor tartibiga qarshi jinoyatlar”).

XXR qonun chiqaruvchisi tomonidan giyohvand moddalar kontrabandasini JKning “Jamoat va boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar” deb nomlangan 6-bobida alohida ajratib ko‘rsatilgan (7-§ “Giyohvandlik vositalarini kontrabanda qilish, sotish, tashish va ishlab chiqarish”).

2. Ushbu davlatlarning qonun chiqaruvchisi kontrabanda jinoyati uchun jiddiy javobgarlikni belgilaydi. Xususan, Yaponiya qonunchiligiga binoan, giyohvand moddalar kontrabandasini sodir etgani uchun jismoniy shaxslarga 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi (138-modda), Xitoy Xalq Respublikasi Jinoyat kodeksiga binoan esa umrbod ozodlikdan mahrum qilish yoki o‘lim jazosi (347-modda) nazarda tutilgan.

3. Ushbu davlatlar jinoyat qonunchiligi bo‘yicha sub’ektlar nafaqat jismoniy, balki yuridik shaxslar ham bo‘lib, ko‘pincha norma tuzilishida maxsus sub’ekt ham ko‘rsatiladi. XXRda yuridik shaxslar uchun sanksiya sifatida jarima nazarda tutilgan bo‘lib, tashkilot rahbarlari va bevosita javobgar bo‘lgan boshqa shaxslar amaldagi tegishli normalarda nazarda tutilgan har qanday sanksiyaga muvofiq jazolanadi (XXR JKning 151-moddasi). Yaponiya Jinoyat kodeksining 138-moddasida maxsus sub’ekt sifatida bojxona ishlarini olib borishga mas’ul bo‘lgan xodim nazarda tutilgan.

Roman-german huquq oilasi doirasidagi bojxona sohasidagi munosabatlarni jinoiy-huquqiy tartibga solish ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, buni quyida Germaniya, Latviya, Chexiya va Estoniya misolida tahlil qildik.

1. Bizni qiziqtiruvchi normalar jinoyat qonunlari doirasida ham, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda ham mavjud. Bundan tashqari, bojxona sohasidagi huququzarliklarni sodir etish uchun javobgarlik iqtisodiy faoliyatni himoya qiluvchi boblarda ham, boshqalarda ham mavjud bo‘lib, bu normalardagi tajovuz ob’ektini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatadi.

Germaniya Jinoyat kodeksida bir qator bojxona sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan, biroq bundan tashqari u Soliq kodeksida ham mustahkamlangan. Germaniya Jinoyat kodeksiga binoan quyidagi harakatlar

¹⁰⁷ Уголовный кодекс КНР. URL: <http://ukknr.ucoz.ru/>.

jinoyat hisoblanadi: rasmiy guvohnomalarini tayyorlash uchun mo‘ljallangan va qalbakilashtirishdan maxsus himoyalangan qog‘ozni yoki asl nusxa bilan aralashtirilishi mumkin bo‘lgan qog‘ozni, shuningdek bunday hujjatlarni tayyorlash uchun zarur bo‘lgan turli xil qurilmalarni noqonuniy olib kirish va olib chiqish (275§), soxta xizmat guvohnomalarini noqonuniy olib kirish va olib chiqish (276§), radioaktiv moddalar va boshqa xavfli moddalar va manbalarni noqonuniy olib kirish va olib chiqish (328§)¹⁰⁸. Bunday buyumlarni noqonuniy olib kirish va olib chiqishdan tashqari, ushbu normalarda boshqa harakatlar uchun ham javobgarlik nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, yuqorida aytilib o‘tilganidek, bojxona sohasidagi jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik Germaniya Soliq kodeksida (Abgabenordnung) ham mayjud¹⁰⁹. Masalan, ushbu Kodeksning 372-moddasiga binoan predmetlarni organlarini xabardor qilmasdan Germaniya hududi orqali noqonuniy olib kirish va olib chiqish kontrabanda hisoblanadi. Kodeksda olib o‘tish ta’qiqlangan predmetlarning muayyan ro‘yxati mayjud emas, ammo ular bo‘yicha davlat monopoliyasini o‘rnatish haqida eslatib o‘tilgan. 373§da import yoki eksport bojlarini to‘lashdan bo‘yin tov lash, shu jumladan, tavsiflovchi xususiyatlariga ko‘ra, qurollarni o‘tkazish yoki ishlatish va jinoiy guruhlarga a’zolik uchun javobgarlik belgilangan.

Latviya Jinoyat kodeksiga ko‘ra, bojxona sohasidagi munosabatlarga putur yetkazuvchi quyidagi harakatlar: kontrabanda (190-modda), Latviya Respublikasi chegarasidan ta’qiqlangan yoki maxsus tartibga solingan tovarlar va buyumlarni olib o‘tish (190³⁵-modda), tovarlarni bojxonada rasmiylashtirish bo‘yicha noqonuniy harakatlar (191-modda), naqd pul mablag‘larini deklaratsiya qilishdan bo‘yin tov lash (195²-modda) jinoyatlar hisoblanib, ular “Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar” nomli XIX bobda mustahkamlangan¹¹⁰. Yuqorida keltirilgan normalardan tashqari, Latviya Jinoyat kodeksida turli xil predmetlarni davlatdan olib chiqish va olib kirish uchun javobgarlikni belgilaydigan boshqa moddalar ham mayjud. JKning “Atrof-muhitga qarshi jinoyatlar” nomli XI bobida “xavfli chiqindilarni Latviya Respublikasi hududiga olib kirish” (99-moddaning 3-qismi) va “Axloq va jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar” XVI bobida “pornografik yoki erotik mazmundagi materiallarni olib kirish, ishlab chiqarish, tarqatish” (166-modda), shuningdek “Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar” nomli XXII bobida - davlat arxiv fondlarini, jamoat, kooperativ yoki diniy tashkilotlarning va boshqa yuridik shaxslarning arxiv fondlarini, shu jumladan ularning nusxalarini

¹⁰⁸ Уголовный кодекс Германии. URL: <http://www.gesetze-im-internet.de/stgb/>.

¹⁰⁹ Налоговый кодекс Германии. URL: http://www.gesetze-im-internet.de/ao_1977/index.html.

¹¹⁰ Уголовный кодекс Латвии. URL:http://likumi.lv/doc.php?id=88966&version_date=.

ruxsatciz olib chiqish, ularni o‘zlashtirish belgilari bo‘lmasa (277-modda) jinoyat hisoblanadigan normalar mavjud.

Estoniya Penitensiar Jinoyat kodeksining “Iqtisodiy jinoyatlar” deb nomlanuvchi 21-bobiga joylashgan quyidagi jinoyatlar bojxona sohasidagi jinoyatlar hisoblanadi: kontrabanda (391§), maxsus ruxsatnomani talab qiluvchi ta’qiqlangan tovarlarni noqonuniy olib kirish va olib chiqish (392§), bojxona nazorati ostidagi tovarlar bilan noqonuniy harakatlar (393§)¹¹¹. Estoniya qonunchiligiga asosan ta’qiqlangan tovarlarga - radioaktiv moddalar, portlovchi moddalar, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, prekursorlar, giyohvandlik bo‘limgan dori vositalari, xavfli kimyoviy moddalar yoki chiqindilar, strategik tovarlar, o‘qotar qurollar yoki o‘q-dorilar kiradi. Estoniya davlat chegarasi orqali predmetlarni olib o‘tish bog‘liq jinoiy tajovuzlarning navbatdagi guruhi giyohvand moddalar bilan bog‘liq jinoyatlardir (I-bo‘lim, 12-bob).

Chexiya jinoyat qonunchiligida kontrabanda uchun javobgarlik to‘g‘risidagi normalar mavjud emas. Bu holat mazkur davlat qonunchiligida 2009-yildan boshlab yangi Jinoyat kodeksi qabul qilinganidan so‘ng kuzatilgan. Shunga qaramasdan, qonun chiqaruvchi, muqobil ravishda bojxona sohasida sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlik to‘g‘risidagi boshqa normalarni taqdim etadi.

Chexiya Respublikasi Jinoyat kodeksining «Iqtisodiy jinoyatlar» deb nomlanuvchi IV bo‘limida bojxona sohasidagi munosabatlarni himoya qilishga qaratilgan quyidagi moddalar keltirilgan bo‘lib, bular: 261§ “Xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlarda tovarlar muomalasidagi qonunbuzarliklar”, 262§ “Ikki tomonlama foydalanishga mo‘ljallangan texnologiyalar eksport nazorati to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish”, 263§ “Ikki tomonlama foydalanishga mo‘ljallangan tovarlar va texnologiyalarni eksport qilish bo‘yicha majburiyatlarning buzilishi”, 264§ “Ikki tomonlama foydalanishga mo‘ljallangan texnologiyalar eksporti uchun tasdiqlovchi hujjatlarni buzib ko‘rsatish va saqlashdan bosh tortish”, 265§ “Harbiy materiallarning tashqi savdosi bilan ruxsatnoma yoki litsenziyasiz shug‘ullanish”, 266§ “Harbiy materiallarning tashqi savdosiga ruxsatnoma va litsenziyalar berish qoidalarini buzish”, 267§ “Harbiy materiallarning tashqi savdosi bilan bog‘liq bo‘lgan tasdiqlovchi hujjatlarni buzib ko‘rsatish va saqlashdan bosh tortish”, 268§ “Tovar belgilari va boshqa belgilardan noqonuniy foydalanish”¹¹². Biz ushbu davlat jinoyat qonunchiligida iqtisodiy jinoyatlarga oid bo‘lim doirasida bojxona sohasini tartibga soluvchi normalarning ko‘pligini kuzatamiz. Chexiya qonun chiqaruvchisining qonunchilikda harakatlarni

¹¹¹ Пенитенциарный кодекс Эстонии. URL:<https://www.riigiteataja.ee/akt/12792390>.

¹¹² Уголовный кодекс Чехии. URL: <http://www.zakonyprolidi.cz/cs/2009-40>.

jinoyat predmetiga emas, balki, jinoiy tajovuzlar ob'ektiga, xususan tashqi iqtisodiy munosabatlarga nisbatan ajratganligi diqqatga sazovordir. Bunday jinoiy harakatlar uchun maksimal javobgarlik 8 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni nazarda tutadi.

Bundan tashqari, Chexiya Respublikasining Jinoyat kodeksida muayyan predmetlarning davlat chegarasi orqali o'tkazish bilan bog'liq tashqi iqtisodiy elementi mavjud jinoyatlarni ham o'ziga xos xususiyat sifatida ajratish mumkin, ammo bunda asosiy tajovuz ob'ekti mulkiy munosabatlar hisoblanadi (231§ "Kompyuter ma'lumotlarini, parollarni va boshqa shu kabi ma'lumotlarni saqlash va ularga kirish va foydalanish choralarini va vositalarini buzish"), jinsiy sohada inson qadr-qimmati (191§ "Pornografiyani tarqatish"), xavfsizlik (280§ "Ta'qiqlangan harbiy texnikalarni tayyorlash, ishlab chiqarish va saqlash"), 281§ "Radioaktiv materiallarni ruxsatsiz ishlab chiqarish va saqlash", 282§ "Xavfli moddalarni parchalaydigan yadroviy materiallar va maxsus materiallarni ruxsatsiz ishlab chiqarish, saqlash", 283§ "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar va zaharlarni ruxsatsiz ishlab chiqarish va boshqa operatsiyalar", 288§ "Gormonal ta'sirga ega moddalarni ishlab chiqarish va boshqa harakatlar".

Ko'rib turganimizdek, Chexiya Respublikasi JK turli predmetlarni davlat chegarasi orqali noqonuniy olib o'tilishi uchun javobgarliklarni belgilaydi, bu esa butun dunyoda ushbu sohadagi jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha o'sish tendensiylarini ko'rsatadi. Shuni ta'kidlash lozimki, o'rganishlar davomida Chexiya Respublikasining Jinoyat kodeksida boshqa Yevropa davlatlariga nisbatan bojxona sohasidagi jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi eng ko'p normalar mavjudligi kuzatildi.

2. Roman-german huquq oilasi mamlakatlarida bojxona sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlik to'g'risidagi normalardagi jinoyat predmeti turlicha bo'lib, ko'pincha u aniq bir tarzda ifodalanmagan.

Masalan, Germaniya JK normalariga binoan, mamlakatdan noqonuniy olib kirish va olib chiqish predmeti xizmat guvohnomalarni tayyorlash uchun mo'ljallangan va qalbakilashtirishdan maxsus himoyalangan qog'oz yoki asl nusxa bilan aralashtirilishi mumkin bo'lgan qog'oz, shuningdek bunday hujjalarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan qurilmalar (275-§), soxta xizmat guvohnomalari (276-§).

Latviya Jinoyat kodeksiga asosan, davlat arxiv fondlarini, jamoat, kooperativ yoki diniy tashkilotlarning va boshqa yuridik shaxslarning arxiv fondlarini, shu jumladan ularning nusxalarini, ruxsatsiz olib chiqish (277-modda) jinoyat hisoblanadi.

Estoniya Penitensiar kodeksining 391-moddasida kontrabanda uchun javobgarlik ko'zda tutilgan. Biroq, noqonuniy olib kirish va olib chiqish predmeti

qonun chiqaruvchi tomonidan belgilanmagan, faqat ular juda ko‘p miqdordagi tovarlar bo‘lishi mumkinligi qayd etilgan.

3. Ushbu davlatlarning tashqi iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi barcha qonun hujjatlarida “kontrabanda” iqtisodiy jinoyat deb e’tirof etilgan va ushbu norma qonunlarning tegishli bo‘lim va boblarida joylashtirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, kontrabanda uchun javobgarlik to‘g‘risidagi normalar Latviya Jinoyat kodeksida "Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar" nomli XIX bobda, Estoniya Penitensiar kodeksida "Iqtisodiy jinoyatlar" deb nomlangan 21-bobida mustahkamlangan.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, xorijiy davlatlarning jinoiy qonunchiligidagi kontrabanda uchun javobgarlik, predmetlarning xususiyatiga qarab bir nechta alohida normalarga ajratilib, tegishli bo‘lim va boblarga joylashtirilgan. Shuningdek, ayrim xorijiy mamlakatlarda milliy Jinoyat kodeksimizda aks ettirilmagan jinoyatlar uchun javobgarlik to‘g‘risidagi normalar, jumladan: ayrim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan predmetlarni, xususan, yashirin ravishda ma’lumot olishning maxsus texnik vositalarini noqonuniy ravishda bojxona chegarasidan olib o‘tish, noqonuniy migratsiyani tashkil etish, Respublikaga chet el ishchi kuchini jalb qilish va ulardan foydalanish qoidalarini buzish uchun javobgarlik mavjud. Ushbu tajribani ham milliy qonunchiligidagi qo’llab, O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy va jinoiy javobgarlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Nazorat savollari:

1. Bojxona sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlik masalasida xorijiy tajribani o‘rganish qanday ahamiyatga ega?
2. MDH mamlakatlarda bojxona sohasidagi munosabatlarni jinoiy-huquqiy tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari haqida gapirib bering.
3. Anglo-sakson huquq oilasiga mansub Kanada va AQSh misolida bojxona sohasidagi munosabatlarni jinoiy-huquqiy muhofaza qilish xususiyatlari haqida gapirib bering.
4. An’anaviy huquq oilasiga mansub mamlakatlardagi bojxona sohasidagi munosabatlarni jinoiy-huquqiy muhofaza qilish xususiyatlarini Xitoy va Yaponiya misolida gapirib bering.
5. Roman-german huquq oilasi doirasidagi bojxona sohasidagi munosabatlarni jinoiy-huquqiy tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlarini Germaniya, Latviya, Chexiya va Estoniya misolida tahlil qiling.
6. Bojxona sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlik masalasida qaysi xorijiy davlatlar tajribasini, aynan qaysi normalarini milliy qonunchilikka joriy qilishni maqsadga muvofiq deb hisoblaysiz?

§3.5. Bojxona sohasidagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish muammolari va huquqiy tartibga solishni takomillashtirish masalalari

Bizga ma'lumki, jinoyatlarni to'g'ri baholash va kvalifikatsiya qilishda xatoga yo'l qo'ymaslik muhim ahamiyaga ega. Jinoiy jazoni qo'llash uchun shaxsning huquqqa xilof qilmish sodir etganligi faktini isbotlash, shuningdek shaxs aybli ravishda harakat qilganligini aniqlash zarur.

Shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki, tadqiqotlarimiz natijasida ushbu sohada sodir etilgan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish masalalarini hal qilishda bojxona sohasidagi huquqbazarliklarning bir qator o'ziga xos jihatlarini e'tiborga olish lozim.

Birinchidan, bojxona sohasidagi jinoyatlar bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda olib o'tilayotgan tovarlar, buyumlar va boshqa qimmatliklarning xususiyatidan kelib chiqib tajovuz ob'ektini e'tiborga olgan holda hamda qiymatiga qarab kvalifikatsiya qilinadi.

Ikkinchidan, bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlari asosan blanket, ya'ni havolaki normalardan iborat bo'lib, sodir etilgan qilmishni baholash uchun boshqa qonun hujjatlari normalarini ko'rib chiqish talab etiladi.

Uchinchidan, bojxona sohasidagi jinoyatlar asosan latent, ya'ni yashirin xususiyatga ega jinoyatlar toifasiga kiradi. Ushbu sohadagi jinoyatlarni sodir etish usullari doimiy o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega bo'lib, ular murakkablashib borish, qonunchilikdagi bo'shliqlardan foydalanish, turli jinoiy sxemalar orqali sodir etilishi hollari kuzatiladi. Bu esa ularni aniqlash va fosh etish murakkab ekanligini anglatadi.

To'rtinchidan, TIF bilan bog'liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlari uchun javobgarlik aksariyat hollarda yetkazilgan zarar miqdoriga qarab farq qiladi. Zarar miqdori huquqbazarlik tugallangan vaqtida amalda bo'lgan miqdorlardan kelib chiqib hisoblanadi.

Beshinchidan, iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlikka tortishda zararning bartaraf etilganligi yoki etilmaganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Jinoyat kodeksiga muvofiq shaxs bir qator hollarda ushbu sohadagi jinoyatlar uchun javobgarlikdan ozod etilishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan xususiyatlardan ko'rishimiz mumkinki, amaliyotda ushbu sohadagi jinoyatlarni aniqlash va to'g'ri tavsiflash bo'yicha ma'lum bir kamchiliklar yuzaga kelmoqda va ayni paytda ularni isloh etib, kerakli choralar ko'rish zarurligini taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi "Jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3723-sон qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston

Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiyasida sud-tergov amaliyotida, jumladan mamlakatning jinoiy-huquqiy siyosatini samarali ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilayotgan, jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligidagi ayrim normalarning mukammal emasligi bilan bog'liq bo'lgan qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinayotganligi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, jinoyat qonunchiligini takomillashtirish borasida quyidagilarga alohida e'tibor qaratish belgilangan, jumladan:

- jinoyat qonunchiligini xalqaro standartlarga unifikatsiya qilinganligi va muvofiqlashtirilganligi nuqtai nazaridan inventarizatsiya qilish;
- turlicha sharhlash yoki korrupsiya holatlari sodir etilishiga yo'l qo'yadigan yoxud ijtimoiy xavfllik darajasi va xarakteri jinoyat qonunchiligi prinsiplariga mos kelmaydigan qilmishlar uchun javobgarlik belgilanishiga yo'l qo'yadigan normalarni chiqarib tashlash;
- Jinoyat kodeksida qo'llaniladigan atama va tushunchalarni ularning mazmuniga aniq ta'rif berish va yagona shaklda qo'llash orqali takomillashtirish;
- jazolar tizimi va ularni tayinlash mexanizmlarini qaytadan ko'rib chiqib, yanada takomillashtirish kabilar¹¹³.

Shu o'rinda, quyida ayrim bojxona sohasidagi jinoyatlar bo'yicha javobgarlik masalalariga oid mavjud muammolar, qonunchilik va amaliyotda yuzaga kelayotgan ziddiyatli masalalarni bartaraf etish maqsadida yuridik tahlillar va xorijiy tajriba asosida qonunchilikni takomillashtirish va jinoiy jazolarni liberallashtirishga qaratilgan bir qator taklif va mulohazalarimizni bildirib o'tmoqchimiz.

1. O'zbekiston Respublikasi JKning 246-moddasi nazariy huquqiy tahlilini qilganimizda "kontrabanda" so'zi italyancha "contra-bando" ("contra"-qarshi, "bando"-hukumat farmoni) so'zidan kelib chiqqanligini ta'kidlab o'tgandik. Leksografik adabiyotlarda, odatda, mazkur tushunchaning asosiy uch ma'nosi farqlanadi: birinchidan, kontrabanda deganda tovarlar, valyuta va boshqa boyliklarni chegaradan bojxona qonunchilagini buzib pinhona olib o'tish tushuniladi; ikkinchidan, kontrabanda deb chegaradan g'ayriqonuniy yo'l bilan olib o'tilgan tovar yoki boshqa xildagi predmetga aytildi; nihoyat, uchinchidan, ta'qiqlangan yashirincha amalga oshirilayotgan, bir joydan boshqa joyga pinhona ko'chirilayotgan narsalar ba'zan kontrabanda deb ataladi¹¹⁴. Boshqa adabiyotlarda kontrabanda so'zining mazmunini yoritishda tovarlarni chegaradan boj to'lamasdan olib o'tishga urg'u beriladi. Shu tariqa kontrabanda deganda, chegaradan maxsus soliq (boj) to'lamasdan olib o'tiladigan narsalargina

¹¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydag'i PQ-3723-son qarori, <http://lex.uz/docs/3735818>.

¹¹⁴ Словарь иностранных слов. –М.:Политиздат, 1990. - 249 с.

tushunilishi ta'kidlanadi. Bizningcha, bu kontrabandaning mohiyatini tushunish hamda uni sirdan o'xhash bo'lgan jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklardan ajratish, farqlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayrim “maishiy” ma'nolari mavjudligiga qaramay, kontrabanda tushunchasi, bizning nazarimizda, hech shubhasiz, huquqiy tushuncha hisoblanadi. Undan xalqaro huquqiy hujjatlarda faol foydalaniladi. Bunga 1925-yil 19-avgustda Gelsingfors shahrida imzolangan “Alkagolli tovarlar kontrabandasini to‘xtatish to‘g‘risida”gi konvensiya misol bo‘lishi mumkin¹¹⁵.

Ilmiy adabiyotlar va tadqiqot ishlarida kontrabanda tushunchasiga berilgan turlicha ta'riflarga duch kelish mumkin. Masalan, kontrabandaga qarshi kurash muammolarining taniqli tadqiqotchisi Yu.Suchkov fikriga ko‘ra, erkin muomalada bo‘lgan tovarlar va boshqa predmetlarni bojaxona chegarasidan g‘ayriqonuniy olib o‘tishnigina bojaxona qoidalari buzish deb hisoblash o‘rinli bo‘ladi¹¹⁶. Shunga o'xhash fikrni S.A.Sirma ham ilgari suradi. U iqtisodiy kontrabanda, odamlar kontrabandasi, shuningdek muomaladan chiqarilgan yoki muomalada bo‘lishi cheklangan predmetlarni g‘ayriqonuniy olib o‘tishni ajratish lozim, deb hisoblaydi¹¹⁷.

Prof. B.V.Voljenkin iqtisodiy manfaatlarga emas, balki jamoat xavfsizligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tajovuz qiluvchi ijtimoiy xavfli qilmishlarni ifodalash uchun “kontrabanda” atamasidan foydalanishning asosliligiga shubha bildiradi¹¹⁸. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, loyihasi prof. B.V.Voljenkin rahbarligidagi guruh tomonidan ishlab chiqilgan MDHning ishtirokchi-davlatlari uchun Model Jinoyat kodeksida¹¹⁹ kontrabanda jinoyatining umumiyligi tarkibi ikkiga: iqtisodiy kontrabanda va muomalada bo‘lishi ta’qiqlangan yoki cheklangan predmetlar kontrabandasiga ajratilgani¹²⁰ tasodifiy hol emas.

A.I.Chuchaev va S.Yu.Ivanovalarning fikricha, kontrabanda bojaxona jinoyati sifatida “...bojaxonaning tovarlar va transport vositalarini bojaxona chegarasidan belgilangan qoidalarga muvofiq o‘tkazishni ta’minalash borasidagi faoliyati”ga tajovuz qiladi¹²¹.

¹¹⁵ <http://base.garant.ru/2540294/>.

¹¹⁶ Сучков Ю.И. Защита внешнеэкономической деятельности РФ по уголовному законодательству (проблемные аспекты теории и законодательства). Дисс. ...докт. юрид. наук. – СПб, 2008. –39 с.

¹¹⁷ Сирма С.А. Борьба с организованной преступной деятельностью в сфере таможенного контроля (уголовно-правовой и криминологические аспекты):Дисс. ...канд.юрид.наук.-М.,1999.С.-7,124-125

¹¹⁸ Волженкин Б.В. Преступления в сфере экономической деятельности по Уголовному праву России. – СПб.: Юридический центр Пресс, 2007. –182 с.

¹¹⁹ Модельный Уголовный кодекс для государств-участников СНГ // Правоведение 1996. №1

¹²⁰ Сучков Ю.И. Преступления в сфере внешнеэкономической деятельности Российской Федерации. 2-е изд., перераб. и доп. Москва, 2007. – 96-97 с.

¹²¹ Чучаев А.И. Таможенные преступления в новом УК РФ / Чучаев А.И., Иванова С.Ю. // Государство и право. 2009. №11. – 41-43 с.

Biroq, olimlar ilgari surgan ko‘pchilik fikrlar mazkur jinoyatlarning yoki bu jinoyatlar ob’ektlarining bojxona ishi (bojxona ishini tartibga solish, bojxona organlari faoliyati va h.k.) bilan bevosita aloqasiga ishora qilganini ko‘rsatadi. Bojxona ishi O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o‘tish, boj to‘lovlarini undirish, bojxona rasmiylashtiruvi, bojxona nazoratini amalga oshirish tartibi va shartlaridan hamda bojxona siyosatini amalga oshirishning boshqa vositalaridan iboratdir. Jonathan Herring ta’kidlashicha, qonunchilik nuqtai nazaridan bojxona ishi davlat iqtisodiy faoliyatining kontrabanda va boshqa bojxona jinoyatlari sodir etiladigan sohalaridan biri sifatida qaraladi¹²².

Shuningdek, tadqiqotlarimiz natijasida “kontrabanda” atamasiga lug‘atlar¹²³, ensiklopediya¹²⁴ va xalqaro huquq adabiyotlarida¹²⁵ - tovarlar, qimmatliklar va boshqa ashyolarini davlat chegarasidan qonunga xilof ravishda olib o‘tish, deb ta’rif berilganligini aniqladik. Bizningcha, tovar yoki boshqa qimmatliklarni qonunga xilof ravishda davlat chegarasidan o‘tkazishni O‘zbekiston Respublikasi JKning 182-moddasida ko‘rsatilganidek “Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish” va kontrabanda ashyolarini qonunga xilof ravishda davlat chegarasidan o‘tkazishni 246-moddasida ko‘rsatilganidek “Kontrabanda” deb nomlanganligi mohiyatiga ko‘ra to‘g‘ri bo‘lsada, terminologik nuqtai nazardan kamchiliklardan xoli emas, chunki erkin muomaladan chiqarilgan yoki cheklangan predmetlarni bojxona chegarasidan g‘ayriqonuniy o‘tkazishga tatbiqan “kontrabanda” atamasi saqlab qolingan.

Shu bois, “Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish” va “Kontrabanda” jinoyatlarining nazariy huquqiy tahlillari, shuningdek xorijiy qonunchilik tajribasi asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son qarori bilan tasdiqlangan Konsepsiyasida ko‘rsatilgan “Jinoyat kodeksida qo‘llaniladigan atama va tushunchalarni ularning mazmuniga aniq ta’rif berish va yagona shaklda qo‘llash orqali takomillashtirish”ga qaratilgan vazifasidan kelib chiqib, *O‘zbekiston Respublikasi JKning 182-moddasini “Tovar va boshqa qimmatliklarni kontrabanda qilish” deb nomlab, yangi tahrirda bayon etish, JKning 246-moddasi “Kontrabanda” jinoyatini differensiyalash va ayrim*

¹²² Jonathan Herring. *Criminal law: text, cases, and materials* / Oxford, United Kingdom; New York: Oxford University Press, [2014] – P.936.

¹²⁴ O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi. Nashr uchun mas'ul: R.A.Muhiddinov va boshq. / Mas'ul muharrir: N.Toychiev – Toshkent: Adolat, 2009.- 261 b.

¹²⁵ Международное уголовное право. Под общей редакцией А.В.Бриллиантовой. -Москва. Юрайт.2017.; Уголовное право зарубежных стран. Л. С. Аистова, Д. Ю. Краев. - Санкт-Петербург. Санкт Петербургский юридический институт (филиал) Академии Генеральной прокуратуры Российской Федерации, 2013.

kontrabanda ashyolariga bog'liq JK moddalari dispozitsiyasiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish, shuningdek bojxona sohasidagi ayrim jinoyatlar bo'yicha JKning tegishli moddalariga va "Atamalar huquqiy ma'nosi" bo'limiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Xususan, O'zbekiston Respublikasi **JKning 182-moddasini** quyidagi yangi tahrirda bayon etish taklif qilinmoqda:

Tovar va boshqa qimmatliklarni kontrabanda qilish

Bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjalari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjalardan aldash yo'li bilan foydalangan holda yoki deklaratsiyasiz yoxud boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalaniб, tovar yoki boshqa qimmatliklarni ko'p miqdorda O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o'tkazish, shunday harakat uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa,-

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish, shuningdek yuridik shaxslarga nisbatan tovar yoki boshqa qimmatliklar qiymatining 100 foizigacha miqdorda jarima bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan harakatlar:

- a) juda ko'p miqdorda;
- b) takroran yoki xavfli residivist tomonidan;
- v) chegarani buzib o'tish, ya'ni bojxona xizmatining rozilagini olmasdan turib, tovar yoki boshqa qimmatliklarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan ochiqdan-ochiq o'tkazish yo'li bilan;
- g) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab;
- d) xizmat lavozimidan foydalangan holda sodir etilgan bo'lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud ozodlikdan mahrum qilish, shuningdek yuridik shaxslarga nisbatan tovar yoki boshqa qimmatliklar qiymatining 200 foizigcha miqdorda jarima bilan jazolanadi.

Strategik muhim tovar va resurslarni yoki madaniy qimmatliklarni yoxud noyob yovvoyi hayvonlar va suv biologik resurslarini kontrabanda qilish-

bazaviy hisoblash miqdorining olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish, shuningdek yuridik shaxslarga nisbatan tovar yoki boshqa qimmatliklar qiymatining 200 foizigcha miqdorda jarima bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi qismi hamda ikkinchi qismi "a" bandida

nazarda tutilgan jinoyatni birinchi marotaba sodir etgan tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari, jinoyat aniqlangan kundan boshlab o'ttiz sutka ichida tovar va boshqa qimmatliklarni belgilangan tartibda bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazib, to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlarining o'rnnini to'liq hajmda qoplasa, javobgarlikdan ozod etiladi.

Ko'rib turganimizdek, taklif etilayotgan yangi tahrirdagi ushbu modda bo'yicha javobgarlik ancha liberallashtirilgan va yuridik shaxslar uchun ham jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, buni biz quyidagilar bilan asoslab berishga harakat qilamiz.

Ma'lumki, Jinoyat kodeksining 182-moddasi bilan malakalashda motiv va maqsadning mavjudligi ahamiyat kasb etmaydi. Ammo, amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, TIF sohasida sodir etilgan jinoyatlar asosan bojxona to'lovlaridan qochish maqsadida sodir etiladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tomonidan tovarlarni deklaratasiyalashda noto'g'ri ma'lumotlar ko'rsatish holatlari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, o'tkazilgan bojxona ko'rige natijasida aniqlangan tafovutlar har doim ham yuk qabul qilib oluvchining aybi bilan sodir etilmasligi, xususan eksportyor tomonidan sharhnomalar asosida tovarlar O'zbekiston Respublikasiga yuborilayotgani, importyor esa yukni ortishda qatnashmaganligi sababli har doim ham uning nomiga nima ortilgani yoki hujjatlarda qanday ma'lumotlar ko'rsatilganini bilmaslik holatlari mavjud.

Bunday hollarda TIF qatnashchisi tomonidan qonunbuzarlik fakti aniqlangan vaqtda to'lanishi lozim bo'lgan qo'shimcha bojxona to'lovlarini to'lab qo'yishini ma'lum qilishiga qaramasdan, JKning 182-moddasi bilan jinoyat ishi qo'zg'atiladi va o'z navbatida jinoyat ishi qo'zg'atilganligi sababli, TIF qatnashchisi to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlarini to'lashni xoxlamaydi. Ushbu sohada birinchi marta jinoyatni sodir etgan shaxsning jinoiy javobgarlikdan ozod etilishining huquqiy mexanizmlari mavjud emasligi, davlatga yetkazilgan zararning qoplanmasligiga va fuqarolarning sudlanganlik holatlarining ko'payishiga olib keladi hamda faol ishbilarmonlik muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, taklif etilayotgan moddaning 4-qismida ko'rsatilgan rag'batlantiruvchi normasini kiritilishi, ya'ni tadbirkorlik sub'ektlarining tovar-moddiy boyliklari davlat foydasiga musodara qilinmasdan tadbirkor tomonidan bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilishi natijasida ularning iqtisodiy va ishchanlik faoliyatiga keng yo'l yaratilishidan tashqari, to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlarining budgetga o'tkazilishi o'z-o'zidan jinoyat sodir etilishining motivi va maqsadini qisman bekor qilib, qilmish va shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasini pasaytiradi, ya'ni davlatning iqtisodiy xavfsizligiga real ziyon yetkazilishining samarali oldi olinishi ta'minlanadi.

Bu borada 2020-yil 24-yanvar kuni yurtboshimiz Shavkat Miramonovich Mirziyoyevning 2020-yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham “*Tadbirkorlik sohasida ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan ayrim jinoyat turlarini jinoyat toifasidan chiqarish siyosatini izchil davom ettirishimiz lozim. Jumladan, soxta tadbirkorlik, raqobatchining obro‘sini tushirish kabi qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik bekor qilinadi. Shuningdek, bojxona qonun hujjatlarini buzish bilan bog‘liq jinoyatni birinchi marta sodir etgan, lekin to‘lovlarni to‘lagan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish kerak.*” – deb alohida ta’kidlab o‘tilgan¹²⁶.

Bundan tashqari, ushbu moddani 1-qismi sanksiyasidagi jazoni “uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan maxrum qilish” deb belgilash orqali ushbu jinoiy qilmishni ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlar turkumiga kiritib, Jinoyat protsessual kodeksning 381²-moddasi 1-qismining 4-bandidagi bojxona organlari tomonidan surishtiruv olib borish bo‘yicha Jinoyat kodeksi moddalari qatoriga 182-moddaning birinchi qismi ham qo‘shilishi va bu bilan ushbu jinoyatlar bo‘yicha mutaxassislar, ya’ni bojxona organlari surishtiruvchilari tomonidan surishtiruv tez va sifatli olib borilishiga hamda sansalorliklarni oldi olinishiga erishilardi.

Shu o‘rinda ma’lumot uchun ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasida Markaziy Osiyoda yagona bo‘lgan bojxona organlariga malakali kadrlarni tayyorlashga ixtisoslashgan Bojxona instituti faoliyat yuritadi, unda bojxona organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyatini yanada samarali tashkil etish va olib borishini ta’minalash maqsadida “Yurispredensiya” yo‘nalishida kursantlar o‘qitiladi va ularga ko‘proq bojxona qonunchiligi buzilishiga qarshi kurashish bilan bog‘liq bilimlar beriladi, bitiruvchilar esa bojxona organlarining surishtiruv va tezkor tuzilmalariga taqsimlanib, ushbu yo‘nalishlarda faoliyat yuritishadi.

Taqdim etilayotgan yangi tahrirda ushbu jinoyat takroran yoki xavfli residivist tomonidan sodir etilganda og‘irlashtiruvchi holat sifatida belgilanmoqda. Ushbu norma xorijiy qonunchilik tajribasida o‘z aksini topganligini va milliy qonunchiligidizda ham tadbiq etishimiz maqsadga muvofiqligini yuqorida ta’kidlab o‘tgandik.

Xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligidagi iqtisodiy jinoyatlarga oid normalarning salmog‘i katta bo‘lib, qilmishni ta’qiqlovchi normalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatib o‘tilgan. Biroq, ayrim iqtisodiy qilmishlar uchun milliy qonunchiligidizda bevosita, ya’ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan.

¹²⁶ Shavkat Miramonovich Mirziyoyevning 2020 yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi, <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-oliy-25-01-2020>.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot va izlanishlar noqonuniy qilmishning jinoyat qonunchiligidagi aks etishining o‘zi shaxslarga profilaktik ta’sir etishi hamda iqtisodiy huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olishiga ko‘maklashishi aniqlangan¹²⁷.

Dunyo mamlakatlari jinoyat qonunchiliklarida kontrabanda predmetlari turlarining ko‘payish tendensiyasi hamda axborot texnologiyalari taraqqiyoti kuzatilayotgan hozirgi davrda ayrim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan predmetlarni, xususan, *yashirin ravishda ma’lumot olishning maxsus texnik vositalarini hamda xalq merosi hisoblangan badiiy, ilmiy, tarixiy va arxeologik ahamiyatga ega madaniy boyliklarni: san’at asarlari, qadimiy buyumlar va shunday ahamiyatdagi qimmatlik hisoblangan boshqa predmetlar, intellektual mulk ob’ektlari, xavf ostida bo‘lgan hayvonlar, o’simliklar turlari, ularning qismlarini noqonuniy ravishda bojxona chegarasidan olib o’tish uchun javobgarlik belgilash taklif qilinmoqda* va bu orqali qonunchilikdagi mavjud bo‘shliqni bartaraf qilishga erishilardi.

Xususan, yangi tahrirdagi “*Tovar va boshqa qimmatliklarni kontrabanda qilish*” deb nomlangan moddaning 3-qismi dispozitsiyasida “*Strategik muhim tovar va resurslarni yoki madaniy qimmatliklarni yoxud noyob yovvoyi hayvonlar va suv biologik resurslarini kontrabanda qilish* uchun javobgarlik nazarda tutilmoqda. Strategik muhim tovar va resurslar, madaniy qimmatliklar, noyob yovvoyi hayvonlar va suv biologik resurlarining Ro‘yxati Vazirlar Mahkamasining alohida qarorlari bilan tasdiqlansa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yangi tahrirdagi modda sanksiyasida yuridik shaxsning jinoiy javobgarligi belgilanmoqda. So‘nggi paytlarda yuridik shaxsning jinoiy javobgarligi masalasi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Ushbu munozarali mavzuning dolzarbligi, birinchi navbatda, yuridik shaxs tomonidan buzilgan huquqlarni samarali mexanizmlari yo‘qligi bilan bog‘liq. Ikkinchidan, yuridik shaxslardan katta miqdordagi qarzlarni undirishda ularning xatti-harakatlariga ta’sir o‘tkaza olmaslikdan kelib chiqadi. Uchinchidan, amaliyat shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy jinoyatlarning aksariyati yordamchi yoki yuridik shaxslar tomonidan sodir etiladi.

Nazariy jihatdan, yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi muammosi juda munozarali. Bizning fikrimizcha, shubhasiz, ushbu sohadagi xorijiy tajribani o‘rganish, shuningdek yuridik shaxslarning jinoiy javobgarlik institutini joriy etish natijasida erishilgan amaliy afzalliklarni aniqlash foydali bo‘ladi.

Yaqin vaqtgacha yuridik shaxslar uchun jinoiy javobgarlik asosan anglo-sakson jinoyat qonunchiligining o‘ziga xos xususiyati bo‘lib qoldi. So‘nggi yillarda dunyoning tobora ko‘proq mamlakatlari ushbu institutni o‘zlarining

¹²⁷ Michael G. Allingham & Agnar Sandmo, Income Tax Evasion: A Theoretical Analysis. 1 Journal of Public Economics. 323(1972).

jinoyat qonunchiligiga kiritishni boshladilar. Yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi xalqaro miqyosda tobora ko‘proq qo‘llab-quvvatlandi.

Hozirgi vaqtida yuridik shaxslarning jinoiy javobgarlik instituti Avstraliya, Angliya, Belgiya, Vengriya (2001-yildan), Daniya, Isroil, Irlandiya, Islandiya (1998-yildan), Kanada, Xitoy (1997-yildan), Gollandiya (1976-yildan), Norvegiya (1991-yildan), Polsha (2002-yildan), Ruminiya (2004-yildan), Sloveniya (1999-yildan), AQSh, Finlyandiya (1995-yildan), Fransiya (1992-yildan), Shveysariya (2003-yildan) va boshqa davlatlar, shu jumladan ayrim MDH mamlakatlari qonunchiliklarida nazarda tutilgan.

Xorijiy tajribaga ko‘ra yuridik shaxslarning javobgarligi ikkita holatda vujudga keladi:

1. Jinoiy qilmish yuridik shaxs manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lishi kerak;
2. Uning rahbari yoki vakili tomonidan sodir etilishi kerak.

Ushbu ko‘rinishdagi yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi bir qator davlatlar qonunchiligiga kiritilgan.

Masalan, Fransiya Jinoyat kodeksining 121.2-moddasiga asosan “Yuridik shaxslar organlari yoki vakillari tomonidan ularning foydasiga sodir etilgan jinoiy harakatlar uchun yuridik shaxslar jinoiy javobgarlikka tortiladilar”¹²⁸.

Umumiyl qoida sifatida yuridik shaxslarning javobgarligi shaxsiy aybdorlik prinsipini bekor qilmaydi, balki u bilan birga keladi va uni to‘ldiradi. Xususan, “Yuridik shaxsning jinoiy javobgarligi jismoniy shaxsning jinoiy javobgarligini bekor qilmaydi” degan tamoyil XXR, Litva, Moldova, Fransiya, Estoniya Jinoyat kodekslarida belgilangan.

Islandiya va Norvegiya Jinoyat kodekslarida esa hatto jinoyatni sodir etgan jismoniy shaxslar aniqlanmagan yoki ularga nisbatan jazo qo‘llash mumkin bo‘limgan taqdirda ham yuridik shaxslarga nisbatan javobgarlikka tortilishi mumkinligi nazarda tutilgan.

Jismoniy shaxslar bilan solishtirganda yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri - bu ayrim jazo turlarini (ozodlikdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari) qo‘llanilmaslidadir.

Dunyo mamlakatlarining zamonaviy jinoyat huquqi tahlili shuni ko‘rsatadiki, jarimaga qo‘sishma ravishda yuridik shaxslarga nisbatan *maxsus musodara* (Albaniya, Belgiya, Iroq, AQSh, Fransiya); *yuridik shaxsning faoliyatini cheklash, shu jumladan faoliyatning ayrim turlari bilan shug‘ullanishni ta’qiqlash, bo‘limlar yoki filiallarni tugatish* (Albaniya, Belgiya, Ispaniya, Litva, Moldova, Peru); *yuridik shaxsning faoliyatini vaqtincha to‘xtatish* (Ispaniya, Peru); *yuridik*

¹²⁸ https://yurist-online.org/laws/foreign/criminalcode_fr/_doc-5-.pdf Уголовный кодекс Франции.

shaxsni tugatish (Belgiya, Litva, Moldova, Peru, Fransiya); *hukmni e'lon qilish* (Belgiya, Fransiya) kabi sanksiyalar ko‘proq qo‘llaniladi.

Fransiya Jinoyat kodeksida yuqoridagilarga qo‘shimcha ravishda: yuridik shaxslarni sud nazoratiga olish; davlat nomidan tuziladigan shartnomalarda ishtirok etishni ta’qiqlash; omonatlarni olish yoki qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish maqsadida jamoatchilik bilan ishlashni ta’qiqlash; cheklarni muomalaga kiritishni ta’qiqlash; kredit kartalaridan 5 yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga cheklash kabi jazo turlari qo‘llaniladi. Alovida hollarda esa, yuridik shaxsning mol-mulki musodara qilinishi (insoniyatga qarshi jinoyatlar va giyohvand moddalarni noqonuniy tarqatish yoki sotish bilan shug‘ullanganligi uchun) mumkin.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligini qo‘llash amaliyoti nafaqat mumkin, balki ba’zan zarur, ayniqsa iqtisodiyot rivojlanib borgan sari, nodavlat va notijorat sub’ektlar qo‘lida tobora ko‘proq kapital to‘planishini nazarda tutadi.

Amaldagi O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 108-moddasiga asosan yuridik shaxsning soliqqa oid huquqbazarlik uchun javobgarlikka tortilishi belgilangan bo‘lsa-da, MJtK va JKda yuridik shaxsning javobgarligi nazarda tutilmagan. Ta’kidlash lozimki, ayrim hollarda iqtisodiy huquqbazarliklarning aynan kim tomonidan sodir etilganligini aniqlash va isbotlash murakkabligi, zararni qoplash va boshqa muammolarni inobatga olib, yuridik shaxslarga jinoiy javobgarlikni belgilash hamda ushbu turdagи jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan jazo turlari va boshqa huquqiy ta’sir choralarini joriy etish ayniqsa dolzarbdir.

Yuqoridagilardan asosan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish” Konsepsiysi talablaridan kelib chiqib, qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan ilg‘or xorijiy tajribaning *yuridik shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish institutini milliy qonunchiligidizga implementatsiya qilishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz*. Bunda Jinoyat kodeksida iqtisodiy, shu jumladan bojxona sohasidagi jinoyatlar uchun yuridik shaxslarga nisbatan jinoiy javobgarlik belgilash va *jazo tariqasida jarima qo‘llash, jarima miqdorini esa huquqbazarlik sodir etgan yuridik shaxs tomonidan yetkazilgan zarar miqdoridan kelib chiqib belgilash* taklif qilinmoqda.

2. O‘zbekiston Respublikasi JKning 182-moddasida nazarda tutilgan jinoyat ko‘pincha, qalbakiligi oldindan ayon bo‘lgan xujjatlardan foydalanadilar yoki xujjatlarga soxta ma’lumotlar kiritish orqali sodir etiladi. Bunday holatda, Oliy sudi Plenumining “Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 12-bandiga ko‘ra,

hujjatning qalbaki ekanligini bila turib, uni bojxona organlariga haqiqiy hujjat sifatida taqdim etgan shaxs harakatlari JKning 182-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi va qo'shimcha ravishda 228-moddasi bilan kvalifikatsiya qilishni talab qilmaydi¹²⁹. Ammo, qarorda ayni shunday harakat mansabdor shaxs tomonidan sodir etilgan taqdirda, qilmish qanday kvalifikatsiya qilinishi lozimligi aniqlashtirilmagan.

Bu esa, amaliyotda qonunni turlicha talqin qilishga sabab bo'ladi. Jumladan, aksariyat hollarda shunday qilmish JKning 182 va 209-moddalari bo'yicha jinoyatlar jami tariqasida kvalifikatsiya qilinishiga, aksariyat hollarda esa, JKning 182-moddasi ikkinchi qismi "g" bandi bo'yicha kvalifikatsiya qilish holatini yuzaga keltirishi muqarrar. Zotan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi tomonidan ushbu masalaga aniqlik kiritilishi lozim edi.

Amaliyotda yuzaga keladigan ushbu muammoni bartaraf etish, ayni bir tusdagi qilmishlarga javobgarlik masalasida bir xil yondashuvni ta'minlash maqsadida Oliy sudi Plenumining yuqorida ta'kidlab o'tilgan qarorining 12-bandı ikkinchi xatboshini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

"Hujjatning qalbaki ekanligini bila turib, uni bojxona organlariga haqiqiy hujjat sifatida taqdim etgan shaxs harakatlari JKning 182-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi va qo'shimcha ravishda 228-moddasi bilan kvalifikatsiya qilishni talab qilmaydi. Huddi shunday qilmish mansabdor shaxs tomonidan sodir etilgan taqdirda uning harakatlari JKning 182-moddasi ikkinchi qismi "g" bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi va qo'shimcha ravishda 209-moddasi bilan kvalifikatsiya qilishni talab qilmaydi".

3. Ma'lumki, Jinoyat kodeksining 184-moddasi (*Soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tov lash*) O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustdagı O'RQ-391-sonli Qonuniga asosan rag'batlantiruvchi norma - beshinchi qism bilan to'ldirilgan bo'lib, amaldagi tahririda: "Birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u soliq tekshiruvi materiallarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha davlat soliq xizmati organining qarorini yoki O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining sodir etilgan jinoyat haqidagi xabarini olgan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlari, shu jumladan penyalar va boshqa moliyaviy sanksiyalar tarzida davlatga yetkazilgan zararning o'rmini to'liq qoplasa, javobgarlikdan ozod qilinadi", deb ko'rsatilgan.

Ushbu norma bilan jinoyat uchun javobgarlik liberallashtirilgan bo'lsada, soliq tekshiruvi materiallarini ko'rib chiqishga vakolatli organlar soni chegaralangan. Bu esa tergov-sud amaliyotida ushbu normani talqin qilishda

¹²⁹ Oliy sud Plenumining 2013-yil 6-sentyabrdagi 18-sonli Qarori, <https://www.lex.uz/docs/2259789>.

noaniqliklarni yuzaga keltiradi.

Ta'kidlash lozimki, soliqlar yoki boshqa majburiy to‘lovlarning qonuniyligini nazorat qilish maqsadida qonunchilikda belgilangan vakolatlari doirasida soliq xizmati organi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bilan bir qatorda Moliya vazirligi organlari, Davlat Hisob palatasi, Davlat bojxona xizmati organlari ham tekshirishlari mumkin (taftish o‘tkazish, soliq va bojxona auditini amalga oshirish orqali).

Ma’lumot uchun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bojxona ma’muriyatçiliginis isloh etish va O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi 2020-yil 5-iyundagi PF-6005-son Farmoniga¹³⁰ muvofiq, Davlat bojxona qo‘mitasiga bojxona nazorati shakli sifatida tovarlar chiqarib yuborilgandan keyin TIF ishtirokchilari faoliyatini baholash hamda ularning tovarlar va transport vositalari chiqarib yuborilgandan keyingi hisobini tekshirishni nazarda tutuvchi bojxona auditini amalga oshirish vazifasi yuklatilgan bo‘lib, 2021-yil 25-fevral kuni Vazirlar Mahkamasining 101-sonli qarori bilan “Bojxona auditini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom” tasdiqlangan¹³¹.

Shu bois, **O‘zbekiston Respublikasi JKning 184-moddasi 5-qismini** quyidagi tahrirda o‘zgartirish lozim deb hisoblaymiz, ya’ni: *“Birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u soliq va boshqa majburiy to‘lovlar tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha vakolatli organning qarorini yoki sodir etilgan jinoyat haqidagi xabarini olgan kundan e’tiboran o‘ttiz kun ichida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar, shu jumladan penyalar va boshqa moliyaviy sanksiyalar tarzida davlatga yetkazilgan zararning o‘rnini to‘liq qoplasa, javobgarlikdan ozod qilinadi.”*

4. Tahlillariga ko‘ra, bojxona amaliyotida tovar va boshqa buyumlarni bojxona chegarasidan noqonuniy olib o‘tish bilan bir qatorda JKning 243-moddasidagi “Jinoiy yo‘l bilan kiritilgan daromadlarni legalizatsiya qilish” jinoyati ham sodir etilishi kuzatiladi.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi JKning 243-moddasida ko‘rsatilgan jinoyat (Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish) Jinoyat kodeksining “Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar” deb nom olgan oltinchi bo‘limga kiritilgan. Noqonuniy olingan pul mablag‘lari va o‘zga mulkni legallashtirishning ijtimoiy xavfliligi shundaki, bu qilmish ushbu

¹³⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyundagi PF-6005-son Farmoni, <https://lex.uz/docs/4844615>.

¹³¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 25-fevraldagagi 101-sonli Qarori, <https://www.lex.uz/docs/5313465>.

mulklarning legal tadbirkorlik faoliyatiga qo'shilib ketishiga olib keladi. Bu esa tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning belgilangan tartibini buzadi, uyushgan jinoyatchilikning nazorat ostida bo'lgan – kontrabanda, narkobiznes, qimor o'yini va shu kabi yashirin tadbirkorlikning ancha xavfli turlari tarqalishiga ko'maklashadi. Bundan tashqari legallashtirish mamlakatning soliq tizimini izdan chiqaradi, chunki bu bilan davlat xazinasiga tushmay qoladigan anchagina pul mablag'lari soliqqa tortish imkoniyatidan maxrum qiladi.

Ushbu jinoyat sodir etilganda birinchi o'rinda respublika iqtisodiy asoslari va faoliyati bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkaziladi. Chunki, mazkur jinoyat tarkibining zaruriy belgisi jinoyat sodir etish usuli hisoblansa, uning zaruriy elementi esa bu jinoiy faoliyat natijasidan orttirilgan mulk (pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk) mavjud bo'lishidir. Demak, jinoyatning ob'ektiv tomoni fakultativ belgisi hisoblanmish jinoyat sodir etish usuli va jinoyat predmeti qilmishni kvalifikatsiya qilishda o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu bois, *bu jinoyatni O'zbekiston Respublikasi JKning "Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar" deb nomlanadigan uchinchi bo'limga kiritish lozim* deb hisoblaymiz. Ushbu jinoiy qilmish Rossiya, Qozog'iston, Belarus va Moldova Jinoyat kodekslarida ham iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish tartibiga qarshi qaratilgan jinoyatlar toifasiga kiritilgan.

Xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligida ushu qilmishni og'irlashtiruvchi holatlari belgilangan. Xususan, Rossiya, Qozog'iston, Moldova, Belarus, Ukraina Jinoyat kodekslari bo'yicha ham jinoiy yo'l bilan topilgan mulkni legallashtirish uchun deferensiyalashtirilgan javobgarlik belgilangan va muqobil jazo turlari nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 243-moddasi faqat 1 ta qismdan iborat hamda besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Bundan tashqari, har qanday miqdordagi jinoiy yo'l bilan topilgan mulkni legallashtirish uchun bir hilda javobgarlik belgilangan, ya'ni qilmishni og'irlashtiruvchi holatlar, legalizatsiya miqdori mazkur moddada belgilanmagan. Shuningdek, muqobil jazo turlari nazarda tutilmagan.

Yuqoridagilarga asosan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish bilan bog'liq xorijiy mamlakatlar qonunchiligin o'rganish va qiyosiy tahlil qilish asosida milliy qonunchilik normalarini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi JKning 243-moddasida ko'rsatilgan jinoyat sodir etilganda birinchi o'rinda respublika iqtisodiy asoslari va faoliyati bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazilishini inobatga olib, ushu jinoyatni JKning "*Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar*" deb nomlangan oltinchi bo'limidan chiqarilib, "*Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar*" deb

nomlanadigan uchinchi bo‘limiga kiritish va differensiyalashtirilgan javobgarlikni belgilovchi bir necha qismdan iborat yangi tahririni qabul qilish taklif qilinadi.

5. Yuqoridagi “kontrabanda” atamasi bilan bog‘liq hamda bojxona sohasidagi jinoyatlar haqidagi mulohazalarimiz va **ushbu jinoyatlar ko‘p ob’ektlilik xususiyatidan** kelib chiqib, Jinoyat kodeksida qo‘llaniladigan atama va tushunchalar ni ularning mazmuniga aniq ta’rif berish va yagona shaklda qo‘llash orqali takomillashtirish maqsadida tahlillar asosida JKning 246-moddasi “Kontrabanda” jinoyatini **“Jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ashyolarni kontrabanda qilish” deb nomlash va differensiyalash**, ya’ni ushbu moddadagi turli xil predmetlar nimaga tajovuz qilishini (jinoyat ob’ekti) e’tiborga olib, bir nechta normalarga ajratish va bojxona sohasidagi ayrim jinoyatlar bo‘yicha JKning moddalariga qo‘s Shimcha va o‘zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Xususan:

- Jinoyat kodeksining “Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomila qilishdan iborat jinoyatlar” nomli bobida **“Giyoxvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarini kontrabanda qilish”** deb nomlanuvchi yangi modda kiritish.

- O‘zbekiston Respublikasining “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasida ekstremistik faoliyat turlari ko‘rsatilgan bo‘lib, 11-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining hududiga ekstremistik materiallarni, ekstremistik tashkilotlarning atributlari va ramziy belgilarini olib kirish, tayyorlash, saqlash, tarqatish va namoyish etish, shuningdek ularni ommaviy axborot vositalarida yoxud telekommunikatsiya tarmoqlarida, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog‘ida tarqatish va namoyish etish ta’qilqanadi¹³². Shu bois, *amaldagi JKning tegishli moddalarida (244¹ va 244²) ko‘rsatilgan “diniy ekstremizm” so‘zini “ekstremizm” so‘zi bilan o‘zgartirish lozim.*

Yuqoridagilarga asosan, JKdagi “Ekstremizm” tushunchasini turlicha sharhlash yoki korrupsiya holatlari sodir etilishiga yo‘l qo‘yadigan yoxud ijtimoiy xavflilik darajasi va xarakteri jinoyat qonunchiligi prinsiplariga mos kelmaydigan qilmishlar uchun javobgarlik belgilanishiga yo‘l qo‘yadigan normalarni chiqarib tashlash maqsadida amalda bo‘lgan **JKning 246-moddasida** ko‘rsatilgan ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ‘ib qiluvchi materiallarni **JKning 244¹-moddasi** **tarkibiga kiritib**, nomlanishi va dispozitsiyalariga o‘zgartirishlar kiritish. Xususan, **“Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash, saqlash, olib kirish, tarqatish yoki namoyish etish”** deb o‘zgartirish kiritish;

¹³² O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 30-iyuldagagi “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-489-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/3841957>.

- Jinoyat kodeksining “Tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlar” nomli 8-bobida aks etgan JKning 156-moddasi dispozitsiyasidagi milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ‘ib qiluvchi materiallarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish uchun ham (albatta MJtKning 184³-moddasiga ham ushbu mazmundagi o‘zgartirish kiritilishi lozim) javobgarlikni belgilovchi o‘zgartirish kiritilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Albatta, yuqorida bildirilgan takliflardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 6-sentabrdagi “Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori qayta ishlab chiqilishi hamda tahlil qilingan jinoyatlarga oid boshqa Oliy sud plenumi qarorlariga ham qo‘srimcha va o‘zgartirishlar kiritish lozim bo‘ladi.

6. O‘zbekiston Respublikasi JKning **244³-moddasida** diniy mazmundagi materialarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish jinoyati uchun javobgarlikda diniy mazmundagi materiallar tushunchasini turlicha talqin qilinishini oldini olish hamda mazmuniga aniq ta’rif berish va yagona shaklda qo‘llash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 20-yanvardagi “Diniy mazmundagi materialarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish sohasidagi faoliyatni amalga oshirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 10-son qarorida berilgan “**Diniy mazmundagi materiallar**” tushunchasiga berilgan ta’rifni Jinoyat kodeksining **Atamalar huquqiy ma’nosи** bo‘limiga ham qo‘srimcha kiritib, ushbu tushunchaga izox berilishi lozim deb hisoblaymiz.

Shuningdek, Jinoyat kodeksiga sharxlarda ushbu jinoyatning motiviga g‘araz, diniy mojarolar keltirib chiqarish, jamiyatda beqarorlikni vujudga keltirish, konstitutsiyaviy tuzumni qonunga xilof ravishda ag‘darish, ko‘pincha voyaga yetmaganlar, yoshlar axlokiga salbiy ta’sir ko‘rsatish va h.k. bo‘lishi mumkinligi ko‘rsatilgan bo‘lib, bundan ushbu jinoyat predmetini go‘yoki ta’qilangan diniy adabiyotlar degan tasavvur hosil qiladi, ya’ni amaldagi JKning 246, 244¹ va 156-moddalarida ko‘rsatilgan materiallar bilan chalkashtirish mumkin. Albatta, bu kabi masalalarga mazkur turdagи jinoyatlarni ko‘rib chiqish amaliyoti bo‘yicha Oliy Sud plenumi qarori ishlab chiqilib, tushuntirishlar berilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining **130-moddasida** pornografik mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish uchun javobgarlik belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-dekabrdagi PF-5286-son farmonining 2-ilovasiga muvofiq pornografik mahsulotni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish (import) ta’qiqlangan¹³³.

1923-yil 13-sentabrdagi “Pornografik mahsulotlar aylanishi va savdosining oldini olish to‘g‘risidagi” Xalqaro konvensiyasiga (Jeneva Konvensiyasi) muvofiq pornografik mahsulotlarni sotish, tarqatish, ommaviy ko‘rgazma qilish maqsadida pornografik mahsulotlarni tayyorlash va saqlash, *olib kirish, tashish va olib chiqish* ta’qiqlangan.

Xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligidagi (Germaniya, Koreya, Rossiya, Qozog‘iston va boshqalar) ushbu mahsulotlarni *davlat chegarasidan o‘tkazish* uchun ham javobgarlik belgilangan.

Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi JKning **130-moddasining nomlanishi va dispozitsiyasi** quyidagi mazmunda o‘zgartirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi, ya’ni:

“*Pornografik mahsulotni tayyorlash, davlat chegarasidan o‘tkazish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish*”

Shuningdek, Jinoyat kodeksiga sharxlarda pornografik mahsulot, uni tarqatish, reklama qilish yoki namoyish etish *maqsadisiz* saqlangan bo‘lsa, shaxs jazoga tortilmasligi haqida ta’kidlab o‘tilgan. Lekin, shu o‘rinda *maqsadi bevosita olib kirishga taaluqlimi yoki yo‘qmi degan savol yuzaga keladi. Albatta, bu kabi masalalarga mazkur turdagи jinoyatlarni ko‘rib chiqish amaliyoti bo‘yicha Oliy Sud plenumi qarori ishlab chiqilib, tushuntirishlar berilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.*

Nazorat savollari:

1. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish masalalarini hal qilishda bojxona sohasidagi huquqbazarliklarning o‘ziga xos jihatlari haqida gapiring?
2. Kontrabanda atamasi bilan bog‘liq mulohazalar va O‘zbekiston Respublikasi JKning 182 va 246-moddalari bo‘yicha amaliyotda uchrayotgan muammolar hamda ularni jinoiy huquqiy tartibga solish borasida taklif va mulohazalariningizni bildiring.
3. O‘zbekiston Respublikasi JKning 184-moddasi bo‘yicha amaliyotda uchrayotgan muammolar va ularni jinoiy huquqiy tartibga solish borasida taklif va mulohazalariningizni bildiring.
4. Jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi va axloq normalariga qarshi jinoyatlar bo‘yicha amaliyotda uchrayotgan muammolar va ularni jinoiy huquqiy tartibga solish borasida taklif va mulohazalariningizni bildiring.

¹³³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-dekabrdagi PF-5286-son Farmoni, <https://lex.uz/docs/3460651>.

IV-BOB. BOJXONA ORGANLARINING TERGOVGA QADAR TEKSHIRUV VA SURISHTIRUV FAOLIYATI

§4.1. Tergovga qadar tekshiruv tushunchasi va mohiyati, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ sifatida bojxona organlari

Jinoyat ishini qo‘zg‘atishdan avval tergov harakatlarini o‘tkazish jinoyat protsessining muhim institutlaridan biri bo‘lib, jinoyat-protsessual qonunchilikka asoslanadi va u bilan tartibga solinadi. Shu bilan birga, jinoiy-protsessual faoliyatning har qanday jabhasida bo‘lgani kabi, uni amalga oshirishda ham qonun buzilishiga yo‘l qo‘yilishi mumkin emas. Chunki bu inson taqdiri bilan bog‘liq masala.

Tergovga qadar tekshiruv jarayoni jinoyat protsessining yetarli darajada tartibga solinmagan qismi bo‘lganligi sababli uni protsessual tartibga solinishi va qo‘llanilishi amaliyotini o‘rganish va tahlil qilishga muhtojlik mavjud. Ana shu maqsaddan kelib chiqib, qo‘llanmaning ushbu bobida bojxona sohasidagi jinoyatlar bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv o‘tkazish asoslari, protsessual tartibi, tergovga qadar tekshiruv davrida o‘tkaziladigan tergov harakatlarining turlari, asoslari va o‘tkazish tartibi yoritilgan.

Tergovga qadar tekshiruv deganda, jinoyatchilikka qarshi kurash vazifalarini bajarishga qaratilgan, Jinoyat-protsessual kodeks bilan tartibga solingan, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar tomonidan jinoyatning oldini olish yoki unga yo‘l qo‘ymaslik, dalillarni to‘plash va saqlash, jinoyat sodir etishda gumon qilinganlarni ushlash va yashiringan gumon qilinuvchilarni qidirib topish, jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy zarar qoplanishini ta’minlash uchun kechiktirib bo‘lmas tergov va boshqa barcha harakatlarni o‘tkazish faoliyatidan iborat ishni sudga qadar yuritishning alohida shakli tushuniladi¹³⁴.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-sentabrdagi “Surishtiruv instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-442-son Qonuni bilan Jinoyat protsessual kodeksga yangi 40¹-bob kiritilib, “Ishni sudga qadar yuritishning umumiyligi shartlari” deb nomlandi. Qonunchilikda ishni sudga qadar yuritish jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlar qabul qilingan paytdan boshlanishi hamda **tergovga qadar tekshiruvni** va **jinoyat ishini tergov qilishni** o‘z ichiga qamrab olishi belgilab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 320²-moddasiga ko‘ra, tergovga qadar

¹³⁴ Mirazov D.M. “Tergovga qadar tekshiruv o‘tkazish asoslari, tartibi va xususiyatlari” / O‘quv qo‘llanma Toshkent.: -2016 y.

tekshiruv jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni tekshirish, ularni ko'rib chiqish natijasi yuzasidan qaror qabul qilishga doir tadbirlarni, shuningdek ish uchun ahamiyatli bo'lishi mumkin bo'lgan jinoyat izlari, narsalar va hujjatlarni mustahkamlash va saqlashga doir choralarini o'z ichiga oladi.

Tergovga qadar tekshiruv serqirrali tushuncha bo'lib, uni amalga oshirish jarayonida jinoyat ishini qo'zg'atish, uni qo'zg'atishni rad etish masalalari hal etiladi¹³⁵. Shuningdek, tergovga qadar tekshiruv to'plangan materiallar yuzasidan jinoiy qilmish mavjudligi yoki yo'qligini aniqlashga yo'naltirilgan tergov harakatlarini amalga oshirishning huquqiy asosi bo'lib hisoblanadi. U dastlab jinoyat-protsessual institut sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni jinoyat ishi qo'zg'atilishi haqidagi masalaning yechilishi tartibini belgilovchi protsessual me'yorlar yig'indisini tashkil qiladi. Huquqiy adabiyotlarda keltirilganidek, tergovga qadar tekshiruv bosqichi jinoyat protsessining mustaqil instituti hisoblanadi va umum e'tirof etilgan. Shundan kelib chiqqan holda unga ham jinoyat protsessining barcha xususiyatlari xos degan xulosaga kelish mumkin. Ushbu bosqichning ham o'ziga xos mustaqil protsessual vazifalari mavjud. Ma'lumki, tergovga qadar tekshiruv bosqichidagi protsessual faoliyat Jinoyat-protsessual kodeksida belgilab qo'yilgan mansabdor shaxs (*tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi mansabdor shaxs, surishtiruvchi, tergovchi va prokuror*)lar tomonidan amalga oshiriladi hamda mazkur jarayon belgilangan sharoitlarda hamda maxsus protsessual shakllarda yuritiladi.

Jinoyat protsessining ushbu bosqichi kelib tushgan ariza, xabar yoki shikoyat bo'yicha to'plangan materiallar yuzasidan keyinchalik amalga oshiriladigan harakatlarning yo'nalishini belgilovchi aniq protsessual qaror bilan yakunlanadi. Jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi masalaning yechimi surishtiruv va dastlabki tergovning umumiyl vazifalarini bajarishga xizmat qiladi. O'z navbatida, bu bosqichda jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining vazifalari, ya'ni jinoyatlarni tez va to'liq ochish, jinoyat sodir etgan har bir shaxs javobgarlikka tortilishi va unga nisbatan sudning odilona hukmi chiqarilishi uchun aybdorlarni fosh etish hamda qonunning to'g'ri tatbiq etilishini ta'minlash va amalga oshirilishini alohida ta'kidlash kerak.

Shuningdek, tergovga qadar tekshiruv bosqichi protsessual qaror qabul qilish, tegishli hujjatlarni ko'rib chiqish, ba'zi paytlarda esa jinoyat haqidagi dastlabki materiallarda keltirilgan sababning qonuniyligi va jinoyat ishini qo'zg'atish uchun asoslarning yetarlilagini aniqlash maqsadida zarur va yetarli xabarlar bilan to'ldirilishi kabi aniq protsessual vazifalarga ega.

Bu bosqichda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi mansabdor

¹³⁵ Yuridik ensiklopediya / Yuridik fanlar doktori, professor U.Tadjixanovning umumiyl tahririda. – T., 2001. –156-157 b.

shaxs, surishtiruv va tergov organlari, prokuror ish yurituvidagi jinoyat ishlari bo'yicha ishni boshlash uchun qonunda belgilagan shartlar mavjudligini tekshiradi hamda jinoyatning oldini olish, sodir etilishini to'xtatish, shuningdek uning izlarini belgilangan protsessual shaklda saqlash va mustahkamlashning tezkor choralarini qabul qiladi.

Tergovga qadar tekshiruv bosqichining mohiyati prokuror, tergovchi, surishtiruvchi yoki tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning jinoyat alomatlari (*tarkibi*)ni aniqlaganda tegishli jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi protsessual qarorni qabul qilishi bilan bog'liq protsessual ish jarayonidan iboratdir.

Jinoyat alomatlari yetarli bo'lмаганда yoki jinoyat tarkibi aniqlanmaganda jinoyat ishini qo'zg'atish rad qilinadi. Ushbu bosqichning mohiyati huquqni muhofaza qiluvchi organlar tushgan ariza va xabarlar yuzasidan tegishli protsessual qarorni qabul qilgunlariga qadar, u bo'yicha ko'rib chiqiladigan protsessual masalalarni hal etish bilan bog'liq faoliyat bo'lib, bularga quyidagi hal etiladigan masalalar tegishli:

- tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan jinoyatlar haqidagi xabar jinoyat ishini qo'zg'atishga sabab bo'ladimi;

- jinoyat, uning belgilari haqidagi xabarlardan olingan ma'lumotlar dalillarga asoslanganmi;

- mazkur jinoyat O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining qaysi moddasiga tegishli;

- olingan ma'lumotlar dalillarga asoslanganmi;

- jinoyat sodir etilgan joyni ko'zdan kechirish kerakmi;

- dastlabki tekshiruv zarurati bormi, bo'lsa qanday tekshiruv ishlari (harakatlari)ni o'tkazish kerak;

- organ yoki mansabdor shaxs jinoyat ishini qo'zg'atish masalasini yechish huquqiga egami yoki uni tergovga tegishligiga qarab yuborish kerakmi;

- jinoyat ishini qo'zg'atishga qarshilik qiladigan holatlar mavjudmi;

- jinoyat ishi materiallarida ma'muriy, intizomiy choralar qo'llash bilan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish asoslari yo'qmi;

- jinoyat ishini qo'zg'atishda surishtiruv va dastlabki tergovni kim olib borish kerak;

- arz qiluvchi va xususiy ayblov tomonidan jinoyat ishi qo'zg'atish iltimosi, shikoyati berilganda, yarashtirish uchun suda tomonidan qanday choralar ko'riliши mumkin;

- jinoyatning oldini olish va to'xtatish, jinoyat izlarini mustahkamlash va saqlash uchun qanday choralar ko'riliши kerak.

Ushbu masalalarning ko'riliши munosabati bilan, jinoyat ishini qo'zg'atish

yoki uni qo‘zg‘atishni rad qilish haqidagi qaror chiqarishga qadar, quyidagi bir qator protsessual hujjatlar tuzilishi kerak, jumladan:

- arz qiluvchi imzosi qo‘yilgan, bila turib yolg‘on xabar berganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi to‘g‘risida ogohlantirish mavjud ariza (*agar ariza og‘zaki ravishda olinsa, tegishli bayonnomha ham*);
- aybiga iqror bo‘lish haqidagi ariza bayonnomasi;
- muassasa, korxona va tashkilotlarga yuboriladigan so‘rovnomalar;
- fuqarolardan olinadigan tushuntirishlar;
- tezkor-qidiruv choralarini ko‘rish zarurati haqida surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorning tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organga hamkorlik asoslarida (JPK, 347-modda) bergen protsessual topshirig‘i;
- tegishli ekspertizalarni yoki taftish tayinlash to‘g‘risida qaror;
- materiallarni tergovga va sudga tegishligiga qarab yuborish to‘g‘risida qaror.
- jinoyat sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish bayonnomasi.

Shunday qilib, tergovga qadar tekshiruv bosqichida ayrim jinoyat protsessual harakatlar, qator protsessual hujjatlar rasmiylashtiriladi va jinoyat haqida arz qilgan shaxs (*fuqarolar, korxonalar, muassasalar, tashkilot*)lar surishtiruv yoki dastlabki tergovni amalga oshiruvchi surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror, shuningdek jamoatchilik vakillari kabi jinoyat ishini yuritishda ishtirot etuvchi protsess qatnashchilarining vujudga kelishi ham mazkur jinoyat-protcessual munosabatlar jarayonida paydo bo‘ladi.

Shuning uchun ham tergovga qadar tekshiruv bosqichining ahamiyati juda muhim bo‘lib, qonuniy asoslarda qo‘zg‘atilgan har bir jinoyat ishi surishtiruv va dastlabki tergovning to‘liqligini ta’minlaydi hamda tergovda inson huquq va erkinliklarining qonuniy kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Tergovga qadar tekshiruv bosqichida jinoyat ishini qo‘zg‘atish haqidagi qarorni qabul qilgandan keyin, surishtiruvchi va tergovchi qo‘zg‘atilgan va yurituvida bo‘lgan jinoyat ishi bo‘yicha haqiqatni aniqlash va tergovning to‘liqligini ta’minalash yuzasidan ayblanuvchilar bilan protsessual tartib va qoidalar doirasida ularni so‘roq qilishi, tintuv qilishi, olib qo‘yishi va boshqa tergov harakatlarini amalga oshirishi mumkin bo‘ladi.

Jinoyat ishi qo‘zg‘atilmasdan surishtiruv yoki dastlabki tergov jarayoni ham, sud muhokamasi ham bo‘lishi mumkin emas. Undan tashqari, tergovga qadar tekshiruv bosqichida jinoyatni tergov qilish, ba’zida esa muhim protsessual ahamiyatga ega tergovga tegishlilik shaxsiy belgisi ham alohida o‘ringa ega.

Shuningdek, jinoyat ishini qo‘zg‘atish muhim jinoyat-protcessual ahamiyatga ega bo‘lib, jinoyat ishini qo‘zg‘atish haqidagi protsessual hujjatning o‘zi qanday jinoyat sodir etilgan va tergov qilinishi lozimligini belgilaydi va

tergovning dastlabki bosqichlarida ishga yo‘nalish beradi hamda shu vaqtning o‘zida qo‘zg‘atilgan jinoyat ishining tergovga tegishligini aniqlaydi.

Jinoyat ishini qo‘zg‘atish ijtimoiy ahamiyatga ega. Chunki, jinoyat ishini qo‘zg‘atish haqidagi qaror prokuror, tergovchi, surishtiruvchi va tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi mansabdor shaxs tomonidan qabul qilinadi hamda aholida jinoyatchilik bilan kurashish haqida ushbu organlar faoliyatida qonuniylikni ta’minalash yuzasidan tegishlicha tasavvurlar paydo bo‘lishi ular amalga oshirayotgan jinoyat ishlarining sifatiga bog‘liq bo‘ladi.

Asoslangan va qonuniy asoslarda jinoyat ishini qo‘zg‘atish jinoyatchilik bilan samarali kurashishga yordam beradi, davlat manfaatlarini jinoiy tajovuzdan (*shuningdek, fuqarolar, tashkilotlar, uyushmalarning qonuniy manfaatlarini*) himoya qiladigan jiddiy vosita rolini ham bajaradi.

Jinoyat haqidagi arizaga (*xabarga*) ko‘ra, o‘z vaqtida qabul qilingan qaror jinoyat ishini qo‘zg‘atish masalasi qonuniy asoslarda hal etilishiga tomon qo‘yilgan muhim protsessual talablardan biridir. Ushbu talabga rioya qilish jinoyat ishini tergov qilishning samaradorligini oshiradi va sud muhokamasi jarayonida ayblanayotgan shaxsning aybini odil vaadolatli ko‘rib chiqilishiga kafolat beradi. Jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichida (*har bitta jinoyat ishi qo‘zg‘atish haqidagi qarorda*) qonuniylik talablariga rioya etilishi ushbu qarorning asosli, qonuniy va protsessual jihatdan to‘g‘riligini ta’minalaydi.

Jinoyat ishini qo‘zg‘atishda yo‘l qo‘yilgan har bir xato fuqarolarni asossiz ravishda hibsga olish, aybi yo‘q fuqaroni jinoiy javobgarlikka tortilishiga hamda jinoyat sodir etgan shaxsning javobgarliksiz va jazosiz qolishiga olib keladi (*shuningdek, bu holatlarda inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari bevosita g‘ayriqonuniy ravishda poymol etiladi*). Qolaversa, protsessual jihatdan tergovning noqonuniyligiga sabab bo‘ladi.

Huquqni muhofaza qiluvchi idoralar faoliyatida ana shunday qonunsizlik faktlari jamiyat uchun ikki hissa xavflidir: ular muayyan shaxsga bevosita zo‘rlik yo‘li bilan yoki unga qonun bo‘yicha talab etilgan yordamni ko‘rsatmaslik yo‘li bilan zarar yetkazishdan tashqari, fuqarolarda huquqiy nigelizm, tanlangan demokratiya yo‘li, huquqiy davlat qadriyatlariga nisbatan beparvolik kayfiyatini tug‘diradi. Bunday qilmishlar davlatda qonuniylik tizimiga nisbatan ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Odamlar qonun kuchiga, hokimiyatning vakolatliligiga, nihoyat, o‘zining jinoiy tajovuzlardan himoya qilinishiga, huquq va erkinliklarining himoya qilinishi faqat qog‘ozda emas, balki amalda borligiga ishonmay qo‘yadilar. Hatto jinoyatchiga nisbatan ham huquqiy normalarning buzilishi – bu nafaqat uning huquqlarini, ayni paytda qonun bilan idora qilinadigan davlatda har bir fuqaroning

hayotga bo‘lgan huquqini poymol qilishdir¹³⁶.

Tergovga qadar tekshiruv jarayonida jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi mansabdor shaxs, surishtiruvchi va tergovchi tomonidan qabul qilingan protsessual qarorning asoslanganligi tushunchasining mohiyati quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

1) uni chiqarish uchun zarur holatlarni to‘la va yetarli darajada belgilash;

2) mavjud ma’lumotlarning ishonchliligi yordamida tegishli holatlarni belgilash (*hal etish*). Mavjud ma’lumotlarning ishonchliligi ularning qonunda ko‘rsatilgan manbalardan olinishi, ularni yig‘ish va qayd etishda protsessual tartibga, dalillar mustahkamlanishiga rioya qilinishi bilan kafolatlanadi;

3) protsessual qaror va undagi xulosalar mavjud aniq ma’lumotlardan kelib chiqishini belgilash.

Jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risida chiqarilgan protsessual qaror yuqoridaq ma’lumotlarga muvofiq bo‘lsagina qonuniy va asoslangan hisoblanadi. Jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi masalaning qonuniy va asoslangan yechimigina, jinoyat protsessining ushbu bosqichi bajaradigan protsessual masalalar va vazifalari yechimini ta’minkaydi.

Shu o‘rinda, jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etish amaliyotiga murojaat etsak, ushbu talab nazariy-huquqiy amaliyotga o‘tadi. Buni hisobga olish kerak, chunki bu jinoyat jarayonidagi shaxslarning qonuniy manfaatlari va huquqlari bilan bevosita bog‘liq.

Tergovga qadar tekshiruv bosqichida qonuniylikni ta’minalash masalalarining yana bir muhim jihat, amaliyotda jinoyat ishlarini tegishli sub’ektlar tomonidan qo‘zg‘atilishidir. Davlat jinoyat ishi qo‘zg‘atish vakolatini JPKda keltirilgan tegishli vakolatga ega bo‘lgan ma’lum rasmiy organlar va mansabdor shaxslarning tor doirasiga topshiradi, ya’ni qonuniy sabab va yetarli asos bo‘lgan barcha hollarda jinoyat ishini qo‘zg‘atish majburiyati va protsessual vakolati tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi mansabdor shaxs, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror zimmasiga yuklanadi. Protsessual qonun tomonidan ko‘zda tutilgan hollarda muayyan organlarga jinoyat ishi qo‘zg‘atish huquqiy majburiyatining yuklanishi jinoyat ishini qo‘zg‘atishning muqarrarligi prinsipining yaqqol ko‘rinishi hisoblanadi. Bu prinsip davlat, fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini jinoiy tajovuzdan samarali himoya qilishga qaratilgandir.

Muayyan davlat organlari va mansabdor shaxslarining ariza va jinoyat haqidagi xabarlariga oid tegishli qonuniy asoslangan qarorni qabul qilish majburiyati ichki ishonchga ko‘ra, protsessual qaror qabul qiluvchi shaxslarning qonun tomonidan belgilab qo‘yilgan protsessual mustaqilligi bilan uzviy bog‘liq.

¹³⁶ Sattorov A. Ichki ishlar organlari faoliyatida qonuniylikni ta’minalash muammolari // Huquq – Pravo – Law. – 2000. – № 2 (10). – 57-59 b.

Ushbu ishonch esa jinoyat ishini qo‘zg‘atish masalasini hal etish yuzasidan to‘plangan dastlabki materiallarda mavjud faktik ma’lumotlarni har tomonlama, to‘liq va ob’ektiv ravishda (*qonuniy asoslarda*) ko‘rib chiqilishidadir.

Jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi masalaning yechimi bo‘yicha tegishli idora protsessual vakolatlarining hajmi har bir bunday vakolatga ega bo‘lgan idora oldida turgan vazifa va masalalar xarakteriga bog‘liq bo‘ladi.

Jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi masalani yechish vakolatlariga ega idoralarning aniq protsessual vakolatlari farqiga ko‘ra, qonun kelib tushgan ariza yoki jinoyat haqidagi xabar bo‘yicha quyidagi qarorlardan birini qabul qilinishi lozimligini belgilaydi (JPK, 330-modda), jumladan:

- 1) jinoyat ishini qo‘zg‘atish haqida;
- 2) ishni qo‘zg‘atishni rad qilish haqida;
- 3) ariza yoki xabarni tergovga tegishligiga qarab yuborish haqida.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, tergovga qadar tekshiruv instituti jinoyatlarni tergov qilishning alohida protsessual harakatlari turiga kiritilishi lozim. Chunki u dastlabki bosqich bo‘lib, o‘z ichiga tergovoldi tekshiruvlarni o‘tkazishdek juda murakkab va mas’uliyatlari vazifalarni oladi. Bu esa alohida ishlab chiqarish bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq tergov va notergov protsessual faoliyatları o‘zaro bir-biri bilan tutashib ketgan.

Shuning uchun yurituvdagagi jinoyat ishlarining taqdiri o‘z mohiyatiga ko‘ra boshqa protsessual harakatlarga nisbatan mazkur tergovga qadar tekshiruv bosqichiga ko‘proq bog‘liq hamda tergovga qadar tekshiruv bosqichi tergovda amalga oshiriladigan boshqa protsessual harakatlardan yuqoridagi xususiyatlari bilan tubdan farq qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida»gi 1997-yil 8-iyuldagagi PF-1815-sonli Farmoni¹³⁷ bilan Davlat bojxona qo‘mitasi qayta tashkil etildi va mzkur Farmonga muvofiq bojxona organlariga huquqni muhofaza qilish organi maqomi berildi. Shuningdek, ushbu maqom 2018-yil 18-oktabrdagi O‘zbekiston Respublikasi “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ-502-son Qonuni 6-moddasida ham mustahkamlandi¹³⁸.

O‘zbekiston Respublikasi “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi qonunda ko‘rsatilgan bojxona organlarining o‘z faoliyatidagi asosiy yo‘nalishlari, huquqlari va majburiyatları huquqni muhofaza qilish sohasidagi vakolat doirasini aniqlab beradi. Bojxona organlari o‘z faoliyati doirasida huquqni muhofaza qilish

¹³⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 8-iyuldagagi PF-1815-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/217401>.

¹³⁸ O‘zbekiston Respublikasining “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ-502-son Qonuni, <https://lex.uz/docs/4000640>.

funksiyasini amalga oshirib kelar ekan, boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarga nisbatan spesifik harakterga ega davlat organi hisoblanadi. Ya’ni, bojxona organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyatini amalga oshirish doirasi asosan bojxona chegarasi orqali tovar va transport vositalarini olib o’tilishi hamda tashqi iqtisodiy faoliyat amalga oshirilishi bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu sohada fuqarolarning, jamiyatning hamda davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlarni himoya qilish, shuningdek, o‘z vazifalarining bajarilishini ta’minlashiga, xavfsizlik, qonuniylik va tartibotni ta’minlashga, huquqbazarliklarni aniqlash va oldini olishga va jinoyatchilikka qarshi kurashda maxsus bilimlar talab etiladi.

Bojxona organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyati iqtisodiy xavfsizlikni qo‘riqlash, muhofaza qilish va O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy suverenitetiga, bojxona hududining yaxlitligiga, iqtisodiy manfaatlar, inson hayoti va sog‘lig‘i, hayvonot va o‘simglik dunyosiga, atrof-muhit muhofazasiga, bajarilishini nazorat qilish bojxona organlariga yuklatilgan bojxona sohasidagi va boshqa qonunlarga rioya etilishiga, kontrabanda va boshqa huquqbazarliklarga qarshi kurashga yo‘naltirilgan.

Jinoyat-protsessual qonunchilik talablariga ko‘ra, bojxona organlari bojxona sohasidagi jinoyatlar bo‘yicha tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirishga vakolatli hisoblanadi¹³⁹. Bojxona organlarining tergovga qadar tekshiruv o‘tkazishdagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

fuqarolarning huquq va erkinliklarini, davlat va jamoat tartibini, ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta’minlash;

jinoyatga oid ariza, xabarlar va boshqa ma’lumotlarni o‘z vaqtida ro‘yxatga olish;

ularni xolisona ko‘rib chiqish, natijalari bo‘yicha qonunda belgilangan muddatda qonuniy qaror qabul qilish;

jinoyatlarni hisobdan yashirish holatlarini oldini olish;

fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalash.

Bojxona organlari zimmasiga zarur choralar ko‘rish vazifasi, shu jumladan jinoyat alomatlarini va jinoyat sodir etgan shaxslarni topish, JPK qoidalariga muvofiq tekshirib chiqilganidan so‘ng jinoyat ishi yuzasidan dalil tariqasida foydalanish mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni aniqlash maqsadida ilmiy-texnika vositalaridan foydalangan holda, zarur choralar ko‘rish vazifasi yuklatiladi. Shu maqsadda bojxona organlari tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazishga haqli. Tezkor-qidiruv faoliyatini o‘tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi.

¹³⁹ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi, 39¹-modda, <https://lex.uz/docs/111460>.

JPKning 39²-moddasi talablaridan kelib chiqib, bojxona organlarining boshliqlari, xususan, Davlat bojxona qo‘mitasi va uning hududiy boshqarmalari, barcha turdagи bojxona postlarining boshliqlari va ularning o‘rinbosarlari tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning boshlig‘i sifatida harakat qila oladilar. Shu asosda ular tergovga qadar tekshiruvni boshlashga yoki o‘ziga bo‘ysunuvchi boshqa mansabdor shaxsga uni yuritishni topshirishga, jinoyat ishini qo‘zg‘atishga yoki ish qo‘zg‘atishni rad etishga yoxud arizani, habarni, shu jumladan aniqlangan jinoyat alomati bo‘lgan, huquqbazarlik alomatlari bor holatlar bo‘yicha to‘plangan materiallarni tergovga tegishliligiga ko‘ra o‘tkazishga haqli hisoblanadilar.

Bojxona organlarida mansabdor shaxslar tomonidan tergovga qadar tekshiruv JPK va boshqa normativ-huquqiy hujjalarda belgilangan qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi. Surishtiruvchi tergovga qadar tekshiruvni JPK qoidalariiga muvofiq o‘tkazadi.

Mansabdor shaxslarga bojxona organlariga taalluqli bo‘lmanan jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlar bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv o‘tkazishni topshirish ta’qilanganadi.

Mansabdor shaxs tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotganda, xuddi shuningdek prokurorning, tergovchining, surishtiruvchi va sudning topshirig‘ini bajarayotganda, JPKda belgilangan qoidalarga amal qilgan holda protsessual harakatlarni amalga oshiradi va qarorlar qabul qiladi. Mansabdor shaxsning qarorlari bojxona organi boshlig‘i tomonidan tasdiqlanishi lozim.

Nazorat savollari:

1. Tergovga qadar tekshiruv tushunchasi va mohiyati haqida gapiring?
2. Bojxona organlarining tergovga qadar tekshiruv faoliyatining huquqiy asoslari?
3. Bojxona organlarining tergovga qadar tekshiruv o‘tkazishdagi asosiy vazifalari?
4. Tergovga qadar tekshiruv bosqichida hal etildigan masalalar haqida gapirib bering.

§4.2. Bojxona organlarida jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni qabul qilish va ro'yxatdan o'tkazish tartibi, tergovga qadar tekshiruv o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari

Tergovga qadar tekshiruv jinoyat protsessining ilk bosqichi bo'lganligi sababli, unda ish yurituvini boshlash asoslari mavjudligi tekshirilishi barchaga ayon. Lekin ushbu tekshiruv qonun tomonidan belgilangan chegaralarda va me'yorlar doirasida amalga oshirilishi shart. Jinoyat protsessual qonunchilikda tergovga qadar tekshiruv o'tkazishning huquqiy asoslari aniq belgilangan.

Amaliyotda bojxona sohasidagi jinoyatlar davlat bojxona xizmati organlarining turli tuzilmalari xodimlari tomonidan aniqlanishi mumkin. Shunga ko'ra bojxona xodimi jinoyat aniqlangan holatda qanday harakat qilishi lozimligini, qanday protsessual harakatlar o'tkazib ular bo'yicha protsessual hujjatlar tuzishi kerakligini bilishi darkor.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining 2018-yil 4-apreldagi 455-sod buyrug'i bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlarida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi Yo'riqnomalar» talablariga asosan bojxona organlari tomonidan aniqlangan yoki kelib tushgan barcha huquqbazarliklar dastlab Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalari va "Toshkent-AERO" ixtisoslashtirilgan bojxona kompleksi navbatchilik qismidagi "Aniqlangan huquqbazarliklarni qayd qilish" Shakl-2 kitobga qayd qilinadi.

Agar huquqbazarlikni ko'rib chiqish va murojaatni tekshirish jarayonida JPKning 330-moddasida nazarda tutilgan qarorlardan birini qabul qilish lozim bo'lganda, darhol tegishli xodim Yo'riqnomaning 1-ilovasiga muvofiq shakldagi bildirgi orqali hujjatlarni ilova qilgan holda bojxona organlarida yuritiladigan "Jinoyatlar haqidagi ariza va xabarlarni ro'yxatga olish (Shakl-1) kitobi" dan ro'yxatdan o'tkazish masalasini hal qilish uchun bojxona organi boshlig'iga taqdim etadi.

Bojxona organi boshlig'i bildirgi va unga ilova qilingan hujjatlarni qisqa muddatda ko'rib chiqib, kitobdan ro'yxatga olish haqida ko'rsatma beradi va bir vaqtning o'zida shaxsan o'zi tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirishga kirishadi yoki surishtiruvchi yoxud mansabdor shaxsni o'zining ustxati bilan yozma ravishda belgilaydi.

Kelib tushgan yoki qabul qilingan jinoyatga oid ariza va xabarda zudlik bilan tekshirishni talab qiladigan yoki tayyorlanayotgan tinchlik va xavfsizlikka, jamoat xavfsizligiga tahdid qiluvchi ma'lumotlar mavjud bo'lganda, bu haqda darhol bojxona organi boshlig'iga xabar beriladi.

Bojxona organi boshlig‘i zudlik bilan bu toifadagi jinoyatga oid ariza va xabar yuzasidan tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda tergovga qadar tekshiruv o‘tkazishni tashkillashtirish choralarini ko‘radi.

Jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma’lumotlarni o‘z vaqtida kitobga ro‘yxatga olinishi va tergovga qadar tekshiruv harakatlarini amalga oshiruvchi surishtiruvchi yoki mansabdor shaxsga topshirilishi uchun bojxona organi boshlig‘i mas’ul hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 329-moddasiga asosan, Jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlar ruyxatga olinishi va darhol, jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun asoslar yetarli ekanligini tekshirish zarurati bo‘lgan taqdirda esa, o‘n sutkadan kechiktirmasdan hal qilinishi lozim. Ushbu muddat jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlar olingan paytdan boshlab hamda to ishni qo‘zg‘atish yoki qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risida qaror qabul qilingunga qadar yoxud tergovga qadar tekshiruv materiallari JPKning 587-moddasiga muvofiq prokurorga yuborilguniga qadar bo‘lgan vaqtini o‘z ichiga oladi.

Ushbu muddat ichida tergovga qadar tekshiruv o‘tkazilib, uning davomida qo‘shimcha hujjatlar, tushuntirishlar talab qilib olish, shuningdek shaxsni ushlab turish, JPKning 162-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq shaxsiy tintuv va olib qo‘yish, hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish, ekspertiza o‘tkazish, taftish tayinlash, tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish haqida topshiriqlar berish mumkin. Tergovga qadar tekshiruv vaqtida boshqa tergov harakatlarini o‘tkazish man qilinadi.

Alovida hollarda, tergovga qadar tekshiruv muddati JPKda ko‘rsatilgan asos va tartibda uzaytirilishi mumkin. Bunday holatda mansabdor shaxsning bojxona organi boshlig‘i tomonidan tasdiqlangan asoslantirilgan qarori va to‘plangan hujjatlar muddat tugashidan kamida o‘n ikki soat oldin nazorat qiluvchi prokurorga taqdim etiladi.

JPKning 22-moddasiga muvofiq, tergovga qadar tekshiruvni amalgalama oshiruvchi mansabdor shaxs yoki surishtiruvchi jinoyat yuz berganligini, uning sodir etilishida kim aybdorligini, shuningdek u bilan bog‘liq barcha holatlarni aniqlaydi. Ish bo‘yicha haqiqatni aniqlash uchun faqat JPKda nazarda tutilgan tartibda topilgan, tekshirilgan va baholangan ma’lumotlardan foydalanadi hamda isbotlanishi lozim bo‘lgan barcha holatlarni sinchkovlik bilan, har tomonlama, to‘la va xolisona tekshirib chiqib, JPKning 330-moddasida nazarda tutilgan qarorlardan birini qabul qiladi.

Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyati aniqlangan taqdirda, holatni aniqlagan xodim dastavval vaziyatga baho berishi, jinoyat sodir etilishini to‘xtatishi, huquqbuzar qochib ketishining oldini olish choralarini ko‘rishi va amaldagi qonunchilikda belgilangan boshqa chora-tadbirlarni bajarishi lozim.

Jumladan, bojxona nazorati yoki bojxona rasmiylashtiruvi natijasida aniqlangan huquqbazarlik holati bo'yicha bojxona xodimi bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini belgilangan tartibda amalga oshirishi hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hujjatlarni rasmiylashtirishi lozim. Bojxona nazorati va rasmiylashtiruvi jarayonida tuziladigan hujjatlar ish bo'yicha huquqbazarlik sodir etilganligi haqida dalolat beruvchi hujjatlar sifatida dalil tariqasida foydalanilishi mumkin.

Shuningdek, bojxona xodimi sodir etilgan bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyati yuzasidan:

hodisa sodir bo'lган joyni ko'zdan kechirishi;

jinoyat sodir etilish quroli yoki predmeti bo'lган ashylarni qidirib topishi, ko'zdan kechirishi va qonun hujjatlariga asoslangan holda olib qo'yishi;

huquqbazarlik sodir etgan shaxsdan tushuntirishlar olishi;

ishga aloqador shaxslardan yoki holat bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishi mumkin shaxslardan tushuntirishlar olishi;

lozim bo'lganda gumon qilingan shaxslarni belgilangan tartibda ushlab turishi;

ekspertiza tayinlashi;

boshqa zaruriy protsessual harakatlarni amalga oshirishi shart.

Bojxona organlari xodimlari tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi bojxona organining mansabdor shaxsi sifatida jinoyat-protcessual qonunchilik hamda Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan ichki idoraviy xujjatlarda ko'rsatilan tartibda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirishi lozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protcessual kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrdagi "Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5268-sonli Farmoniga¹⁴⁰ muvofiq O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Oliy sudi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Davlat bojxona va soliq qo'mitalari o'rtasida 2018-yil 1-mart kuni "Hodisa sodir bo'lган joy holatini o'zgartirish, dalillarni yo'qotish yoki yo'q qilishning oldini olishga qaratilgan birinchi navbatdagi chora-tadbirlarni ko'rish tartibi to'g'risidagi Yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi Qarori imzolangan bo'lib, ushbu qaror hodisa sodir bo'lган joy holatini o'zgartirish, dalillarni yo'qotish yoki yo'q qilishning oldini olishga qaratilgan birinchi navbatdagi chora-tadbirlarni ko'rish tartibini belgilaydi.

Bojxona organining topshirig'iga binoan va uning rahbarligida ishlayotgan

¹⁴⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrdagi PF-5268-sonli Farmoni, <https://www.lex.uz/docs/3432426>.

vakolatli bojxona xodimi bojxona sohasida sodir etiladigan jinoyatlarni oldini olish yoki ularni sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaslik, aniqlangan huquqbuzarlik holatlari yuzasidan dalillarni to‘plash va saqlash, jinoyat sodir etishda gumon qilinganlarni ushslash va yashiringan gumon qilinuvchilarni topish hamda sodir etilgan jinoyat tufayli mulkiy zararni o‘rnini qoplashni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan, kechiktirib bo‘lmaydigan barcha harakatlarni amalga oshirishi shart bo‘ladi.

Bojxona xodimi jinoyat haqidagi habar yoki ma’lumot, shuningdek to‘plangan ish materiallari yuzasidan tergovga qadar tekshiruv jarayonida JPKning 135-moddasi tartibida hodisa sodir bo‘lgan joyi, xujjatlarni ko‘zdan kechirish tergov harakatini amalga oshirish mumkin. Bunda bojxona nazorati shakllari bilan tergovga qadar tekshiruv jarayonida bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan tergov harakatlarini o‘zaro farqlash muhim ahamiyatga ega.

Jumladan, bojxona ko‘rigi va ko‘zdan kechirish tergov harakatining farqi, “bojxona ko‘rigi qo‘yilgan plombalarni, muhrlarni yoki bojxona identifikatsiyalashining boshqa vositalarini buzgan holda, tekshirilayotgan ob’ektlarni va ularning qismlarini bo‘laklarga ajratib, demontaj qilib yoki boshqa yo‘llar bilan ularning butligini buzib, tovarlarning o‘ramini yoki transport vositasining yuk joylanadigan bo‘limini yoxud idishlarini, konteynerlarni va tovarlar bo‘lgan yoki bo‘lishi ehtimoli bo‘lgan boshqa joylarni ochishni nazarda tutadi”¹⁴¹.

Ko‘zdan kechirish esa tergov harakati sifatida jinoyat haqidagi xabar yoki ma’lumotlar yuzasidan, shuningdek bojxona organlari tomonidan aniqlangan huquqbuzarlik holatlari bo‘yicha to‘plangan birlamchi ish xujjatlari materiallari asosida olib boriladi.

Bundan tashqari odam badanini ko‘zdan kechirish va shaxsiy tintuv tergov harakatlari bilan bojxona nazorati shakli bo‘lgan shaxsiy ko‘rikni o‘zaro farqlash lozim bo‘ladi. Chunki odam badanini ko‘zdan kechirish guvohlantirish yoki ekspertiza o‘tkazish qoidalariga asoslangan holda amalga oshiriladi.

Shaxsiy ko‘rik esa Bojxona kodeksining 196-moddasi tartibida bojxona chegarasi orqali o‘tayotgan va bojxona nazorati zonasida yoki aeroportning xalqaro yo‘nalishlar uchun ochiq bo‘lgan tranzit zonasida bo‘lgan jismoniy shaxsga nisbatan o‘tkaziladi. Shaxsiy ko‘rik bojxona hududiga olib kirish yoki ushbu hududdan olib chiqish ta’qilangan tovarlarni yoxud ushbu Kodeksda belgilangan tartibni buzgan holda olib o‘tilayotgan tovarlarni jismoniy shaxs yonida yashirmoqda va ularni o‘z ixtiyori bilan taqdim etmoqchi emas, deb taxmin qilishga asoslar bo‘lgan taqdirda bojxona organining mansabdor shaxsi tomonidan amalga oshiriladi. Shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish haqidagi qaror bojxona organining

¹⁴¹ O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi, 195-modda, <https://www.lex.uz/docs/2876354>.

boshlig‘i yoki uning o‘rnini bosuvchi shaxs tomonidan yozma shaklda qabul qilinadi.

Bojxona organi xodimlari ushlab qolingga tovarlar turiga qarab, ularning turi, inson hayoti va sog‘lig‘iga hamda davlat va jamiyat manfaatlari uchun ziyonini aniqlash, iste’molga yaroqli yoki yaroqsiz ekanligi, tovar bahosini belgilash yo‘nalishlarida ekspertiza tayinlash to‘g‘risida, shu bilan birga tergovga qadar tekshiruv jarayonida muayyan yuridik shaxs faoliyatiga daxldor bo‘lgan holatlar yuzasidan taftish tayinlash to‘g‘risida qarorlar chiqarishlari mumkin.

Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyati ashylari, jinoyat qurollari, boshqa predmet va mol-mulkarni olib qo‘yish, saqlash va boshqacha tarzda tasarruf etish JPK, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010-yil 29-dekabr kuni 2174-sun bilan ro‘yxatga olingan qarorga muvofiq tasdiqlangan “Surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi davomida ashayoviy dalillar, moddiy qimmatliklar va boshqa mol-mulkni olib qo‘yish (qabul qilish), hisobga olish, saqlash, berish, sotish, qaytarish, yo‘q qilib tashlash tartibi to‘g‘risida” Yo‘riqnomalar¹⁴², O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 15-iyuldagagi 200-sun qarori bilan tasdiqlangan “Davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulkni olib qo‘yish, sotish yoki yo‘q qilib tashlash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom¹⁴³ va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish holatini aniqlagan bojxona xodimining dastlabki xatti-harakatlari, huquqbuzarni qo‘lga olish, huquqbuzarlik ashylarini olib qo‘yish va aniqlangan holatni protsessual to‘g‘ri rasmiylashtirishga qaratilishi lozim.

Bunda, ashayoviy dalil sifatida olingan narsa va hujjatlarni, aniqlangan xufyona joylarni, shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazilayotgan shaxsning his-tuyg‘ularini, u tomondan qilinishi mumkin bo‘lgan haqoratlar, do‘q-po‘pisalar, jismoniy ta’sir choralar, pora berishga harakat qilish, narsalarni boshqa usullardan foydalangan holda olib o‘tishga urinishlarni qayd etish maqsadida texnik vositalarning (foto-video tasvirga tushirish, ovoz yozish va h.k.) qo‘llanilishi haqiqatni aniqlashga va bojxona xodimlarini turli bo‘xtonlardan himoya qilishga katta yordam beradi.

Jinoyat ustida qo‘lga tushgan hamda juda ko‘p miqdordagi narsalaridan mahrum bo‘lishini bilgan shaxs kuchli ruhiy hayajonlanish holatida bo‘lib, to‘satdan keskin harakatlarni amalga oshirishi mumkin bo‘ladi.

Shunga ko‘ra, bojxona xodimlari shaxsiy xavfsizlik hamda boshqa ishtirokchilarining xavfsizligini ta’minlash maqsadida g‘oyat ehtiyyotkorlik bilan

¹⁴² O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010-yil 29-dekabr kuni 2174-sun bilan ro‘yxatga olingan Yo‘riqnomalar, <https://lex.uz/docs/1724291>.

¹⁴³ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 15-iyuldagagi 200-sun qarori, <https://lex.uz/docs/1498826>.

harakat qilib, bunday holatlarga doimo tayyor bo‘lishlari talab etiladi.

Shu bilan birgalikda, huquqbuzarlarning o‘q otar qurollar va qurol sifatida foydalanishi mumkin bo‘lgan boshqa xavfli buyumlar (pichoq, otverka, shisha va boshqalar)dan foydalanib, bojxona xodimlari hamda boshqa ishtirokchilarning sog‘lig‘i va hayotiga xavf solishi mumkinligini inobatga olgan holda, huquqbuzarning yonida yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan qurollar bor yoki yo‘qligini tekshirib ko‘rish hamda huquqbuzarlar bilan yuzma-yuz muloqot va so‘roqlar o‘tkazilayotgan joylarda o‘tkir kesuvchi va boshqa jarohat yetkazishi mumkin bo‘lgan buyumlarni olib qo‘yish chorasini ko‘rishlari shart.

Juda ko‘p miqdordagi narsalarni olib o‘tishda gumon qilinuvchi shaxs yoki bir guruh shaxslarning jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanishiga barham berish, qochib ketishining, dalillarni yashirishi yoki yo‘q qilib yuborishining oldini olish maqsadida qisqa muddatga ozodlikdan mahrum qilish – ushlab turish qo‘llanilishi mumkin.

Bojxona xodimi tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi sifatida ushlab turish tarzidagi protsessual majburlov chorasini JPKning 221 va 224-moddalarida belgilangan xollarda va tartibda qo‘llashga haqli hisoblanadi. Aslida JPKning 222-moddasida vakolatli organlar, jumladan, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi boshqa organning xodimlari, shuningdek, hatto muomalaga layoqatli har qanday shaxs JPKning 221-moddasida ko‘rsatilgan asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda, jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsnii ushlash va yaqin oradagi ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga olib kelishga xaqli ekanligi mustahkamlab qo‘yilgan.

Shu bilan birga, bojxona organi xodimi ushlab turilgan shaxsga advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon orqali qo‘ng‘iroq qilish yoki xabar berish, himoyachiga ega bo‘lish, ko‘rsatuvar berishni rad etishga bo‘lgan protsessual huquqlarini tushuntirishi, shuningdek u bergen ko‘rsatuvlardan jinoyat ishiga doir, dalillar sifatida uning o‘ziga qarshi foydalanishi mumkinligini bildirishi shart. Bunda ushlayotgan bojxona xodimi o‘zini tanishtirishi va ushlanayotgan shaxsning talabiga ko‘ra shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko‘rsatishi shart.

Amaliyotda bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyati jinoyat sodir etgan shaxs aniqlanmagan holatlar ham mavjud. Shunga ko‘ra, JKning 182-moddasi bilan noma’lum shaxsga nisbatan qo‘zg‘atilgan jinoyat ishlari yuzasidan surishtiruv harakatlarini o‘tkazish holatlariga ham to‘xtalib o‘tish joiz.

Bunday holatlar asosan chegara oldi hududlarda sodir etilishi mumkin bo‘lib, tovarlarni olib o‘tuvchi shaxs jinoiy rejasi amalga oshishiga ko‘zi yetmagan holatlarda olib o‘tayotgan tovar-moddiy qimmatliklarini tashlab, voqeа joyidan qochib ketadi.

Amaliyotda boshqacha holatlar ham uchraydiki, unda jinoyatchilar chegara

oldi hududlarda tovarlarni “yama”¹⁴⁴larda to‘plab, chegaradan olib o‘tishga tayyorlab qo‘yadilar. “Yama” fosh qilinganidan xabar topganida esa tegishli joyga kelmaydilar.

Bunday hollarda jinoyatchini aniqlash uchun choralar ko‘riladi: tovar-moddiy qimmatliklar berkitilgan joy ustidan yashirin kuzatuv o‘rnataladi, pistirma tashkil qilinadi va hokazo.

Agar shu kabi tezkor tadbirlar natijasida tovar-moddiy qimmatliklar egasi topilmasa, jinoyat ishi qo‘zg‘atilib, birinchi navbatda, tegishli hududda yashovchi shaxslar, mahalla posbonlari, o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlari so‘roq qilinadi. Shuningdek, tovar-moddiy qimmatliklar aniq bir shaxsga tegishliligini aniqlash maqsadida sinchiklab ko‘zdan kechirilishi lozim.

Bulardan tashqari, jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlash maqsadida Kontrabanda va bojxona qonunchiligi buzilishiga qarshi kurashish bo‘limlariga, O‘zbekiston Respublikasi DXX Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo‘mita organlariga, O‘zbekiston Respublikasi IIVning tegishli tuzilmalariga alohida topshiriqlar yuboriladi.

Bojxona organi boshlig‘i yoki mansabdar shaxsi o‘z vakolati doirasida jinoyat sodir etilganligi to‘g‘risida sabab va yetarli asoslар mavjud bo‘lgan barcha hollarda jinoyat ishini qo‘zg‘atishi shart.

Qarorda: ishni qo‘zg‘atish sabablari va asoslari; Jinoyat kodeksining jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan jinoyatni nazarda tutuvchi moddasi; bundan buyon ishni o‘z yurituviga oluvchi mansabdar shaxs ko‘rsatiladi.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ boshlig‘i jinoyat ishini JPKning 345 va 381²-moddalarida belgilangan tergovning tegishliligiga ko‘ra dastlabki tergov yoki surishtiruv organiga o‘tkazish uchun darhol prokurorga yuboradi.

Jinoyat ishining tergovi bojxona organining surishtiruviga tegishli bo‘lgan taqdirda, jinoyat ishi prokurorni darhol xabardor qilgan holda surishtiruvchiga o‘tkaziladi. Jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qarorning ko‘chirma nusxasi ushbu ishning tergov qilinishi ustidan nazorat qiluvchi prokurorga yuboriladi.

Ish qo‘zg‘atilgandan keyin uzoqqa cho‘zilgan jinoyatlarning oldini olish va jinoyatlar takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik, shuningdek ish uchun ahamiyatli bo‘lishi ehtimol tutilgan jinoyat izlari, narsalar va hujjatlarni mustahkamlash va qo‘riqlash yuzasidan darhol choralar ko‘rish lozim.

Qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi bo‘yicha bojxona organlari boshlig‘i yoki mansabdar shaxsi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi IIIV, Bosh

¹⁴⁴ Izoh: “Yama”- O‘zbekiston Respublikasi hududiga bojxona qonunchiligini buzgan holda kirilgan yoki noqonuniy olib chiqishga mo‘ljallangan tovarlarni saqlash joyi (masalan:omborlar, chegara hududiga yaqin bo‘lgan yashash xonadonlari va boshqa joylar).

prokuratura, Oliy sud, Davlat xavfsizlik xizmati va Davlat bojxona qo'mitasining 04.04.2018-yildagi 3/20/11-121-18/2/01-02/22-29-sonli qo'shma qarori bilan tasdiqlangan "Jinoyatlarni, ularni sodir etgan shaxslarni, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshiruvchi organlar hamda sudning protsessual qarorlarini hisobga olish tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnomada belgilangan tartibda jinoyat va uni sodir etgan shaxslarni hisobga olish kartochkalari to'ldirilib, imzolangan kartochka prokuror yoki uning o'rribbosari tomonidan imzolanganidan so'ng hududiy ichki ishlar organlariga yuboriladi.

Jinoyat haqidagi imzosiz, qalbaki imzoli yoki uydirma shaxs nomidan yozilgan xat, ariza yoki boshqa anonim xabarlar jinoyat ishini qo'zg'atish uchun asos bo'lmaydi.

JPKning 83-moddasi 1 va 2-bandlarida hamda 84-moddasi 1-qismining 1, 3-8-bandlarida nazarda tutilgan holatlar aniqlangan taqdirda, bojxona organlari boshlig'i yoki mansabdar shaxsi jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida qaror chiqaradi. Bu haqda jinoyat sodir etilganligi to'g'risida xabar bergan fuqaro, korxona, muassasa, tashkilot, jamoat birlashmasi yoki mansabdar shaxs xabardor qilinadi. Bunda, ularga qaror ustidan shikoyat qilish huquqi va tartibi tushuntirilishi lozim.

Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risidagi qarorning ko'chirma nusxasi tergovga qadar tekshiruv hujjatlari bilan birga o'rganish uchun nazorat qiluvchi prokurorga, qaror qabul qilingan kundan boshlab 10 kun ichida yuboriladi.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi bojxona organlari boshlig'i yoki mansabdar shaxsi tomonidan JPKning 84-moddasi 1-qismining 2-bandida nazarda tutilgan holat (e'lon qilingan amnistiya akti sodir etilgan jinoyat yoki shaxsga daxldor bo'lsa) aniqlangan taqdirda, jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlar hamda shaxsning amnistiya aktini qo'llashni so'rab yozgan arizasi darhol nazorat qiluvchi prokurorga yuboriladi.

Bojxona organining tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish jarayonida qonunlarning ijro etilishi ustidan prokuror nazorati o'rnatiladi, bunda prokurorning vakolatlari JPKning 382-moddasida belgilab qo'yilgan. Jumladan, prokuror tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotgan bojxona organidan yoki uning mansabdar shaxsidan materiallarni va boshqa ma'lumotlarni talab qilib olishi, jinoyatlar haqidagi ariza va ma'lumotlarni qabul qilish, ro'yhatdan o'tkazish va xal etish to'g'risidagi qonun talablari qay darajada ijro etilayotganinini har oy kamida bir marta tekshirish, bojxona organi mansabdar shaxsining qonunga xilof hamda asossiz qarorlarini bekor qilish, tergovga qadar tekshirish o'tkazish, ishlarni qo'zg'atish va tergov qilish bilan bog'liq bo'lgan majburiy ko'rsatmalar berish vakolatiga ega.

Bojxona organi tergovga qadar tekshiruvni yoki tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshiruvchi organ sifatida belgilangan bo‘lib, bojxona organi mansabдор shaxsi zimmasiga tergovchi yoki surishtiruvchining o‘zi yuritayotgan ish bo‘yicha ayrim protsessual harakatlarni va tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish to‘g‘risidagi topshiriqlarini bajarish hamda tergovchiga, surishtiruvchiga protsessual harakatlarni bajarishda ko‘maklashish vazifasi ham yuklatilgan.

Bojxona organining mansabдор shaxsi tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotganda, xuddi shuningdek tergovchining, surishtiruvchining topshirig‘ini bajarayotganda, JPKda belgilangan qoidalarga amal qilgan xolda protsessual harakatlarni amalga oshiradi va qarorlar qabul qiladi. Bojxona organi mansabдор shaxsining tergovga qadar tekshiruvini olib borish jarayonida qabul qilingan qarorlari tegishli bojxona organi boshlig‘i tomonidan tasdiqlanishi lozim.

Tergovga qadar tekshiruvda bojxona organi boshlig‘i va prokuror bojxona organi mansabдор shaxsiga uning ish yurituvidagi materiallar bo‘yicha yozma ko‘rsatma berish vakolatiga ega. Ushbu ko‘rsatmalar bojxona xodimining ish yurituviga, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirishiga qanday ta’sir qilishidan qat’iy nazar, bajarilishi majburiydir. Bunda bojxona organi boshlig‘ining yozma ko‘rsatmalari ularni bajarishni to‘xtatmay turib, bojxona xodimi ushbu ko‘rsatmalar ustidan prokurorga, prokurorning yozma ko‘rsatmasidan norozi bo‘lgan taqdirda esa, uning ko‘rsatmalarini bajarishni to‘xtatmay turib, yuqori turuvchi prokurorga ularning ustidan shikoyat qilishga xaqlidir. Prokurorning yozma ko‘rsatmalari nafaqat tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotgan bojxona xodimiga, balki ana shu bojxona organining boshlig‘iga ham taaluqlidir.

Nazorat savollari:

1. Bojxona organlarida jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlarni qabul qilish va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi haqida gapiring.
2. Bojxona sohasidagi jinoyatlar bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv harakatlari o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari?
3. Bojxona organlari tomonidan ushlab turish tarzidagi protsessual majburlov chorasini qo‘llash asoslari?
4. Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi bojxona organining mansabдор shaxsi hamda surishtiruv va tergov organlari bilan o‘zaro hamkorlik masalalari haqida gapirib bering.

§4.3. Surishtiruv tushunchasi va mohiyati, xalqaro tajriba va surishtiruv organi sifatida bojxona organlari

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillika erishganidan so‘ng, o‘tgan davr mobaynida surishtiruv idoralari faoliyatini muvofiqlashtirish va takomillashtirish, ushbu organlar faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan tub islohotlar olib borilmoqda. Ushbu islohotlarning asosiy maqsadi jinoyatchilikka qarshi kurashning to‘g‘ri tashkil etilishi, jinoyatlarni oldini olish va fosh qilish, jazoning muqarrarligini ta’minlashdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev bu borada amalga oshirilgan ishlar xususida “Biz sud-huquq sohasini tubdan isloh qilishga alohida ahamiyat berayotganimiz beziz emas. Chunki, Konstitutsiyamizda mustahkamlangan inson huquqlarini ta’minlash ushbu islohotlarning amaliy natijasi bilan bevosita bog‘liqdir”¹⁴⁵, deb ta’kidlagani beziz emas.

Jinoyat-protsessual faoliyat davomida jinoyat protsessining maqsadlariga erishishni ta’minlovchi bir qancha huquqiy mexanizmlar mavjud bo‘lib, ular jinoyat-protsessual faoliyatning amalga oshirilishi tartibi, shakli va mazmunini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual-kodeksining 9-bo‘limiga muvofiq sudga qadar ish yurituv bosqichining tarkibiga jinoyat ishini qo‘zg‘atish, surishtiruv va dastlabki tergov kiritilgan. Shu bilan birga protsessual adabiyotlarda bu borada turli fikrlarni uchratishimiz mumkin. Jumladan, professor Z.F.Inog‘omjonova va G.Z.To‘laganova “...ishlarni sudga qadar yuritish surishtiruv va dastlabki tergovdan iborat”¹⁴⁶ deb fikr yuritgan bo‘lsa, dotsent A.X.Rahmonqulov “Dastlabki tergov bosqichining shakllariga surishtiruv va dastlabki tergov kiradi”¹⁴⁷ deb ta’kidlaydi. Aynan shunga yaqin fikrlar B.B.Xidoyatov va Sh.F.Fayzievlar tomonidan ham bildirilgan bo‘lib, surishtiruv va dastlabki tergovning o‘xhashligiga quyidagi asoslarni keltirishgan: - ular turli xil jinoyat ishlari bo‘yicha bir xil vazifalarni amalga oshiradilar; - jinoyat alomatlari mavjud holatlarda o‘z vakolatlari doirasida jinoyat ishini qo‘zg‘atishlari shart; - o‘z faoliyatlarini yagona jinoyat-protsessual qonunchiligi asosida amalga oshiradilar; - o‘z faoliyatlarini davomida yagona protsessual qoidalarga amal qiladilar¹⁴⁸.

¹⁴⁵ Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir // Sh.Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasi. –Xalq so‘zi. 2017.dek.

¹⁴⁶ Inog‘omjonova Z.F., To‘laganova G.Z. Jinoyat protsessi muammolari//O‘quv qo‘llanma.-T.,-2006. - 160 b.

¹⁴⁷ Mirenskiy B.A, Rahmonqulov A.X., Kadirova V.V. va boshqalar. O‘zbekiston Respublikasining jinoyat protsessi. Darslik. -T, 2012. - 323-324 b.

¹⁴⁸ Xidoyatov Б.Б. Дознание в Республике Узбекистан. - Т.:ТГҮИ. 2005.-105 b; Fayziev Sh.F. Jinoyat protsessida surishtiruv. – Т.: TDYuI nashriyoti, 2006. - 310 b.

Shuningdek, jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruvning o'ziga xos xususiyatlari hamda surishtiruv organlari faoliyati borasida xorijlik olimlar va rivojlangan davlatlar qonunchiligi tadqiq etilganda turli xil fikr va muloxazalarni hamda normalarni uchratishimiz mumkin.

Jumladan, M.S.Strogovich "surishtiruvning asosiy xususiyati jinoyatlarni ochish va aybdor shaxslarni aniqlashga qaratilgan kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini yuritishidir"¹⁴⁹, deb ta'kidlasa, N.A.Gromov, V.A.Ponomarenkov, Yu.V.Fransiforvlarning fikricha -"surishtiruvning tergov vazifasini bajarishdagi o'ziga xosligi - bu uning tergov va tezkor qidiruv choralarini birgalikda olib borishidadir"¹⁵⁰.

Bundan tashqari, ayrim rivojlangan davlatlar qonunchiliklarida jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruvning quyidagicha o'ziga xos xususiyatlarini ko'rishimiz mumkin¹⁵¹.

Aksariyat Yevropa davlatlarida jinoyat ishi bo'yicha tergovni dastlabki tergov shaklida olib borish bilan chegaralanmasdan, jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik xususiyati yoki boshqa sabablarga ko'ra turli xil shakllarda amalga oshiriladi.

Zamonaviy jinoiy-protsessusal fanda jinoyat bo'yicha sud ish yurituvi ikkita model, ya'ni anglo-sakson va roman-german modeli asosida amalga oshirilishi kuzatiladi. Aksariyat Yevropa davlatlari, shu jumladan sobiq Sovet davlatlarida jinoyat protsessining rivojiga 1808-yildagi Fransiyaning Jinoiy tergov kodeksi (Code d'instruction criminelle) katta ta'sir ko'rsatgan.

Fransiyada Surishtiruv, shu bilan birga jinoyat protsessining boshlanishi maxsus protsessual qaror chiqarishni taqozo etmaydi. Qonunchilik "jinoyat qonunchiligi buzilishi faktlarini aniqlash", ya'ni, jinoyat yoki uning belgilari aniqlangan vaqtidan boshlab surishtiruvni boshlashni nazarda tutadi. Surishtiruv sud politsiyasining tashabbusi yoki unga bo'ysunadigan prokuror tashabbusi bilan boshlanadi.

Fransiya jinoyat protsessidagi surishtiruv Yevropa qit'asining aksariyat mamlakatlari uchun xosdir, ammo bu bizning tasavvurimizdagи surishtiruv mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Rossiyada surishtiruv – jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichidan keyin boshlanadigan jinoyatni tergov qilish shakllaridan (dastlabki tergov shakli ham mavjud) biri hisoblansa, Fransiya jinoyat protsessida, birinchidan "dastlabki tergov" tushunchasi, shuningdek, jinoyatni tergov qilish shakllari mavjud emas. Surishtiruv va dastlabki tergov jinoyat protsessining mustaqil bosqichlari bo'lib,

¹⁴⁹ Стrogович М.С. Курс советского уголовного процесса. М.: Наука, 1968. - 468 с.

¹⁵⁰ Н.А.Громов, В А.Пономаренков, Ю.В.Францифоров "Уголовный процесс России". Учебник. - М.: Юрайт, 2001. - 560 с.

¹⁵¹ Головко Л.В., Гуценко К.Ф. (ред.), Филимонов Б.А. Уголовный процесс западных государств. Учебное пособие для юридических вузов. - 2-е изд., доп. и испр. - М.: Зерцало-М, 2002. - 528 с.

ularda umumiylit yo‘q. Ikkinchidan, protsessning birinchi bosqichi bo‘lgan surishtiruvni faqat jinoiy ishi qo‘zg‘atish bosqichidan oldin amalga oshirilishi mumkin. Buni quyidagi sxemada yaqqol ko‘rshimiz mumkin:

Rossiyada: jinoyat ishi qo‘zg‘atish uchun sabablar (ariza, bevosita aniqlash va boshqalar) - jinoyat ishini qo‘zg‘atish - surishtiruv (dastlabki tergov).

Fransiyada: jinoyat haqida ma’lumot (ariza, bevosita aniqlash va xokazo) - surishtiruv - jinoyat ishini qo‘zg‘atish - dastlabki tergov (jinoyat ishlari bo‘yicha).

Bunday taqqoslash orqali Fransiyadagi surishtiruv milliy qonunchiligidagi "tergovga qadar tekshiruv"ning aynan o‘zi ekanligini bilib oldik, ya’ni tergovga qadar tekshiruv natijasida jinoyat ishi qo‘zg‘atiladi yoki rad etiladi.

Fransiyada surishtiruv jinoyat protsessining majburiy bosqichi hisoblanmasligini ham e’tiborga olish lozim. Surishtiruv prokurorga jinoyat ishi qo‘zg‘atish uchun qo‘srimcha ma’lumotlar olish taqozo etgandagina amalga oshiriladi. Prokuror barcha zarur ma’lumotga ega bo‘lsa, u sud politsiyasining surishtiruvlarisiz ham jinoiy ish qo‘zg‘atish huquqiga ega. Ayni paytda, ishni sudga qadar yuritishning fransuz modeli Portugaliya, Gollandiya, Italiya, Avstriya, Gresiya va Ispaniya kabi Yevropa mamlakatlarida amal qiladi.

Germaniya jinoyat protsessida jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichi mavjud emas. Jinoiy ish yuritishni boshlash faqat surishtiruv doirasida dastlabki tergov harakatlarini o‘tkazish bilan bog‘liq. Surishtiruv bosqichi jinoiy protsessual me’yorlar bilan aniq belgilanmagandir. Surishtiruvning maqsadi gumondorni aniqlash bo‘lib, ayblanuvchini fosh qilishni nazarda tutmaydi.

Germaniya JPKga ko‘ra surishtiruv "erkin isbotlash" deb nomlangan shaklda amalga oshiriladi, ya’ni nafaqat tergov va protsessual harakatlar (masalan, so‘roq qilish), balki maxfiy tezkor qidiruv faoliyati (masalan, telefon orkali so‘zlashuvlarni eshitish) orqali amalga oshirilishi mumkin.

Prokuratura surishtiruv organi hisoblanib (Germaniya, JPK, 160§), surishtiruvni o‘zi mustaqil yoki "hokimiyat va politsiya xizmatining mansabdor shaxslari" yordamida olib borilishi mumkin (Germaniya, JPK, 161§). Politsiya jinoyat sodir etilganligi haqida ma’lumot olgach kechiktirib bo‘lmaydigan tergov xarakatlarini amalga oshirib, surishtiruvni davom ettirish uchun barcha materiallarni prokurorga topshirishi shart.

Shunday qilib, Germaniya va boshqa Yevropa mamlakatlarining tajribasi shuni ko‘rsatadiki, jinoyat protsessining sudga qadar ish yuritish bosqichini soddallashtirish, samaradorlikni oshirish uchun kam xarajat bilan maqsadga erishishga imkon beradigan mutlaqo normal va zarur hodisadir.

Anglo-sakson (Angliya-Amerika) modeli haqida gapirganda, klassik Anglo-sakson konsepsiyasida jinoyat ishi bo‘yicha ish yurituv, ishlar Sud tomonidan ish

yurituviga olinishi bilan boshlanishi nazarda tutilganligi sababli sudga qadar ish yuritish jinoyat protsessining mustaqil bosqichlaridan biri deb e'tirof etilmaganligini ta'kidlash lozim.

Hozirgi kunda Angliyada sudga qadar ish yuritish ikki bosqichdan iborat bo'lib, politsiya tomonidan dalillarni toplash va Qirollik jinoyat tergov xizmati tomonidan sud oldida ayblov ishini qo'zg'atish faoliyatini nazarda tutadi.

Xalqaro miqyosdagi uyushgan jinoyatchilikning o'sib borishi, ularni sodir etish usullari takomillashib borayotgan sharoitda bojxona sohasidagi qonunbuzarliklarga, ayniqsa, jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini oshirish, bu kurash vositalari va usullarini takomillashtirish, qonun kuchidan samarali foydalanish alohida hususiyatlar kasb etib bormoqda.

Xalqaro tajribada bojxona organlari tomonidan jinoyatlarni tergov qilish amaliyoti ko'plab davlatlarda mavjud. Masalan, AQShda ikki turdag'i bojxona xizmati mavjud bo'lib, ulardan Immigratsiya va bojxona xizmati (ICE-Immigration Customs Enforcement) tergov sohasida juda katta vakolatlarga ega organ hisoblanadi. Jumladan, Immigratsiya va bojxona xizmati ommaviy qirg'in qurollarini tarqatish, terrorizm, odam savdosi va kontrabandasi, qurol-yarog' kontrabandasi, narkotik moddalar savdosi va kontrabandasi, hujjalarni tayyorlash, foydalanish va sotish, inson huquqlari buzilishi, transmilliy uyushgan jinoiy faoliyat, pul yuvish va yirik miqdordagi valyuta kontrabandasi kabi moliyaviy jinoyatlar, kiberjinoyat, seks-turizm va bolalar ekspluatatsiyasi, tijorat firibgarligi va intellektual mulk o'g'irligi kabi savdo jinoyatlari, kontrafakt dori vositalari va boshqa tibbiyot buyumlari kontrabandasi, ommaviy marketing firibgarligi, san'at o'g'irligi, viza xavfsizligi, xalqaro madaniyat va antikvariatga oid jinoyatlar kabilarning tergovini amalga oshiradi va mamlakat Milliy xavfsizlik kotibiga hisobot beradi.

Hozirda Yevropa Ittifoqining a'zo mamlakatlaridan biri Latviya Respublikasida bojxona idoralari Moliya vazirligi huzuridagi Davlat daromadlari xizmati tarkibida bo'lib, uning Soliq va bojxona politsiyasi deb nomlanuvchi tuzilmasi Latviya jinoyat protseesual qonunchiligiga ko'ra, 11 ta tergov organlaridan biri hisoblanadi. U soliq, bojxona va moliya sohasidagi huquqbazarliklar yuzasidan jinoyat ishini qo'zg'atish, gumonlanuvchini ushslash, ushlab turish, barcha zarur tergov harakatlarini olib borish va ishni sudga yuborish vakolatlariga ega. Soliq va bojxona politsiyasining respublika bo'yicha uchta hududiy tuzilmasi bo'lib, ularga bojxona idoralarida aniqlangan jinoyat alomatlari bor barcha huquqbazarlik holatlari yuzasidan xabar berilishi va to'plangan hujjalarni o'z vaqtida taqdim etilishi shart.

MDH doirasida esa Rossiya Federatsiyasi va Ozarbayjon Respublikasi bojxona organlarining ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini misol qilib keltirish mumkin. Xususan, Rossiya Federatsiyasida bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovslash hamda naqd pul vositalari kontrabandasi jinoyatlari bo‘yicha (RF Jinoyat kodeksining 194 va 200¹-moddalari) bojxona organlari surishtiruvchilari tomonidan tergov shaklidagi surishtiruv o‘tkaziladi. Ozarbayjon Respublikasi Bojxona kodeksiga ko‘ra, bojxona organlari surishtiruv organi hisoblanib, Ozarbayjon Respublikasi JKning 207-moddasi (Ozarbayjon Respublikasi hududiga badiiy, tarixiy va arxeologik boyliklarni qaytarmaslik) hamda 209-moddasida (Bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovslash) ko‘rsatilgan jinoyatlar bo‘yicha sudgacha soddalashtirilgan ko‘rinishdagi tergov o‘tkazadilar.

Ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-sentabrdagi “Surishtiruv institutining takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-442-sonli Qonuniga asosan Jinoyat protsessual kodeksida surishtiruv institutining mohiyati tubdan o‘zgartirildi, tergovga qadar tekshiruv organlari va ularning vakolatlari alohida ajratib berildi hamda surishtiruv tergov o‘tkazishning alohida shakli ekanligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatib qo‘yildi¹⁵².

Qonun qabul qilingunga qadar JPKning 42-bobi «Surishtiruv» deb nomланib, unda berilgan qoidalarga ko‘ra, surishtiruv - jinoyatni tergov qilishning protsessul faoliyat turi sifatida jinoyat ishi qo‘zg‘atilgandan so‘ng amalga oshirilib 10 kun ichida tergov organlariga o‘tkazish bilan yakunlanishi tartibi belgilangan edi, ya’ni surishtiruv bu - Jinoyat-protsessual qonuni bilan maxsus vakolatli bo‘lgan davlat organlari va mansabdar shaxslarning jinoyatlarni ochish, oldini olish va unga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlarini yuritish faoliyati hisoblanardi. Surishtiruv organlari jinoyatlarni oldini olish va unga yo‘l qo‘ymaslik, dalillarni to‘plash va saqlash, jinoyat sodir etishda gumon qilinganlarni ushslash va yashiringan gumon qilinuvchilarni xamda ayblanuvchilarni qidirib topish, jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy ziyon koplanishini ta’minalash uchun kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlarini yuritishga yo‘naltirilgan bo‘lib, mazmuni bo‘yicha surishtiruv dastlabki tergovda amalga oshiriladigan taxminan 45-50 foiz harakatlarni (ishlarni) bajarardi. O‘RQ-442-son Qonuni bilan JPKning 42-bobi chiqarib tashlandi.

Jinoyat protsessual kodeksiga kiritilgan o‘zgartish va qo‘sishimchalarga muvofiq jamiyatga katta xavf solmaydigan jinoyatlar to‘g‘risidagi ishlarni sudga qadar ish yuritishning soddalashtirilgan tartibi belgilab berildi. Jumladan, surishtiruv tarzidagi tergov bir oygacha bo‘lgan muddatda o‘tkazilishi va jinoyat

¹⁵² O‘zbekiston Respublikasining 06.09.2017-yildagi O‘RQ-442-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/3328284>.

ishi qo‘zg‘atgan surishtiruv organi jinoyat ishini ayblov dalolatnomasi bilan birga prokurorga yuborish hamda keyinchalik tasdiqlash va sudga yuborish bilan tugatilishi belgilab qo‘yildi.

Shunday qilib, Kodeksga kiritilgan o‘zgartirishlarga asosan surishtiruv tushunchasiga quyidagicha ta’rif bersak maqsadga muvofiq bo‘ladi, ya’ni *Surishtiruv - bu jinoyat protsessining jinoyat ishi qo‘zg‘atilgandan keyin boshlanadigan mustaqil bosqichi hisoblanib, ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlar bo‘yicha ishlarni sudga qadar yuritishda tergov qilishning soddalashtirilgan shakli sifatida vakolatli organlar surishtiruvchilari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatdir.*

Hozirgi kunda Jinoyat kodeksida mavjud 154 ta tarkibdan iborat ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlarning 98 tasi bo‘yicha sudgacha ish yuritishning ana shunday soddalashtirilgan tartibi joriy etildi. Surishtiruv shaklida tergov o‘tkazish Rossiya Federatsiyasida 93 ta, Qozog‘istonda 120 ta, Belarusda 36 ta jinoyat tarkiblari bo‘yicha amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksning 38-moddasiga ko‘ra, jinoyat ishlari bo‘yicha surishtiruv ichki ishlar organlari, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, Majburiy ijro byurosi, Milliy gvardiya hamda Davlat bojxona qo‘mitasi va uning joylardagi bo‘linmalari surishtiruvchilari tomonidan olib boriladi. Ya’ni bojxona organlariga ham surishtiruv shaklida tergov qilish vakolati berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat–protsessual kodeksining 381²-moddasiga ko‘ra, Davlat bojxona qo‘mitasi hamda uning joylardagi bo‘linmalari tomonidan Jinoyat kodeksining **130-moddasi** (*pornografik mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish*) birinchi va ikkinchi qismlari, **130¹-moddasi** (*zo‘ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish*), **184-moddasi** (*soliqlar yoki boshqa majburiy to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash*) birinchi va ikkinchi qismlari, **244³-moddasi** (*diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish*), **244⁴-moddasi** (*uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda olib kirish, o‘tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish*) birinchi qismi hamda **250¹-moddasi** (*pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi*) birinchi qismida nazarda tutilgan bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog‘liq jinoyatlarga doir ishlari bo‘yicha surishtiruv shaklidagi tergov harakatlari o‘tkazish vakolati berilgan.

Shu bilan birga Jinoyat kodeksining 167-moddasi (*O‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish*) birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyat

bo‘yicha, agar bojxona organi tomonidan ish qo‘zg‘atilgan bo‘lsa, unga doir ishlar bo‘yicha surishtiruv ham bojxona organi tomonidan olib boriladi.

Bundan tashqari, Jinoyat kodeksining 237-moddasi (*Yolg‘on xabar berish*) birinchi qismida, 238-moddasi (*Yolg‘on guvohlik berish*) birinchi va ikkinchi qismlarida, 239 (*Surishtiruv yoki dastlabki tergov ma’lumotlarini oshkor qilish*) va 240-moddalarida (*Jinoyat protsessini yuritish qatnashchilarining o‘z zimmasidagi vazifani bajarishdan bo‘yin tovlashi*) nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo‘yicha surishtiruv ushbu ish qo‘zg‘atilishiga sabab bo‘lgan jinoyat, agar bojxona organining tergoviga tegishli bo‘lgan taqdirda, ushbu organ tomonidan olib borilishi o‘rnatalgan.

Nazorat savollari:

1. Surishtiruv tushunchasi va surishtiruv instituti haqida xorijiy tajriba haqida gapirib bering?
2. Bojxona organlari surishtiruv faoliyatining huquqiy asoslari?
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining qaysi moddalari bo‘yicha bojxona organlari tomonidan surishtiruv shaklidagi tergov harakatlari o‘tkaziladi?

§4.4. Bojxona sohasidagi jinoyatlar bo‘yicha surishtiruv o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari

Ta’kidlab o‘tilganidek, bojxona sohasidagi jinoyatlar jamiyatning iqtisodiy negizlariga, davlatning iqtisodiy xavfsizligiga, aholining sog‘ligi, iste’molchilar ning qonuniy huquqlari va manfaatlariga katta zarar yetkazadi. Bojxona organlariga surishtiruv vakolatining berilishi bojxona chegarasida aniqlangan qonunbuzarliklarga nisbatan tezkor tartibda qonuniy chora ko‘rish, qonunbuzarlik va jinoyatchilikka darhol chek qo‘yish maqsadini ko‘zlaydi.

Surishtiruv organi sifatida bojxona organlari jinoyat-protsessual faoliyatni amalga oshiradi. Jinoyat protsessual yo‘nalishi bo‘yicha surishtiruv harakatlari olib borish deganda, JPKga asosan bojxona organlari tergoviga tegishli Jinoyat kodeksining 130, 130¹, 184, 244³, 244⁴, 250¹-moddalar bo‘yicha qo‘zg‘atilgan jinoyat ishlari bo‘yicha amalga oshiriladigan tergov harakatlari tushuniladi. Jinoyat ishlari bo‘yicha surishtiruv harakatlarini o‘tkazish amaldagi jinoyat protsessual qonun hujjatlari bilan belgilangan tartib va qoidalar bo‘yicha amalga oshiriladi.

Surishtiruv harakati deyilganda jinoyat protsessual qonunda belgilab qo‘yilgan, dalillarni aniqlash, qayd etish, tekshirish, o‘rganish va baholashga bevosita yo‘naltirilgan harakatlar tushuniladi

Jinoyat protsessual qonun dalillar to‘plash usullari sifatida tergov va sud harakatlari ro‘yxatini o‘z ichiga oladi. JPKning 87-moddasi ko‘ra, dalillar tergov va sud harakatlarini yuritish: gumon qilinuvchini, ayblanuvchini, sudlanuvchini, guvohni, jabrlanuvchini, ekspertni so‘roq qilish; yuzlashtirish; tanib olish uchun ko‘rsatish; ko‘rsatuvni hodisa ro‘y bergen joyda tekshirish; olib qo‘yish; tintuv; ko‘zdan kechirish; guvohlantirish; murdani eksgumatsiya qilish; eksperiment o‘tkazish; ekspertiza tadqiqotlarini o‘tkazish uchun namunalar olish; ekspertiza va taftish tayinlash; taqdim etilgan ashyolar va hujjatlarni qabul qilish; telefonlar va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib borilgan so‘zlashuvlarni eshitish yo‘li bilan to‘planadi.

Har bir tergov harakati muayyan bilish va tasdiqlash amallarining yig‘indisidir va huquqiy asosga tayanadi. Jinoyat ishi bo‘yicha aniqlanishi lozim bo‘lgan barcha ma’lumotlar qonunda belgilangan manbalardan olinadi. Barcha tergov harakatlari u yoki bu darajada majburlov choralarini ko‘rishga tayanadi. Bunday choralar itoatsiz qatnashchilarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin. Har bir tergov harakatining huquqiy jihatdan tartibga solinishi u yoki bu bilish usullarining ishonchliligi va ma’naviy joizligi, shuningdek dalillar to‘plashda majburlov choralarini chegaralarini belgilaydigan protsess vazifalari va prinsiplariga

bo‘ysunadi. Bu umumiy xususiyatlar tergov harakatlarining yig‘indisiga ichki yagona va tartibli tizim sifatida qarashga imkon beradi.

Oldingi taxrirdagi JPK normalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, jinoyat ishini yuritish uchun mas’ul mansabdar shaxslar (prokuror, tergovchi, tergov boshqarmasi, bo‘limi, bo‘linmasi, guruhi boshlig‘i va uning o‘rinbosari, surishtiruv organi boshlig‘i) o‘rtasida surishtiruvchi protsessual jihatdan teng hisoblanmasdi va uning faoliyati yordamchi xarakterga ega edi.

Bugungi kunda bojxona organlari surishtiruv bo‘linmalari boshliqlari, ularning o‘rinbosarlari va surishtiruvchilari ham JPKning 38¹ va 39-moddalarida ko‘rsatilgan vakolatlarga ega. Xususan, bojxona organlari surishtiruvchilari:

- jinoyat ishini qo‘zg‘atishga va tugatishga, ishni qo‘zg‘atishni rad etishga;

- jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxslarni ushslash va so‘roq qilishga;

- tergov harakatlarini olib borishga;

- shaxsni ishda gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok qilish uchun jalb etish to‘g‘risida qaror qabul qilishga;

- shaxsni ishda gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok qilish uchun jalb etish to‘g‘risida qaror qabul qilishga;

- shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok qilish uchun jalb etish haqida va unga nisbatan ehtiyyot chorasini tanlash to‘g‘risida qaror qabul qilishga, bundan qamoqqa olish yoki uy qamog‘i mustasno;

- o‘z yurituviga qabul qilgan ishlar bo‘yicha tezkor-qidiruv tadbirlarini bajarish haqida yozma topshiriqlar berishga;

- boshqa surishtiruvchilarga ayrim tergov harakatlarini yuritish to‘g‘risida topshiriq berishga;

- tergovga qadar tekshiruv yoki tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga shaxslarni ushlab turish, majburiy keltirish, qidirish to‘g‘risidagi qarorlarning ijrosini topshirishga, ulardan ayrim tergov harakatlarini yuritishda ko‘maklashishni talab qilishga;

- qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyyot chorasini qo‘llash, uy qamog‘i bo‘yicha qo‘sishimcha ta’qiq (cheklov) belgilash to‘g‘risida iltimosnoma berishga, shuningdek ehtiyyot chorasini JPKning 240 va 243¹-moddalariga muvofiq bekor qilishga yoki o‘zgartirishga;

- pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to‘xtatib turish to‘g‘risida iltimosnoma berishga;

- ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to‘g‘risida, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish haqida iltimosnomalar berishga, shuningdek mazkur protsessual majburlov choralarini belgilangan tartibda bekor qilishga;

- murdani eksgumatsiya qilish to‘g‘risida, pochta-telegraf jo‘natmalarini

xatlash haqida iltimosnomalar berishga, shuningdek mazkur choralarini belgilangan tartibda bekor qilishga;

- amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risida yoki jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnama kiritish haqida prokurorga taqdimnama kiritishga haqlidirlar.

Surishtiruvchi surishtiruvning yo‘nalishiga oid barcha qarorlarni mustaqil ravishda qabul qiladi, bundan qonunda prokuror ruxsatini olish nazarda tutilgan hollar mustasno.

Surishtiruvchi prokurorning shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalg qilish haqidagi, jinoyatni tavsif qilish va ayblov hajmi haqidagi, qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyyot chorasini qo‘llash uy qamog‘i bo‘yicha qo‘shimcha ta’qiq (cheklov) belgilash pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to‘xtatib turish to‘g‘risida iltimosnama qo‘zg‘atish haqidagi, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov choralarini qo‘llash haqidagi, amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risida yoki jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnama kiritish haqida prokurorga taqdimnama kiritish to‘g‘risidagi, ishni sudga yuborish yoki ishni tugatish haqidagi, tugallangan ishni qo‘shimcha tergovga qaytarish to‘g‘risidagi ko‘rsatmalariga rozi bo‘lmasa, o‘z e‘tirozlarini yozma ravishda bayon qilgan holda ishni yuqori turuvchi prokurorga taqdim etishga haqlidir. Bunday hollarda yuqori turuvchi prokuror quyi turuvchi prokurorning ko‘rsatmasini o‘z qarori bilan yo bekor qiladi yoki ish bo‘yicha surishtiruv yuritishni boshqa surishtiruvchiga topshiradi.

Surishtiruvchining o‘z yuritishidagi ish yuzasidan qonunga muvofiq bergen yozma topshiriqlari va chiqargan qarorlari barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan ijro etilishi majburiydir.

JKNning 39-moddasiga asosan surishtiruv bo‘linmasining boshlig‘i va uning o‘rinbosari o‘z vakolatlari doirasida jinoyatlarni ochish va ularning oldini olish yuzasidan surishtiruvchilarining o‘z vaqtida harakat qilishini nazorat etadilar, jinoyat ishlari bo‘yicha surishtiruvni to‘la, har tomonlama va xolisona olib borish choralarini ko‘radilar.

Surishtiruv bo‘linmasi boshlig‘i va uning o‘rinbosari ishlarni tekshirib ko‘rishga, surishtiruvchiga surishtiruv yuritish, shaxsni ishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi tariqasida ishtirok qilish uchun jalg etish, jinoyatni tavsif qilish va ayblovning hajmi, ishning yo‘nalishini belgilash, ayrim tergov harakatlarini o‘tkazish haqida ko‘rsatmalar berishga, ishni bir surishtiruvchidan ikkinchi surishtiruvchiga olib berishga, ishni tergov qilishni bir necha surishtiruvchiga

topshirishga, shuningdek surishtiruvchi vakolatlaridan foydalanib, surishtiruv yuritishda qatnashishga va surishtiruvni shaxsan o‘zi olib borishga haqlidir.

Surishtiruv bo‘linmasi boshlig‘ining va uning o‘rinbosarining ish yuzasidan ko‘rsatmalari surishtiruvchiga yozma tarzda beriladi va ularning ijro etilishi majburiydir. Olingan ko‘rsatmalar ustidan prokurorga shikoyat qilinishi, ushbu Kodeks 38¹-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan hollarni istisno etganda, ularning ijro etilishini to‘xtatib qo‘ymaydi.

Bojaxona sohasidagi jinoyatlar bo‘yicha surishtiruv JPKning 46¹-bobida belgilangan xususiyatlarni inobatga olgan holda ushbu Kodeks bilan belgilangan umumiyligida qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi.

Qoidaga ko‘ra, jinoyat qaerda sodir etilgan bo‘lsa, jinoyat ishi o‘sha tuman (shahar) surishtiruv organining surishtiruvchisiga tegishli bo‘ladi.

Surishtiruv, agar ish holatlarini ancha tez, puxta, to‘la, xolisona, har tomonlama tekshirishga yordam bersa, ish qo‘zg‘atilgan joyda yoki gumon qilinuvchi yoxud ayblanuvchi yoki guvohlarning ko‘pchiligi turgan yerda ham o‘tkazilishi mumkin.

Yuqori turuvchi prokuror yoki Yuqori turuvchi surishtiruv bo‘linmasi boshlig‘ining farmoyishiga asosan surishtiruv hududiy jihatdan tergovga tegishlilik qoidalariга rioya qilinmagan holda olib borilishi mumkin.

Bojaxona organi surishtiruvchisi jinoyat ishini qo‘zg‘atib, uni o‘z ish yurituviga oladi va bu haqda ish qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qarorga yozib qo‘yadi. Basharti surishtiruvchiga oldin qo‘zg‘atilgan ish berilgan bo‘lsa, u ishni o‘z yurituviga olganligi to‘g‘risida qaror chiqaradi, shundan so‘ng surishtiruvni boshlaydi.

Surishtiruv jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan kundan boshlab bir oydan oshmagan muddatda tamomlanishi lozim.

Jinoyat ishlari birlashtirilayotganda ular bo‘yicha ish yuritish muddati uzoqroq muddat davomida tergov qilingan jinoyat ishi bo‘yicha belgilanadi. Bunda qolgan jinoyat ishlari bo‘yicha ish yuritish muddati uzoqroq tergov qilingan ishning muddati bilan qamrab olinadi va qo‘shimcha ravishda hisobga olinmaydi.

Alovida ish yurituviga ajratilgan jinoyat ishi bo‘yicha surishtiruv muddati, agar jinoyat ishi yangi jinoyat bo‘yicha yoki yangi shaxsga nisbatan ajratilayotgan bo‘lsa, tegishli qaror chiqarilgan kundan e’tiboran hisoblanadi.

Qolgan hollarda muddat bu jinoyat ishi qaysi jinoyat ishidan alovida ish yurituviga ajratilgan bo‘lsa, o‘sha jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan paytdan e’tiboran hisoblanadi.

Ish ayblov dalolatnomasi bilan, ishni tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash yoxud taraflarning yarashuvi uchun sudga yuborish to‘g‘risidagi qaror bilan, amnostiya aktiga asosan jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnama

kiritish to‘g‘risidagi taqdimnoma bilan prokurorga topshirilgan kuni yoxud ishni tugatish haqida qaror chiqarilgan kuni surishtiruv tamomlangan hisoblanadi.

Surishtiruv muddatiga quyidagilar kirmaydi:

- 1) ayblanuvchi, himoyachi, shuningdek jabrlanuvchi, fuqaroviylar da‘vogar, fuqaroviylar javobgar va ularning vakillari ish materiallari bilan tanishib chiqqan vaqt;
- 2) surishtiruv to‘xtatib turilgan vaqt;
- 3) qo‘srimcha surishtiruv o‘tkazish uchun prokuror tomonidan qaytarilgan ish surishtiruvchiga kelib tushgunga qadar o‘tgan vaqt.

Ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan surishtiruv muddati prokuror tomonidan 20 kungacha uzaytirilishi mumkin.

Ish qo‘srimcha surishtiruv o‘tkazish uchun qaytarib yuborilganda, shuningdek to‘xtatilgan yoki tugatilgan ish qayta tiklanganda qo‘srimcha surishtiruv muddati mazkur ishni surishtiruvchi qabul qilgan paytdan e’tiboran 10 kun doirasida belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 381⁴-moddasiga asosan har bir surishtiruvchi o‘z yurituvida bo‘lgan jinoyat ishi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining hududida istalgan joyda biror tergov harakatini shaxsan o‘zi bajarishga yoxud uni o‘tkazishni boshqa surishtiruvchiga topshirishga haqlidir.

Surishtiruvchining topshirig‘ida ijro etuvchi uchun majburiy bo‘lgan ijro muddati ko‘rsatiladi. Topshiriqni bu muddat ichida ijro etishning iloji bo‘lmasa, topshiriq olgan shaxs topshiriq bergan surishtiruvchiga topshiriq qachon bajarilishi mumkinligi to‘g‘risida yozma ravishda, telegramma yoki telefonogramma orqali xabar qiladi va uning ko‘rsatmalariga binoan topshiriqni bajarishni davom ettiradi.

Jinoyat ishi ko‘p mehnat talab etsa, juda murakkab yoki o‘ta dolzarb bo‘lsa, prokuror yoki surishtiruv bo‘linmasining boshlig‘i shu ish bo‘yicha surishtiruv ishlarini yuritishni doimiy yoki maxsus tuzilgan surishtiruvchilar guruhiga topshirishi mumkin.

Surishtiruvchilar guruhini tuzish tartibi, guruh rahbari va a’zolarining vakolatlari, shuningdek tergov harakatlarining bir necha surishtiruvchilar tomonidan bajarilishi tartibi JPKning 354-357-moddalarida belgilangan tergovchilar guruhini tuzish, guruh rahbarining va guruh a’zolari bo‘lgan tergovchilarining vakolatlari, shuningdek tergov harakatlarini bir necha tergovchilar tomonidan bajarish tartibi bilan bir xil belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 364-371-moddalarida belgilangan hollarda surishtiruv surishtiruvchining qarori bilan belgilangan tartibda to‘xtatiladi.

Qonunchilikda surishtiruvni tamomlashning quyidagi turlari belgilangan:

- jinoyat ishini tugatish to‘g‘risida qaror chiqarish;
- aylov dalolatnomasi;

- ishni tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash uchun sudga yuborish to'g'risida qaror chiqarish;

- taraflarning yarashuvi uchun sudga yuborish to'g'risida qaror chiqarish; amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish to'g'risida taqdimnoma tayyorlash.

Jinoyat ishi JPKning 83 va 84-moddalarida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lganda tugatiladi. JPK 84-moddasi birinchi qismining 2-bandida nazarda tutilgan asos mavjud bo'lganda jinoyat ishini tugatish JPKning 63-bobida nazarda tutilgan qoidalarga binoan sud tomonidan amalga oshiriladi.

Surishtiruvchining jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qarori JPKning 374-moddasida nazarda tutilgan talablarga rioya etilgan holda tuziladi.

Surishtiruvchi ishni tugatish to'g'risida qaror chiqargach, bu haqda gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, himoyachiga, shuningdek jabrlanuvchiga, fuqaroviylar da'vogarga, fuqaroviylar javobgarga va ularning vakillariga, xuddi shuningdek ish korxona, muassasa, tashkilot yoki fuqaroning bergan xabari bilan qo'zg'atilgan bo'lsa, shu korxona, muassasa, tashkilot vakillariga yoxud fuqaroga xabar qiladi. Ayni vaqtida ularga ishni tugatish to'g'risidagi qaror ustidan prokurorga shikoyat qilish huquqi tushuntiriladi.

Harbiy xizmatga chaqiriluvchi shaxsga nisbatan ish tugatilganda surishtiruvchi bu haqda yetti kunlik muddat ichida yozma tarzda tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limiga xabar qiladi.

Surishtiruvchi to'plangan dalillarni ishni sudga o'tkazish uchun yetarli deb topsa, O'zbekiston Respublikasi JPKning 381¹²-moddasi tartibida ayblov dalolatnomasi tuzadi.

Ayblov dalolatnomasi soddalashtirilgan shaklda tuziladi va surishtiruvda aniqlangan holatlar, ayblanuvchining shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlar, e'lon qilingan ayblovning mazmuni, shuningdek surishtiruv davomida aniqlangan va ushbu jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ayblov dalolatnomasining namunaviy shakli O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan tasdiqlanadi.

Ayblov dalolatnomasiga sud majlisiga chaqirilishi lozim bo'lgan shaxslarning yashash joyi ko'rsatilgan ro'yxati, shuningdek gumon qilinuvchi va ayblanuvchiga nisbatan qancha vaqt qamoqqa olish yoki uy qamog'i tariqasidagi ehtiyyot chorasi qo'llanilganligi, ashyoviy dalillar, hukmning fuqaroviylar da'vo va boshqa mulkiy undirishlar bo'yicha qismi ijrosini ta'minlash choralar, sud chiqimlari to'g'risidagi ma'lumotlar ilova qilinadi.

Sud majlisiga chaqirilishi lozim bo'lgan shaxslarning xavfsizligini ta'minlash zarur bo'lgan hollarda, JPKning 380-moddasi uchinchi qismiga muvofiq mazkur shaxslarning tegishli ro'yxati tuziladi va sudga taqdim etiladi.

Ayblov dalolatnomasi tuzilganidan so‘ng surishtiruvchi ayblanuvchi va himoyachiga surishtiruv tamomlanganligini e’lon qiladi, ularga ishdagi barcha materiallar bilan tanishib chiqishga doir huquqlarini tushuntiradi va tanishib chiqish uchun ishni tikilgan hamda raqamlangan ko‘rinishda, hujjatlarning har bir jildini ro‘yxati bilan taqdim etadi.

Basharti ish tugatilgan bo‘lsa, surishtiruvchi bu haqda va ish materiallari bilan tanishish huquqi haqida gumon qilinuvchini, ayblanuvchini, himoyachini xabardor qiladi hamda ularning iltimosiga binoan ularga tanishib chiqish uchun ishni taqdim etadi.

Surishtiruvchi surishtiruv tamomlanganligi va ish ayblov dalolatnomasi bilan sudga yuborilishi yoki ish tugatilganligi to‘g‘risida jabrlanuvchi, fuqaroviylar da’vogar, fuqaroviylar javobgar va ularning vakillariga xabar qiladi, basharti ular xohlasalar, barcha ish materiallari bilan tanishib chiqish huquqiga ega ekanliklarini tushuntiradi. So‘ng surishtiruvchi ko‘rsatib o‘tilgan protsess ishtirokchilarining iltimosiga muvofiq, tanishib chiqish uchun ularga ishni taqdim etadi.

Jabrlanuvchilar, guvohlar, xolislar va protsessning boshqa ishtirokchilarini xavfsizligini ta’minalash maqsadida tergov harakatlari bayonnomasining kirish qismlari tanishib chiqish uchun taqdim qilinmasligi mumkin. Bunday hollarda bayonnomalarning ko‘rsatib o‘tilgan protsess ishtirokchilarini to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan kirish qismlari muhrlangan holda saqlanadi.

Basharti ayblanuvchining himoyachisi yoki jabrlanuvchi, fuqaroviylar da’vogar, fuqaroviylar javobgarning vakili uzrli sabablarga binoan belgilangan vaqtida ish materiallari bilan tanishib chiqish uchun kela olmasa, surishtiruvchi tanishib chiqish muddatini ko‘pi bilan besh sutkaga kechiktirishi mumkin. Himoyachi yoki vakil bu muddat ichida kelmagan taqdirda ayblanuvchiga boshqa himoyachini taklif qilish, jabrlanuvchi, fuqaroviylar da’vogar yoki fuqaroviylar javobgarga boshqa vakil chaqirish uchun imkoniyat yaratiladi.

Ish bilan tanishib chiqayotgan shaxs ishdagi hujjatlardan ko‘chirmalar yozib olishga haqlidir, davlat sirlarini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirlarni o‘z ichiga olgan ma’lumotlar bundan mustasno. Surishtiruvchi ayblov dalolatnomasi va ishdagi materiallar bilan tanishib chiqqanlik to‘g‘risida bayonnomalarning tuzadi. Ish bilan tanishib chiqqanidan keyingi og‘zaki iltimoslarni surishtiruvchi bayonnomaga kiritadi. Protsess ishtirokchisi yozma tarzda alohida iltimosnomasi berishi mumkin, bu haqda bayonnomada yozib qo‘yiladi (JPK, 381¹³-modda).

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 381¹⁶-moddasiga asosan ayblov dalolatnomasi surishtiruvchi tomonidan imzolanadi va surishtiruv bo‘linmasi boshlig‘i bilan kelishilganidan so‘ng, jinoyat ishi darhol prokurorga yuboriladi.

Surishtiruvchining harakatlari va qarorlari ustidan shikoyatlar surishtiruv bo‘linmasi boshlig‘iga yoki ishni tergov qilishda qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat olib borayotgan prokurorga beriladi.

Surishtiruv harakatlarini yuritishda qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat prokuror tomonidan amalga oshiriladi. Surishtiruv organlari tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirib, prokuror o‘z vakolati doirasida:

surishtiruv organlaridan hamda tergovga qadar tekshiruvni yoki tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlardan ishlarni tekshirish uchun, sodir etilgan jinoyatlarga oid tezkor-qidiruv, surishtiruv ishlarining borishiga doir hujjatlarni, materiallarni va boshqa ma’lumotlarni talab qilib oladi; sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyatlar haqidagi ariza va ma’lumotlarni qabul qilish, ro‘yxatdan o‘tkazish va hal etish to‘g‘risidagi qonun talablari qay darajada ijro etilayotganligini har oy kamida bir marta tekshiradi;

surishtiruvchilarning qonunga xi洛f hamda asossiz qarorlarini bekor qiladi;

jinoyatlarni tergov qilish, ehtiyyot chorasi tanlash, o‘zgartirish yoki bekor qilish, uy qamog‘i bo‘yicha qo‘srimcha ta’qiq (cheklov) belgilash haqida iltimosnomaga qo‘zg‘atish jinoyat tavsifini belgilash, ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish, ayrim tergov harakatlarini bajarish va jinoyat sodir etgan shaxslarni qidirish to‘g‘risida yozma ko‘rsatmalar beradi;

qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyyot chorasi qo‘llash yoxud uy qamog‘i bo‘yicha qo‘srimcha ta’qiq (cheklov) belgilash to‘g‘risida sudga iltimosnomaga kiritadi yoki iltimosnomaga rozilik beradi yoxud qamoqda saqlab turish yoki uy qamog‘i muddatini uzaytirish to‘g‘risida sudga iltimosnomaga kiritadi;

ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to‘g‘risida, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish haqida sudga iltimosnomaga kiritadi yoki iltimosnomaga rozilik beradi yoxud ayblanuvchining tibbiy muassasada bo‘lishi muddatini uzaytirish to‘g‘risida sudga iltimosnomaga kiritadi;

amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish haqida yoki jinoyat ishini tugatish to‘g‘risida sudga iltimosnomaga kiritadi;

murdani eksgumatsiya qilish to‘g‘risida, pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash to‘g‘risida sudga iltimosnomaga kiritadi yoki iltimosnomaga rozilik beradi;

pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to‘xtatib turish to‘g‘risida sudga iltimosnomaga kiritadi yoki iltimosnomaga rozilik beradi;

guvohlarning va jabrlanuvchilarning (fuqaroviylar da‘vogarning) ko‘rsatuvlarini oldindan mustahkamlab qo‘yish to‘g‘risida sudga iltimosnomaga kiritadi;

surishtiruvda ishtirok etadi hamda zarur hollarda, JPKga muvofiq har qanday ish bo'yicha ayrim tergov harakatlarini shaxsan bajaradi yoki tergovni to'liq amalgalashadi;

tintuv o'tkazishga, telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turishga, shuningdek qonunda nazarda tutilgan hollarda, surishtiruvchining boshqa harakatlariga ruxsat beradi;

surishtiruv muddatlarini JPKda belgilangan hollarda va tartibda uzaytiradi; ishlarni surishtiruv organlariga qo'shimcha tergov o'tkazish to'g'risidagi o'z ko'rsatmalari bilan qaytaradi; jinoyat ishini JPKda belgilangan hollarda va tartibda surishtiruv organidan boshqa surishtiruv organiga o'tkazadi; surishtiruvchini, basharti u ishning tergovi chog'ida qonun buzilishiga yo'l qo'ygan bo'lsalar, surishtiruv ishlarini davom ettirishdan chetlatadi;

surishtiruvchining ishni tugatishiga rozilik beradi; ayblov dalolatnomasi yoki qarorini tasdiqlaydi, ishlarni sudga yuboradi.

Prokurorning JPKda nazarda tutilgan tartibga muvofiq surishtiruv va dastlabki tergov organlariga hamda tergovga qadar tekshiruvni yoki tezkor-qidiruv faoliyatini amalgalashadi oshiruvchi organlarga tergovga qadar tekshirish o'tkazish, ishlarni qo'zg'atish va tergov qilish bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatmalari ana shu organlar uchun majburiydir.

Nazorat savollari:

1. Surishtiruv davomida dalillar to'plash usullari sifatida tergov harakatlarini sanab o'ting.
2. Bojxona organlari surishtiruv bo'linmalari boshliqlari, ularning o'rinnbosarlari va surishtiruvchilar vakolatlari?
3. Surishtiruv muddatlariga izoh bering.
4. Surishtiruvni tamomlash turlari haqida gapiring.
5. Surishtiruv organlari nazoratini amalgalashadi oshiruvchi prokurorning vakolatlari?

V-BOB. BOJXONA SOHASIDAGI JINOYATLAR KELIB CHIQISHINING SABABLARI, SHART-SHAROITLARI VA ULARNI OLDINI OLISH CHORALARI

§5.1. Bojxona sohasidagi jinoyatlar sodir etilishining sabablari va unga imkon berayotgan shart-sharoitlar

Kriminologiya jinoyatchilik bilan qandaydir bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy hodisa va jarayonlarning keng doirasini va uning sodir bo‘lish xususiyatini o‘rganadi. Bu fanning asosini jinoyatning mohiyati va shakli, uning vujudga kelishi, mavjudligi va o‘zgarish qonuniyatları; sabablari va boshqa determinantlar; jinoyat sodir etganlarning shaxsi; jinoyatlarning oldini olish chora-tadbirlari tizimi tashkil etadi¹⁵³.

Bojxona sohasidagi jinoyatchilik sabablari va shart-sharoitlar jinoyatning sodir etilishiga imkon berayotganligini aniqlash, mazkur sohadagi jinoyatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Keng ma’noda jinoyatchilik sabablari deganda, uning mavjudligini belgilovchi barcha omillar hisoblanishi mumkin, ammo bu omillarning hammasi bir xil ahamiyat kasb etmaydi. Ularning ayrimlari jinoiy motivlarning ro‘yobga chiqarilishi uchun imkoniyat yaratadi, ayrimlari esa bu imkoniyatni voqelikka aylantiradi. Ayni shu sababli birinchi turdagи omillar shart-sharoitlar sifatida, ikkinchi turdagи holatlar esa - sabablar sifatida qaralishi lozim¹⁵⁴.

Jinoyatchilikning sabablari bilan bir qatorda jinoyatlar sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi shart-sharoitlar ham mavjuddir. Jinoyatlar sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi shart-sharoitlar deganda, real voqelikning o‘zi jinoyatchilik (oqibat)ni vujudga keltira olmaydigan, lekin mavjudligi insonda jinoyat sodir etish niyati tug‘ilishiga turtki berishi mumkin bo‘lgan hodisalar yig‘indisi tushuniladi.

Masalan, bojxona sohasidagi qonun hujjatlarning mukammal va mufassal yoritilmaganligi jinoyat sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi shart-sharoit hisoblanishi mumkin. Ammo mazkur holatlarning mavjudligi hamma vaqt ham jinoyat sodir etilishiga sabab bo‘lavermaydi.

Shart-sharoitlar oqibati yaratuvchi sabab tug‘ilishi va amalda namoyon bo‘lishi uchun imkoniyat yaratadi. Ular (shart-sharoitlar) sababning paydo bo‘lishi va amal qilishini ta’minlaydi.

Jinoyatchilikning sabablari va shart-sharoitlarini ajratish ancha qiyin, chunki sababiyat tushunchasi hech qachon sof holatda namoyon bo‘lmaydi. Jinoyatchilik

¹⁵³ Abdurasulova K.P. Kriminologiya. Mas’ul muxarrir: M.X.Rustambaev / O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. - T.: «Adolat», 2007. - 207 b.

¹⁵⁴ Шаргородский М.Д. Преступление в советском уголовном праве. -М.: Наука, 1973.- 67 с.

asosan muayyan sabablar bilan belgilanadi va u sabablarning amal qilishi bir qator holatlarga bog‘liqdir.

Mazmun jihatidan jinoyat sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi holatlar kriminologiya darsliklarida odatda iqtisodiy, tashkiliy- boshqaruv, ijtimoiy, ahloqiy-ruxiy, huquqiy va boshqa holatlarga ajratiladi. Ayni vaqtida bojxona sohasidagi jinoyatlarning sodir etilishiga imkoniyat yaratadigan, jinoyatlarning oldini olishda hisobga olinishi lozim bo‘lgan omillarni ajratish maqsadga muvofiqdir. Bular: ma’naviy-ahloqiy; iqtisodiy; ijtimoiy; tashkiliy-boshqaruv; huquqiy tusdagi omillardir.

Bojxona sohasidagi jinoyatlar sodir etilishini belgilovchi *ma’naviy-axloqiy omillar* (sabab) tizimi turlichadir. Birinchidan, ayrim TIF sub’ektlarining bojxona sohasida yetarli bilimlarga ega emasligi. Bunday sharoitda qonunga xilof yo‘llar bilan bo‘lsa ham yengil yo‘l bilan pul topib, boylik orttirishga intilish kuchayadi, fukarolarning huquqiy ongi, madaniyati va hulq-atvori kriminogen vaziyat ta’siri ostida qoladi. Ikkinchidan, TIF sub’ektlari orasida huquqiy nigelizmning tarqalganligi tufayli ayrim fuqarolar qonunlarda, jumladan Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan soliq yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash kabi burchlarini bajarmaydilar. Huquqiy nigelizm nafaqat konstitutsiyaviy burchni bajarmaslik, balki mamlakatda o‘rnatilgan soliq va bojxona qonunchiligini rad etishda ham namoyon bo‘ladi.

Ayrim tadqiqotchilarning qayd etishicha, soliq sohasidagi jinoyatlarni sodir etishning asosiy sabablaridan biri shaxsdagi ijtimoiy-axloqiy belgilarga bog‘liqdir. Bunda shaxs mamlakatda amal qilayotgan qonunlarni hurmat qilmaydi va unga rioya qilmaslik oqibatida soliq yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlaydi¹⁵⁵.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta’minalash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-sonli Farmoni bilan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiysi” tasdiqlangan bo‘lib, unda inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to‘sinqilik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qoliganligi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, hozirgi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini

¹⁵⁵ Franzoni Luigi Alberto - Tax Evasion and Tax Compliance, University of Bologna (6020), Italy, 1999.

yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ‘ibotning ilg‘or va ta’sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan yetarli darajada foydalanilmayotganligi alohida ta’kidlab o‘tilgan¹⁵⁶.

Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir ishlar samaradorligini yanada takomillashtirish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda huquqiy bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish lozim bo‘ladi.

Aholining huquqiy savodxonligi, shu jumladan huquqiy ongi va madaniyatini oshirishda ommaviy axborot vositalari o'rni muhimligini ham kriminolog olimlar tomonidan alohida qayd etilgan.

Umumiy profilaktik chora-tadbirlarni o'tkazishda ommaviy axborot vositalaridan quyidagi yo'nalishlarda foydalanish mumkin: a) jinoyatlar sodir bo'lishiga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlarni oldini olish, ularni bartaraf qilish va ularga yo'l qo'ymaslikni ta'minlashda; b) ma'lum bir shaxslarning jinoyat sodir etish usullaridan ommani ogoh etishda; d) jinoyat uchun jazo muqarrar ekanligini namoyish etishda; e) huquq- tartibotni buzuvchilar va huquqbazarlik sodir etishga moyil shaxslarning nojo'ya hatti-harakatlarini qoralash va shu orqali aholini ularga nisbatan beg'am bo'lmaslikka chorlash maqsadida; f) fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirishda; g) huquqbazarliklarning oldini olish faoliyati bilan band bo'lgan adliya idoralari va jamoat tashkilotlarining mavqeini ko'tarishda va boshqalar¹⁵⁷.

Yuqorida tadqiqotlarimiz natijasida TIF bilan bog'liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlarining o'ziga xos xususiyatlari sifatida ularning eng intellektual, murakkab, professional, yuqori uyushgan va juda daromadli noqonuniy faoliyat ekanligi va unda davlat manfaatlariga katta zarar yetkazilishini ta'kidlab o'tgandik.

Bojxona sohasidagi jinoyatlar sodir etilishida imkoniyat yaratuvchi asosiy *iqtisodiy omil* sifatida mamlakatda “yashirin iqtisodiyot”ning mavjudligini ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin.

“Yashirin iqtisodiyot” yoki ushbu noqonuniy (jinoiy) hodisa doimo huquqshunoslar, sotsiologlar, kriminologlar, siyosatshunoslar, iqtisodchilar, huquq-tartibot idoralari vakillari va jamoatchilikning e’tiborini tortib keladi. Tovar va xizmatlarni noqonuniy ishlab chiqarish, daromadni yashirish, hisobga olinmagan naqd pul aylanmasi, noqonuniy daromadlarni legallashtirish, korrupsiya va xizmat lavozimlarini suiiste’mol qilish va yashirin faoliyatning boshqa ko‘rinishlari rasmiy iqtisodiyotning doimiy ta’qibchilaridir. Bojxona sohasidagi

¹⁵⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/4149765>.

¹⁵⁷ Kriminologiya: Darslik / 3.S.Zaripov, A.S.Yakubov, G.A.Avanesov va boshq.; prof. Z.S.Zaripov taxriri ostida. - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006. - 280 b.

jinoyatlar ham “yashirin iqtisodiyot” ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi¹⁵⁸.

Bojxona sohasidagi jinoyatlarni sodir etilishida imkoniyat yaratuvchi *ijtimoiy omillar* doirasi ham ancha kengdir. Xususan, iqtisodiyot sohasidagi jinoyatchilikning o‘sish sur’atlari jadallahshuviga aholining daromadlar darajasiga ko‘ra tabaqalanishi ayniqsa kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Bunday tabaqalanish jamiyatda ijtimoiy keskinlikni kuchaytiradi.

Mazkur muammoning yana bir o‘ziga xos xususiyati shundaki, TIF sub’ektining moddiy ahvoli qancha yomon bo‘lsa, bojxona qonunchiligini buzish va bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlashga turtki beruvchi omillarning ta’siri shuncha kuchli bo‘ladi. Jumladan, barcha bojxona majburiyatlarining bajarilishi jismoniy yoki yuridik shaxsning iqtisodiy holatini yomonlashtirishi, hatto uning tugatilishiga ham sabab bo‘lishi mumkin. Ayni shu sababli TIF sub’ekti bojxona qonunchiligini buzish va bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlashni hayot kechirishning yagona yo‘li, deb hisoblashi mumkin.

Aholi daromadlarining kamligi mazkur jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablardan biridir. Aynan savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga xilof ravishda hamda faoliyat bilan litsenziyasiz shug‘ullanish natijasining tannarxi qonuniy tadbirdorlik faoliyati sub’ektlarining ish natijasidan ancha past bo‘ladi, sababi, mazkur jinoyat bilan shug‘ullanayotgan shaxs davlatga hech qanday soliq yoki boshka majburiy to‘lovanni to‘lamaydi va ishlab chiqarayotgan mahsulot sifatiga nisbatan mas’uliyat sezmaydi. Bu esa o‘z navbatida bunday shaxslarga ishlab chiqargan mahsulotini arzon bahoda bozorga chiqarish imkoniyatini vujudga keltiradi. Aholining kam daromadga ega bo‘lishi bu holda ular uchun ayni muddaodir. Tabiiyki, kam daromadga ega bo‘lgan aholini mahsulotning sifati emas, balki uning bahosi qiziqtiradi¹⁵⁹. O‘zining moddiy ahvolini bojxona qonunchiligini buzish va bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovash yo‘li bilan boyitishga tayyor bo‘lgan tadbirdorlar va fuqarolar soni ko‘payadi.

TIF sub’ektlariga bojxona qonunchiligini buzish va bojxona to‘lovanni to‘lashdan bo‘yin tovash yoki boshqa g‘ayriqonuniy harakatlarni sodir etish imkoniyatini beruvchi *tashkiliy-boshqaruv* sohasidagi kamchilik (omil)lar orasida tadbirdorlik sub’ekti sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va tadbirdorlik faoliyati sohasidagi litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillari bilan bog‘lik kamchiliklar alohida o‘rin egallaydi.

Jumladan, hozirgi kunga qadar tadbirdorlik faoliyatini amalga oshirishda yuzaga keladigan har qanday ruxsatnomalar berish va hisobga olish ishlarini

¹⁵⁸ Achilov A.T. Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlarini jinoiy-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish //Monografiya-Toshkent: BI, 2020-y. – 230 b.

¹⁵⁹ Abduqodirov Sh.Yo. Qonunga xilof tadbirdorlikka qarshi kurashning jinoyat- huquqiy va kriminologik muammolari. Yurid. nomz. ... diss. - Toshkent: TDYuI, 2007. - 124 b.

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish asosida ularning davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlarida bevosita muloqot qilmaydigan shakllaridan to‘liq foydalanimasdan kelinmoqda.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 11-aprel kunidagi “Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini yanada qisqartirish va soddalashtirish, shuningdek biznes yuritish sharoitlarini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5409-sonli Farmonida tadbirkorlik sohasini davlat tomonidan tartibga solishning byurokratlashgan metodlari hali ham saqlanib qolinayotganligi, bu esa, o‘z navbatida, mahalliy biznesning raqobatdoshligini jadal rivojlantirish, ishbilarmonlik muhitiga yangi texnologiyalar va innovatsiyalarini tatbiq qilish, qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini yaratish bo‘yicha davlat siyosatining izchilligiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga to‘sinqilik qilishi ta’kidlab o‘tilgan¹⁶⁰.

TIF qatnashchilarining ko‘plab ma’muriy to‘sinqilarga uchrashi ham mazkur jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyunda “Bojxona ma’muriyatichilagini isloh etish va O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6005-son Farmonida bojxona siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga to‘sinqilik qilayotgan bir qator tizimli muammo va kamchiliklar hamon saqlanib qolyotganligi ta’kidlangan¹⁶¹.

Ta’kidlash lozimki, Juhon savdo tashkiloti, Juhon bojxona tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarning standartlari va tavsiyalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar bojxona ma’muriyatichilagini takomillashtirish va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirishni talab etadi. Shu bilan birga, «qog‘ozsiz va elektron bojxona» lozim darajada rivojlanmayapti, konrabanda, kontrafakt mahsulotlarni olib o‘tish, korrupsiya, noqonuniy valyuta operatsiyalari va bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovslashga qarshi kurashish usullari bojxona ma’muriyatichilining zamonaviy va sinovdan o‘tkazilgan usullarini qo‘llashni talab etmoqda.

Bu kabi kamchiliklarni bartaraf etish uchun tadbirkorlik sub’ekti sifatida ro‘yxatdan o‘tkazish tartibini yanada soddalashtirish, ruxsatnomalarini va litsenziyasiz faoliyat yuritishga qarshi kurash mexanizmi kuchaytirilishi lozim. Shuningdek, bojxona ma’muriyatichilagini isloh etish, bojxona organlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda samaradorligini oshirish, «qog‘ozsiz va elektron bojxona»ning mantiqiy davomi va rivojlanishi bo‘lgan «raqamli bojxonani»

¹⁶⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 11-apreldagi PF-5409-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/3676955>.

¹⁶¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyundagi PF-6005-son Farmoni, <https://lex.uz/docs/4844615>.

shakllantirish, shu bilan birga bojxona ishi sohasidagi umume'tirof etilgan xalqaro norma va standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilishni jadallashtirish lozim. Zero, tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatdan o'tkazish, ruxsatnomalar berishning soddalashtirilgan tartibi va bojxona ma'muriyatichiligining zamonaviy va sinovdan o'tkazilgan usullarini qo'llash kriminal faollik, bojxona qonunchiligi buzilishi, ayniqsa soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovslashning kamayishida muhim ahamiyat kasb etadi.

TIF bilan bog'liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlari miqdorining ko'payishiga imkoniyat yaratuvchi *huquqiy omillardan biri* amaldagi bojxonaga oid qonunchilikning kengligi, murakkabliligi va qonunchilikka doimiy ravishda kiritiluvchi o'zgartirishlardir. Bojxona qonunchiligi juda keng qamrovli munosabatlarni tartibga solishi va murakkabligi bilan ajralib turadi. Soliq va bojxona sohasiga doir normativ-huquqiy baza yuzdan ortik qonunlar, Prezident farmonlari, Hukumat qarorlari, soliq va bojxona idolarining yo'riqnomalari va tushuntirishlarini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga amaldagi bojxona qonunchiligiga doimiy ravishda kiritilayotgan o'zgartirishlar qo'shimcha kiyinchiliklar tug'diradi.

Aksariyat tadbirkorlarning fikriga ko'ra, mavjud soliq va bojxona tizimi investitsiyalarning kelishiga to'sqinlik qiladi, inflyatsiyani kuchaytiradi, tarkibi o'zgarishlarga monelik qiladi, soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovslashga turtki beradi. Biroq shunga qaramay, soliq va bojxona jinoyatchiligining ahlokiy-psixologik omili ko'p jixatdan ko'rsatilgan holat bilan emas, balki aybdorning soliq va bojxona tizimiga salbiy munosabati, hukukiy madaniyat darajasining pastligi, tamagirlik niyatining kuchliligi bilan belgilanadi.

Ayrim tadqiqotchilar soliq va bojxona to'lovlariغا oid ma'lumotlarning aniq emasligi, havolaki hujjatlarning ko'pligi, jinoyatchi shaxsining professionallik darajasi va hukukiy nigelizmi mazkur sohadagi jinoyatlarni sodir etilishining asosiy sabablari deb hisoblaydilar¹⁶².

Soliq va bojxona qonunchiligining murakkabligi nafaqat bojxona qonunchiligi buzish yoki bojxona to'lovlarini to'lashdan qasddan bo'yin tovslashga, balki ularni to'lashdan bo'yin tovlashni, shu bilan birga bojxona qonunchilagini buzishni xayoliga ham keltirmagan shaxslar tomonidan turli xatolarga yo'l qo'yilishiga ham sabab bo'ladi. Bojxona qonunchilagini buzish hollarining aksariyati TIF sub'ektlari davlat organlari tomonidan muttasil ravishda qabul qilinuvchi qonunchilikka o'zgartirishlar va qo'shimchalardan yaxshi xabardor emasligi bilan ham bog'liq hisoblanadi.

¹⁶² James Alm. Measuring, Explaining, and Controlling Tax Evasion: Lessons from Theory, Experiments, and Field Studies // Working Paper 1213. July 2012.

Soliq va bojxona qonunchiligiga nisbatan aniq tartibga solinganligi bilan taqqoslaganda, qonunchilikni buzish uchun javobgarlik belgilovchi normalar mazmuniga qonunda aniq ta’rif berilmagan tushunchalarni o‘z ichiga oladi (“kontrabanda”, “bo‘yin tovlash”, “yashirish”, “kamaytirish” va h.k.). Ushbu holatda nazorat organlariga mazkur tushunchalarni o‘z ixtiyoriga qarab talqin qilish va shundan kelib chikib TIF qatnashchilarini javobgarlikka tortish imkonini beradi. O‘z-o‘zidan ravshanki, bu qonunga qat’iy muvofiq bo‘lgan huquqni qo‘llash amaliyoti shakllanishiga ko‘maklashmaydi va ko‘pincha asossiz ravishda ma’muriy va jinoiy jazolar qo‘llanilishiga olib keladi.

Shunday qilib, soliq va bojxona qonunchiligining kengligi va murakkabligi, soliq va bojxona huquqi normalari fuqarolar tomonidan ham, huquqshunoslar tomonidan ham keng talqin qilinishi, qonunda mazmuniga aniq ta’rif berilmagan atamalarning qo‘llanilganligi, huquqning turli tarmoqlarida belgilangan normativ qoidalarning o‘zaro muvofiq emasligi TIF bilan bog‘liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlarining sodir etilishiga imkon beruvchi shart-sharoitlar hisoblanadi, biroq sanab o‘tilganlar shart-sharoitlarning ayrimlaridir.

Yuqoridagilarga qo‘sishimcha qilib, bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlarining sodir etilishiga quyidagi sabablarni ham keltirib o‘tishimiz mumkin:

- huquqni muhofaza qiluvchi organlarda, shuningdek, bojxona organlari, banklar, birjalar, ekspert tashkilotlari va boshqa TIF bilan shug‘ullanuvchi sohalarda davlat tomonidan nazorat qilish funksiyalariga ega amaldor shaxslar o‘rtasida nopok shaxslar mavjudligi va ularning xufyona biznes vakillari bilan birlashib ketganligi;

- bojxona organlarining zamonaviy texnika nazorati vositalari bilan yetarli darajada ta’milanmaganligi va chegaralarning texnik-muhandislik jihatdan mustahkam emasligi;

- huquqni muhofaza qiluvchi va davlat nazorat organlari o‘rtasida TIF sohasida huquqbazarlikka qarshi kurashish masalalari bo‘yicha o‘zaro mustahkam hamkorlik o‘rnatilmaganligi;

- tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi nazorat organlari bilan mavjud bo‘lgan hamkorlikni belgilovchi me’yoriy hujjatlarning mukammal emasligi va mavhumligi;

- bojxona organlari tezkor (operativ) kuchlarining TIF sohasida jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun kasbiy tayyorgarligining sayozligi, ushbu yo‘nalishda informatsion-operativ-iqtisodiy, tahliliy ishlarning past darajada tashkil etilganligi va malakali tezkor xodimlar apparati shakllantirilmaganligi va

hokazolar¹⁶³.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, bojxona sohasida ijtimoiy munosabatlarning kriminallashuvi keng qamrovli bo‘lib, u ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va madaniy sohalarni qamrab oladi. Xususan, bularning barchasiga puxta o‘ylanmagan bozor islohotlari, noqulay investitsiya muhiti, kapitalning yetarli darajada himoyalanmaganligi, inflyatsiyaning yuqori darjasasi, me’yoriy-huquqiy bazaning yetishmasligi (birinchi navbatda, tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, bojxona, soliq, valyuta qonunchiligi), tashqi iqtisodiy faoliyatda operatsiyalar ustidan davlat nazoratining past darajadagi nazorati, intellektual faoliyat natijalarining himoyasizligi, milliy valyutani qadrsizlanishi va huquqiy ongning pastligini ko‘rsatishimiz mumkin.

Nazorat savollari:

1. Jinoyatchilikning sabablari va jinoyatlar sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi shart-sharoitlar tushunchasi?
2. Bojxona sohasidagi jinoyatlarning sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi ma’naviy-ahloqiy omillar haqida gapiring.
3. Bojxona sohasidagi jinoyatlarning sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi iqtisodiy-ijtimoiy omillar haqida gapiring.
4. Bojxona sohasidagi jinoyatlarning sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi tashkiliy-boshqaruv va huquqiy tusdagi omillar haqida gapirib bering.

¹⁶³ Achilov A.T., Sheraliev B.Yu., “Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlarni oldini olish, fosh etish va ular bo‘yicha bojxona tekshiruvlarini o‘tkazish uslubiyati”. O‘quv-uslubiy qo‘llanma Toshkent: 2015.

§5.2. Bojxona sohasidagi jinoyatlarini oldini olish choralari

Bugungi kunda iqtisodiy munosabatlar globallashuvi sharoitida bojxona sohasida ijtimoiy munosabatlarning kriminallashuvi O‘zbekistonning rivojlanishiga eng jiddiy tahdid bo‘lib kelmoqda, bu mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash vazifasini murakkablashtirmoqda. Yuzaga kelgan jinoiy va kriminologik sharoitlarda tashqi iqtisodiy faoliyatning kriminallashuviga qarshi samarali davlat va umumi ijtimoiy chora-tadbirlarning yo‘qligi jinoiy tashqi iqtisodiy operatsiyalar va u bilan bog‘liq huquqbazarliklar, xususan, korruption bitimlarning keng tarqalishi nafaqat iqtisodiyotda halokatli o‘zgarishlar tahdidini keltirib chiqaradi, balki O‘zbekistonning milliy xavfsizligiga tahdid hisoblanadi.

Jinoyatchilikning oldini olish deganda odamlar, jamiyat va davlatni jinoyatlardan saqlash tushuniladi. Jinoyatlar profilaktikasi ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishining oldini olishga qaratilgan chora- tadbirlar majmuini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi “Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuning qabul qilinishi TIF sohasidagi huquqbazarlik va jinoyatlarga qarshi kurash borasida ham muhim ahamiyat kasb etdi¹⁶⁴. Mazkur qonunning 6-moddasiga muvofiq profilaktikaning umumi, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik turlari belgilangan.

Qonunning 4-bobi huquqbazarliklarning maxsus profilaktikasiga bag‘ishlangan bo‘lib, uni bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning ayrim turdagи huquqbazarliklar profilaktikasiga, bu turdagи huquqbazarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishga, ayrim toifadagi shaxslarni aniqlash va ularga profilaktik ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga doir faoliyati huquqbazarliklarning maxsus profilaktikasidir.

Jinoyatchilikning oldini olishning maxsus chora-tadbirlari deganda, muayyan kriminogen omillar ta’sirini bartaraf etishni, jinoyatlar sodir etilishiga monelik qiluvchi holatlarni yaratishni nazarda tutadi.

Maxsus profilaktika kriminogen omillarni izchil aniqlash, bartaraf etish, zaiflashtirish va neytrallashtirishdan, huquqbazarliklar sodir etishi mumkin bo‘lgan shaxslarni ahloqan tuzatishdan iborat bo‘lib, ushbu chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish jinoyatchilikning mavjudligi, uning holati va amaldagi omillarining xususiyati bilan bevosita bog‘liqdir.

Jinoyatlarni oldini olishning maxsus choralari profilaktika ishi bilan professional shug‘ullanadigan sub’ektlar tomonidan amalga oshiriladi.

¹⁶⁴ O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi “Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-371-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/2387357>.

Jinoyatlarning oldini olish sub'ektlari orasida iqtisodiy, soliq va bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tovlashning maxsus profilaktikasi bilan soliq, bojxona organlari va Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalari shug'ullanadilar.

Huquqni muhofaza qilish organlarining o'rganilayotgan jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha faoliyati samaradorligini oshirish ham TIF sohasidagi jinoyatlarning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga, hech shubhasiz, ko'maklashadi.

Shu maqsadda ular faoliyatidagi: fundamental nazariy va uslubiy ishlanmalarning ozligi; dastlabki tergov va surishtiruv organlari, tezkor bo'linmalarda yuqori malakali xodimlarning taqchilligi; bojxona sohasidagi jinoyatlarni aniqlash va ochishga ixtisoslashgan organlar va bo'linmalar zaruriy resurslar bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi, shu bilan birga ular o'rtasida o'zaro aloqalar lozim darajada yo'lga qo'yilmaganligi kabilarni bartaraf etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bizningcha, bojxona sohasidagi jinoyatlarning oldini olish chora-tadbirlari majmui quyidagi o'zaro bog'langan vazifalarga asoslanadi: jinoyatchilikning dinamikasi, tuzilishi va sabablariga bilvosita yo'l bilan profilaktik ta'sir ko'rsatish (umumiy ijtimoiy profilaktika); ushbu jinoyatlarning sabablar majmuiga ta'sir ko'rsatish bo'yicha maxsus choralar (kriminologik profilaktika); ushbu jinoyatlar sodir etilishining oldini olishning jinoyat-huquqiy vositalarini qo'llash (jinoyat-huquqiy profilaktika).

Shundan so'ng jinoyatchilikning oldini olish faoliyatining bojxona sohasidagi jinoyatlarning sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish; ushbu sohada huquqbazarliklar va jinoyatlar sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarni aniqlash va ularga ogohlantiruvchitarbiyaviy ta'sir ko'rsatish; tayyorlanayotgan jinoyatlar va huquqbazarliklarning oldini olish kabi maqsadlarini belgilash, bizningcha, o'rinni bo'ladi.

Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko'ra soliq sohasidagi jinoyatlarning oldini olish maqsadida tez-tez tekshiruvlar o'tkazib turilishi maqsadga muvofiqdir¹⁶⁵. Bizningcha, xususiy tadbirkor va kichik biznes sohasida tez-tez o'tkaziladigan tekshiruvlar tadbirkorlik va ishbilarmonlik muhitini pasayishiga olib kelishi mumkin.

Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga

¹⁶⁵ Lisa Marriott "Tax crime and punishment in new Zealand" // Paper prepared for the Australasian Tax Teachers' Association Conference, Sydney, 16–18 January 2012.

doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4848-son Farmoni bilan 2017-yilning 1-yanvaridan boshlab, tadbirkorlik sub'ektlarini rejadan tashqari tekshirishlarning barcha turlari bekor qilindi, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini, shu jumladan, jinoyat ishlari doirasidagi muqobil tekshirishlarning barcha turlari bekor bo'ldi, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda birinchi marta huquqbazarliklar sodir etgan tadbirkorlik sub'ektlari va ularning xodimlari yo'1 qo'yilgan qonunbuzarliklarni qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda ixtiyoriy ravishda bartaraf etgan va yetkazilgan moddiy zararni qoplagan taqdirda, ma'muriy va jinoiy javobgarlikdan, jarimalar va moliyaviy sanksiyalar (penyadan tashqari) qo'llanilishidan ozod etilganini ta'kidlab o'tmoq zarur¹⁶⁶. Bu bilan mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishini ta'minlash, xususiy mulkni himoya qilish va uning daxlsizligi kafolatlarining huquqiy mexanizmlarini yanada mustahkamlash, tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, respublikada investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash nazarda tutilgan.

Bojxona sohasidagi jinoyatlarning sodir etish sabablaridan biri mavjud normalarga salbiy munosabati bilan tavsiflanuvchi axloqiy-psixologik holatidir. Bunday munosabat ko'p jihatdan ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasining pastligi bilan izohlanadi. Shu sababli huquqbazarliklarni oldini olish borasidagi faoliyatning asosiy yo'nalihi, bizningcha, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishdir. Bu, eng avvalo, bojxona sohasidagi qonun hujjatlarini tanishtirib borishni, shu jumladan bojxona qonunchiligi va uning qo'llanilishi hakida aholiga keng axborot berishni nazarda tutadi. Bunda TIF ishtirokchilari bilan ma'rifiy ish olib borish, bojxonaga oid madaniyat va intizomni shakllantirish birinchi darajali ahamiyat kasb etishi lozim.

Jahonning ko'pgina mamlakatlarida bunday ish yuqori saviyada olib boriladi. Bunda soliq va bojxona qonunchiligidan ta'lim va maslahatlar berish ushbu mamlakatlarda davlat budgeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, tadbirkorlik sub'ektlariga qulay sharoitlar yaratish, shu jumladan unga xayrirox munosabatni shakllantirish, unga axborot va maslahatlar berishni tashkil etish talab qilinadi.

Bojxona nazorati jarayonida TIF sub'ektlari tomonidan jiddiy qonunbuzilish yoki bojxona to'lovlarini to'lashiga monelik qiluvchi ob'ektiv omillar aniqlangan bo'lmasa, uni belgilangan tartibda yoki ishni sudda ko'rish jarayonida undirishga qadar bo'lgan chora sifatida, TIF sub'ektiga nisbatan joriy profilaktika choralari qo'llanilishi, profilaktik ta'sir ko'rsatishning o'zgacha usullari tatbiq etilishi mumkin.

¹⁶⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktyabdagagi PF-4848-sonli Farmoni, <https://www.lex.uz/docs/3039311>.

Fuqarolarga yuzaga kelayotgan nizoli masalalarni suddan tashqari muhokama qilishning ochiq maydonini yaratish, sndlarda to‘planib qolgan ish hajmini kamaytirish, davlat organlarida nizolarni sudgacha ko‘rib chiqishning yangicha tizimini joriy etish, nizolarni hal etuvchi zamonaviy muqobil institatlarni yo‘lga qo‘yish talab etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 17-iyun kuni imzolangan “Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4754-sonli Qarori yuqoridagi masalalarni hal etishga qaratilgan¹⁶⁷. Qarorda belgilanishicha, bundan keyin ishni sudda ko‘rishga tayyorlash paytida suda taraflardan kelishuv bitimini tuzish ehtimolini yoki nizoni ko‘rib chiqishning muqobil usullarini qo‘llash mumkinligini aniqlaydi. Nizo suddan tashqarida hal etilishining huquqiy oqibatlarini tushuntiradi. Ta’kidlash joizki, 2020-yil 1-avgustdan boshlab eksperiment tariqasida Davlat bojxona qo‘mitasi huzurida “Jismoniy va yuridik shaxslar hamda davlat organlari o‘rtasidagi nizolarni sudgacha hal qilish bo‘yicha apellyatsiya kengashlari” tashkil etilib, hozirda samarali faoliyat olib bormoqda.

Yuqorida qayd etilgan “Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuning 14-moddasiga muvofiq, davlat bojxona xizmati organlarining huquqbazarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlariga quyidagilar kiritilgan:

- huquqbazarliklar profilaktikasiga doir davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

- bojxona sohasidagi huquqbazarliklar profilaktikasiga doir dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

- bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjalariга rivoja etilishi, bojxona to‘lovlaring to‘g‘ri hisoblanishi, to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- bojxona sohasidagi huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshiradi, shu jumladan mazkur huquqbazarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaydi, bartaraf etadi;

- bojxona sohasida huquqbazarliklar sodir etgan jismoniy va yuridik shaxslarning hisobini yuritadi, mazkur ma’lumotlarning tahlilini amalga oshiradi;

- huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda muassasalar bilan o‘zaro hamkorlik qiladi.

Amalga oshiruvchi funksiyalarining xususiyatiga ko‘ra bojxona sohasidagi jinoyatlarni oldini olish sub’ektlari: ixtisoslashgan va ixtisoslashmagan sub’ektlarga bo‘linadi. Ixtisoslashgan sub’ektlar uchun jinoyatlarning oldini olish funksiyasi asosiy hisoblanadi yoki birinchi darajali funksiyalardan biri sifatida

¹⁶⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-iyundagi PQ-4754-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/4859436>.

amal qiladi (DSQ, Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, DBQ, IIV, DXX va h.k.). Ixtisoslashmagan sub'ektlar uchun jinoyatlarning oldini olish bosh funksiyaga buysunuvchi va undan bevosita kelib chiquvchi yordamchi funksiya hisoblanadi (OTM, muktablar, o‘z o‘zini boshqarish organlar va boshqalar).

Faoliyat miqyosi (darajasi)ga ko‘ra umum davlat ahamiyatiga molik sub'ektlar (hukumat), mintaqaviy va tarmoqqa oid sub'ektlar, ob'ektga oid sub'ektlar farqlanadi.

Ayrim mualliflar profilaktika sub'ektlarini o‘zgacha tasniflaydilar. Masalan, V.N.Burlakov jinoyatchilikning oldini olish sub'ektlarini uch guruhga ajratadi. Birinchi guruh, umumijtimoiy profilaktika sub'ektlarini o‘z ichiga oladi. Ularga markaziy, mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari, shuningdek huquqni muhofaza qilish funksiyalarini bevosita bajarmaydigan jamoat tuzilmalari kiradi. Ikkinci guruhni maxsus kriminologik profilaktika sub'ektlari, ya’ni huquqni muhofaza qilish funksiyalarini bajaruvchi davlat organlari tashkil etadi. Uchinchi guruh individual profilaktika faoliyatini amalga oshiruvchi sub'ektlarni birlashtiradi¹⁶⁸.

Shundan kelib chiqib, biz bojxona sohasidagi jinoyatlarning oldini olish sub'ektlarini uch guruhga ajratishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Birinchi guruhga umumi ijtimoiy profilaktika sub'ektlari kiradi. Ikkinci guruhga bojxona sohasidagi jinoyatlarning oldini olish asosiy faoliyati hisoblanmaydigan, lekin o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirish jarayonida ushbu sohadagi jinoyatlar sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi yoki ularning sodir etilishini qiyinlashtiruvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlashlari mumkin bo‘lgan organlarni kiritish o‘rinli bo‘ladi.

Bojxona sohasidagi jinoyatlarning oldini olishning asosiy sub'ektlarini biz uchinchi guruhga kiritdik. Bular Davlat bojxona qo‘mitasi, Davlat soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmatidir.

Bojxona sohasidagi jinoyatlarni oldini olishning asosiy sub'ektlaridan biri - O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi mamlakatimizda bojxonaga oid huquqbazarlik va jinoyatchilikka qarshi kurash olib boruvchi huquqni muhofaza qilish organi hisoblanadi. U o‘z faoliyatini “O‘zbekiston Respublikasining Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq amalga oshiradi.

Ushbu Qonunda Davlat bojxona xizmati organlarining asosiy vazifalari tariqasida quyidagilar ham ko‘rsatilgan:

¹⁶⁸ Криминология // Под ред. В.Н. Бурлакова, В.П. Сальникова. - СПб., 1998.

o‘z vakolati doirasida O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va uning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash;

bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, qonun hujjatlari buzilishlarining, shu jumladan kontrabandaning oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo‘yish;

fuqarolarning bojxona sohasidagi huquqiy madaniyatini yuksaltirish va boshqalar.

Fuqarolar va TIF qatnashchilarida huquqbazarliklarni oldini olish bo‘yicha madaniyatni shakllantirish zarurligi bojxona organlariga maxsus profilaktika tadbirlari o‘tkazish majburiyatini yuklaydi.

Ommaviy axborot vositalari, avvalo gazeta, jurnallar va internet tarmoqlari TIF sohasidagi huquqbazarliklarning oldini olishni targ‘ib qilishga yaqindan yordam beradi. Bu nashrlarda tizimni isloh qilish, bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik, bojxona to‘lovleri bo‘yicha madaniyatni shakllantirish masalalariga doir materiallar muntazam e’lon qilib boriladi.

Shuningdek, hozirgi kunga kelib ijtimoiy tarmoqlar insonlarning kundalik hayotida keng kirib keldi. Davlat bojxona qo‘mitasi tomonidan TIF sohasi bilan shug‘ullanuvchi sub’ektlarga yengillik yaratish maqsadida, tovarlarning TIF TN kodlari bo‘yicha bojxona to‘lovlarini hisoblab chiqarib beradigan tavsiyaviy ahamiyaga ega tarmoqni ishga tushirish (telegram) huquqbazarliklarning kamayishi va oldini olishga xizmat qilgan bo‘lardi.

TIF sub’ektlarini tarbiyalash ishida televideenie juda katta rol o‘ynaydi. TIF qatnashchilarini qonunga bo‘ysunish ruhida tarbiyalash, bojxona sohasidagi jinoyatlar va huquqbazarliklarning oldini olish, jamoatchilikda insofsiz tadbirkorlarga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirishda bojxona xizmati organlari bilan ommaviy axborot vositalari o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga quyish muximdir.

Shuningdek, hozirgi kunda insonlarini kundalik hayotiga kirib borayotgan internet saytlarida qisqa metrajli videoroliklar joylashtirish orqali proflaktik tadbirlarni olib borish ham katta samara beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagи “Huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2833-sonli qarorida huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi chora-tadbirlarning aniq manzilga yo‘naltirilmaganligi va ularga kompleks yondashilmayotganligi, shuningdek huquqbazarliklarning tizimli ravishda sodir etilishiga doir sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish samaradorligi mavjud emasligi kutilayotgan natijalarni bermayotganligi qattiq tanqid qilinib, huquqbazarliklar profilaktikasi va

jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni muvofiqlashtirishning ta’sirchan tizimini yaratish, qonun buzilishlarining oldini olish va ularni bartaraf etishning zamonaviy tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish maqsadida ushbu sohada davlat idoralari va tashkilotlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari belgilab berildi¹⁶⁹.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi davlat organlarining ish shakli va uslublari, eng avvalo axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan yetarli darajada foydalanilmayotganligi sababli hozirgi kun talablariga to‘liq javob bermaydi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-avgustdagи “Berilgan bojxona imtiyozlaridan maqsadli foydalanilishini kameral nazorat qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va Davlat bojxona qo‘mitasining o‘zaro hamkorligi mexanizmi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 617-sonli qarorida berilgan bojxona imtiyozlaridan maqsadli foydalanilishini kameral nazorat qilish maqsadida davlat soliq va bojxona xizmatlari o‘rtasida onlayn rejimda axborot almashish tartibi belgilangan bo‘lsada, hozirgi kunga qadar bunday baza tashkil etilmagan¹⁷⁰.

Yuqorida bojxona sohasidagi jinoyatlarning sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi asosiy *iqtisodiy omil* sifatida mamlakatda “yashirin iqtisodiyot”ning mavjudligi ko‘rsatib o‘tilgan edi. Ta’kidlash lozimki, iqtisodiyotni, shu jumladan TIF sohasini rivojlantirishda yalpi ichki mahsulot tarkibida “yashirin iqtisodiyot”ning ulushini qisqartirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu hodisani yuzaga kelish omillarini chuqur tahlil qilish va unga qarshi kurashish mamlakatimizning hozigi kundagi asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomalarida 2020-yil va keyingi yillarda iqtisodiyot sohasida amalga oshirish zarur bo‘lgan dasturiy va maqsadli vazifalar birinchi ustuvor yo‘nalishida to‘xtalib, “Islohotlarimizga jiddiy to‘sinqilik qilayotgan “yashirin iqtisodiyot”ga barham berimas ekan, sog‘lom raqobat ham, qulay investitsiya muhiti ham shakllanmaydi”, deb bejiz ta’kidlamaganlar.

Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish

¹⁶⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagи PQ-2833-sonli Qarori, <https://www.lex.uz/docs/3141186>.

¹⁷⁰ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-avgustdagи 617-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/3851085>.

¹⁷¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil uchun eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi, <https://aza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-oliy-25-01-2020>.

yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida» 2020-yil 2-martdagি PF-5953-son Farmoni¹⁷² ijrosini ta‘minlash, shuningdek, iqtisodiyotda xufiyona aylanmani yanada qisqartirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-iyundagi "O‘zbekiston Respublikasida «Yashirin iqtisodiyot» ulushini qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 394-sonli Qarori bilan «yashirin iqtisodiyot» ulushini qisqartirish chora-tadbirlarini amalga oshirish bo‘yicha «yo‘l xaritasi»¹⁷³ tasdiqlandi.

Bundan oldingi paragrafda TIF bilan bog‘liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlari sodir etilishidagi *tashkiliy-boshqaruв* sohasidagi kamchilik (omil)lar orasida tadbirkorlik sub’ekti sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi va tadbirkorlik faoliyati sohasidagi litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillari bilan bog‘lik kamchiliklarga to‘xtalib o‘tgandik.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-oktabrdagi "Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida" PQ-2646-sonli qarori bilan tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tartibini tubdan takomillashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish asosida ularning davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlarida bevosita muloqot qilmaydigan shakllaridan foydalanishni jadal rag‘batlantirish maqsadida chora-tadbirlar kompleksi tasdiqlandi¹⁷⁴, 2017-yil 1-apreldan boshlab tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat interaktiv xizmatlari yagona portaliga integratsiyalashgan Internet tarmog‘idagi Tizim orqali kechayu-kunduz o‘tkazish va hisobga qo‘yish yo‘lga qo‘yildi. Amalga oshirilgan ishlar natijasida Jahon bankining "Doing business" yillik hisobotiga ko‘ra, Adliya vazirligi va Davlat xizmatlari agentligi mas’ul bo‘lgan "Biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish" ko‘rsatkichi bo‘yicha dunyoning 190 ta davlatlari ichida 8-o‘rinni egallab, O‘zbekiston tarixida birinchi bor Top-10 likka kirdi¹⁷⁵.

Shuningdek, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish hamda byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish orqali tadbirkorlik sub’ektlari faoliyati uchun yanada keng shart-sharoitlarni yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-avgust kuni "Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari

¹⁷² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagи PF-5953-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/4751561>.

¹⁷³ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-iyundagi 394-sonli Qarori, <https://lex.uz/ru/docs/4864136>.

¹⁷⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-oktyabrdagi PQ-2646-sonli Qarori, <https://www.lex.uz/docs/3063485>.

¹⁷⁵ <https://www.minjust.uz/uz/press-center/news/98424/>.

to‘g‘risida”gi PF-6044-sonli Farmoni qabul qilindi¹⁷⁶. Farmonda tadbirkorlik sub’ektlaridan ortiqcha hujjat talab qilmaslik va ularning vaqt hamda mablag‘lari sarflanishini kamaytirish uchun tartib-taomillarni soddalashtirish, tegishli hujjatlarni berish jarayonlarini to‘liq raqamlashtirish orqali shaffoflikni ta’minalash, shuningdek, ayrim turdagি litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar berishning namunaviy ma’muriy reglamentlarini joriy qilgan holda normativ-huquqiy hujjatlar sonini tubdan qisqartirish nazarda tutilgan chora tadbirlar belgilangan.

Mamlakatimizda bojaxona ma’muriyatçiliginin takomillashtirish va O‘zbekiston Respublikasi davlat bojaxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish, shuningdek bojaxona tartib-taomillarini yanada soddalashtirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-aprelda “O‘zbekiston Respublikasi davlat bojaxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5414-son, 2018-yil 24-noyabrda “Bojaxona ma’muriyatçiliginin takomillashtirish va O‘zbekiston Respublikasi davlat bojaxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5582-son, 2020-yil 5-iyunda “Bojaxona ma’muriyatçiliginin isloh etish va O‘zbekiston Respublikasi davlat bojaxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6005-son va 2021-yil 10-sentabrda “Bojaxona tartib-taomillarini soddalashtirish va davlat bojaxona xizmati organlari tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 6310-son Farmonlari qabul qilindi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 21-dekabrdagi O‘RQ-654-son qonuni bilan bojaxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg‘unlashtirish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyaga (Kioto, 1973-yil 18-may, 1999-yil 26-iyunda qabul qilingan o‘zgartirishlar bilan) qo‘sildi¹⁷⁷.

Albatta, mazkur islohotlar bojaxona tartib-taomillarining yanada soddalashtirilishiga, bojaxona organlari faoliyati samaradorligini oshirishga, shuningdek biznesni rivojlantirish yo‘lida byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish va mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga bojaxona tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va innovatsion (raqamli bojaxona) usullarni tatbiq etish orqali bojaxona tartib-taomillarini soddalashtirishga va bojaxona xodimlarining kasbiy malakasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni

¹⁷⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-avgustdagи PF-6044-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/4966394>.

¹⁷⁷ O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 21-dekabrdagi O‘RQ-654-sonli Qonuni, <https://lex.uz/ru/docs/5174753>.

izchil davom ettirish lozim bo‘ladi.

Shuni ta’kidlash joizki, bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan institutsional hujjatlar, xorijiy davlatlar tajribasi va ushbu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar bilan tanishish milliy qonunchilikni takomillashtirishda ijobiy samara beradi.

Jumladan, Irlandiyada xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashishda nazorat qiluvchi organlar jamoatchilik nazorati mexanizmlari va insofli TIF ishtirokchilari yordamiga tayanishi e’tirofga loyiq. Bunda soliqdan qochish va nosog‘lom raqobat hollari haqida fuqarolar, tadbirkorlar, jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalariga turli vositalar orqali elektron, og‘zaki yoki yozma shaklda, shu jumladan anonim tarzda xabar berish imkoniyati berilgan va murojaatchilarning shaxsi oshkor qilinmaydi¹⁷⁸.

Singapurda esa informatorlarning shaxsini sir saqlagan holda bergen ma’lumoti bo‘yicha aniqlangan va undirib olingan summaning 15 foizi, biroq 100 000 Singapur dollaridan ko‘p bo‘lmagan mukofot beriladi¹⁷⁹.

Irlandiyada TIF sohasidagi huquqbazarlik uchun javobgarlikka tortish tizimi shaxsning huquqbazarlikni ixtiyoriy bartaraf etishiga qaratilgan. Ayni bir huquqbazarlik uchun sanksiyalar nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilganlik, huquqbazarlik oqibatlarini ixtiyoriy bartaraf etish va huquqbazarlik takrorlanishi darajasiga qarab differensiya qilinadi.

Xorijiy davlatlarda TIF sohasidagi huquqbazarliklar uchun muqobil jazo choralarining keng qo‘llanilishini ko‘rish mumkin. Singapurda soliq huquqbazarligi aniqlanganda ish holatiga qarab to‘lanmagan summaning 4 baravarigacha bo‘lgan summani to‘lash taklif etilib, ushbu taklif qabul qilinsa ish sudga oshirilmaydi.

Irlandiyada jazo chorasi sifatida soliq to‘lashdan bo‘yin tovlagan yoki soliqlarni to‘lamaganlar ro‘yxati har chorakda e’lon qilib boriladi, Singapurda soliqlarni to‘lanmagan shaxslarni mamlakatdan chiqishiga cheklovlar qo‘yish belgilangan.

AQShda soliqdan jiddiy qarzi bor (51 000 AQSh dollaridan yuqori) shaxslar qarzdorligini bartaraf etmasa ularga pasport berilmaydi yoki almashtirilmaydi, yoxud berilgan pasport bekor qilinadi. Shuningdek, shaxsning soliq qarzi borligi to‘g‘risida barcha kreditorlarga e’lon qilinadi. Oqibatda bunday shaxslarga ish, kredit, ijara beruvchilar o‘z xizmatlarini taqdim etishni rad etishi mumkin. Qarzdorlik ijtimoiy sug‘urta to‘lovlariga, bo‘lg‘usi to‘lovlariga bo‘lgan huquq – ish haqiga, uy-joyga (asosiy yashash joyiga oid cheklovlar bilan) ham qaratilishi

¹⁷⁸ www.revenue.ie. Irlandiya Soliq va bojxona daromadlari idorasining rasmiy sayti ma’lumotlaridan foydalanildi.

¹⁷⁹ <https://www.iras.gov.sg>.

mumkin.

Nazorat savollari:

1. Jinoymatchilikning oldini olish tushunchasi?
2. Bojxona sohasidagi jinoymatlarning sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi sabablar va shart-sharoitlarni oldini olishga qaratilgan ma'naviy-ahloqiy omillar haqida gapiring.
3. Bojxona sohasidagi jinoymatlarning sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi sabablar va shart-sharoitlarni oldini olishga qaratilgan iqtisodiy-ijtimoiy omillar haqida gapiring.
4. Bojxona sohasidagi jinoymatlarning sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi sabablar va shart-sharoitlarni oldini olishga qaratilgan tashkiliy-boshqaruv va huquqiy tusdagi omillar haqida gapirib bering.

TESTLAR

1. Quyidagilardan qaysi biri bojxona organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyatida ko‘zlangan maqsadlardan biri hisoblanadi?

- A) O‘zbekiston Respublikasida qonun ustuvorligi va huquq-tartibotni ta’minlash
- B) davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash
- D) Huquqbazarliklarga qarshi kurashish, ularning sodir etilishini oldini olish choralarini ko‘rish
- E) Bojxona nazoratini samaradorligini oshirish hamda bojxona to‘lovlарini to‘liq va to‘g‘ri undirilishini ta’minlash

2. Ma’muriy huquqbazarlik quyidagilardan qaysi alomatni o‘z ichiga olmaydi?

- A) g‘ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlik;
- B) aybdorlik;
- D) tartibga solish;
- E) javobgarlikka tortish.

3. Ma’muriy huquqbazarlikning umumiylari xususiyatlari qaysilar kiradi?

- A) aybning mavjudligi, jazoga sazovorligi.
- B) ijtimoiy zararli va ma’muriy huquqqa xilof hisoblanadi
- D) jismoniy shaxs tomonidan sodir etiladigan qilmishdir
- E) barcha javoblar to‘g‘ri

4. Ma’muriy huquqbazarlik bilan jinoyat o‘rtasidagi farqlovchi xususiyatlarni toping.

- A) muhofaza etiladigan ijtimoiy munosabatlar
- B) og‘ir oqibatlarning mavjudligi, ularning ro‘y berishi mumkinligi
- D) huquqbazarlik oqibatida yetkazilgan zararning miqdori
- E) ma’muriy jazo qo‘llanilgandan so‘ng takroran huquqbazarlik sodir etish

5. Qaysi holda ma’muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxs o‘z harakati yoki harakatsizligi g‘ayrihuquqiy ekanligini biladi, uning zararli oqibatlariga ko‘zi yetadi va uning yuz berishini istaydi?

- A) to‘g‘ri qasd
- B) Ehtiyyotsizlik

- D) egri qasd
- E) nojo‘ya ish

6. Harbiy xizmatchilar va yig‘inga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar, shuningdek, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar va boshliqlar tarkibiga mansub shaxslar qaysi huquqbuzarliklar uchun umumiy asoslarda ma’muriy javobgar bo‘ladilar?

- A) yo‘l harakati qoidalarini buzish
- B) ov qilish, baliq tutish va baliq zaxiralarini saqlash qoidalarini buzish
- C) bojxona qoidalarini buzish
- E) barcha javoblar to‘g‘ri

7. Bojxona organlari xodimlari ma’muriy huquqbuzarlik sub’ektining qaysi turiga kiradi?

- A) Umumiyl sub’ekt
- B) Maxsus sub’ekt
- C) Alovida sub’ekt
- E) Turdosh sub’ekt

8. Shaxsni ma’muriy javobgarlikka tortish uchun qaysi asoslar mavjud bo‘lishi shart?

- A) Yuridik asos
- B) Faktik asos
- C) Protsessual asos
- E) barchasi

9. Qaysi ma’muriy jazo turlari ham asosiy, ham qo‘srimcha ma’muriy jazo tariqasida qo’llanilishi mumkin?

- A) Ma’muriy qamoq, jarima, maxsus huquqdan (transport vositasini boshqarish huquqidan) mahrum etish
- B) Ashyolarni ularning haqini to‘lash sharti bilan olib qo‘yish, musodara qilish va maxsus huquqdan (transport vositasini boshqarish huquqidan) mahrum etish
- D) Jarima, ma’muriy qamoq, chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni O‘zbekiston Respublikasi hududidan ma’muriy tarzda chiqarib yuborish
- E) Jarima, ma’muriy qamoq, ashayolarni ularning haqini to‘lash sharti bilan olib qo‘yish

10. Bojxona qonunchiligi buzilishining ob'ektlarini toping?

- A) O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tish tartibi
- B) O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tilishida bojxona nazorati
- D) O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tilishida bojxona rasmiylashtiruvi
- E) barcha javoblar to'g'ri

11. Shaxs javobgarlikka tortish ma'lum bir belgilarga ega bo'lishi lozim, ular qaysilar?

- A) belgilangan yoshga to'lgan bo'lishi
- B) ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning aqli raso bo'lishi
- D) shaxsni ma'muriy javobgarlikka tortish uchun yuridik, faktik, protsessual asoslar mavjud bo'lishi
- E) barcha javoblar to'g'ri

12. Ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs qaysi huquqlarga ega?

- 1) ish materiallari bilan tanishib chiqishga;
 - 2) izohlar berishga, dalillar keltirishga;
 - 3) o'z iltimosini bayon etishga;
 - 4) ishni ko'rib chiqish vaqtida advokatning yuridik yordamidan foydalanishga;
 - 5) o'z ona tilida so'zlashga va tarjimonning xizmatlaridan foydalanishga;
 - 6) ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan shikoyat berishga.
- A) 1,2,3,4,6
B) 1,2,3,4,5,6
D) 1,2,3,4
E) 1,2,3,6

13. Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish vazifalari qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A) har bir ishning holatini o'z vaqtida, har tomonlama, to'liq va xolis aniqlash, uni qonun hujjalariiga muvofiq hal etish
- B) chiqarilgan qaror ijro etilishini ta'minlash
- D) ma'muriy huquqbazarlik sodir etilishi sabablari va unga ko'maklashuvchi shart-sharoitlarni aniqlash
- E) barcha javoblar to'g'ri

14. Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish muddati qachondan boshlanadi?

- A) huquqbuzarni bayonnomma tuzish uchun olib kelish paytdan, mast holdagi shaxslar uchun esa - ular hushyor tortgan vaqtdan
- B) bayonnomma tuzilgan paytdan
- D) huquqbazarlik aniqlangan paytdan
- E) Bojxona organi xodimi tomonidan navbatchilik qismiga xabar berilgan paytdan

15. Advokatning vakolatlari quyidagi qaysi javobda noto'g'ri berilgan?

- A) ishga oid materiallar bilan tanishib chiqishga
- B) uni taklif qilgan shaxsning topshirig'iga binoan va uning nomidan iltimoslar qilishga
- D) ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan shikoyat berishga
- E) qarorni noqonuniy deb topishga

16. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 271-moddasiga muvofiq, quyidagi holatlar mavjud bo'lган taqdirda bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishi to'g'risidagi ish yuritish boshlanmasligi, boshlangan ish esa tugatilishi lozim. Quyidagi qaysi javobda noto'g'ri holat berilgan?

- A) ma'muriy huquqbazarlik hodisasi yoki alomati yo'q bo'lsa
- B) ma'muriy huquqbazarlikni sodir etish paytida shaxs o'n olti yoshga to'lmagan bo'lsa
- D) g'ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlikni sodir etgan shaxs aqli noraso bo'lsa
- E) ma'muriy huquqbazarlik tugamagan(davom etayotgan) bo'lsa

17. Organ (mansabdor shaxs) ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqib, quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi?

- A) ma'muriy jazo qo'llanish to'g'risida
- B) ishni yuritishni tugatish to'g'risida
- D) ishni yuritishni to'xtatish to'g'risida
- E) A va B

18. Kimlarga nisbatan ma'muriy jazo O'zbekiston Respublikasi qatnashchisi hisoblangan xalqaro shartnomalar va bitimlarga zid bo'lmagan darajada qo'llaniladi?

- A) ajnabiyl fuqarolarga
- B) immunitetga ega bo'lgan shaxslarga

- D) fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga
- E) O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga

19. Ma’muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar jumlasiga quyidagilardan qaysi biri kirmaydi?

- A) aybdorning o‘z qilmishidan chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lishi
- B) aybdorning huquqbazarlikning zararli oqibatlari oldini olishi, yetkazilgan ziyonni ixtiyoriy ravishda to‘lashi yoki keltirilgan zararni bartaraf qilishi
- C) huquqbazarlikning kuchli ruhiy hayajon ta’siri ostida yoki og‘ir shaxsiy, oilaviy yoxud boshqa sharoitlar yuzaga kelganligi oqibatida sodir etilishi
- E) voyaga yetmagan shaxsni huquqbazarlikka tortish

20. Kimlar bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rish va bojxona organlari nomidan jazolarni qo‘llashga haqli?

- A) Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bojxona boshqarmalari va «Toshkent-AERO» IBK boshliqlari
- B) Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bojxona boshqarmalari va «Toshkent-AERO» IBK boshliqlari va ularning o‘rindbosarlari
- D) Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bojxona boshqarmalari va «Toshkent-AERO» IBK boshliqlari hamda surishtiruv va ma’muriy amaliyot bo‘limi boshliqlari
- E) Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bojxona boshqarmalari va «Toshkent-AERO» IBK boshliqlari, post boshliqlari, surishtiruv va ma’muriy amaliyot bo‘limi boshliqlari

21. Agar shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazilayotgan shaxs bojxona organi mansabdor shaxsining qonuniy talablarini bajarmasa yoki bajarishga qarshilik ko‘rsatsa, ushbu harakatlar ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq jismoniy shaxsni asos bo‘ladi.

- A) tibbiyat muassasiga joylash uchun
- B) ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish uchun
- D) jarimaga tortish uchun
- E) jismoniy kuch ishlatish uchun

22. Ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida shu qarorning nusxasi olingan kundan e’tiboran qancha muddatda shikoyat berilishi mumkin?

- A) o‘n besh kun ichida

- B) yigirma kun ichida
- D) o‘n ikki kun ichida
- E) o‘n kun ichida

23. Ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan kimga shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin?

- A) yuqori turuvchi organga (mansabdar shaxsga) yoki jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudiga
- B) bojxona organiga
- D) prokuratura organlariga
- E) Oliy Sudga

24. Jinoyatlar o‘z xususiyati va ijtimoiy xavfsizlik darajasiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?

- A) Og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarga
- B) Ijtimoiy xavfi katta bo‘limgan, uncha og‘ir bo‘limgan jinoyatlarga
- D) Uncha og‘ir bo‘limgan va o‘ta yengil jinoyatlarga
- E) a,b javoblar to‘g‘ri

25. Kontrabanda jinoyati (246-modda) va Bojxona to‘g‘risidagi qonun-hujjatlarini buzish jinoyati (182-modda) o‘rtasidagi asosiy farq nimada?

- A) Ob’ektiv tomonida
- B) Miqdorda
- D) Motivida
- E) Jinoyat predmetida

26. Jinoyat Kodeksidagi bojxona qonunchiligi buzilishi bilan bog‘liq moddalar qatorini belgilang

- A) 182, 184, 186, 246, 130¹, 250¹, 244³, 244⁴ moddalar
- B) 182, 184, 186, 246, 130, 250¹, 244⁴ moddalar
- D) 182, 184, 243, 246, 130¹, 250, 244³, 244⁴ moddalar
- E) 182, 184, 246, 130, 130¹, 250¹, 244³, 244⁴ moddalar

27. Soliq yoki boshqa majburiy to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tov lashning bevosita ob’ekti?

- A) Iqtisodiyot sohasidagi ijtimoiy munosabatlar, ya’ni iqtisodiy boyliklarni yaratish, taqsimlash va iste’mol qilish yuzasidan vujudga keladigan, shu bilan birga mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va ularni tasarruf etish huquqi bilan bog‘liq jinoyat qonunchiligi bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar

B) O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiyot asoslari, ya’ni bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizi, turli xildagi mult shakllari bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar

D) Jinoyat qonuni bilan muhofaza etiladigan ijtimoiy munosabatlar yig‘indisi

E) davlatning soliqqa tortish sohasidagi ijtimoiy munosabatlari, ya’ni soliq yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashni amalga oshiruvchi soliq, bojxona organlari va soliq va boj to‘lovchilar (jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning mansabdar shaxslari) o‘rtasida vujudga keladigan soliq yoki boshqa majburiy to‘lovlarga tortish, hisoblash va ularni to‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar tashkil qiladi

28. Namoyish qilish yoki tarqatish maqsadida pornografik mahsulotlarni tayyorlash jinoyatlarining ob’ekti?

- A) jamoat tartibi va jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq normasi
- B) jamoat tartibi
- C) odob-axloq normasi
- E) fuqarolarning huquq va yerkinliklari

29. Shaxsni JKning 130-moddasidagi jinoyatga tortish uchun shaxs MJtKning qaysi moddasidagi huquqbazarlik uchun javobgarlikka tortilgan bo‘lishi kerak?

- A) 178
- B) 189
- D) 188
- E) 134

30. Zo‘ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida tayyorlash yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish jinoyatining sub’ekti?

- A) 16 yoshga to‘lgan aqli raso jismoniy shaxs
- B) 18 yoshga to‘lgan aqli raso jismoniy shaxs
- D) 14 yoshga to‘lgan aqli raso jismoniy shaxs
- E) 13 yoshga to‘lgan aqli raso jismoniy shaxs

31. Pirotexnika buyumlari deganda nimani tushunamiz ?

- A) yemiruvchi ta’sir ko‘rsatadigan kimyoviy moddalarni tushunish lozim
- B) o‘z tarkibiga yonuvchi yoki tez alanganuvchi moddalarni olgan jonli nishonni otish, muayyan ob’ektga shikast yetkazish yoki vayron qilish

maqsadlariga erishi uchun quroq sifatida ishlatalishga mo‘ljallangan yoki moslashtirilgan tabiiy yoki sun’iy, sintez qilingan, qattiq, suyuq, gazsimon materiallar va yonuvchi aralashmalar

D) harbiy va tinch maqsadlar uchun mo‘ljallangan, tarkibida portlovchi va tez yonuvchi moddalar bo‘lgan yoritish, tutun chiqarish, alanga oldirish vositalarini tushunish zarur. Masalan, signal moslamalari, mushaklar, turli illyuminatsiyalar va hokazo

E) Har xil salbiy ta’sir ko‘rsatadigan kimyoviy moddalar

32. JK 244³-moddasining bevosita asosiy ob’ekti bu -

A) Jamoat xavfsizligini tartibga soluvchi va ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlar

B) O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, saqlash, mamlakat hududiga olib kirish yoki tarqatish tartibiga rioya qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlar

D) Jamiyatdagi normal axloqiy muhit, fuqarolarning axloqiy va jismoniy sog‘ligi

E) Diniy mazmundagi materiallar, ya’ni diniy maqsadga qaratilgan buyumlar, diniy adabiyotlar va axborot beruvchi boshqa materiallar

33. JK 244³-moddasining predmeti bu-

A) O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, saqlash, mamlakat hududiga olib kirish yoki tarqatish tartibiga rioya qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlar

B) Jamoat xavfsizligini tartibga soluvchi va ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlar

D) Diniy mazmundagi materiallar, ya’ni diniy maqsadga qaratilgan buyumlar, diniy adabiyotlar va axborot beruvchi boshqa materiallar

E) Jamiyatdagi normal axloqiy muhit, fuqarolarning axloqiy va jismoniy sog‘ligi

34. Agar shaxs qalbaki hujjatni tayyorlab, tovar yoki boshqa qimmatliklarni bojxona chegarasidan o‘tkazish maqsadida uni bojxona organiga taqdim qilsa uning harakatlarini qanday kvalifikatsiya qilish kerak?

A) JKning 182-m. 1-q. (bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish)

B) JKning 182-m. 1-q. va 228-m.lar bilan (bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish va hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blanklar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish) jinoyatlar jami sifatida

D) JKning 182-m. 1-q. va 209-m.lar bilan (bojxona to‘g‘risidagi qonun

hujjatlarini buzish va mansab soxtakorligi)

E) JKning 182-m. 1-q. va 209-m.lar bilan (bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish va mansab soxtakorligi) yoki JKning 228-m. bilan ishning holatlariga bog‘liq hollarda

35. Juda ko‘p miqdorni belgilang...

- A) BHMning 500 baravari va undan ortiq miqdor
- B) BHMning 100 baravaridan 300 baravarigacha miqdor
- C) BHMning 300 baravaridan 500 baravarigacha miqdor
- D) BHMning 300 baravaridan 600 baravarigacha bo‘lgan miqdor

36. Jinoyat qonunchiligi to‘rt turdag'i ishtirokchilikni qayd etadi. Bular

- A) bajaruvchi, tashkilotchi, dalolatchi, yordamchi
- B) bajaruvchi, tashkilotchi, ta’minlovchi, yordamchi
- C) ijrochi, tashkilotchi, yordamchi, dalolatchi
- D) bajaruvchi, tashkilotchi, ta’minlovchi

37. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi kimlarga nisbatan qo‘llanilmaydi?

- A) 55 yoshdan o‘tgan ayollarga, 60 yoshdan o‘tgan erkaklarga, voyaga yetmaganlarga
- B) 60 yoshdan o‘tgan erkaklarga, ayollarga va voyaga yetmaganlarga
- C) jinoyatni birinchi marta sodir etganlarga, voyaga yetmaganlarga
- D) ayollarga, 60 yoshdan o‘tgan erkaklarga

38. Ancha miqdordagi zarar qancha qiymatga ega?

- A) bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha bo‘lgan miqdordagi zarar
- B) bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha bo‘lgan miqdordagi zarar
- C) bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha bo‘lgan miqdordagi zarar
- D) bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan to‘rt yuz baravarigacha bo‘lgan miqdordagi zarar

39. Latent jinoyatchilik deganda nimani tushunasiz?

- A) Sodir etilgan, lekin turli sabablarga ko‘ra tegishli davlat organlari tomonidan ro‘yxatga olinmagan jinoyatlar

- B) Sodir etilgan, ammo javobgarlik muddati o‘tib ketgan jinoyatlar
- D) Muayyan bir davrda ijtimoiy xavfli tus olgan jinoyatlar
- E) Sodir etilgan, lekin isbotlanmagan jinoyatlar

40. Jinoyat-protsessual kodeksning 39¹-moddasiga ko‘ra, bojxona organlari huquqni muhofaza qilish faoliyatining qaysi turini amalga oshirishga haqli hisoblanadi?

- A) Tezkor-qidiruv faoliyati
- B) Surishtiruv
- D) Dastlabki tergov
- E) To‘g‘ri javob yo‘q

41. “... jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlar qabul qilingan paytdan boshlanadi hamda tergovga qadar tekshiruvni va jinoyat ishini tergov qilishni o‘z ichiga oladi”. Nuqtalar o‘rnini to‘ldiring.

- A) Surishtiruv
- B) Dastlabki tergov
- D) Ishni sudga qadar yuritish
- E) Surishtiruvchi yoki tergovchining vazifasi

42. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi Qonunining nechanchi moddasida tergovga qadar tekshiruv faoliyatini amalga oshirish bojxona organlari huquqlaridan biri sifatida ko‘rsatilgan?

- A) 7-moddasida
- B) 3-moddasida
- D) 13-moddasida
- E) 12-moddasida

43. Tergovga qadar tekshiruv olib borishning muddatlari Jinoyat-protsessual kodeksining nechanchi moddasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi?

- A) 329-moddasida
- B) 330-moddasida
- D) 331-moddasida
- E) 332-moddasida

44. Tergovga qadar tekshiruv olib borish muddati Jinoyat-protsessual kodeksiga ko‘ra, qancha vaqtni tashkil etadi?

- A) o‘n besh sutka
- B) o‘ttiz sutka
- C) uch sutka
- D) o‘n sutka

45. Tergovga qadar tekshiruv olib borish jarayonida quyidagi tergov harakatlaridan qaysi birini amalga oshirish mumkin?

- A) shaxsiy tintuv va olib qo‘yish
- B) so‘roq qilish
- C) guvohlanfirish
- D) ashyoviy dalil sifatida e’tirof etish

46. JPKning ushbu 329-moddasi asosida tergovga qadar tekshiruv muddati tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining tomonidan chiqariladigan qaror uchun quyidagilardan qaysi biri asos bo‘la olmaydi?

- A) tergov organi yoki prokurorning talabi bilan tergovga qadar tekshiruv organi har tomonlama tekshiruv harakatlarini amalga oshirish lozim bo‘lsa
- B) olis joylarda bo‘lgan yoki chaqiruvga binoan hozir bo‘lishdan bo‘yin tovlayotgan shaxslardan tushuntirishlar talab qilib olish zarur bo‘lsa
- C) yangi holatlar aniqlanib, ularni qo‘srimcha tarzda tekshirmasdan turib qaror qabul qilishning imkonini bo‘lmasa
- D) o‘tkazish uchun ko‘p vaqt talab qiladigan ekspertiza, xizmat tekshiruvi, taftish yoki boshqa tekshiruv tayinlangan bo‘lsa

47. Tergovga qadar tekshiruv jarayonida ish materiallari yuzasidan JPKning 330-moddasi tartibida quyidagi qarorlardan qaysi biri qabul qilinmaydi?

- A) ishni qo‘zg‘atishni rad qilish haqida
- B) jinoyat ishini qo‘zg‘atish haqida
- C) ma’muriy tartibda ish yuritish to‘g‘risida
- D) ariza yoki xabarni tergovga tegishliligiga qarab yuborish haqida ashyoviy dalil sifatida e’tirof etish

48. JPKning 39¹-moddasi talablaridan kelib chiqib, quyidagilardan qaysi biri tergovga qadar tekshiruv organi hisoblanmaydi?

- A) bojxona organlari

- B) DXX organlari
- D) soliq organlari
- E) chegarani qo‘riqlash organlari

49. Tergovga qadar tekshiruv organi kimning o‘z vakolatlari doirasida bergan topshiriqlarini bajarishlari shart?

- A) hokimning
- B) surishtiruvchining
- D) nazorat organi rahbarining
- E) huquqni muhofaza qiluvchi organ rahbarining

50. Tergovga qadar tekshiruv organi boshlig‘i quyidagilardan qay biriga haqli emas?

- A) tergovga qadar tekshiruv organlaridagi boshqa mansabdar shaxsga uni yuritishni topshirishga
- B) jinoyat ishini qo‘zg‘atishga yoki ish qo‘zg‘atishni rad etishga
- D) tergovga qadar tekshiruvni boshlashga
- E) aniqlangan jinoyat alomati bo‘lgan huquqbazarlik alomatlari bor holatlar bo‘yicha to‘plangan materiallarni tergovga tegishliligiga ko‘ra o‘tkazishga

51. Quyidagi tergovga qadar tekshiruv organlaridan qaysi biri tezkor-qidiruv faoliyat bilan shug‘ullanishga haqli?

- A) Majburiy ijro byurosi
- B) harbiy o‘quv yurtlari boshliqlari
- D) soliq organlari
- E) barcha tergovga qadar tekshiruv organlari tezkor-qidiruv faoliyat bilan shug‘ullanishga haqli

52. Tergovga qadar tekshiruv organi mansabdar shaxsining qonunga xilof hamda asossiz qarorlarini kim bekor qiladi?

- A) surishtiruvchi
- B) tergovchi
- D) prokuror
- E) yuqori turuvchi organ rahbari

53. Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirishda quyidagi tergov harakatlardan qaysi birini o‘tkazishga haqli emas?

- A) taftish tayinlash
- B) ko‘zdan kechirish

- D) ekspertiza tayinlash
- E) eksgumatsiya

54. Quyidagilardan qaysi biri prokurorning tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotgan bojxona organidan yoki uning mansabdor shaxsiga nisbatan vakolatiga kirmaydi?

- A) jinoyatlar haqidagi ariza va ma'lumotlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish va hal etish to'g'risidagi qonun talablari qay darajada ijro etilayotganligini har oy kamida bir marta tekshirish
- B) qonunga xi洛f hamda asossiz qarorlarini bekor qilish
- C) ishlarni qo'zg'atish va tergov qilish bilan bog'liq bo'lgan taklif va tavsiyalar berish
- E) materiallarni va boshqa ma'lumotlarni talab qilib olishi

55. O'zbekiston Respublikasi JPKning 38-moddasiga muvofiq, jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv organlari qatoriga kirmaydigan organ qaysi javobda berilgan?

- A) Bojxona organlari
- B) Milliy gvardiya
- C) Davlat xavfsizlik xizmati
- E) Majburiy ijro byurosi

56. Quyidagi jinoyatlardan qaysi biri bojxona organlari surishtiruviga tegishli emas?

- A) Jinoyat kodeksining 250-moddasi
- B) Jinoyat kodeksining 130¹-moddasi
- D) Jinoyat kodeksining 130-moddasi
- E) Jinoyat kodeksining 250¹-moddasi

57. JPK qoidalariga ko'ra, kim surishtiruvchiga yozma ko'rsatmalar beradi?

- A) prokuror
- B) sudya
- D) tergovchi
- E) advokat

58. Jinoyat ishini bir hududiy bojxona boshqarmasi doirasida bir surishtiruvchidan boshqa surishtiruvchiga o'tkazish lozim bo'lib qolsa, kimning roziligi bilan amalga oshiriladi?

- A) boshqarma boshlig'inining mutasaddi o'rinosari

- B) hududiy boshqarma boshlig‘i
- D) prokuror
- E) Surishtiruv va ma’muriy amaliyot bo‘limi boshlig‘i

59. Boshqa vakolatli organlardan qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi bojxona organlariga yuborilgan taqdirda, bojxona organi surishtiruvchisi qanday qaror qabul qiladi?

- A) bojxona organlari bunday ishlarni qabul qilmaydi
- B) jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risida
- D) jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etish to‘g‘risida
- E) o‘z ish yurituviga olish to‘g‘risida

60. Bojxona organlarida surishtiruv tamomlanadigan hol noto‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni belgilang.

- A) surishtiruvchi amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnama kiritish to‘g‘risidagi taqdimnama bilan ishni prokurorga topshiradi
- B) surishtiruvchi jinoyat ishini ayblov dalolatnomasi bilan sudga yuboradi
- D) taraflarning yarashuvi uchun sudga yuborish to‘g‘risida qaror chiqariladi
- E) ishni tugatish haqida qaror chiqariladi

61. Hodisa sodir bulgan joyni ko‘zdan kechirish tergov harakati quyidagilardan kim tomonidan o‘tkazilmaydi?

- A) Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi
- B) surishtiruvchi
- D) jamoat ayblovchisi
- E) sud

62. ... ish uchun ahamiyatli holatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni fan, texnika, san’at yoki kasb sohasi bo‘yicha bilimi bo‘lgan shaxs o‘tkazadigan maxsus tekshirish orqali olish mumkin bo‘lganda tayinlanadi? Nuqtalar o‘rnini to‘ldiring.

- A) Ekspertiza
- B) Taftish
- D) Eksperiment
- E) Ilmiy tekshirish

63. Bojxona organlarining surishtiruvi amaliyotida uchramaydigan tergov harakatini toping.

- A) tevarak-atrofni ko‘zdan kechirish
- B) ekspertni so‘roq qilish
- C) hodisa joyini ko‘zdan kechirish
- D) jabrlanuvchini so‘roq qilish

64. Aynan ana shu joyda jinoyat sodir etilganligi yoki uning izlari borligi haqida ma’lumotlar bo‘lgan taqdirda bojxon organi surishtiruvchisi tomonidan qanday tergov harakati o‘tkaziladi?

- A) hodisa joyini ko‘zdan kechirish
- B) ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish
- C) guvohlantirish
- D) tovarlarni ko‘zdan kechirish

65. Bojxona organlarida JPKning 336-moddasi tartibida qanday hollarda jinoyat ishi prokurorni darhol xabardor qilgan holda surishtiruvni amalga oshirish uchun qabul qilinishi mumkin?

- A) tergovga qadar tekshiruvni bojxona organlari amalga oshirilgan bo‘lib, jinoyat ishining tergovi o‘zining surishtiruviga tegishli bo‘lsa
- B) har qanday tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organdan yuborilib, jinoyat ishining tergovi bojxona organining surishtiruviga tegishli bo‘lsa
- C) tergov organlaridan yuborilib, jinoyat ishining tergovi bojxona organining surishtiruviga tegishli bo‘lsa
- E) bojxona organlariga tergov orgalari yoki prokurodan yuborilgan barcha jinoyat ishlari yuzasidan prokurorni darhol xabardor qilgan holda surishtiruvni amalga oshirish uchun qabul qilinishi mumkin

MASALA VA TOPSHIRIQLAR

1-masala

Bizga ma'lumki, bojxona organlari huquqni muhofaza qiluvchi organlar qatoriga kiradi, bu haqida "Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida"gi Qonunda ham qayd etilgan. Shuningdek, bojxona organlari huquqni muhofaza qiluvchi organ sifatida Jinoyat-protsessual kodeksiga asosan, tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv organi hisoblanadi. Unga ko‘ra, davlat bojxona xizmati organlari — bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikka doir ishlar bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv harakatlarini va surishtiruv o‘tkazishga haqli.

Fikrlash uchun savollar:

1. Bojxona organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyati nimalarda aks etadi?
2. Bojxona organlarining bunday faoliyatni amalga oshirishda afzallik va noqulaylik tomonlari mavjudmi?
3. Bojxona organlari huquqni muhofaza qiluvchi organ sifatida faqat bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikka doir ishlar bo‘yicha tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirishi kerakmi yoki boshqa sohadagi ishlarni ham ko‘rishga haqlimi?
4. Javobingizni ham huquqiy tomondan, ham misollar asosida izohlab bering.

2-masala

2021-yil 20-noyabr kuni soat 20-30da Sirdaryo viloyati bojxona boshqarmasi "Sirdaryo" chegara bojxona posti orqali Qozog‘istondan O‘zbekistonga o‘tish maqsadida "Mersedes-Benz" rusumli davlat belgisi 40Z042PA/408895AA bo‘lgan yuk avtotransport vositasini boshqarib kirib kelgan O‘zbekiston fuqarosi H.H. bilan og‘zaki savol javob qilingandan so‘ng unga tegishli bo‘lgan avtotransport vositasi belgilangan tartibda xolislar ishtirokida bojxona ko‘rigidan o‘tkazilganida, transport vositasiga yuklangan tovarlar ichida yo‘l yuk hujjatlarida va yo‘lovchi bojxona deklaratsiyasida ko‘rsatilmagan og‘zaki savol-javob vaqtida ma’lum qilinmagan, hech qanday tasdiqlovchi hujjatlari bo‘lmagan, xorijda ishlab chiqarilgan jami 100 mln. so‘mlik 8 xil turdagи tovar-moddiy boyliklarini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.02.2018-yildagi PQ-3512-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.06.2018-yildagi 463-sonli va 16.10.2018-yildagi 828-sonli qarorlarida belgilangan me’yor talablarini buzgan holda O‘zbekistonga Respublikasiga olib kirayotganligi aniqlandi.

Fikrlash uchun savollar:

1. *Mazkur holatga huquqiy baho bering.*
2. *Huquqbuzarlikning tarkibini bayon qiling.*

3-masala

Guliston shahrida joylashgan “Ravshanbek elite hamkor” MCHJga Rossiya Federatsiyasi Perm shahrida joylashgan IP “Kadirov Oybek Turakulovich” nomidan 27.10.2020-yildagi 243-sonli invoys hamda 243-sonli SMR asosida 37,39 m³ hajmdagi, qiymati 131808,0 Rossiya rubliga teng bo‘lgan “Yog‘och” mahsulotlarini “Erkin muomalaga chiqarish” (IM-40) bojxona rejimiga rasmiylashtirish uchun BYuD Sirdaryo viloyati bojxona boshqarmasi “Sayxun TIF” bojxona postiga yuborilgan hamda ushbu elektron BYuD “EBR” AAT dasturida 24010/02.11.2020/0004838-raqam bilan ro‘yxatga olingan, biroq yuk kuzatuv hujjatlari va BYuDda aks ettirilgan “Yog‘och” mahsulotlarini hajmlariga nisbatan post xodimlarida shubha bo‘lganligi sababli xavfni boshqarish tizimi orqali ushbu deklaratsiyani qizil yo‘lakka yo‘naltirilib, BYuDning 50-grafasida ko‘rsatilgan jamiyatning ishonchli vakili O‘zbekiston fuqarosi M.F. ishtirokida bojxona ko‘rigidan o‘tkazilganida, hujjatlar va BYuDda 37,39 m³ hajmda 1241 dona yog‘och mahsulotlari ko‘rsatilgan bo‘lsada, biroq bojxona ko‘rige natijasida davlat raqami 10419VBA/109075AA bo‘lgan yuk avtotransport vositasida yuk kuzatuv hujjatlari va BYuDda ko‘rsatilmagan 134 dona (eni 10 sm, balandligi 5 sm bo‘lgan) uzunligi 6 metrlik (970 kg., 4 m³) bo‘lgan yog‘och mahsulotlari ortiqcha ekanligi aniqlandi.

Fikrlash uchun savollar:

1. *Mazkur holatga huquqiy baho bering.*
2. *Ushbu holatda huquqbuzarlikning ob’ektiv tomonini tushuntirib bering.*

4-masala

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bojxona boshqarmasi “Qo‘ng‘irot” TIF bojxona postiga O‘zbekiston fuqarosi A.A. tomonidan to‘ldirilib, taqdim etilgan 35012/03.11.2020/0012432 raqamli BYuDdagi tovarlarning TIF TN kodlari tovar nomlari bilan o‘zaro mos bo‘lishi bojxona organlari tomonidan o‘rganilganda, “Подъемный механизм цилиндра для автомобиля ГАЗ-53” tovarining TIF TN kodi 8412212009 kod bilan tasniflanish o‘rniga 8412218008 deb xato ko‘rsatilgan, natijada bojxona qiymati o‘zgarishiga olib kelib 752 631,94 so‘m miqdorida qo‘sishmcha bojxona to‘lovlaridan kamomad aniqlandi.

Fikrlash uchun savollar:

1. *Mazkur holatga huquqiy baho bering.*
2. *Ushbu holatda huquqbuzarlikning ob’ektini tushuntirib bering.*

5-masala

Buxoro viloyati bojxona boshqarmasi “Qorako‘l” TIF bojxona postida rasmiylashtirilgan BYuDlar o‘rganilganda, “Karakul Garden Tex” MCHJ nomiga Xitoy Xalq Respublikasidan olib kelingan tovarlarga “Olot Logist Invest” MCHJning bojxona rasmiylashtiruvi bo‘yicha mutaxassis O‘zbekiston fuqarosi X.Yo. tomonidan “Erkin muomalaga chiqarish” bojxona rejimiga rasmiylashtirish uchun postga elektron shaklda taqdim etilgan va DBQning “EBR” AAT dasturida avtomatik tarzda ro‘yxatga olingan hamda xavfni boshqarish tizimi orqali qizil yo‘lakka yo‘naltirilgan 06009/03.11.2020/0004052-raqamli BYuDda ko‘rsatilgan tovarlarning bojxona qiymati ushbu BYuD va unga ilova qilingan yuk kuzatuv hujjatlaridagi ma’lumotlar bilan solishtirgan holda o‘rganilganda, taqdim etilgan hujjatlar bojxona qiymatini aniqlashning 1-usuli talablariga to‘liq javob bermasligi natijasida, mazkur tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashning boshqa usullari yordamida aniqlanib, to‘langan bojxona to‘lovlariga qo‘srimcha ravishda jami 4045750,05 so‘m miqdorida qo‘srimcha bojxona to‘lovleri undirilishi aniqlandi.

Fikrlash uchun savollar:

1. *Mazkur holatga huquqiy baho bering.*
2. *Ushbu huquqbazarlikning sub’ektiga izoh bering.*

6-masala

2021-yil 21-noyabr kuni soat 20-00da «Istambul-Toshkent» yo‘nalishi bo‘yicha 272-reys bilan uchib kelib, «Toshkent» xalqaro aeroportining umumiylar uchib kelish zalidagi «yashil» yo‘lak orqali harakatlangan, O‘zbekiston fuqarosi X.D.ning bagaji bojxona ko‘rigidan o‘tkazilganda, ichida bojxona nazoratiga taqdim etilmagan va bojxona xodimining og‘zaki so‘rovida aytilmagan, jismoniy shaxslar uchun belgilangan olib kirish me’yoridan ortiq bo‘lgan, jami 156 dona dori vositalari borligi aniqlandi.

Fikrlash uchun savollar:

1. *Mazkur holatga huquqiy baho bering.*
2. *Ushbu huquqbazarlik bo‘yicha ish yuritishni ta’minlash choralarini aytib bering.*

7-masala

Buxoro viloyati bojxona boshqarmasi “Qorovulbozor” TIF bojxona posti inspektorlari tomonidan bojxona omborlarida nazoratda turgan tovarlar ko‘zdan kechirilganda, “Buxoro neftni qayta ishlash zavodi” MCHJ nomiga “Toplivo dizelnoe marki A” tovarlari import tartibida 27029/28.09.2020/IM028479, 27029/28.09.2020/IM028381 va 27029/11.10.2020/IM029979-raqamli YuEBN kitobchalari asosida olib kelingan va Qorovulbozor tumanidagi “Buxoro neftni

qayta ishslash zavodi” MCHJ bojxona omboriga bojxona nazorati ostida joylashtirilgan bo‘lib, Bojxona kodeksining 261-moddasi talablariga zid ravishda tovarlar uchun yuk qabul qiluvchi “Buxoro neftni qayta ishslash zavodi” MCHJning Import va tolling bo‘limi boshlig‘i O‘zbekiston fuqarosi N.S. tomonidan belgilangan muddatda tegishli bojxona rejimiga rasmiylashtirish uchun BYuD va hujjatlarni taqdim etmaganligi aniqlandi.

Fikrlash uchun savollar:

1. *Mazkur holatga huquqiy baho bering.*
2. *Ushbu holatda ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishga vakolatli organ hamda ishni ko‘rib chiqish tartibini bayon qiling.*

8-masala

S. va B.lar chet elda ishlab chikarilgan kiyim-kechaklarni qonunga xilof ravishda O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish maksadida oldindan til biriktirib, bir oy davomida uch marotaba bojxona chegarasidan ko‘p miqdordagi tovarlarni olib o‘tishgan. So‘ngra qo‘lga tushib kolishdan xavfsirab, o‘zlarining ushbu faoliyatlarini to‘xtatishgan. Bojxona organi xodimlari tomonidan ularning yuqorida sodir etgan qilmishlari aniqlanib, ularga nisbatan Jinoyat kodeksining 182-moddasi ikkinchi qismining «v» bandi bo‘yicha jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan. Lekin S. va B.larning himoyachisi uning himoyasidagi shaxslar asossiz ravishda javobgarlikka tortilayotganligini bildirib, prokuror nomiga shikoyat yozgan.

Fikrlash uchun savol:

Yuqoridagi shaxslar va bojxona organi xodimlarining harakatlariga huquqiy baho bering.

9-masala

Fuqaro I. uyushgan guruh a’zosi sifatida juda ko‘p miqdordagi tovarlarni bojxona organiga qalbaki hujjatlar taqdim etish orqali qonunga xilof ravishda O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o‘tkazmoqchi bo‘lganida bojxona xodimlari tomonidan ushlab qolingan.

Fikrlash uchun savol:

Mazkur holatda I.ning qilmishini kvalifikatsiya qiling.

10-masala

2021-yil 21-mart kuni soat 20-10 larda “Qoraqalpog‘iston” temir yo‘l chegara bojxona posti xodimlari tomonidan “Qoraqalpog‘iston” temir yo‘l stansiyasiga kelib to‘xtagan 350-sonli “Moskva-Toshkent” yo‘nalishidagi yo‘lovchi poezdining 13-sonli vagoni bojxona ko‘rigidan o‘tkazilganda, ushbu vagon kuzatuvchisi, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi S.ga tegishli bo‘lgan qo‘l

yuklari bojxona ko‘rigidan o‘tkazilganida, unga tegishli chemodan ichida qiymati 350 dollardan bo‘lgan “SAMSUNG GALAXY 11S” rusumli 58 dona smartfonlar hech qanday hujjalarsiz, bojxona nazoratidan xufyona tarzda yashirinch olib o‘tmoqchi bo‘lgan vaqtida ushlab qolingan va ashyoviy dalil sifatida olinib, hujjalashtirilgan.

Fikrlash uchun savollar:

1. *Mazkur holatga huquqiy baho bering.*
2. *Huquqbazarlik tarkibini izohlang.*

11-masala

Xorazm viloyati bojxona boshqarmasi “Urganch” TIF bojxona postiga “Flour products” MCHJ tomonidan TIF TN kod raqami 1001990000 bo‘lgan “Bug‘doy uni 1-navli”. Tovarning og‘irligi 14000 kg. Bojxona qiymati 22500,0 AQSh dollariga teng. Tovarni kelib chiqish mamlakati Qozog‘iston bo‘lgan tovar taqdim qilingan. Ushbu tovarlar «Urganch» TIF bojxona posti tomonidan 00018/29.10.2019/00027 raqam bilan ro‘yxatga olingan va tovar kuzatuv hujjalari tekshirilganda tovarning kelib chiqish sertifikatiga nisbatan shubha uyg‘onib ekspertiza tayinlanadi. Ekspertiza natijasiga ko‘ra tovarning kelib chiqish sertifikati qalbaki ekanligi aniqlandi.

Fikrlash uchun savollar:

1. *Mazkur holatga huquqiy baho bering.*
2. *Huquqbazarlik tarkibini izohlang.*

12-masala

2021-yil 7-sentabr kuni Toshkent shahar bojxona boshqarmasi «Ark buloq» TIF bojxona postiga «Chocalotte» MCHJ nomiga Rossiya Federatsiyasidan TIF TN kod raqami 1806310000, og‘irligi 16000 kg bojxona qiymati 3 500 250,00 bo‘lgan “Шоколадный батончик” tovari olib kelingan. Ushbu tovar qizil yo‘lakka yo‘naltirilgan. «Ark buloq» TIF bojxona postining katta inspektori M.Rasulov tomonidan bojxona ko‘rigi amalga oshirilayotganda BYuDda ko‘rsatilmagan va bojxona ko‘rigidan yashirishga harakat kilib joylashtirilgan «Orient» nomli 200 dona, jami taxminiy qiymati 200 million bo‘lgan qo‘l soatlari joylashtirilgani aniqlandi.

Fikrlash uchun savollar:

1. *Mazkur holatga huquqiy baho bering.*
2. *Huquqbazarlik tarkibini izohlang.*

13-masala

G. o‘zining tomorqasida makkajo‘xori poyalari orasiga nasha o‘simgilini ekib yetishtirar edi. Uning qo‘slnisi X. esa ushbu giyohvandlik moddalarni Toshkent shaxriga olib kelib, tanishi K.ga topshirar va K. giyohvandlik moddasini papiros shaklida o‘rab sotar edi. Qo‘lga kiritilgan daromad esa ular orasida teng bo‘lingan.

Fikrlash uchun savol:

Mazkur shaxslarning harakatlarini kvalifikatsiya qiling.

14-masala

Chet el fukarolari F. va S.lar yashirin tarzda O‘zbekiston Respublikasiga prekursor moddalarni olib kirar edilar va O‘zbekiston Respublikasi fukarolari V. va M.lar bilan birga olib kelingan prekursorlardan giyohvandlik vositalari ishlab chiqarishardi.

Fikrlash uchun savol:

Mazkur holatda qilmishlarga jinoiy-huquqiy baho bering.

15-masala

Fuqaro Ch. yaqin do‘sti F.ning iltimosiga ko‘ra bir necha qop va qutilarni uyida saqlab turar, uning ichida nima borligi bilan hatto qiziqib ham ko‘rmasdi. Buning evaziga u do‘stdidan tez-tez sovg‘alar olid turardi. F. qo‘lga olingach, u bu qop va qutilarda O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan noqonuniy olib o‘tilgan pirotexnika buyumlarini saqlab kelganligi ma’lum bo‘ldi.

Fikrlash uchun savollar:

1. *Fuqarolar Ch. va F.larning harakatlariga huquqiy baho bering va javobgarlik masalasini muhokama qiling.*

2. *Mazkur holatda javobgarlikka tortishning yuridik va faktik asoslarini aniqlang.*

16-masala

Fuqaro I. uyushgan guruh a’zosi sifatida diniy mazmundagi materiallarni bojxona organiga qalbaki hujjatlar taqdim etish orqali qonunga xi洛f ravishda O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o‘tkazmoqchi bo‘lganida bojxona xodimlari tomonidan ushlab qoltingan.

Fikrlash uchun savol:

Mazkur holatda I.ning qilmishini kvalifikatsiya qiling?

17-masala

Chet el fuqarosi B. o‘zini ikki nafar tanishi bilan o‘n dona Germaniyada

ishlab chiqarilgan uchuvchisiz uchadigan apparat(dron)larni yashirin ravishda O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasini aylanma yo‘llar orqali chetlab olib o‘tib, oldi-sotdi bilan shug‘ullanuvchi M, N. va R.larga xar bir uchuvchisiz uchadigan apparatlarni 1100 AQSh dollariga qalbakilashtirilgan hujjatlar asosida sotayotganlarida qo‘lga olindi.

Fikrlash uchun savol:

Mazkur qilmish uchun qanday javobgarlik belgilangan?

18-masala

Chet el fuqarosi A. O‘zbekiston Respublikasiga chegara hududi orqali aylanma yo‘llar bilan o‘tib, chegara temir yo‘l ishchisi O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi B.dan shu tuman kasalxonasiqa qanday borishini so‘raydi. Fuqaro B. A.ga yo‘lni ko‘rsatib yuboradi. Oradan bir oy o‘tgandan so‘ng tergovchi M. fuqaro B.ni A.ga chegaradan noqonuniy o‘tishda yaqindan yordam bergenlikda ayblab, jinoiy javobgarlikka tortdi.

Fikrlash uchun savol:

Mazkur holatga huquqiy baho bering. Tergovchi M. to‘g‘ri qaror qabul qilganmi?

19-masala

2020-yil 8-avgustda R.ga nisbatan yakka tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tmasdan turib tadbirkorlik bilan shug‘ullangani va bojxona chegarasidan noqonuniy tovar olib o‘tganligi uchun jarima tariqasidagi ma’muriy jazo qo‘llangan, 2021-yil 5-oktabrda esa R. xuddi shunday harakatlarni sodir etganligi bo‘yicha surishtiruvchi tomonidan JK 188-moddasi 1-qismi va 182-moddasi 1-qismi bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan.

Fikrlash uchun savol:

R.ning qilmishi jinoiy javobgarlika tortish uchun asos bo‘ladimi?

20-masala

Bojxona xodimlari tomonidan J.Erkinov boshqaruvidagi “Damas” rusumli avtomashina to‘xtatilib ko‘zdan kechirilganda, uning salonida 112 kg. aluminiy metall parchalari borligi va uning ko‘rsatmasiga ko‘ra, fuqaro Q.Olimovning yashash xonadoni o‘zining roziligi bilan xolislar ishtirokida ko‘zdan kechirilganda, xonadon hovlisida 3 turdagи 1) 473 kg aluminiy metall parchalari, 2) 4 dona har xil sig‘imli tayyor qozonlar, 3) 4 turdagи 18 dona qozon ishlab chiqarishda foydalaniladigan anjomlar borligi, shuningdek Q.Vohidov tomonidan ijaraga olib foydalanib kelayotgan hovlidan 3 turdagи tovar moddiy boyliklar: 1) 56 kg aluminiy metall parchalari, 2) 1 dona cho‘yan qozon, 3) 7 dona har xil sig‘imli

ishlov berilmagan aluminiy qozonlar borligi aniqlangan.

Ushbu holat yuzasidan yuqoridagi fuqarolardan so‘rab surishtirilganda, yuqoridagi xonadonlarda noqonuniy ravishda qozon mahsulotlari ishlab chiqarayotganliklari aniqlangan.

Fikrlash uchun savol:

- 1) *Mazkur holatga huquqiy baho bering.*
- 2) *Ushbu holat yuzasidan bojxona xodimlari tomonidan tergovga qadar tekshiruv harakatlari amalga oshirilishi mumkinmi? Javobingizni asoslab bering.*
- 3) *Tadbir ishtirokchilari mazkur aniqlangan tovarni olib qo‘yishga haqlimi?*
- 4) *Noqonuniy ishlab chiqarilayotganligi aniqlangan qozon mahsulotlari bo‘yicha qanday ekspertiza o‘tkazish yuzasidan qaror chiqariladi? Ekspertlar oldiga qanday savollar qo‘yilishi lozim?*

21-masala

Fuqaro N.Alieva “Buyum bozori” yonida bir necha notanish shaxsdan 7 ta blokdagi 56 dona 1 litr sig‘imli polietilen idishlardagi, O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan “IDEALNOE” nomli paxta yog‘larini sotib olib, 2 dona sintetik qoplarga joylab, qayta sotish maqsadida bojxona nazorati o‘rnatilmagan yo‘l orqali noqonuniy ravishda Qиргизистон Республикаси оlib chiqib ketmoqchi bo‘lgan vaqtida chegara qo‘sinchisi va bojxona xodimlari tomonidan to‘xtatilgan.

Fikrlash uchun savol:

- 1) *Mazkur holatga huquqiy baho bering.*
- 2) *Mazkur holat yuzasidan qanday tergovga qadar tekshiruvlari harakatlari o‘tkazish lozim bo‘ladi?*
- 3) *Tergovga qadar tekshiruv muddatini uzaytirish uchun asoslar yuzaga kelishi mumkinmi? Qanday hollarda? Mazkur holatdan kelib chiqib tushuntiring.*

22-masala

Bojxona xodimlari tomonidan boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda o‘tkazilgan tadbir davomida O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi Sh.M. tomonidan avtomobil bozoridan notanish shaxslardan Koreya davlatida ishlab chiqarilgan “Lasetti” rusumli, avtomashinani sotib olib, ushbu avtomashinaga tegishli bo‘lgan AAS№0833200-raqamli transport vositasini qayd etish guvohnomasi bilan mazkur avtomashinani boshqarib yurganida to‘xtatilib tekshirilganda, ushbu transport vositasini qayd etish guvohnomasi shubha uyg‘otgan va avtomashina vaqtincha saqlovga olingan.

Fikrlash uchun savol:

- 1) *Ushbu holat yuzasidan o‘tkaziladigan tergovga qadar tekshiruv harakatlarini sanab bering?*

2) *Holat bo'yicha qanaqa ekspertizalar tayinlanadi?*

v) *Avtotransport vositasini qayd etish guvohnomasi qalbakiligi aniqlangan holatda fuqarosi Sh.M.ning harakatlariga huquqiy bering.*

23-masala

Moskva-Samarqand yo'nalishidagi F78820-sonli aviareys bilan uchib kelgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi T.M uchib kelish zaliga kelib, o'ziga tegishli bo'lgan bagajlarni olib, ixtiyoriy ravishda "yashil" yo'lakni tanlab, bojxona nazorati zonasidan o'tayotganda, unga tegishli bo'lgan bagaj-sumkasi rentgent apparatidan o'tkazilgan va shubha uyg'onganligi sababli bojxona ko'rigidan o'tkazish uchun yuborilgan. Fuqaro T.M.ning bojxona nazorati zonasidan o'tish vaqtida undan O'zbekiston Respublikasiga olib kirish meyorlaridan ortiqcha, maxsus ruxsatnoma talab kilinadigan tovarlar bor-yo'qligi to'g'risida so'ralganda, u yonida yoki bagajida bunday tovarlar yo'qligini ma'lum qilgan. Shundan so'ng, unga tegishli bo'lgan F7245809 raqamli bagaji xolislar ishtirokida ko'zdan kechirilganda, sumkaning ichida 1 (bir) dona SKY QUEST DRONE nomli uchuvchisiz uchish apparati borligi aniqlangan.

Fikrlash uchun savol:

1) *Uchuvchisiz uchish apparati bilan bog'liq qanday harakatlar jinoiy qilmish deb topiladi?*

2) *Mazkur holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilsa, qanday tergov harakatlari olib boriladi?*

3) *Jinoyat ishi yuzasidan ayblov dalolatnomasi tuziladimi, qanday holda, kimgarga nisbatan?*

24-masala

Bojxona boshkarmasi Kontrabandaga qarshi kurashish va bojxona audit bo'limi xodimlari tomonidan "SMART SHOE" MCHJ faoliyati yuzasidan tezkor o'rghanish o'tkazilgan. O'rghanishlar davomida mazkur MCHJ o'z faoliyati davomida tekstil va boshqa tovarlarini import qilganligi, ushbu import qilingan tovarlarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarori asosida 1,5 mlrd. so'm mikdorida bojxona to'lovlaridan imtiyoz olganligi aniqlangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr bo'yicha davlat qo'mitasi tomonidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, mazkur MCHJning respublika hududida xususiy mulk egaligi, ijara shartnomasi yoki boshqa asoslarda foydalananib kelayotgan ko'chmas mulklari to'g'risida ma'lumotlar mavjud emasligi ma'lum bo'lgan. Bundan tashqari, ushbu jamiyatning ishchi-xodimlari ro'yxatida ko'rsatilgan fuqarolar MCHJda faoliyat olib bormaganliklari va hech qanday oylik maosh olmaganliklari haqida ko'rsatuv

berishgan. Shunga asosan, “SMART SHOE” MCHJ tomonidan bojxona to‘lovlardan tayyor poyabzal hamda charm attorlik mahsulotlari ishlab chiqarish maqsadida bojxona to‘lovlardan bo‘yicha berilgan 1,5 mld. so‘m miqdordagi imtiyozlardan noqonuniy foydalanganligi aniklangan.

Fikrlash uchun savol:

1) Ushbu holatda qanday jinoyat alomatlari bo‘yicha tekshiruv ishlari olib borilishi lozim?

2) Mazkur holat yuzasidan bojxona organlari tomonidan jinoyat ishi qo‘zg‘atilishi mumkinmi, buning uchun qanday asoslar kerak bo‘ladi? “Soliq va boshqa to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash” jinoyat bo‘yicha qanday hollarda bojxona organi tomonidan surishtiruv o‘tkaziladi va qanday holda tegishliligiga ko‘ra tergovga organiga berib yuborish lozim?

3) Holat yuzasidan jinoyat kodeksining 184-moddasi bo‘yicha ish qo‘zg‘atilgan taqdirda qanday tergov harakatlari olib boriladi?

4) Imtiyoz sifatida ko‘rsatilgan mablag‘larni undirish masalasi qanday hal etiladi? Bu bojxona organining surishtiruv organi sifatida vazifasiga kiradimi?

5) Mazkur holat asosida jinoyat ishi yuzasidan taftish tayinlash lozim bo‘ladimi va u qanday tarzda o‘tkaziladi, taftish tayinlash to‘g‘risida qarorda nimalar ko‘rsatiladi?

25-masala

Bojxona xodimlari bilan tomonidan Toshkent shahri Chilonzor tumani hududidagi savdo majmuasi yaqiniga kelib to‘xtagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi D.F.ga tegishli Lasetti rusumli hamda O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi S.J.ga tegishli “Hundai Porter” rusumli avtotransport vositalarining saloni va yukxonasi belgilangan tartibda xolislар ishtirokida ko‘zdan kechirilganda, xorijda ishlab chiqarilgan, tovarlarga tegishli hech qanday hujjalari bo‘lmagan 3 turdan iborat jami 390 dona pirotexnika buyumlari borligi aniqlangan.

Fikrlash uchun savol:

1) Mazkur holatda bojxona organlari pirotexnika mahsulotlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv yoki surishtiruv ishlari olib borishga haqlimi?

2) Bojxona organlari tomonidan mazkur holat yuzasidan jinoyat ishi qo‘zg‘atilishi mumkinmi, buning uchun qanday asoslar kerak bo‘ladi? “Pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi” jinoyati bilan ish qo‘zg‘atilgan taqdirda tergov bojxona organlariga tegishli bo‘ladimi? Ushbu jinoyat bo‘yicha qanday tergov haraktalarini o‘tkazish lozim?

3) Ushbu holatda jinoyat ishi yuzasidan surishtiruv harakatlari yakunlangandan so‘ng, olib qo‘yilgan ashyoviy dalilning taqdiri nima bo‘ladi? Javobingizni asoslab bering.

4) Qanday hollarda jinoyat ishini qo‘zg‘atish rad etilishi mumkin? Jinoyat ishini rad etilgan taqdirda ham biron javobgarlik turi mavjudmi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari va metodologik ahamiyatga molik nashrlar:

1.1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi,

<https://www.lex.uz/acts/20596>

1.2. O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi,

<https://www.lex.uz/docs/2876354>

1.3. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi, <https://lex.uz/docs/97664#1423196>

1.4. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi,

<https://www.lex.uz/docs/111453>

1.5. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi,

<https://lex.uz/docs/111460>

1.6. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi,

<https://lex.uz/docs/4674902>

1.7. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi,

<https://lex.uz/docs/111189>

1.8. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktabrdagi “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ-502-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/4000640>

1.9. O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 26-maydagi “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi 77-II-sonli Qonuni, <https://www.lex.uz/docs/67345>

1.10. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 21-dekabrdagi “Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg‘unlashtirish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyaga (Kioto, 1973-yil 18-may, 1999-yil 26-iyunda qabul qilingan o‘zgartirishlar bilan) O‘zbekiston Respublikasining qo‘silishi to‘g‘risida”gi O‘RQ-654-sonli Qonuni, <https://lex.uz/ru/docs/5174753>

1.11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni, <https://www.lex.uz/docs/3107036>

1.12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni, <https://www.lex.uz/docs/5841063>

1.13. O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-328-sonli Qonuni, <https://www.lex.uz/acts/2006789>

1.14. O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 24-sentabrdagi “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-336-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/2055680>

1.15. O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 22-maydagi “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi O‘RQ-385-sonli Qonuni, <https://www.lex.uz/acts/2650293>

1.16. O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagи “Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risida”gi 678-I-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/24377>

1.17. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 22-oktabrdagi “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi O‘RQ-573-sonli Qonuni, <https://www.lex.uz/docs/4562834>

1.18. O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 11-maydagi “Maxsus yuklar va harbiy tarkiblarning tranziti to‘g‘risida”gi 213-II sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/79981>

1.19. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-iyuldagи “Quroл to‘g‘risida”gi O‘RQ-550-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/4445288>

1.20. O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 31-avgustdagи “Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida”gi 120-II-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/26166>

1.21. O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrdagi “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi 754-XII-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/107115>

1.22. O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustdagи “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi 813-1-sonli Qonuni, <https://lex.uz/acts/86044>

1.23. O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 15-dekabrdagi “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi 167-II-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/29526>

1.24. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419 sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/3088008>

1.25. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-avgustdagи “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-633 sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/4953314>

1.26. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-371-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/2387357>

1.27. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-dekabrdagi “Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlar raqobatdoshligini ta’minlash va eksportini rag‘batlantirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5286-son Farmoni, <https://lex.uz/docs/3460651>

1.28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5414-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/3680568>

1.29. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-oktabrdagi

“Tovar bozorlarida savdoni yanada erkinlashtirish va raqobatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5564-sonli Farmoni <https://lex.uz/docs/4030912>

1.30. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-noyabrdagi “Bojxona ma’muriyatçiliginin takomillashtirish va O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5582-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/4076899>

1.31. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyun “Soliq va bojxona imtiyozlari berilishini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5755-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/4396717>

1.32. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyundagi “Bojxona ma’muriyatçiliginin isloh etish va O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6005-son Farmoni, <https://lex.uz/docs/4844615>

1.33. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-sentabrda “Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va davlat bojxona xizmati organlari tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” gi 6310-son Farmoni, <https://lex.uz/uz/docs/5627593?otherlang>

1.34. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 4609-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/2368307>

1.35. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktyabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4848-sonli Farmoni, <https://www.lex.uz/docs/3039311>

1.36. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 11-apreldagi “Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini yanada qisqartirish va soddalashtirish, shuningdek, biznes yuritish shart-sharoitlarini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5409-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/3676955>

1.37. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/4149765>

1.38. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-avgustdagи “Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6044-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/4966394>

1.39. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagи “2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-5953-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/4751561>

1.40. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagи “Jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3723-son Qarori, <http://lex.uz/docs/3735818>

1.41. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-apreldagi “Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda ma’muriy tartib-taomillarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4297-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/4302716>

1.42. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-oktabrdagi “Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-2646-sonli Qarori, <https://www.lex.uz/docs/3063485>

1.43. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-iyundagi “Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4754-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/4859436>

1.44. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagи “Huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2833-sonli Qarori, <https://www.lex.uz/docs/3141186>

1.45. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 30-yanvardagi “Jismoniy shaxslar tomonidan naqd xorijiy valyutani O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib kirish va olib chiqib ketish qoidalarini tasdiqlash haqida”gi 66-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/3540203>

1.46. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 23-martdagи “O‘zbekiston Respublikasida madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi masalalarini tartibga solish to‘g‘risida”gi 131-son karori, <https://www.lex.uz/docs/279299>

1.47. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida kuchli ta’sir qiluvchi moddalar muomalasini tartibga solish to‘g‘risida”gi 818-son qarori, <https://lex.uz/docs/4532164>

1.48. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 6-maydagи “Portlovchi moddalar va portlatish vositalarini O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish, transportda tashish, saqlash va ulardan foydalanish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 213-sonli Qarori,

<https://lex.uz/docs/299185>

1.49. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 12-noyabrdagi “Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni O‘zbekiston respublikasi hududi orqali olib kirish, undan olib chiqishva tranzit tarzida o‘tkazish tartibini, shuningdek ularning muomalada bo‘lishi yuzasidan nazoratni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 330-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/2815340>

1.50. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 20-yanvardagi “Diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish sohasidagi faoliyatini amalga oshirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 10-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/2322985>

1.51. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-avgustdagи “Berilgan bojxona imtiyozlaridan maqsadli foydalanimishini kameral nazorat qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va Davlat bojxona qo‘mitasining o‘zaro hamkorligi mexanizmi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 617-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/3851085>

1.52. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 29-apreldagi "Vakolatli iqtisodiy operator institutini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 363-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/4315278>

1.53. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagи “Vakolatli iqtisodiy operatorlar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 500-sonli Qarori, <https://lex.uz/pdfs/4966537>

1.54. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-iyundagi "O‘zbekiston Respublikasida «Yashirin iqtisodiyot» ulushini qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 394-sonli Qarori, <https://lex.uz/ru/docs/4864136>

1.55. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 25-fevraldagи “Bojxona auditini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 101-sonli Qarori, <https://www.lex.uz/docs/5313465>

1.56. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-avgustdagи “O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi 472-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/4940273>

1.57. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 2-oktabrdagi “Sanoat va radiatsiya xavfsizligi sohasidagi ayrim faoliyat turlarini litsenziyalashni va ruxsat berish tartib-taomillarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 782-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/3924353>

1.58. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 15-iyuldagagi 200-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulkni olib qo‘yish, sotish yoki yo‘q qilib tashlash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, <https://lex.uz/docs/1498826>

1.59. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 31-maydagи “Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun javobgarlikka oid qonunchilikning sudlar tomonidan qo‘llanilishi to‘g‘risida”gi 8-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/2212245>

1.60. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 17-apreldagi «Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo‘yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to‘g‘risida»gi 11-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/1443984>

1.61. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 6-sentabrdagi “Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 18-sonli Qarori, <https://www.lex.uz/docs/2259789>

1.62. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 28-aprelgi “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 12-sonli qarori, <https://lex.uz/docs/3203265>

1.63. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 27-fevraldagi “Qonunga xilof ravishda qurolga egalik qilish to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi 3-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/1441585>

1.64. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 11-fevraldagi “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 1-sonli Qarori, <https://www.lex.uz/docs/1766419>

1.65. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018-yil 30-noyabrdagi “Sudlar tomonidan ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rishni tartibga soluvchi qonunlarni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 35-sonli qarori, <https://www.lex.uz/docs/4116801>

1.66. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010-yil 29-dekabr kuni 2174-son bilan ro‘yxatga olingan qarorga muvofiq tasdiqlangan “Surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi davomida ashyoviy dalillar, moddiy qimmatliklar va boshqa mol-mulkni olib qo‘yish (qabul qilish), hisobga olish, saqlash, berish, sotish, qaytarish, yo‘q qilib tashlash tartibi to‘g‘risida” Yo‘riqnomasi, <https://lex.uz/docs/1724291>

1.67. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Milliy xavsizlik xizmati, IIV, Davlat bojxona qo‘mitasi, Mudofa vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining “Surishtiruv instituti takomillashtirilishi munosabati bilan bu boradagi faoliyatini

samarali tashkil etish to‘g‘risida” 2017-yil 28-oktabrdagi 01-02/22-45-son qo‘shma ko‘rsatmasi.

1.68. “Hodisa sodir bo‘lgan joy holatini o‘zgartirish, dalillarni yo‘qotish yoki yo‘q qilishning oldini olishga qaratilgan bиринчи navbatdagi chora-tadbirlarni ko‘rish tartibi to‘g‘risidagi Yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi 2018-yil 1-martdagi idoralararo Qaror

1.69. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat bojxona qo‘mitasining “Surishtiruv va dastlabki tergov organlarida tergov faoliyatiga doir hisobotning shakli hamda yuritilishini takomillashtirish haqida” 2017-yil 18-dekabrdagi 01-02/22-49-son buyrug‘i

1.70. O‘zbekiston Respublikasi IIV, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat bojxona qo‘mitasi, Milliy gvardiyasi, Oliy sudi va Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasining 2020-yil 7-dekabrdagi “Qonunga xilof muomilada bo‘lganligi va foydalanish qoidalarini buzganligi uchun olingan pirotexnika buyumlarini topshirish, saqlash va yo‘q qilish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi qo‘shma qarori

1.71. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining 2018-yil 4-apreldagi 455-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlarida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi Yo‘riqnomasi»

1.72. DBQning 2019-yil 14-martagi “Aniqlangan huquqbazarliklarni qayd etish (Shakl-2)” kitobini yuritish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 80-sonli buyrug‘i

1.73. DBQning “O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi va Adliya vazirligi “Jinoyatlarning sodir etilishi sabablarini tizimli tahlil qilish va o‘rganishda idoralararo hamkorlik samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 21-martdagi 5-qk, 4, 21, 3361/2-son qo‘shma qarorini” ta’minlash bo‘yicha 95-sonli buyrug‘i

1.74. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining 2019-yil 31-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi huquqbazarliklar bo‘yicha ish yuritish tartibi to‘g‘risida”gi Uslubiy qo‘llanmani amaliyotga joriy etish haqidagi 329-sonli buyrug‘i

1.75. DBQning 2009-yil 13-iyundagi “Bojxona qonunbazarlik holatlari hisobini yuritish” avtomatlashtirilgan axborot tizimini amaliyotga kiritish to‘g‘risidagi 155-sonli buyrug‘i

1.76. DBQning 2010-yil 30-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi DBQ tizimida davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulkni olib qo‘yish, saqlash, sotish

va yo‘q qilib tashlash haqidagi vaqtinchalik uslubiy qo‘llanmani joriy etish to‘g‘risida”gi 128xfu-sonli buyrug‘i

1.77. DBQning 2015-yil 3-martdagи “Bojxona organlari tomonidan aniqlangan huquqbazarlik holatlari bo‘yicha tuziladigan protsessual hujjatlar shakllarini tasdiqlash namunalari to‘g‘risidagi” 45-son buyrug‘i

1.78. Shavkat Miramonovich Mirziyoevning 2020-yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi, <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>

1.79. Mirziyoev Sh.M. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”. - Toshkent: «O‘zbekiston»-116 bet

1.80. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir // Sh.Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasi. –Xalq so‘zi. 2017. dek.

II. Monografiya, darslik, o‘quv qo‘llanma, dissertatsiya, ilmiy maqola va to‘plamlar:

2.1. Achilov A.T. va boshqalar. Bojxona organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyati //Darslik.1-qism. -T.:2021. - 83, 133 b.

2.2. Achilov A.T. Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liq bojxona qonunchiligi buzilishi jinoyatlarini jinoiy-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish // Monografiya - Toshkent: BI, 2020-y.

2.3. Achilov A.T., Astanov I., Do‘stov M. “Bojxona organlarida kriminalistika”. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: Bojxona instituti, 2020-y.

2.4. Achilov A.T., Ismoilov I.H., “Bojxona qonun hujjatlarni buzganlik jinoyati bo‘yicha qo‘llaniladigan jinoiy jazo choralarining o‘ziga xos xususiyatlari”. O‘quv uslubiy qo‘llanma. Toshkent: OHBI, 2018

2.5. Achilov A.T., Sheralev B.Yu., “Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlarni oldini olish, fosh etish va ular bo‘yicha bojxona tekshiruvlarini o‘tkazish uslubiyati”. O‘quv-uslubiy qo‘llanma Toshkent: 2015

2.6. Achilov A.T., Ismoilov I.H., “Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik masalalari”. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent: OHBI, 2017

2.7. Achilov A.T. “Kontrabanda va bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyatlari bo‘yicha ekspertiza tayinlash uslubiyati”. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. - Toshkent: OHBI, 2017-y.

2.8. Axlimirzaev A., Shomirzaev S. Bojxona organlarida jinoyatlar yuzasidan surishtiruv o‘tkazish tartibi // Uslubiy qo‘llanma. – T.: BI, 2020-y.

2.9. “Kontrabanda holatlari yuzasidan tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv harakatlarini o’tkazish va protsessual rasmiylashtirish” O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, 2015

2.10. Nurmatov M., Eshnazarov L. “Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyatlari yuzasidan tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv harakatlarini o’tkazish hamda protsessual hujjatlar rasmiylashtirish”. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent-2015

2.11. “Bojxona organlarida o‘z vakolatlari doirasida (TIF sohasida) ko‘rib chiqiladigan ma’muriy huquqbuzarliklarga oid ishlar bo‘yicha rasmiylashtiriladigan protsessual hujjatlar namunalari”. Uslubiy qo‘llanma-maket. Toshkent-2015

2.12. Alimbaev S.A., Turopov R.A., Imomaliev I.N., Abduqaimov R.A. “Kontrabanda jinoyati to‘g‘risidagi ishlarni yuritish uslubiyati”. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent-2005

2.13. Imomaliev I.N. “Bojxona sohasiga doir jinoyatlar bo‘yicha surishtiruv o‘tkazishning xususiyatlari”. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T: 2006

2.14. Shomirzaev S. Kontrafakt mahsulotlarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashning ahamiyati // Uslubiy qo‘llanma. - T: BI, 2020

2.15. Bojxona ishi asoslari. / S.Abduxalilov rahbarligidagi mualliflar hay’ati // O‘quv qo‘llanma. 1 va 2-qismlar - Toshkent: Yangi asr avlod, 2017-y.

2.16. Pardaev T., Sharipova D., Makkamov Z. “Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish”. Uslubiy qo‘llanma. T. 2017

2.17. Odilqoriev X.T., Tulteev I.T. va boshqalar. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. –T. Sharq, 2009 y. - 475-477 b.

2.18. E.T.Xojiev, G‘.T.Xakimov. Ma’muriy huquq. O‘quv qo‘llanma. / Mas’ul muharrir: yu.f.d., prof. M.H.Rustamboev. – T.: TDYuI nashriyoti, 2011

2.19. U.X.Muxamedov, I.A.Xamedov, N.T.Ismoilov va boshqalar. Ma’muriy huquq darsligi - T.; IIV Akademiyasi. 2017

2.20. Rustamboev M.H., Axrarov B.D. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish muammolari. O‘quv qo‘llanma. -T.: TDYuI nashriyoti, 2007

2.21. Rustamboev M.X.O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharh.– Toshkent: Adolat, 2016

2.22. Rustamboev M.X., O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi. Maxsus qism. 4-tom: Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar. Ekologiya sohasidagi jinoyatlar. Hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar. Darslik. -T.: «ILM ZIYO», 2011

2.23. Kabulov R., Otajonov A. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar: O‘quv qo‘llanma/. – Toshkent-2013

2.24. Kabulov R., Otajonov A. va boshq. Jinoyat huquqi. Maxsus qism:

Darslik/ IIV Akademiyasi. – Toshkent-2014

- 2.25. Inog‘omjonova Z.F., To‘laganova G.Z. Jinoyat protsessi muammolari//O‘quv qo‘llanma.-T.,-2006. - 160 b.
- 2.26. Mirenskiy B.A, Rahmonqulov A.X., Kadirova V.V. va boshqalar. O‘zbekiston Respublikasining jinoyat protsessi. Darslik. -T, 2012. - 323-324 b.
- 2.27. Mirazov D.M. “Tergovga qadar tekshiruv o‘tkazish asoslari, tartibi va xususiyatlari” / O‘quv qo‘llanma. Toshkent: 2016-y.
- 2.28. Хидоятов Б. Б. Дознание в Республике Узбекистан. - Т.: ТГЮИ. 2005.-105 с.
- 2.29. Fayziev Sh. F. Jinoyat protsessida surishtiruv. – Т.: TDYuI nashriyoti, 2006. - 310 b.
- 2.30. Строгович М.С. Курс советского уголовного процесса. М.: Наука, 1968. - 468 с.
- 2.31. Н.А.Громов, В А.Пономаренков, Ю.В.Францифоров "Уголовный процесс России". Учебник. -М.: Юрайт, 2001. - 560 с.
- 2.32. Головко Л.В., Гусенко К.Ф. (ред.), Филимонов Б.А. Уголовный процесс западных государств. Учебное пособие для юридических вузов. - 2-е изд., доп. и испр. - М.: Зеркало-М, 2002. - 528 с.
- 2.33. Abdurasulova K.P. Kriminologiya. Mas’ul muxarrir: M.X.Rustambaev / O‘z.Respublikasi Adliya vazirligi. - Т.: «Adolat», 2007
- 2.34. Kriminologiya: Darslik / 3.S.Zaripov, A.S.Yakubov, G.A.Avanesov va boshk;; prof. Z.S.Zaripov taxriri ostida. - Т.: IIV Akademiyasi, 2006
- 2.35. Криминология//Под.ред. В.Н.Бурлакова, В.П.Салникова. -СПб. 1998
- 2.36. Жбанков В.А, Савлук А.О. Правоохранительная деятельность таможенных органов Российской Федерации. Курс лекций. М.: РИО РТА, 2004
- 2.37. Иванова С.Ю. Уголовно-правовая охрана деятельности таможенных органов России. Ульяновск, 1999
- 2.38. Ларичев В.Д., Гилмутдинова Н.С. Таможенные преступления: Уклонение от уплаты таможенных платежей. М., 2001
- 2.39. Малиновская В.М. Таможенное право России: учебник по публичному и частному праву: в 2 т. Москва, 2008. Т. 1: Публичное право.
- 2.40. Моделный Уголовный кодекс для государств-участников СНГ // Правоведение 1996. №1
- 2.41. Пинкевич Т.В., Черных Е.Е. Особенности квалификации преступлений в сфере экономической деятельности. Ниж.Новгород, 2014. 5 с.
- 2.42. Русанов Г.А. Преступления в сфере экономической деятельности: учебное пособие. Москва, 2011. 76 с.

- 2.43. Словарь иностранных слов. –М.:Политиздат, 1990
- 2.44. Сучков Ю.И. Преступления в сфере внешнеэкономической деятельности Российской Федерации. Москва, 2007
- 2.45. Международное уголовное право. Под общей редакцией А.В.Бриллиантива.-Москва.Юрайт. 2017
- 2.46. Уголовное право зарубежных стран. Л. С. Аистова, Д. Ю. Краев. - Санкт-Петербург. Санкт Петербургский юридический институт (филиал) Академии Генеральной прокуратуры Российской Федерации, 2013
- 2.47. Уголовный кодекс Японии / науч. ред. и предисл. д-ра юрид. наук, проф. А.И. Коробеева. Санкт-Петербург, 2002
- 2.48. Чучаев А.И. Таможенные преступления в новом УК РФ / Чучаев А.И., Иванова С.Ю. // Государство и право. 2009. №11
- 2.49. Yuridik ensiklopediya / Yuridik fanlar doktori, professor U.Tadjixanovning umumiy tahririda. – Т., 2001. –156-157 b.
- 2.50. O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi. Nashr uchun mas’ul: R.A.Muhitdinov va boshq. / Mas’ul muharrir: N.Toychiev – Т.: Adolat, 2009
- 2.51. Dmitrienko I.V. Foreign economic activity as the object of criminal law protection //Russian investigator. 2008. №8
- 2.52. Franzoni Luigi Alberto - Tax Evasion and Tax Compliance, University of Bologna (6020), Italy, 1999
- 2.53. FATF (2012-2018), International Standards on Combating Money Laundering and the Financing of Terrorism&Proliferation, FATF, Paris, France,www.fatf-gafi.org/recommendations.html.
- 2.54. Jackson Miles. Complicity in international law / Oxford University Press, 2015
- 2.55. James Alm. Measuring, Explaining, and Controlling Tax Evasion: Lessons from Theory, Experiments, and Field Studies // Working Paper 1213. July 2012
- 2.56. Jonathan Herring. Criminal law: text, cases, and materials / Oxford, United Kingdom; New York: Oxford University Press, [2014] – P.936
- 2.57. Lisa Marriott “Tax crime and punishment in new Zealand” // Paper prepared for the Australasian Tax Teachers’ Association Conference, Sydney, 16–18 January 2012
- 2.58. Markus D. Dubber and Tatjana Hsrnle. The Oxford handbook of criminal law / Oxford, United Kingdom; – New York, Oxford University Press, 2014. – P.120.
- 2.59. Michael G. Allingham &AgnarSandmo, Income Tax Evasion: A Theoretical Analysis. 1 Journal of Public Economics. 323(1972).
- 2.60. Perrin B. Migrant Smuggling: Canada’s Response to a Global Criminal

Enterprise // International Journal of Social Science Studies. 2013. № 1(2).

- 2.61. Abduqodirov Sh.Yo. Qonunga xilof tadbirkorlikka qarshi kurashning jinoyat-huquqiy va kriminologik muammolari. Yurid. nomz. ... diss. - Toshkent: TDYuI, 2007. - 124 b.
- 2.62. Гилмутдинова Н.С. Уголовная ответственность за уклонение от уплаты таможенных платежей. Дис. Кандид. Юрид. Наук. – М., 2005. - 359 с.
- 2.63. Гордиенков А.Д., Козыкин А.Ф. Теория и практика доказывания по делам об уклонении от уплаты таможенных платежей (в стадии предварительного расследования). Монография. – М.: РИО РТА, 2003. -462с.
- 2.64. Диканова Т.А. Актуальные проблемы борьбы с таможенными преступлениями: Дис. Кандид. Юрид. Наук. – М. 2000. - 231 с.
- 2.65. Краснов А.Д. Противодействие таможенным преступлениям (теоретико-прикладной анализ): дис. ... канд. юрид. наук. Нижний Новгород, 2011. 26, 64 с.
- 2.66. Mahkamov O.M. Soliq yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tov lashning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari: Yurid. nomz. ... diss. – Toshkent. 2015-y.
- 2.67. Никифорова А.А. Уголовно-правовой механизм противодействия преступлениям в сфере внешнеэкономической деятельности: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Нижний Новгород, 2017 г.
- 2.68. Otajonov A. Ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlikni takomillashtirish: Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent. 2016 y. - 95 b.
- 2.69. Постнова Д.А. Развитие теоретико-правовых и организационных основ международного сотрудничества таможенных органов Российской Федерации при выявлении и расследовании таможенных преступлений: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. Москва, 2006. 14 с.
- 2.70. Рустамбаев А.М. Совершенствование уголовного законодательства и правоприменительной практики по борьбе с групповыми формами преступности: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Тошкент, 2010. – 120 с.
- 2.71. Сирма С.А. Борьба с организованной преступной деятельностью в сфере таможенного контроля (уголовно-правовой и криминологические аспекты): Дисс. ...канд.юрид.наук.-М.,1999. - 7, 124-125 с.
- 2.72. Султанова Б.А.Уголовно-правовая и криминологическая характеристика преступлений в таможенной сфере: дис.... канд. юрид. наук. Москва, 2000. 44, 45 с.
- 2.73. Сучков Ю.И. Защита внешнеэкономической деятельности Российской Федерации по уголовному законодательству (проблемные

асpekty teorii i zakonodatel'stva). Diss. dokt. jurid. nauk.–SPb, 2008. –39 c.

III. Internet saytlari

- 3.1. <http://www.lex.uz>
- 3.2. <http://www.sustoms.uz>
- 3.3. <https://www.iras.gov.sg>
- 3.4. <https://www.minjust.uz/uz/press-center/news/98424/>
- 3.5. <http://www.keden.kz/ru/zakon.php?id=14776> Postanovlenie Plenuma Verxovnogo Suda R.Kazaxstan ot 18.07.1997 g. № 10.
- 3.6. <http://base.garant.ru/2540294/>
- 3.7. <https://www.legislationonline.org/ru/documents/section/criminal-codes>
- 3.8. http://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30420353 UK Azerbaydjana
- 3.9. <http://www.parliament.am/legislation.php?sel=show&ID=1349&lang=rus#22> Ugolovniy kodeks Respubliki Armeniya.
- 3.10. <http://pravo.kulichki.com/vip/uk/> UK Respubliki Belarus.
- 3.11. <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ruru/568> UK Kirgizstana
- 3.12. <http://lex.justice.md/ru/331268/> UK Respubliki Moldova.
- 3.13. <http://mmk.tj/ru/legislation/legislationbase/codecs/> UK Tadjikistana
- 3.14. http://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31295286 UK Respubliki Turkmenistan
- 3.15. <http://pravo.gov.ru/proxy/ips/?docbody&nd=102041891> UK RF.
- 3.16. <http://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000226> UK Respubliki Kazaxstan.
- 3.17. http://search.ligazakon.ua/l_doc2.nsf/link1/T012341.html#253 UK Ukraini
- 3.18. www.revenue.ie. Irlandiya Soliq va bojxona daromadlari idorasi
- 3.19. <http://laws.justice.gc.ca/eng/acts/i-2.5/> Kanada hukumatining rasmiy sayti /Zakon o zaщite bejensev i immigratsii.
- 3.20. <https://www.gov.uk/government/publications/excise-notice-300-customs-civil-investigation-of-suspected-evasion>
- 3.21. <http://laws-lois.justice.gc.ca/PDF/C-52.6.pdf> Tamojenniy akt Kanadi
- 3.22. <http://ukknr.ucoz.ru/> Ugolovniy kodeks KNR.
- 3.23. <http://www.gesetze-im-internet.de/stgb/> Ugolovniy kodeks Germanii.
- 3.24. http://www.gesetze-im-internet.de/ao_1977/index.html Nalogoviy kodeks Germanii.
- 3.25. http://likumi.lv/doc.php?id=88966&version_date UK Latvii.
- 3.26. <https://www.riigiteataja.ee/akt/12792390> Penitensiarniy kodeks Estonii.
- 3.27. <http://www.zakonyprolidi.cz/cs/2009-40> Ugolovniy kodeks Chexii.
- 3.28. https://yurist-online.org/laws/foreign/criminalcode_fr/_doc-5-.pdf UK Fransii.

A.T.Achilov

BOJXONA SOHASIDAGI HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI KURASH NAZARIYASI VA AMALIYOTI

O'QUV QO'LLANMA

Bojxona institutining bosmaxonasida chop etildi.
Manzil:Toshkent sh. Qozirobod 2-tor ko'chasi, 118-uy.